

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

O. R. NAZAROV

**MUSULMON RENESSANSI
DAVRIDA O'RTA OSIYODA
FAN VA MADANIYAT RIVOJI
TARIXI
(DARSLIK)**

**"LESSON PRESS" nashriyoti
Toshkent – 2023**

UO'K: 930.85(075)

KBK: 63.3ya72

Nazarov O.R. Musulmon renessansi davrida O'rta Osiyoda fan va madaniyat rivoji tarixi – Toshkent: "LESSON PRESS", 2023. 219 bet.

Oliy o'quv yurtlari tarix fakultetlari uch yil mo'ljallagan ushbu (Musulmon renessansi davrida O'rta Osiyoda fan va madaniyat rivoji tarixi) darsligi musulmon renessansi davrida sharq allomalari va qomusiy olimlarning jahon sivilizatsiyasi tarixi rivojiga qo'shgan benazir hissalari ayniqsa, ilm-fan madaniyatni rivojlantirish, komil insonni tarbiyalash borasidagi falsafiy qarashlari izlanishlari va tadqiqot tajribalari bugungi kunda nafaqat sharq balki umumjahon sivilizatsiyasining biri bo'lganligini xalqaro miqyosda tan olinishiga oid ma'lumotlar tahlili berilgan. Va nihoyat darslikda mutafakkirlarimizning ibratli hayot yo'llari va boy ilmiy-ma'naviy meroslarini har tomonlama chuqur o'rganib keng xalq ommasiga yetkazish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligiga oid fikr va mulohazalar o'rin olganligi bilan ahamiyatlidir. Xullas, biz uchinchi Uyg'onish davri ostonasida turibmiz. Agar O'zbekiston Prezidentining keyingi to'rt yilda ma'rifat, ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish yo'lida imzolagan qonun, farmon va qarorlari, tasdiqlagan Davlat dasturlari, ilgari surgan yangidan-yangi tashabbuslarining mag'zini to'la chaqib ko'rsak, navbatdagi Ma'rifat Renessansining markazi O'zbekiston ekaniga hech kimda shubha qolmaydi.

Ushbu darslik bakalavr 60220300-Tarix (Mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) talabalariga mo'ljallangan, xamda undan magistrlar yosh tadqiqotchilar, tarixchi olimlar ham keng foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrirlar: R.H.Murtazaeva – tarix fanlari doktori,
professor.

X.E.Yunusova – tarix fanlari doktori,
professor

Taqrizchilar: M. R. Is'hoqov – tarix fanlari doktori, professor.

N. Saidqulov – siyosiy fanlar falsafa doktori (PhD)

ISBN 978-9943-9467-5-0

Darslik Guliston Davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashining 2023-yil "29"- martdagи 8-sonli bayonnomasi hamda universitet rektorining 2023-yil "30"- martdagи 39-sonli buyrug'iiga asosan tavsiya etilgan.

**© O. R. NAZAROV
© "LESSON PRESS" nashriyoti**

KIRISH

Jahon fani va madaniyatining yaratishida barcha xalqlarning hissalari kabi O‘rta Osiyo xalqlri ham bashar at sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo‘shtan. O‘rta asrlarda ushbu hududdan ko‘plab allomalarning yetishib chiqqanligi hamda bir necha maktab, markaz va akademiyalarning faoliyat yuritgani mamlakatimizning bashariyat fani rivojidagi faol ishtirokidan dalolat beradi. Chunonchi, Qadimgi Xorazm insoniyatning qadimiy sivilizatsiya o‘choqlari tizimida faxrli o‘rinni egallaydi. Bu haqiqatni ilk va noyob yozma yodgorligimiz “Avesto”, mil. avv va milodiy dastlabki asrlarga oid yunon va rim manbalari, shuningdek Xitoy yilnomalari o‘rta asr arab, fors va turkiy tillardagi manbalar, qolaversa vohada amalga oshirilgan ulkan arxeologik tadqiqotlar natijalari isbotlab turibdi. Qadimiy ildizlarga ega tafakkur zaminida IX-XI asrlarga kelib, Xorazmlik olimlar boshqa qomusiy olimlarimiz kabi jahon fanining darg‘alariga aylandilar. X asr oxiri – XI asr boshi Ma’muniylar davrida esa qisqagina siyosiy barqarorlik tufayli asriy-salohiyatning yangi va baland to‘lqini yuzaga keldi. Bu tarix Xorazmda 995-yili taxtga kelgan Abul Xasan Ali Ibn Ma’mun va uning vorisi Abul Abbas Ma’mun Ibn Ma’mun hukmronligi yillarida voqe’ bo‘lgan edi. Ma’muniylar Xorazmnинг an’analarini tashkiliy jihatdan davom ettirib, saroy qoshiga o‘z davrining eng yirik alloma va qomusiy olimlarni to‘plashga muvaffaq bo‘ldilar. Jumladan, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Ibn Iroq, Sahl Masixiy, Abul Xayr Hammor, Xasan ibn Bahrom, Xoris Xorazmiy Hububiy, Fazl Sahriy, Muhammad Husayn Saxliy, Abdulloh ibn Xomid va boshqalar Gurganchda “Majlisi Ulamo” –Xorazm Ma’mun Akademiyasining faol a’zolari edilar. Xorazm Ma’mun akademiyasining olimlari ulkan meros qoldirdilar. Fanning qomusiy ma’noda barcha sohalariga taaluqli bu-ma’naviy boyligimiz asrlarlar o’sha jahon ilmi ravnaqiga xizmat qilib kelmoqda. XI-asrda asos solingan Xorazm Ma’mun akademiyasi faoliyati juda qisqa davrning 1004-1017-yillororasida shakllanib, tez sur’atlar bilan rivojlangan “Bayt-ul Hikma”, “Majlisi ulamo” sharqona akademiya shaklida misli ko‘rilmagan salohiyatni ishga soldi. Bu hodisa ajdodlarimiz dunyoqarash an’analarining kuchli ildizlaridan dalolat beradi. Asrlar osha to‘plangan tajribalar “Bayt-ul Hikma” si an’analari tarix taqozosi bilan Xorazm tuprog‘ida yanada yuksak pog‘onaga ko‘tarildi. Bu o‘rinda biz

uchun muhim shuki, Xorazm Ma'mun akademiyasining paydo bo'lishida hal qiluvchi omil – Xorazm vohasidagi sivilizatsion jarayonlarning qadimiy asoslari haqida tasavvur berishdir. Avvalo, bu masala yuzasida fikr yuritganda sivilizatsiya va uning Xorazm mintaqasiga tadbiqan mohiyatini aniqlashtirmoq lozim. Sivilizatsiya tushinchasida esa ikki xil izoh mavjud. Birinchisi, sivilizatsiyani muayyan madaniy jarayon sifatida tushinishdir. Ikkinchisi, esa ma'lum hududda va muayyan xronologik chegaralarda tarixiy - madaniy taraqqiyot bosqichlarining mujassam bo'lgan madaniyat yuksalishi darajasining eng yuqori nuqtalari majmuyidir. Ayni shu ma'noda Xorazm Ma'mun akademiyasining vujudga kelishida sabab bo'lgan omillarning tarixiy ildizlari olis o'tmishga borib taqaladi. Xorazmining qadimiy aholisi iqtisodiy xo'jalik faoliyati nuqtayi nazaridan sug'orma dehqonchilik sohiblari hisoblangan. Yuqorida aytganimizdek, Xorazm vohasi Amudaryoning bevosita xosilasi edi. Buni Abu Rayhon Beruniy ham alohida ta'kidlab, Misr Nil daryosining mahsuli bo'lganligi singari Xorazm ham Amudaryoning mahsuli deb atagan edi. Shu bois bundan rosa ming yil avval jahon ilmi fani va tafakkuri taraqqiyotida yorqin iz qoldirgan Xorazm Ma'mun akademiyasi "Bayt-ul Hikma" yoki "Majlisi Ulamo" nomlari ostida ish ko'rgan ushbu dargohning paydo bo'lishi tasodifiy hol emasligi asrlar osha fan olamiga ma'lum-u mashhur bo'ldi. Shu tariqa, Xorazm Ma'mun akademiyasi jahon tafakkuri, madaniy va ma'naviy taraqqiyotining benazir hodisasi sifatida tarixda chuqur ildiz qoldirgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yilliginni nishonlash haqida" 2004 yil 9-noyabrdagi Qarorining qabul qilinishi ilgari faqat tor doiradagi mutaxassislargagina ma'lum bo'lgan Xorazm Ma'mun akademiyasini batafsil o'rganish, bu boradagi yangi tadqiqotlarni yaratish hamda boy va ma'naviy merosimizni xalqimiz va xalqaro hamjamiyatga tanishtirishga muhim omil bo'ldi. Bugungi kunda Xorazm Ma'mun akademiyasi merosi asrlar osha o'z qadr qimmatini yo'qotmay kelmoqda. Aksincha, bu dargohda erishilgan yutuqlardan hozirga qadar fanning turli sohalarida faol foydalanilmoqda. Xullas, bashariyat tarixida muhim o'rinn tutgan Xorazm Ma'mun akademiyasining va uning izdoshlari sifatida yurtimizda fanning turli sohalarida ilm ahli ijod na'munalarini davom ettirmoqdalar.

Xususan, Prezidentimizning Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim. Ushbu maqsad yo‘lida yoshlarimiz o‘z oldiga katta marralarni qo‘yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko‘mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi” degan falsafiy fikrlarni anglagan holda, mazkur monografiyamizda o‘rta asrlarda bu ikki ilm maskanida ijod qilib, jahon ilmi tarixida chuqur iz qoldirgan qomusiy olimlarimizning benazir merosini o‘rganishni va tahlil qilishni maqsad qilib qo‘yanmiz. Mazkur ishimizda, Qadimgi Xorazm insoniyatning qadimgi sivilizatsiyasi o‘choqlaridan biri ekanligini va uning boy madaniy merosini hamda an’analarni yana bir bor tahlil etishga turtki bo‘lgan omillardan biri muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev, 2020-yilning 23-sentabrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida O‘zbekiston bilan YUNESKO o‘rtasidagi hamkorlikni ayniqsa ilm-fan madaniyat sohasida keng qamrovli ikki tomonlama hamkorlikni qo‘llab-quvvatlashga oid quyidagi fikrlarni bayon qildi. “Ma’lumki, mintaqamizning ko‘hna va boy madaniy merosi global ahamiyatga ega. Biz 2021-yilda YUNESKO bilan hamkorlikda qadimiylaridan Xiva shahrida “Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahasida” degan mavzuda xalqaro forumni o‘tkazishga tayyormiz” degan takliflari so‘zimizning yorqin isboti desak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

III. ASOSIY QISM

1-mavzu: Mustaqil O‘zbekistonda qomusiy allomalarimiz merosini qayta o‘rganish va targ‘ib qilish.

Reja:

1.1 Sharq allomlari va mutafakkirlarning ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganish xususida

1.2 Uchinchi Renessansning shakllanishida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy,

g‘oyaviy omillar

1.3. Uchinchi renessans va uning mazmun mohiyati

1.4. Uchinchi Renessans milliy g‘oyaga aylanishi zarur

Tayanch iboralar: “Yangi O‘zbekiston”, Uchinchi renessans, Navro‘z, Ma’rifiy, Birinchi renessans, An-new yangiliklari, Kitob at-tavhid, Qayta tirilish, Buyuk ipak yo‘li, Inson yangi renessans ijodkori, O‘zbekistonning yangi renessansning poydevori, Daholik nima?

1.1. Sharq allomalari va mutafakkirlarning ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganish xususida

Jahon fanida Uyg‘onish – Renessans davri to‘g‘risida so‘z borganda aksariyat G‘arb olimlari bu hodisaning faqat yevropaga, hammadan oldin Italiyaga xosligini ta’kidlab keldilar. Keyinroq esa N.Konrad, A.Mets, M.Xayrullayev va boshqalar o‘z asarlarida Uyg‘onish davri faqat Italiyagagina emas, balki SHarq mamlakatlariga, xususan, Eron Markaziy Osiyo va boshqa musulmon mamlakatlari, Shimoliy-G‘arbiy Hindiston tarixiga ham xos ekanligini isbotlab, ularning ayricha o‘rnini ko‘rsatib berdilar. Ammo yuqorida nomlari qayd etilgan ilmiy ishlarida Sharq Renessansi, xususan, Markaziy Osiyoning sabablari, mohiyati, maksadlari, yevropa Renessansidan farqli maxsus yoritilmagan edi.

O‘zbekistonda akademik M.Xayrullayev Markaziy Osiyo uyg‘onish davrini mahsus tadqiq etib, Uyg‘onish davri be’vosita Markaziy Osiyo xalqlarining mustaqillikka erishuvi bilan chambarchas bog‘liq ekanligini takidlagan. Darhaqiqat, Markaziy Osiyoda Uyg‘onish davri IX asrning arablar bosqinidan xalos bo‘lib, mustaqillikka erishilgandan so‘ng boshlandi va ikkita bosqichdan iborat bo‘lgan.

Birinchi bosqich IX-XII asrlarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda Markaziy Osiyoda shaharlar rivojlandi, yuksaldi, ilm-fan ravnaq topdi, gumanistik g‘oyalar yuqori cho‘qqiga ko‘tarildi. Muhammad Xorazmiy, Ahmad

Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Rudakiy, Imom Buxoriy, Iso Termiziy, Zamaxshariy kabi jahonga mashhur allomalar Uyg‘onish davrining birinchi sarvarlari edilar. Akademik M.Xayrullayevning fikricha ilk Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlarining buyuk xizmatlarini quyidagicha tavsiflash mumkin: Birinchidan, ular ilm-fanning turli sohalari bo‘yicha buyuk kashfiyotlar yaratdi. Ikkinchidan, ular yaratgan ilmiy ta’limotlar butun insoniyat istiqboli uchun xizmat qilmokda. Uchinchidan, ular insoniyatga xizmat qilishni hayotlarining asosiy mazmun-mohiyatiga aylantirgan zotlar bo‘lishgan. Xususan, bundan ming yil ilgari Xorazm zaminida “Dorul-hikma” deb atalgan Xorazm Ma’mun akademiyasining paydo bo‘lishi Sharq musulmon Renessansi Uyg‘onish davrining yorqin namoyoni sifatida tariximizning zarxal saxifalarini tashkil etadi. Xorazm Ma’mun akademiyasida Sharq va G‘arbdagi ko‘plab o‘lkalardan kelgan, turli millat va dinga mansub bo‘lgan olimlar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa-da, uning negizini Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Xo‘jandiy, Axmad ibn Muhammad Xorazmiy kabi allomalar tashkil etgan.

Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Firdavsiy, Rudakiy, Buxoriy, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg‘ariy, Zamaxshariy kabilar shu davr madaniy yuksalishining qoyalari, cho‘qqilaridir.

Bu davr madaniyati o‘zining kuchli gumanistik ruhi, insonparvarlik nafasi, odamlarni o‘zaro do‘stlikka chaqirishi, aqlni e’zozlashi bilan umuminsoniy qadriyatlar yuksakligiga ko‘tarila oldi.

Demak, shonli tariximizdagi har ikkala Uyg‘onish davrida ham eng muhim jihat – davlatning, davlat rahbarining yuksak e’tibori bo‘lib kelgan. Ma’mun akademiyasining barpo etilishida xorazmshoh Ma’muniylar sulolasining, Ikkinchi Uyg‘onish davrining yuzaga kelishida esa buyuk bobomiz Amir Temurning va temuriy avlodlarning hissasi beqiyosdir. Har ikki sulola hukmdorlari o‘z davrining yorqin iste’dodlarini, olimlarini davlat qanoti ostiga to‘plagan va g‘amxo‘rlik qilib kelgan va ularga kerakli shart-sharoitlarni yaratib bergani uchun tarixan qisqa davr ichida ona yurtimiz dunyo ilm-faniga poydevor bo‘lgulik buyuk kashfiyotlarni yaratdilar. Prezidentimiz tilga olgan Uchinchi Renessans g‘oyasi ham davlatning, ham yoshlarning, ham ota-onalar va ustozlarning orzu istaklarini birlashtiradi. Muhimi, tarix qaytarig‘i ajdodlar tajribasi sifatida, bu davlat rahbarining irodasi va tashabbusi – uning ilm-fanga bo‘lgan ishonchi va zavqi o‘laroq “uning hayotiy armonlari” bo‘lib qat’iy da’vat sifatida yangradi. Har qanday

ota-onal o‘z farzandining iste’dodi barq urishini, el-yurtga xizmat qiladigan yetuk inson bo‘lib ulg‘ayishini xohlaydi. Ayni shu yerda davlat-yoshlar va ota-onalar istaklarining jisplashganini ko‘ramiz. Bu - tarix, bugun va keljakni birlashtiruvchi hayotbaxsh g‘oya bo‘lgani uchun ham davlat rahbari Uchinchi Renessans masalasini milliy g‘oya sifatida ko‘tardilar. Barcha sharq va g‘arb olimlarining e’tirof qilishlaricha, Yevropada XVI-XVII asrlar orasida yuzaga kelgan Birinchi Renessans yurtimizda undan bir necha yuz yil avval, ya’ni IX-XI asrlarda ro‘y bergen. Ushbu ulkan yuksalishning sodir bo‘lishining o‘z tarixiy sabablari bor, albatta. Chunki, mazkur davrda davlat taraqqiyoti uchun juda muhim bo‘lgan yangi islohotlar va qonunlar joriy qilindi, yer-suv, qo‘snnichilik munosabatlardan soliqlargacha tub yangilanishlar sodir bo‘ldi.

Davlatning ish yuritishdagi va siyosatdagi yangiliklar ilm-fan kishilarini ezgu g‘oyalar tevaragida birlashtirdi, turli-tuman fanlarga, ayniqsa matematika, astronomiya, kimyo, tibbiyat, huquq, geodeziyaga qiziqish kuchaydi va dunyo tuzilishi haqidagi zamonaviy nazariyalarga aynan o‘sha davrda asos solindi. Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg‘oniy Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamashshariy, imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Moturudiy, Abul Muin Nasafiy kabi buyuk ajdodlarimiz serqirra iste’dod sohiblari bo‘lishlari bilan bir qatorda, o‘z fanlari bo‘yicha butun olamga ustozlik maqomiga erishdilar. Mazkur davr dunyo taraqqiyotining yuksalish tamoyillarini belgilab berdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Buning yorqin isboti – Xorazmda barpo etilgan Ma’mun akademiyasidir. Daho mutafakkirlarni o‘z bag‘riga to‘plagan bu oliy dargoh nafaqat o‘z mintaqasi, balki butun dunyo uchun akselerator vazifasini o‘tagani haqiqat. Sferik trigonometriya, o‘nli raqamlarning tizimli qo’llanishi, trigonometriyada “funktsiya” tushunchasining paydo bo‘lishi, jo‘g‘rofiy koordinatlarining aniq ifodalaniishi, Yer sayyorasining sferik globusi, qattiq va suyuq moddalarning solishtirma og‘irligi, minerallar tasnifi, quruqlik tarkibiy jismlarining harakati va qatlamlar hosil bo‘lishi, dengiz va materiklarning joylashuvi, tibbiy va farmatsevtik bilimlarning bir tizimga solinishi, tashxislash va davolashning yangi usullari, ma’danlar transmutatsiyasi imkonlarining tahlili – bular yurtimizda IX-XI asrlarda yashab ijod qilgan buyuk ajdodlarimizning tabiiy va aniq fanlarda amalgaloshirgan innovatsion g‘oyalarining ba’zilari, xolos.

O‘rni kelganida shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, ilm-fan osmonida yulduzday yaraqlab turgan bu allomalar atrofida va ulardan keyin yana yuzlab safdoshlari, shogirdlari, davomchilari yurtimiz ilm-fani mevalarini jahonning ilg‘or ommasiga yetkazib berishda katta xizmatlar ko‘rsatishdi va mamlakat shon-shuhratini, tafakkur qudratini uzoq o‘lkalarga qadar yoyishdi. Ikkinci Renessans nafaqat mintaqamizda, balki juda katta jo‘g‘rofiy hududlarda siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalgalashga ulug‘ bobomiz, sohibqiron Amir Temur nomi bilan chambarchas bog‘liq. U zot tufayli qudratli markaziy boshqaruvga asoslangan davlat va yangi madaniy-ilmiy yuksalish uchun qulay vaziyat yuzaga keldi. Amir Temur o‘z bepoyon sultanatining katta shaharlariga turli hududlardagi iste’dodli olimlar, shoirlar, hunarmandlar, me’morlarni jamladi va ilmi-fan taraqqiyoti uchun kerakli barcha shart-sharoitlarni yaratib berdi. Bunday oqilona siyosat mamlakatning ilmiy va madaniy qudratini kuchaytirdi. Ikkinci renessans davri “Islom madaniyatining oltin asri” deb atalishi bilan birga, fazo ilmi va matematika fanlarining rivojlanishi bilan yurtimizda ikkinchi Uyg‘onish, ya’ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abul Mu’in Nasafiy kabi ulug‘ ulamolar, Qozizoda Rumi, Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxon, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko‘plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me’morlarning shuhrati dunyoga yoyildi. Birinchi Renessans davrida bo‘lgani kabi, bu davrda ham ilm o‘rganishni istovchilar butun dunyodan oqib kela boshladilar. Ma’lumki, Sharqda, aynan O‘rta Osiyo zaminida yuz bergan Uyg‘onish jarayoni xususan dunyoviy fanlar rivojida alog‘ida yuksalish bosqichi bo‘ldi. Bu borada ilm-fan va madaniyat taraqqiyotida turli tarixiy davrlarda faoliyat ko‘rsatgan “Ilm uylari” -Bag‘doddagi (819-833) “Bayt ul-hikmat” (Bag‘dod akademiyasi), Xorazm poytaxti Urganchdagi “Ma’mun akademiyasi”, shuningdek “Ulug‘bek akademiyasi” va boshqa ko‘plab yuksak ilm dargohlarining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Uyg‘onish davri o‘z yuksak aql-zakovati, salohiyati, izlanishlari bilan fanning ko‘plab sohalarida muhim kashfiyotlar o‘ilgan qanchalab buyuk daholarni yetishtirib berdi. Ular jahon fanining

tibbiyot, falakiyot, matematika, jug‘rofiya, tarix, geologiya, geodeziya, minerologiya, farmakologiya va boshqa yo‘nalishlarining tamal toshini yaratdilar. Bu muqaddas zamindan yetishib chiqgan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobi, Abu Bakr Muhammad Narshaxiy, Abu Abdullo Xorazmiy, Mahmud az-Zamahshariy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Nizomulmulk, Kaffol ash-Shoshiy, Mirzo Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi va boshqa buyuk siymolar nomini haqli ravishda ehtirom bilan tilga olamiz. Milliy mustaqilligimiz sharofati tufayli ularning boy ilmiy merosi sarchashmalaridan tag‘inda mo‘l-ko‘l baxramand bo‘la boshladik. “Istiqlol sharofati bilan, - degan edi mamlakatimizning birinchi prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov, - ma’naviyat buloqlarining ko‘zi ochildi, biz bu buloqning zilol suvlaridan bahramand bo‘la boshladik. Sho‘ro davrida unutilgan qadriyatlarimiz, nomi qoralangan bobokalonlarimizning durdona so‘zlarini biz obi kavsardek ko‘zimizga surtmoqdamiz. O‘ylaymanki, biz nimaga erishgan bo‘lsak, ana shu savobli ishlarimiz uchun Allohning bizga in’om etgan marhamatidandir” Allomalarimizning qomusiy bilimdonliklari shundaki, ularning har biri bir emas, balki ko‘plab ilm-fan yo‘nalishlarida ulkan kashfiyotlar o‘ildilar. Bu jihatdan Muhammad Muso al-Xorazmiy (783-850), Ahmad al-Farg‘oniy (797-865), Abu Nasr Forobi (873-950)larning fandagi jasoratlari ibratlidir. Agar al-Xorazmiy matematikaga oid “Hisob aljabr va al-Muqobala”, “Hind hisobi haqida kitob”, “Astronomik jadvallar”, “quyosh soatlari haqida risola” asarlari bilan matematika (algoritm) va astronomiya fanlarining tamal toshini qo‘ygan bo‘lsa, uning “Kitob surat al-arz” asari arab geografiyasi fanining tom ma’noda yaratilishiga negiz bo‘lib xizmat qildi. Olimning “Kitob at-tarix”i esa Movarounnahr, Xuroson va Kichik Osiyo xalqlari tarixining VIII-IX asrlari davrini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Ma’lumki arablar Iraq, Misr va Suriyani istilo qilgunga qadar yunon alifbosiga asoslangan raqamlardan foydalanganlar. VII asrdan boshlab esa arab alifbosi harflari bilan ifodalanuvchi raqamlar qo‘llanilgan edi. Al-Xorazmiy Hindistonda kashf qilingan o‘n raqamidan iborat sanoq tizimini o‘rgandi, soddalashtirdi va birinchi marta arab tilida bayon qildi. Al-Xorazmiy “Arifmetika” si bilan birga hind raqamlari ham arab dunyosiga kirib keladi. XII asrda Yevropaning boshqa mamlakatlariga tarqaladi. Arab raqami hanuz jahonda shunday deb yuritiladi. Uni jahonga tanitgan Al-Xorazmiy ekani

Abu Rayxon Beruniyning “Hindiston” asarida ham aytib o‘tilgan. U o‘z davridagi Bag‘dod ilmiy Akademiyasi faoliyatiga rahbarlik qilgan, bu esa uning nufuzining ko‘tarilishiga katga ta’sir ko‘rsatgan. Astronomiya, geografiya va boshqa fan sohalarida muhim kashfiyotlar o‘ilgan Ahmad alFarg‘oniy nomi ham mangulikka daxldordir. Chunonchi, olimning “Astronomiya asoslari haqida kitob”, “Al-Farg‘oniy jadvallari”, “Yetti iqlimni hisoblash haqida” singari asarlari allomaga astronomiya ilmida jahoniy shuhrat keltirdi. U Yer sharining ilk bor xaritasini tuzgan birinchi buyuk geograf olim hamdir. U nafaqat Sharq dunyosida shuhrat qozonib qolmay, balki G‘arb olimlari e’tirofiga ham sazovor bo‘lgan. Shu bois u Yevropada “Alfraganus” nomi bilan mashhurdir. Bejiz yurtboshimiz Al-Farg‘oniyni “kishilik tarixidagi ilk Uyg‘onish davrining eng zabardast va yorqin namoyandalaridan biri, o‘z zamonasi fundamental fan asoschilaridan edi. Uning merosi insoniyatning yangi ilm cho‘qqilariga ko‘tarilishiga sababchi bo‘ldi, butun ma’rifiy dunyo olimlari uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qildi” deb ta’rif etgan edi. Beruniy zamondoshi, ko‘xna Buxoro zaminidan yetishib chiqqan Abu Ali ibn Sino (980-1037) nomi tibbiyot ilmi bilan hamohang, tibbiyotni haqiqiy fan sifatida shakllanib o‘zmaqomiga ega bo‘lishiga asos solgan buyuk olimdir. Zotan, uning 5 jildli “Kitob al-qonun fit- tib” (“Tib qonunlari”) asari aynan tibbiyotga oid benazir dasturulamal kashfiyotdir. Bu asarlar majmuini ko‘zdan kechirar ekanmiz, allomaning yuksak tabiblik salohiyatiga, kasalliklarni aniqlash, ularni davolash borasidagi yuksak mahoratiga tan beramiz. Jumladan, ”Al-qonun” ning ikkinchi kitobida 800 ga yaqin dori-darmonlarning xususiyatlari, ularni tayyorlash va iste’mol qilish usullari buning isboti bo‘la oladi.

Olimning falsafa va tabiiy fanlarga doir 4 qismdan “Kitob ash-shifo”, “Donishnoma” asarlari ham mavjuddir. Ibn Sinoning tibbiyotdan tashqari ko‘plab tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan faol shug‘ullanganligi, muhim yutuqlarga erishganligi ham ibrat bo‘larlidir. O‘rta Osiyo zamini juda qadim zamonlardan ijtimoiy-gumanitar fanlar rivoj topgan makon hisoblanadi. Ayniqsa tarix, falsafa, mantiq, fiqh (huquqshunoslik) fanlari bunda muhim o‘rin tutadi. Bu xususda gap borganda falsafa fanida nom qozongan, Sharqda “Muallimi Soniy” (“Ikkinchi Muallim”, Arastudan keyin) nomi bilan mashhur bo‘lgan Abu Nasr Forobiy (873-950), fiqx-huquqshunoslik sohasida benazir allomalar: Nizomulmulk (1017-1092), Mahmud az-Zamahshariy (1075-1144), tarixnavis Muhammad Narshaxiy (899-959) xizmathlarini

ta'kidlamoq lozim bo'ladi. Bunda Forobiyning falsafada o'z ilmiy matabini yaratib, yunon falsafasi mohiyatini olib, tushuntirib, shu bilan birga o'zining sharqona falsafiy ta'limotini ko'plab asarlarida, aytaylik, "Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi", "Fozil odamlar shahri" va boshqalarda asoslab bergen bo'lsa, Nizomulmulk "Siyosatnama"sida hukmdorlarning davlatni boshqarish, uni idora qilishga oid ko'plab qimmatbaho yo'l-yo'riqlar, dasturulamal ko'rsatmalar katta mahorat bilan qayd etilgan. Hatto Amir Temurdek buyuk davlat arbobi ham bu kitobga necha bor murojaat etganligi ma'lumdir. Umuman IX-XII asrlarda yuz bergen Uyg'onish davrida Sharqda, xususan o'rta Osiyodan o'z yurtlari shonu sharafini yuksaklarga ko'tarib, betakror ilmiy kashfiyotlar, chinakam mo'jizalar yaratgan mashhur iste'dod sohiblari yetishib chiqdiki, ular jahon madaniyati xazinasiga munosib hissa qo'shdilar hamda keyingi avlodlarga bitmas-tuganmas noyob boy meros qoldirdilar. Xalqimiz o'tmishda ikkita renessans hodisasini boshidan kechirgan bo'lsada, tarixning keyingi davrlarida erishilgan yutuqlar unutilib taraqqiyot turg'unlik bilan almashdi. Bu holat XVI asrdan boshlanib to XX asrgacha davom etdi. Bunga ta'sir ko'rsatgan omillar: Birinchidan, Buyuk Ipak yo'lining inqirozga uchrashi, ya'ni evropaliklar tomonidan G'arb va Sharqni bog'lovchi yangi dengiz yo'llarining kashf etilishi, Ikkinchidan, savdo yo'llarida joylashgan shaharlarning inqirozga yuz tutishi, xalqaro savdodan keladigan daromadning keskin kamayishi, ichki nizo va urushlarning avj olishi, Uchinchidan, ortiqcha soliq yukining oshishi, aholining katta qismini kambag'allashuvi va qashshoqlashuvi, To'rtinchidan, ilm-fandan uzoqlashish, diniy mutaassiblikning, xurofotning kuchayishi, turg'unlik va inqirozning chuqurlashuvi, Beshinchidan, Markaziy Osiyoda siyosiy parchalanish, nizolar va ayirmachilik, ma'rifatsizlik oqibatida XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilinishiga olib keldi. Tariximizga nazar tashlar ekanmiz har doim bir qorong'ulik, tushkunlik ortidan yorug'lik, ma'rifat davri kelganligini ko'rishimiz mumkin. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakati yangi uyg'onishni boshlab bergen edi. Ammo bu boshlangan milliy uyg'onish sovet tuzumi, diktaturasi tomonidan shafqatsizlarcha bostirildi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach milliy tiklanish, o'zlikka qaytish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, keyingi yillarda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda boshlab yuborilgan jadal islohotlar yurtimizda

yana bir uyg‘onish uchun zamin yaratish sari qadam tashlanayotganiga umid uyg‘otdi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va Taraqqiyot strategiyasi doirasida jadal islohotlar olib borilmoqda. Mazkur islohotlar jamiyatning barcha sohasini keng qamrab olganligi bilan ham e’tiborlidir. O‘zbekistonni 2030 yilgacha rivojlantirish bo‘yicha strategik maqsadlar belgilanib amalga oshirila boshlandi. Shu bois, Renessans hodisasi faqat ma’lum bir sohani rivojlantirish bilan sodir bo‘lmaydi, balki, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy sohalarni paralel ravishda yuksaltirish orqali uning poydevori yaratiladi va amalga oshadi.

1.2. Uchinchi Renessansning shakllanishida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g‘oyaviy omillar

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev mustaqillikning 29 yilligiga bag‘ishlangan tabrigida “Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Chunki bugungi O‘zbekiston – kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”. Renessansning shakllanishiga siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g‘oyaviy omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Eng muhim bugun yurtimizning mustaqilligi, rivojlanishi, taraqqiy etishiga monelik qiladigan, to‘sıqlar qo‘yadigan kuchlarning mavjud emasligida. Keyingi olti yilda barcha sohalarning jadal isloh qilinishi odamlar tafakkurining o‘zgartirish sari dadil qadamlar tashlanganligini ko‘rsatdi. Inson ongi va tafakkurini o‘zgartirish jamiyatni o‘zgartirishning asosi hisoblanadi. Bunda tarixiy tafakkurning ham o‘rni bor. Tarixiy bilim, tarixiy tafakkur shaxsda o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, daxldorlik tuyg‘ularini shakllantiruvchi omil hisoblanadi. Yangi O‘zbekistonni barpo etish uchun esa ilmli, keng dunyoqarashli, vatanparvar insonlar suv va havodek zarur. Jamiyatni isloh qilish, undagi taraqqiyot g‘ovlari va illatlarini yo‘qotish muhim hisoblanadi. Shu ma’noda byurokratiya, korruptsiya, loqaydlik kabi illatlarga qarshi kurashda yagona mushtga aylangan xalq irodasini shakllantirish maqsadga muvofiq. O‘zini anglagan, vatanparvar insondagi xarakter va qadriyatlar unda illatlarga nisbatan murosasiz munosabatni uyg‘otadi. O‘zlikni anlash, vatanparvarlik, milliy g‘urur tuyg‘ularining negizi tarixiy tafakkurdan oziqlanadi. Ajdodlarimiz ming yillar avval yaratgan osoru-atiqalar, boy ma’naviy

durdonalar insoniyat tafakkur xazinasining beba ho boyligiga aylangan. Xususan, Markaziy Osiyoda yuz b ergan birinchi renessans – uyg‘onish davri ham ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotning muhim xalqasi sifatida rol o‘ynagan. ‘Markaziy Osiyo, jumladan hozirgi O‘zbekiston qadim-qadimdan Sharqu G‘arb o‘rtasidagi doimiy aloqaning muhim xalqasini tashkil etgan. Bu aloqalar xoh siyosiy yo‘nalishda bo‘lsin, xoh iqtisodiy yoki madaniy yo‘nalishda bo‘lsin, ijobjiy samara bergan va yaxlit birlik bo‘lmish bashar taraqqiyotiga xizmat qilib kelgan”. “Dunyoning boshqa biror burchagida intelektual jihatdan bundan-da bag‘rikeng mintaqani topish mushkul”. Markaziy Osiyo renessansining omillari nimalardan iborat: Birinchidan, islam dini Arabiston yarim orolida musulmon renessansini shakllanishiga turtki berdi. VIII asrda Markaziy Osiyo arab xalifaligi tarkibiga kirdi. Musulmon renessansi xalifalikning butun hududiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo hududida ana shu rivojlanish davom etdi. Buyuk Ipak yo‘li chorraxasida joylashgan mazkur hudud savdo munosabatlarining rivojlanishi, yirik shaharlarning shakllanishiga, shu bilan birga faqat iqtisodiy munosabatlar emas balki g‘oyalar va bilimlarning ham yoyilishiga o‘zining ta’sirini ko‘rsatdi. Ikkinchidan, Samarqand, Buxoro, Urganch, Balx kabi yirik savdo markazlari, shaharlarning ravnaq topishi, hunarmandchilik, savdo ayriboshlashning ravnaqi, barqaror siyosiy hokimiyatlarning paydo bo‘lishi ilm-ma’rifatga xomiylit qilish an’anasning mavjudligi hodisaga ijobjiy ta’sir ko‘rsatdi. Saroylar huzurida akademiya va ilmiy markazlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ilm ahli va ilm talabgorlar qo‘llab-quvvatlandi va rag‘batlantirildi. Uchinchidan bu mintaqadagi dinlarning aralashuvi sodir bo‘ldi. Zardushtiylik, yunon politeizmi, hinduizm, buddaviylik, yahudiylit, nasroniylik bu mintaqaga islam kirib kelgunga qadar sezilarli iz qoldirgan. Bu diniy bag‘rikenglikning davom etishi shunday muhit yaratganki, unda buyuk mutafakkirlar o‘rtasida bahs va munozaralar, ilmiy tortishuvlar fikrlar rivojiga, fikrlar xilma-xilligiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatgan. Yurtimizda ilm-fanga, yoshlarning ta’lim-tarbiyasiga ustuvor sifatida qarayotgani imkoniyatlarimizni yana bir karra oshirsa, mazkur masalaga befarq, loqayd munosabatda bo‘lish mumkin emasligi, bunga haqqimiz yo‘qligini eslatadi. Demak, ajdodlarga munosib bo‘la olmayotganligimiz o‘zini tanigan, vatan taqdiriga befarq bo‘lman insonni tashvishga qo‘yishi, ajdodlarimiz uddalagan, bugun boshqalar erishayotgan ekan, nega men qila olmasligim kerak degan savolni o‘ziga berishi va shunga

harakat qilishi lozim. Yurtimizda uchunchi renessans poydevorini qurishdek ezgu maqsad yo‘lida tarixiy tafakkur yoshlarda iftixon va faxr tuyg‘ularini uyg‘otish bilan birga ularda ajdodlarga munosib bo‘lishga da’vat qiladi, chorlaydi. Tarix murabbiy. Unda donishmandlik va saboq mujassam. Faqat uni o‘qish va uqish lozim. Xalqimiz o‘zining olis tarixi davomida juda ko‘p murakkab, qiyin davrlarni shu bilan birga, shonli davrlarni ham boshidan kechirgan. Urush va tinchlik, vayronalik va farovonlik xuddi kino tasmasidan o‘tganidek ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Yangi O‘zbekiston strategiyasi jamiyatimizni farovonlik, erkinlik sari tashlangan qadamidir. Har qanday tsivilizatsiya, madaniy yuksalish ijodkor qatlam tashabbusi bilan ilgari surilgan va amalga oshirilgan.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish uni uchinchi renessansga aylantirish ezgu g‘oyasi ham bir necha omillarni taqazo etadi: Birinchidan, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, YaIMni oshirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, barcha resurslardan unumli va oqilona foydalanish orqali uchinchi renessansning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash; Ikkinchidan, jamiyatni demokratlashtirish va erkinlashtirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, OAV rolini oshirish, qonun ustuvorligi va inson huquqlari himoyasini ta’minalash orqali adolat ustuvorligiga erishish; Uchinchidan, ilm-fan rivojlanishiga ustuvor vazifa sifatida qarab, innovatsion yangilanishlarni qo‘llab-quvvatlash, inson kapitalini o‘sirish uning salohiyatini maksimum darajada foydalanish; To‘rtinchidan, ta’limdagi islohotlarni chuqurlashtirish, ta’lim sifatini, o‘qituvchilarni ish haqini oshirish, iqtidorli o‘quvchilarni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash, barcha sohalarni etuk, bilimli kadrlar bilan ta’minalash; Beshinchidan, integratsiyani kuchaytirish, chet mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini joriy etish, yoshlarni nufuzli universitetlarda ta’lim olishlariga imkoniyatlar yaratish, shuningdek, xorijdagi muvaffaqiyatga erishgan vatandoshlarimizni jalb etgan holda ularning bilimi va tajribasidan foydalanib yangi g‘oya va loyihalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. “Biz yana mutaraqqiy xalqlar safiga kirmoqchi bo‘lsak, tarixdan, jumladan, yaqin o‘tmishdan to‘g‘ri xulosalar chiqarishimiz, ongu tafakkurimizni daqqi qarashlar va qaramlikdan xolos qilishimiz lozim. Tafakkur erkinligi – barcha sohalarda individual, jamoaviy va milliy erkinlikning taraqqiyotida yangi sifat bosqichiga chiqishning, shu jumladan, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishning aqliy va hissiy asosidir”.

1.3. Uchinchi renessans va uning mazmun mohiyati

Mustaqillikka erishgandan keyin dastlab chorak asr davomida milliy tiklanish bilan bog‘liq masalalarga alohida etibor qaratishga to‘g‘ri keldi. Endilikda milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o‘tganimizdan keyin, Uchinchi Renessansga erishishni davlat rahbari strategik vazifa etib belgiladi.

“Renessans” so‘zining lug‘aviy ma’nosi fransuzchadan olingan bo‘lib “qayta tug‘ilish” degan ma’noni anglatadi. Bu so‘z atama sifatida uning mazmuni ancha keng, madaniyatda, ilm-fanda, san’atda, ta’lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg‘unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Dastlabki davrda bu atama Yevropada o‘rta asrlar mutaassibligidan keyin XV-XVI asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo‘llanilgan. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o‘zbek tiliga Uyg‘onish davri deb o‘girilgan.

Buyuk allomalarimiz Farg‘oniy, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Mahmud Zamashshariy kabi buyuk daholar, buyuk muhaddislar – Buxoriy, Termiziy, mutakallimlar – Moturidiy va Abul Muin Nasafiy hamda boshqa atoqli dunyoviy va diniy allomalar shukuhi olamni yoritdi.

Har ikki Renessans davrida biz dunyoning ilg‘or, mutaraqqiy xalqlari qatorida edik. Agar yana shunday darajaga erishmoqchi bo‘lsak, Uchinchi Renessansni amalga oshirmog‘imiz zarur. Uchinchi Renessans milliy g‘oyaga aylanishi zarur - deya fikr berdi davlatimiz rahbari Shavkat Miriyoyev.

Katta qiziqish va xayrixohlik bilan kutib olingan “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot” bugun iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy hayotimizga real ta’sir ko‘rsatyaptimi yoki yo‘q, degan savolga aniq javob berish ancha mushkul. Milliy g‘oyani jonlantirish uchun uni Uchinchi Renessans g‘oyasi bilan boyitish zarur. Faqat Uchinchi Renessansni amalga oshirib, biz ozod va obod Vatanda erkin va farovon hayotni barpo eta olamiz. Yoki, yana qulayrog‘i, Uchinchi Renessansga erishishni milliy g‘oyaning yangi ifodasi, deb e’lon qilish maqsadga muvofiq. Milliy g‘oya joriy vazifalarni emas, balki strategik oliy maqsadni ifodalaydi. Shu ma’noda Uchinchi Renessans g‘oyasi istiqbolga intilishga juda mos keladi. Mazkur g‘oyaning safarbarlik kuchi, umuman, mafkuraviy salohiyati juda yuqori.

Ayni chog‘da o‘tmish tariximizning shonli sahifalari, buyuk ajdodlarimizning buniyodkorlik va ijodkorlik salohiyati bilan bog‘lanadi. Bizga mazkur tushuncha kimlarning vorislari ekanimizni eslatib turadi. Yangi Renessans yo‘lida xalqimiz turli mayda, vaqtinchalik masalalarga, guruhbozlik, mahalliychilik, ayirmachilik, mafkuraviy mutaassiblikning har xil ko‘rinishlariga chalg‘imasligi kerak. Tarix saboqlarini unutishga haqqimiz yo‘q.

Demak, har ikki Renessans davrida biz dunyoning ilg‘or, mutaraqqiy xalqlari qatorida edik. Agar yana shunday darajaga erishmoqchi bo‘lsak, Uchinchi Renessansni amalga oshirishga butun kuch va g‘ayratimizni bermog‘imiz zarur.

1.4. Uchinchi Renessans milliy g‘oyaga aylanishi zarur

Markaziy Osiyo hududida hozirgi fanlar asosini yaratgan qomusiy allomalar Vatani desak adashmagan bo‘lamiz. Ularning ilmiy merosi dunyo hamjamiyatida tutgan o‘rnini bilishimiz, nafaqat bilishimiz balki shu merosga munosib merosxo‘r sifatida uni rivojlantirish va munosib bo‘lishimiz shu vatanda yashayotgan har bir farzandning burchi deb bilamiz. Umuman olganda, renesans tushunchasiga asos qilib ilm-fanning rivojlanishi olingan, shu bilan birga ilm-fan rivoji uchinchi renesans poydevori bo‘la oladi desak adashmagan bo‘lamiz.

Shu o‘rinda akademik N.I.Konradning o‘z asarlарida “O‘rta Osiyo qadim davirlardayoq Umuminsoniyat sivilizatsiyasining chorrahasi bo‘lgan va o‘zi ham anashu sivilizatsiya markazining biri bo‘lgan. Shuning uchun IX-X asir O‘rta Osiyo dunyosining fan va falsafa o‘zprinsplari bo‘yicha ma’rifat yaratishlari bilan o‘z davirlari va qadim dunyo o‘rtasidagi tarixiy cheklanishdan boshqacha qilib aytganda o‘z o‘rta asirlardan sakrab o‘tganlar”. N.I.Konradning Markaziy Osiyo allomalariga bergen xolisona bahosidan ko‘rinib turibdiki ularning ilmi va ahloqiy asarlari biz uchun bahosiz boylik ekanligini anglashimiz lozim. Hali o‘rganilmagan kitoblar soni talaygina biz shuni tafsiya qila olamizki bu meroslarni o‘rganish va hayotga tadbiq qiliadigan yani kitob shaklida yoki gazetalarda maqola ko‘rinishida, OAV ko‘rsatuv shaklida namoyish qilsak o‘z natijasini beradi deb o‘ylaymiz. Bizning oldimizda turgan asosiy muammolardan biri bu asarlarni tiklashdir. Asarlarni tiklashimiz yani o‘sha yozilgan tilni o‘rganishimiz dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Kelajak yoshlar qo‘lida deb bejizga aytilmaydi, yoshlarimizga tarixan takomillashgan tafakkur darajamiz ildizlarini ma’naviy salohiyatini o‘sha davirning yashash va fikirlash tarzini, internet olami va hozirgi qulayliklar bo‘limgan davirda komolotga yrtgan ajdodlarimizning ilimga chanqoqligini ilm olishda millatimizga xos andisha, odob, ruhiy quvvat egalarining yo‘lini ko‘rsatish har bir ilim ahli uchun dolzar vazifa bo‘lmogi kerak.

XXI asrni axborot asri desak adashmagan bo‘lamiz. Zamon bilan hamnafas bo‘lish dunyoda bo‘layotgan voqeya va hodigalarga beparvo bo‘lmasligimiz joiz ekanligini davr taqazo qilmoqda. Anashu axborotni biz ilm bilan adashtirmasligimiz joyiz. Aksariyat bo‘layotgan voqeya va hodisalar axborotning ko‘pligi ularning tasdiqlanmaganligi va shu birga kuzatuvchining diqqatini qaratish uchun yaratilgan soxta malumotlar bugun oz emas. Davlatlar o‘rtasida bo‘layotgan urishlar “axborot urishi” desak adashmagan bo‘lamiz. OAV yoshlarning ongu tafakkuriga ta’sir o‘tkazish vositasi bo‘lib qolganligi hech kimga sir emas. Yurtimizni rivojlantirish uchun yoshlarimizni yod g‘oyalar tasiridan asrashimiz lozim zero kelajak yoshlar qo‘lida. Bugun chetdan kelayotgan axborotlarni to‘xtatib bo‘lmaydi. Yoshlarimizni yod g‘oyalar ta’siridan asrashimizning yagona yo‘li mafkuraviy imunitedni shakillantirishimiz zarur. Buning uchun jamiyati, izning har bir azosi ongli ravishta o‘rnak bo‘la olishimiz zarur yani “Tarbiya aytilmaydi, ko‘rsatiladi” tamoyili asosida ish yuritishimiz joyiz. Shu o‘rinda Abu Nasr Farobiyning bir so‘zini aytib o‘tish joiz deb bildik “Haqiyqiy baxt-saodat yetishuv yo‘lida bir-birlariga yordam berish yaxshi, go‘zal amallar qiluvchi odamlar yashaydigan shaxar fozila shaxar ya’ni fozil odamlar shaxridir”**i** degan edi. Biz jamiyatimizda ro‘y berayotgan muammolarni uzoqdan emas, ota-bobolarimizning bizga qoldirib ketgan ilmiy, axloqiy, falsafiy meroslaridan izlashimiz kerak deb bilamiz.

Xulosa qilib aytganda, XXI asrning fan texnika yutuqlari, olamshumul ixtiolar globallashuv jarayonini yanada jadallashtirdi. Kelajakda boshqa davlatlarga iqtisodiy qaram bo‘lmasligimiz uchun bugun yoshlarimizga ota-bobolarimizdan qolgan ilmiy merosni o‘rgatishimiz kerak. Maktablarda, oily o‘quv yurtlarida alohida fan sifatida o‘qitishimiz, hatto kirish imtihonlariga ham joriy qilishimiz kerak deb o‘ylaymiz. Rivojlangan davlatlarning aksariyati inson kapitali asosida yuqori natijalarga erishmoqdalar. Bugun Vatanimizni rivojlantirish, xalqaro maydonda nufuzini yanada oshirish uchun ilm-fanni rivojlantirishimiz va uni hayotga tadbiq etishimiz lozim. Bu

borada boy tarixga ega yurtimizda yashab ijod qilgan allomalarimizning ilmiy meroslaridan keng foydalanishimiz va hayotga tadbiq etishimiz kerak. Bugun yurtimizda oily o‘quv yurtlari keskin ravishta ko‘paygan, har bir oily o‘quv yurtlarida yoshlarimizni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalab ilm-fan taraqqiyotiga ulkan xissa qo‘sadigan kadrlar tayyorlashimiz kerak. Yaratilgan imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanishimiz, va bunga munosib bo‘lishimiz har bir ilm ahlining dastlabki vazifasi bo‘lmog‘i lozim. Ilm-fanning rivojlanishida ijtimoiy muhitning o‘rni beqiyos.

Mustaqillikka erishgandan keyin dastlab chorak asr davomida milliy tiklanish bilan bog‘liq masalalarga alohida etibor qaratishga to‘g‘ri keldi. Endilikda milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o‘tganimizdan keyin, Uchinchi Renessansga erishishni davlat rahbari strategik vazifa etib belgiladi. Buyuk allomalarimiz Farg‘oniy, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy kabi buyuk daholar, buyuk muhaddislar – Buxoriy, Termiziyy, mutakallimlar – Moturidiy va Abul Muin Nasafiy hamda boshqa atoqli dunyoviy va diniy allomalar shukuhi olamni yoritdi. Har ikki Renessans davrida biz dunyoning ilg‘or, mutaraqqiy xalqlari qatorida edik. Agar yana shunday darajaga erishmoqchi bo‘lsak, Uchinchi Renessansni amalga oshirmog‘imiz zarur. Uchinchi Renessans milliy g‘oyaga aylanishi zarur deya fikr berdi davlatimiz rahbari Shavkat Miriyoev Katta qiziqish va xayrixohlik bilan kutib olingan “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot” bugun iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy hayotimizga real ta’sir ko‘rsatyaptimi yoki yo‘q, degan savolga aniq javob berish ancha mushkul. Milliy g‘oyani jonlantirish uchun uni Uchinchi Renessans g‘oyasi bilan boyitish zarur. Faqat Uchinchi Renessansni amalga oshirib, biz ozod va obod Vatanda erkin va farovon hayotni barpo eta olamiz. Yoki, yana qulayrog‘i, Uchinchi Renessansga erishishni milliy g‘oyaning yangi ifodasi, deb e’lon qilish maqsadga muvofiq. Milliy g‘oya joriy vazifalarni emas, balki strategik oliy maqsadni ifodalaydi. Shu ma’noda Uchinchi Renessans g‘oyasi istiqbolga intilishga juda mos keladi. Mazkur g‘oyaning safarbarlik kuchi, umuman, mafkuraviy salohiyati juda yuqori. Ayni chog‘da o‘tmish tariximizning shonli sahifalari, buyuk ajodolarimizning bunyodkorlik va ijodkorlik salohiyati bilan bog‘lanadi. Bizga mazkur tushuncha kimlarning vorislari ekanimizni eslatib turadi. Yangi Renessans yo‘lida xalqimiz turli mayda,

vaqtinchalik masalalarga, guruhbozlik, mahalliychilik, ayirmachilik, mafkuraviy mutaassiblikning har xil ko‘rinishlariga chalg‘imasligi kerak. Tarix saboqlarini unutishga haqqimiz yo‘q.

Avvalo, tushuncha mazmunini aniq ochib berish, aholining barcha qatlamlari, avvalo, yoshlar ongiga etkazish kerak. O‘tmish renessanslari davrida ajdodlarimiz nimalarga erishganini, jahon tsivilizatsiyasiga qo‘sghan hissasini, boshqa xalqlar, mintaqalar yantuqlari bilan taqqoslab, jahonning etakchi madaniyatlaridan, ilm-fani, san’ati va adabiyotlaridan birini, ilg‘or ijtimoiy fikru qarashlarini yaratganini qisqa, lo‘nda, dabdabali jumlalarsiz yoritish zarur.

Shuningdek, ularning inqiroz sabablari xolis tahlil etilmog‘i lozim. Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli Buyuk Ipak yo‘lining to‘xtab qolgani ob’ektiv sabablardan biri bo‘lsa-da, ichki va tashqi nizolar, taxt talashlar, ayirmachilik va uch davlatga bo‘linib ketish, inson komilligi faqat insonning ichki dunyosiga qaratilib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga etarlicha e’tibor bermaslik kabi sub’ektiv omillar inqirozni keltirib chiqargan asosiy sabablar edi. Tarixdan saboq olish, tegishli xulosa chiqarish uchun bular yoshlar, aholi ongiga etkazilishi kerak. Biz ko‘proq avvalgi uyg‘onish davrlarimizning yantuqlarini faxr bilan e’tirof etib, negadir ularning inqirozi sabablari haqida gapirishni unchalik xushlamaymiz.

Birinchi va ikkinchi renessanslarning tarixiy sharoiti va davri talablari, imkoniyatlarini haqqoniy baholab, Yangi Renessansning tarixiy sharoitlari va talablari mutlaqo o‘zgacha ekanini asoslash, dalillash maqsadga muvofiq.

Uchinchi Renessans to‘rtinchi sanoat inqilobi bilan muvoziy, bir vaqtda kechadi. Shu sababdan u, avvalo, texnologik inqilobni, yuksak rivojlangan raqamli smart (aqli) iqtisodiyotni taqozo qiladi. O‘z navbatida, raqamli, smart iqtisodiyotga o‘tish uchun ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish, robotlashtirish talab etiladi. Mazkur jarayon O‘zbekistonda qanday bosqichlarda amalga oshirilishi, uning moddiy-moliyaviy, insoniy, ilmiy va ilmiy-texnologik ta’minoti bo‘yicha istiqbolli aniq kompleks dasturlar yangi Renessans g‘oyasi bilan mafkuraviy jihatdan bog‘lanishi shart. Ilmiy, ilmiy-texnologik ta’minot taqozosidan kelib chiqib, ta’lim-tarbiya sohasining barcha bo‘g‘inlari uzluksiz isloh etib borilishi kerak.

Avvalgi ikkala Renessans mustahkam ma’naviy-mafkuraviy negizda, birinchi galda yuksak axloqiylik,adolat, ilmga tashnalik va bag‘rikenglik

asosida yuz bergen. Islom halollik va to‘g‘rilikni, insof va adolatni, ilm va amaliy faollilikni hamma narsadan ustun qo‘ygan. “Ilm izlab Chinga bo‘lsada, bor”, “Sendan harakat — mendan barakat”, “Bir soatlik adolat barcha insu jinslarning qirq kunlik ibodatidan ustun” va ko‘plab shu kabi hadislar, naqllar ajdodlarimizning ijtimoiy mo‘jaliga aylangan edi.

“Baytul hikma”da 40 dan ortiq tarjimonlar qadimgi yunon tilidan, 14 nafar tarjimon sanskrit tilidan, 4 nafar tarjimon Xitoy tilidan ilmiy, tibbiy va falsafiy asarlarni arabchaga o‘girgan. Bundan tashqari, lotin, suryoniy, ibroniy tillardan tarjimonlar bo‘lgan. Ilmiy haqiqat diniy mansublikdan ustun qo‘yilgan. Bu asar ma’jusiyatlarni, bunisi kofirlarni deb inkor qilinmagan. Ajdodlarimiz til o‘rganib, ilm ortidan dunyoni kezgan. Mahdudlik qobig‘iga o‘ralib qolmagan, turg‘unlik, mahalliychilik ularga yot bo‘lgan.

“Baytul hikma”, Xorazm Ma’mun Akademiyasi, umuman, islom olami olimlari faoliyati o‘sha davrdagi xalqaro ilmiy integratsiyaning eng yorqin namunasidir. Birinchi va ikkinchi renessanslarning ma’naviy asoslarini va sabablarini hamda keyingi inqirozini chuqur o‘rganmasdan, biz Uchinchi Renessansni muvaffaqiyatli amalga oshira olmaymiz. Bugun ham bizga g‘oyaviy va ilmiy tolerantlik (bag‘rikenglik), ilmga, haqiqatga tashnalik, milliy mahdudlikni, g‘oyaviy mutaassiblikni tamomila inkor etish xos bo‘lmog‘i lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, Uchinchi Renessans bizdan xalqaro hamjamiyatga ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat va iqtisodiyot sohalarida yanada chuqurroq integratsiya bo‘lishini talab etadi. Ammo o‘zligimizni, tilimizni, milliy xususiyatlarimizni, ma’naviyatimizni saqlab qolishimiz shart. Bu esa ta’lim-tarbiya tizimiga jiddiy e’tibor qaratishni bildiradi.

Mavzuni mustahkamlash yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Daholik nima ?
2. Daho deb kimlarni aytish mumkin ?
3. Bayt ul-Hikmaga qayerda va kim tomonidan asos solindi ?
4. Bayt ul-Hikmadagi qaysi allomalarni bilasiz va ularning asarlari ro‘yxatini keltiring (jadvalda).
5. Xorazm Ma’mun akademiyasi olimlari faoliyatini baholang ?
6. Al-Xorazmiy faoliyati haqida tushuncha bering ?
7. Al-Farobiq qaysi asari bilan mashhur ?

8. Al-Beruniy qaysi sohalarda asarlar yozgan ?
9. Mahmud Qoshg‘ariyning ilm fan rivojiga qo‘srgan hissasi haqida gapirib bering.
10. Bugungi kunda Xorazm Ma’mun akademiyasi faoliyatini tahlil qiling.
11. Uchinchi Renessans atamasini kim kiritdi va u nimani bildiradi ?
12. Bugungi kunda buyuk mutafakkirlarimiz merosini o‘rganish yo‘lida qaysi ishlar amalga oshirilgan?

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. – Т.:Ўзбекистон, 1996. 173 б.
2. Абу Али ибн Сино түғилган кунининг 1000 йиллигига, тўплам, Т., 1980.
3. Абу Райхон Беруний, Танланган асарлар, V том, II китоб, Қонуни Масъудий, Тошкент, Узбекистон ССР ФАН нашриёти, 1973.
4. Аҳмедов А. Аҳмад ал Фарғоний. // <https://ziyouz.uz/ilm-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/ahmad-al-fargoniy-797-865/>
5. Байджанов И.С., Давлетов С.Р. Муқаддас даргоҳ. Сўз боши. / Хоразм Маъмун академияси ўтмишда ва ҳозир. Хоразм Маъмун академияси ташкил топғанлигининг 1000 йиллигига боғишиланади. Урганч, 2016.
6. Бартольд В.В. Введение к изданию Худуд Ал-адам. Сочинение: т. VIII, М., 1973, стр. 504-545.
7. Болтаев М. Н., Абу Али ибн Сина великий мыслитель, учёный-энциклопедист средневекового Востока. Москва, 2002.
8. Жуманиёзов Авазяз. Маъмун академияси мамлакат тараққиётига хизмат қиласиди // Adolat газетаси. №5. 2017 й. <https://adolatgzt.uz/society/4430>
9. Каримова С. Абу Али ибн Сино. <https://ziyouz.uz/ilm-fan/tarix/allomalar/abu-ali-ibn-sino-980-1037/>
10. Мухаммед ал-Хорезми. Математические трактаты. Т., 1964.
11. Муҳаммад ибн Мусо ал-Хоразмий. Танланган асарлар. Тошкент, «Фан», 1983.
12. Садуллаев А., Хоразм Маъмун академияси, Хива, 2000

13. Садуллаев А., Сотлиқов А., Хоразм Маъмун академиясининг тарихий иддизлари, Урганч, 2003.
14. Старр Ф. Утраченное Просвещение: золотой век Центральной Азии от арабского завоевания до времен Тамерлана / пер. С англ. - М. : Альпина Паблишер, 2017. - 574 с.
15. Старр Ф.С. Марказий Осиёни кайта кашф этиш. // Зарафшон газетасининг 19.09.2009 (654) сони
16. Тожиев Д. Абу Райхон Берунийнинг илмий хазинаси тарихига бир назар. // Oriental Art and Culture. Scientific-Vtthodical Journal. 2020.I (2). P.85-90.
17. Уватов У. Буюк юрт алломалари. Тошкент: Ўзбекистон, 2016.
18. Юшкевич А.П. Арифметический трактат Мухаммеда ибн Муса ал-Хорезми. Труды института истории естествознания и техники, АН СССР, вып. 1, М., 1964.
19. Юшкевич А.П. История математики в среднее века. М., 1961.
20. 100 Марказий Осиё мутафаккирлари. Т.: YANGI NASHR, 2011 //
<https://shosh.uz/mutafakkirlar-abu-nasr-forobiy-873-950/>
21. 100 Марказий Осиё мутафаккирлари. Т.: YANGI NASHR, 2011. // <https://shosh.uz/category/allomalar/>
22. Nazarov O. “Fan va tehnika tarixi” O‘quv qo‘llanma. Т.: Lesson press 2022 у

2-MAVZU: IX-XI ASRDA MUSULMON UYG‘ONISH DAVRI. SHARQ ALLOMALARINING DUNYO ILMIY TAFAKKURI TARAQQIYOTIGA QO‘SHGAN HISSASI

Reja:

- 2.1. Musulmon Uyg‘onish davrining o‘ziga xos xususiyatlari**
- 2.2. Bag‘doddagi “Bayt ul-hikma” va unda dunyoviy fanlarning rivojlanishi**
- 2.3. Musulmon Sharqi olimlari asarlarida ilmlar tasnifi muammosi**
- 2.4. Sharqdagi ilk madrasalar va ulardagagi ta’lim tizimi**
- 2.5. Islom sivilizatsiyasining G‘arbiy Yevropaga ta’siri**

Tayanch iboralar: Bayt-ul hikma, Ilk madrasalar, Islom sivilizatsiyasi, Galen, Buqrot, Platon, Evklid, Bag‘dod, Marv, Xuroson, Xiva, Movarounnahr, Sharq olimlari, Mantiq, Matematika, Fanlar tasnifi, Metafizika, Ilohiyat, Andalus

2.1. Musulmon Uyg‘onish davrining o‘ziga xos xususiyatlari

Tarixga nazar solsak, arab bosqinchilariga qarshi Abu Muslim, Muqanna, Hamza al-Xorij, Rafi ibn Layslar boshchiligidagi qator xalq qo‘zg‘olonlari bo‘lib o‘tdi. Bu qo‘zg‘olonlar ayrim hollarda diniy tus oldi, ayniqsa, Muqanna boshliq ‘Oq kiyimlilar” qo‘zg‘oloni mustaqillik uchun olib borilgan uzoq yillik harakat sifatida xalq ongida chuqur iz qoddirdi. VIII-asr oxiriga kelib Osiyoda arab xalifaligining hukmronligi va islom dini uzil-kesil o‘rnatalilib, mustamlakaga aylantirildi.

Islom dini o‘rnatalgan Osiyoning juda katta hududi keyinchalik musulmon Sharqi nomini oldi. Xalifalik kuchsizlanib, faqat Yaqin Sharq doirasi bilan chegaralanib qolsa-da, islomning boshqa xalqlar orasida tarqalishi davom etdi.

VIII-asrning ikkinchi yarmidan boshlab islom ichida shialar, sunniylar, muttazaliylar, mutakallimlar, ismoiliylar kabi turli oqimlar vujudga keldi. XI-asrlarda islom va boshqa ta’limotlar ta’sirida tasavvuf shakllandi va musulmon Sharqiga tarqaldi. Arab tili musulmon Sharqida, xususan Markaziy Osiyoda fors va turkiy tillarni chetlab o‘tib, umumiylar va ilm-fan tiliga aylanib, turli xalqlar madaniyatining o‘zaro aloqasiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Arablar Amudaryo va Sirdaryo o‘rtasidagi boy vodiyni Movarounnahr deb atay boshladilar.

VIII-asr oxiri IX-asr boshida xalifalikning markazi Bag‘dodda ilm-fan rivojlandi, qadimgi yunon olimlari Platon (Aflatun), Aristotel (Arastu), Sokrat (Suqrot), Gippokrat (Buqrot), Galen (Jolinus), Evklid (Ikliidus) kabilarning asarlari arab tiliga tarjima etildi. Xristian va islom olimlari o‘rtasida hamkorlik ishlari amalgalashirildi. Xalifa Xorun ar-Rashid o‘limidan (813-yil) so‘ng, uning o‘g‘li al-Ma’mun xalifa etib tayinlandi. U ilm-fan, madaniyatga qiziqqan odam bo‘lib, unga qadar xalifalikning Markaziy Osiyo va Xuroson bo‘yicha vakili sifatida Marvda (xarobalari hozirgi Mari yaqinida) hokimlik qilar edi. Otasining o‘limidan so‘ng xalifa sifatida Bag‘dodga ko‘chgach (819-yil), u yerda ilmiy Markaz tashkil etib, unga barcha musulmon o‘lkalari, jumladan, Movarounnahrdan ham olimu fozillarni to‘pladi. Bu markazda Movarounnahr, Xurosandan chiqqan Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Marvaziy, Marvarudiy, Javhariy kabi olimlar faoliyat ko‘rsatib, Bag‘dod ilmu madaniyatini, arab ilmini olamga mashhur qilishda ulkan hissa qo‘shdilar. Bu ilmiy markaz tarixda «Bayt ul-hikma» (Donishmandlar uyi) nomi bilan mashhurdir.

Markaziy Osiyoda arab xalifaligining ta’siri susayib, yerli feodallar, xususan Tohiriyalar hamda Somoniylarning nufuzi kuchaya bordi. IX-asrning oxiriga kelib Markaziy Osiyo mustaqillikka erishdi va bu erda arablar ta’siridan qutulgan birinchi davlat - Somoniylar hukmronligi shakllandi. So‘ng bu hududda Xorazmshohlar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar, Qoraxoniylar davlatlari faollik ko‘rsatdi. Buxoro, Samarqand, Marv, Ko‘hna Urganch, Xiva kabi shaharlar o‘z davrining madaniyat markazlari sifatida ma’lum bo‘ldi. Bu yerdarda savdo-sotiq, ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bir qatorda madaniy aloqalar, bilim o‘choqlari rivoj topdi. Bunday iqtisodiy-madaniy markazlar ulkan musulmon Sharqining turli o‘lkalarini, G‘arb va Sharq, Shimol va Janub mamlakatlarini bog‘lab turuvchi qadimgi «Ipak yo‘li» an’analarini davom ettirgan holda, aloqa o‘choqlari sifatida mashhur bo‘ldi. Movarounnahr feodal davlatlari boshqa musulmon o‘lkalar bilan yaqindan aloqa o‘rnatdilar, yerli olimlar o‘zga mamlakatlarga borib ilm olish, hamkasblari bilan yaqindan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Bu davrda Markaziy Osiyodan Xorazmiy va Farg‘oniy, Ismoil al-Buxoriy va Termiziyy, Abu Nasr Forobiyy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniyy, Ismoil Jurjoniyy, Marg‘inoniy, Zamashariyy, Mahmud Qoshg‘ariy kabi ulkan olimlar yetishib chiqdi. Ular o‘z ijodlari, asarlari bilan o‘z xalqlarini dunyoga mashhur qildilar.

Adabiyot sohasida ham Markaziy Osiyo dunyo madaniyatida o‘chmas iz qoldirgan nomlar bilan mashhur bo‘ldi. Rudakiy, Daqiqiy, Yusuf Xos Hojib kabilar shular jumlasidandir. Badiiy adabiyotda fors, turk va arab tillarida ijod qilinib, manbalarda juda ko‘p shoirlar haqida ma’lumotlar saqlangandir. Bu davrda yashab ijod etgan Abu Mansur as-Saolibiy (961-1038) Buxoro va Xorazmda yashab, arab tilida ijod etgan qator shoirlar haqida ma’lumotlar keltiradi. Markaziy Osiyoda ilm-fan, madaniyat rivojida X-asr oxiri XI-asr boshida faoliyat ko‘rsatgan Xorazmdagi shoh Ma’mun boshchiligidagi ilmiy jamoa-akademiya muhim rol o‘ynadi.

Yerli feodal davlatlarining o‘zaro urushlariga qaramay me’morchilik, qurilish ishlari, hunarmandchilik, obodonchilik, madaniy aloqalar ham tez sur’atlar bilan avj oldi. Madaniyatning turli sohalaridagi bunday yuksalish avvalambor arab mustamlakachiligidan qutulish, yerli mustaqil feodal davlatlarning vujudga kelishi, boy madaniy an’analarning tiklanishining natijasi edi. Shu bilan birga Markaziy Osiyoning juda katta mintaqadagi musulmon Sharqi davlatlari bilan din va til asosida madaniy aloqalarining kuchayishi ham bu madaniy yuksalishda muhim sabab bo‘lib xizmat qildi.

XI-asrlardan boshlab Markaziy Osiyoda ham tasavvuf keng tarqala boshladi. Xususan, Yusuf Hamadoniy (1048-1140) Buxoroda tasavvuf ta’limotini o‘rgatish va targ‘ib etishga kirishdi. Birinchilardan bo‘lib uning qo‘lida Xoja Ahmad Yassaviy (vafoti 1166-yil) ta’lim oldi, tasavvuf sirlarini o‘rgandi va Turkistonga borib, u yerda tasavvufni targ‘ib qildi. Uning ta’limoti Yassaviya nomini oldi.

Hamadoniy ta’limoti asosida Abduxoliq G‘ijduvoniyning «Xojagon» tariqati vujudga keladi. So‘ng shu tariqat Bahovuddin Naqshband davrida keng yoyilib, Naqshbandiya yo‘nalishini tashkil etadi.

XII-asrda Xorazmda ham tasavvuf ilmi keng yoyila borib, Najmiddin Kubro (1146-1221) boshchiligidida tasavvufning Kubroviya oqimi shakllanib, Markaziy Osiyo va boshqa Sharq mamlakatlarida keng yoyildi.

Tasavvuf ta’limotlari boshqa musulmon mamlakatlarida bo‘lganidek, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va ma’naviyatining so‘nggi rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Qadimgi arab va fors tilidagi manbalarda bu davrda yashab ijod etgan juda ko‘p olimu fuzalolar, qomusiy bilim egalari, badiiy so‘z ustalari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Masihiy, Habash al-Hosib, Bayhaqiy, Ishoq al-Buxoriy, Daqiqiy, As-Suxayliy al-Xorazmiy, Abdulla Xorazmiy Abul-Fadl,

Al-Xorazmiy al-Adoliy, Ahmad al-Axsikotiy, Saolibiy al-Muzaffar al-Naysaburiy, Rashididdin al-Vatvot, Zakariya al-Forobiy kabilar shular jumlasidandir. Bu allomalarning hammasi haqida hikoya etish imkoni yo‘q, nimagaki, ularning ko‘pchiligining hayoti va ijodi hali o‘rganilmagan va ular haqida kam ma’lumotga egamiz.

Juda ko‘p manbalarda VIII—XIII-asrlarda hunarmandchilik, savdosoti, savdo yo‘llari, dehqonchilik, qurilish ishlarining avj olganligi, shuningdek, Samarqand, Buxoro, Shosh, Biskent, Axsi-kas, Farg‘ona, Quba, Marg‘inon, O‘sh, O‘zgan, Ustrushona, Xavokand, Xo‘jand, Jend, Urganch, Xiva, Marv, Termiz kabi qator rivoj topgan shaharlar, ulardagi me’moriy yodgorliklar, bozorlar, obodonchilik haqida muhim ma’lumotlar keltiriladi. Markaziy Osiyoda arab, fors va turkiy tillar keng tarqalganligi, aholi o‘rtasida, ayniqsa, turkiy va forsiy tildan keng foydalanilganligi haqida ham noyob ma’lumotlar serobdir.

Arab tili Markaziy Osiyoni islom dini, arab dunyosi, bu tilda yaratilgan madaniy-ma’naviy boyliklar, qilingan tarjimalar yordamida qadimgi islom ilmiy-madaniy boyliklaridan bahramand bo‘lishga olib kelgan bo‘lsa, fors tili qadimgi va o‘rta asrdagi Eron madaniyatini, she’riyatini chuqur o‘rganish, madaniy aloqalarni rivojlantirish imkonini berdi.

Keng tarqalgan turkiy til O‘rta Sharq va shimoldagi, Qoshg‘ardagi barcha turkiy tilli qabilalar bilan tarixiy keng aloqada bo‘lishga olib keldi. Ko‘p tillilik bu davr rivojlangan madaniyatining muhim xususiyati va muhim sabablaridan biri hamdir.

IX-XII-asrlar davomida Movarounnahr butun musulmon olamida ilmiy-madaniy jihatdan eng rivoj topgan o‘lka sifatida mashhur bo‘lib, bu erda qadimiyan analar bilan arab, fors, qisman hind hamda qadimgi yunon ilmiy-madaniy analari qorishuvi asosida islomiy, falsafiy va tabiiy ilmlar-astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, dorishunoslik, jug‘rofiya kabilar rivoj topdi. Bu yerda mashhur hadisshunoslik va islom fiqhshunoslik maktablari shakllanib, tarixshunoslikda muhim asarlar vujudga keldi.

Bu davr ma’naviyatining muhim tomonlaridan biri shundaki, olim, donishmand, shoirlarning ko‘pchiligi qomusiy bilimlarga ega bo‘lib, ilmlar bir-biridan ajralmasdan, uzviy bog‘liq holda mavjudligi xarakterli edi. Shuning uchun ham al-Forobiy, ibn Sino, al-Beruniy, az-Zamaxshariy, Ismoil Jurjoniylar juda ko‘p sohalarda ijod etib, o‘chmas iz qoldirdilar. Shu bilan birga matematika, astronomiya, tibbiyot, mantiq, tilshunoslik, tarix

kabi ilmlar, madaniyat, ma’naviyatning rivojida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etgan din, islom dinining nazariy masalalari bilan birga axloqiy tomonlari ham keng rivoj topganini ko‘ramiz. Umuman, bu davrda islom musulmon Sharqida nafaqat din sifatida, balki yaxlit madaniyat, ma’naviyatning shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. U madaniyatning boshqa sohalari: ilm-fan, san’at, axloq, siyosat kabilarning rivojiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Musulmon Sharqi, shuningdek, Markaziy Osiyo Uyg‘onish davri madaniyati yuqorida ko‘rsatilgan o‘ziga xos xususiyatlarni ifodaladiki, bu xususiyatlar bu yerda madaniyat, ma’naviyatning so‘nggi rivojini belgilashda yetakchi rol o‘ynadi.

IX-XII-asrlarda Markaziy Osiyoda tarqalgan va rivojlangan tasavvuf ta’limotlari va oqimlari ham jamiyat ma’naviy hayotining rivoji uchun xizmat etib, uning o‘ziga xosligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ma’lumki, G‘arb adabiyotlarida Ovro‘po mamlakatlarida keskin madaniy yuksalishga olib kelgan XV- XVII-asrlarni Renessans - Uyg‘onish davri nomi bilan yuritadilar. Biroq, ko‘philik mualliflar Sharqda shunday jarayon bo‘lganligidan ko‘z yumadilar. Holbuki, IX-XII-asrlarda Markaziy Osiyoda Ovro‘podan bir necha asr ilgari madaniy yuksalish yuz bergenligini hech kim inkor eta olmaydi. U Ovro‘podagidek yangi siyosiy-iqtisodiy jarayon, ya’ni burjua munosabatlarining vujudga kelishi bilan bog‘liq bo‘lman bo‘lsa-da, madaniyat tarixida so‘nmas iz qoddirdi va Ovro‘po Renessansining vujudga kelishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Shuning uchun biz IX-XII-asrlardagi Markaziy Osiyo madaniy yuksalishini Uyg‘onish davri, aniqrog‘i ilk Uyg‘onish davri deb atashga ham to‘la asosimiz bor. Bu ilk Uyg‘onish davri madaniyati siyosiy-iqtisodiy jihatdan Ovro‘po mamlakatlaridan farqli o‘laroq mustaqillikka erishish va bu mintaqada mustaqil davlatlarning vujudga kelish jarayoni bilan uzviy bog‘liqdir.

Bu davrda Markaziy Osiyoda arab, fors va turkiy tillardagi dastlabki she’riy asarlar vujudga keldi.

Bu davr madaniy yuksalishi haqida gap borar ekan, ma’naviyatga, Uyg‘onish davri madaniyatiga xos quyidagi xarakterli tomonlarni qayd etib o‘tish mumkin:

- koinotning vujudga kelishi, bosqichlari, olamning tuzilishi, modda va ruhning xususiyatlari kabi umumiylar masalalarga qiziqish;

- insonni koinotni Yaratguchining eng oliv mahsuli deb baholash. Avvalo ilm, inson ahli tafakkurini ulug‘lash, unga ishonch bildirish, targ‘ib-tashviq etish, ularni Yaratguchining eng ulug‘ va yuksak ijodi deb baholash, ma’rifat tarqatish, jamiyat, jamoani yaxshilikka eltish insonning muhim vazifasi deb bilish;

- axloq, odob, muomalani inson tarbiyasining asosiy maqsadlaridan deb bilish. Insonningadolat, yuksalish, ma’naviyatga intilishiga yo‘l ochish, imkoniyat yaratish. Aqlida, axloqda, ma’naviyatda yetuk bo‘lish, komil insonni yaratish, insonparvarlik, vatanga, odamlarga xizmat qilish, insonlar orasidagi do‘stlik, o‘zaro yordam, ko‘maklashuvga chaqirish bu davr madaniyatining yetakchi jihatlaridandir;

- komil inson rivojlangan davlatchilikda shakllanadi. Bunday davlatchilik esa aql va ilmga o‘zaro kelishuv, birlikka ega bo‘lish natijasida amalga oshiriladi. Mustahkam davlatchilik turli ilm-fan tarmoqlarining rivojini ta’minlaydi;

- mustahkam davlatchilik fozil jamoani vujudga keltira oladi - bu davlat, jamoaga rahbarlik, hokimlik qilayotgan shaxsning ma’rifatli, ilmli, axloqli bo‘lish, jamoani kelishib boshqara olishiga bog‘liqdir. Ma’rifatli shoh, jamoa yaratish, davlatchilikni mustahkamlash bu davr ijtimoiy ta’limotlarining muhim xislatidir.

XIII-asrning boshida Markaziy Osiyo xalqlari Chingizzon boshliq mo‘g‘ullar bosqiniga uchradi. Bu bosqin katta hududni o‘ziga bo‘ysundirgan Xorazmshohlar davlatiga qarshi shiddatli janglar bilan boshlandi, deyarli ikki yil davomida Movarounnahr ham bosib olindi, ko‘p shaharlar, madaniy yodgorliklar vayron etildi. Olimu fozilar o‘ldirishi, boshqa mamlakatlarga quvg‘in bo‘ldi, ilm-fan, madaniyat keskin tushkunlikka yuz tutdi. Lekin ilk Uyg‘onish, IX-XII asrlardagi madaniy yuksalish Markaziy Osiyoning so‘nggi ma’naviy rivojida o‘chmas iz qoldirdi.

Uyg‘onish, ya’ni Yevropacha aytadigan bo‘lsak, Renessans jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX-XII va XIV-XV asrlarda jahonning boshqa mintaqalarida Sharq uyg‘onish davri (Renessansi) sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda e’tirof etilgan.

Shu tarixiy davrda Sharq Uyg‘onish davrining o‘ziga xos xususiyati, avvalo, matematika, astronomiya, fizika, ximiya, geodeziya, farmakologiya,

tibbiyot kabi aniq va tabiiy fanlarning, shuningdek, tarix, falsafa va adabiyotning rivojlanishida yaqqol namoyon bo‘lganlini ko‘ramiz.

IX-XII asrlar o‘z mazmuni, salmog‘i jihatidan O‘rta Osiyo uyg‘onish davri deb tarixga kiradi. Bu davrning o‘ziga xos xususiyatlarida dunyoviy ma’rifatga intilish, bu yo‘lda o‘tmish va dunyodagi davlatlarning madaniyati yutuqlaridan keng foydalanish, ayniqsa tabiiy falsafiy, diniy, tarixiy hamda ijtimoiy ilmlarni rivojlantirishga e’tibor qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

O‘rta asrlarda Xorazm Ma’mun akademiyasi kutubxona, madrasa, tarjimon va xattotlar maktabi kabi tuzilmalarga ega bo‘lgan va unda yuzdan ortiq allomalar, iste’dodli talabalar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ularga Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Xo‘jandiy, Ahmad ibn Muhammad Xorazmiy va Ahmad ibn Hamid Naysaburiy kabi qomusiy olimlarni misol keltirish mumkin.

IX-XI asrlarda Xivada tashkil etilgan Ma’mun akademiyasi ilm-fan rivoji uchun beqiyos hissa qo‘shtigan. Zaminimizda yashab o‘tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahli tomonidan e’tirof etilmoqda. Masalan, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy o‘nlik sanoq sistemasini, algoritm va algebra tushunchalarini dunyoda birinchi bo‘lib ilm-fan sohasiga joriy etgan va va shu asosda aniq fanlar rivoji uchun o‘z vaqtida mustahkam asos yaratgan. Al-Xorazmiyning “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala” asaridan “Algebra” so‘zi olingan, bu asar hozirgi zamon algebra faniga asos soldi va shu tariqa matematika fanining keyingi asrlardagi rivojini, shu tariqa jahon fanining va keyingi asrlarda paydo bo‘lgan texnika fanlarining rivojini ta’minlab berdi.

Ahmad Farg‘oniy 861-yilda Qohira yaqinidagi Ravzo orolida nilometrni, ya’ni Nil daryosi suvi sathini belgilovchi uskunani yasagan. Uning astronomik asari “Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi” XII-asrdayoq Yevropada lotin tiliga ikki marta va XIII-asrda boshqa Yevropa tillariga ham tarjima qilinganidan so‘ng uning lotinlashtirilgan nomi “Alfraganus” shaklida G‘arbda bir necha asr davomida juda mashhur bo‘lib ketgan. Yevropa Uyg‘onish davrining buyuk namoyondalaridan biri bo‘lgan mashhur olim Regiomontan XV-asrda Avstriya va Italiya universitetlarida astronomiyadan ma’ruzalarni al-Farg‘oniy kitoblaridan o‘qigan. Al-Farg‘oniyning “Usturlob yasash haqida kitob” — qo‘lyozmalari Berlin, London, Mashhad, Parij va Tehron kutubxonalarida, “Usturlob bilan amal

qilish haqida kitob”ning birgina qo‘lyozmasi Rampurda (Hindiston), “Al-Farg‘oniy jadvallari” - qo‘lyozmasi Patnada (Hindiston), “Oyning yer ostida va ustida bo‘lish vaqtlarini aniqlash haqida risola” qo‘lyozmalari Gota va Qohirada, “Quyosh soatini yasash haqida kitob” qo‘lyozmalari Halab va Qohirada saqlanadi.

Abu Rayhon Beruniy to‘g‘risida eng tugal ta’rifni yirik nemis sharqshunosi Karl Eduard Zaxau bergen: “Dunyoda tog‘lar ko‘p, lekin ular orasida shunchalik yuksak bir cho‘qqi borki, bu cho‘qqini insoniyat hech qachon zabit etolmaydi. Bu -Beruniydir”. Amerikalik fan tarixchisi Sarton XI-asrni «Beruniy asri» deb ta’riflaydi. Beruniy Xorazm, Kat, Gurganj bilan bog‘liq joylar, shahar va qishloqlarning jo‘g‘rofiy kengliklarini va ular orasidagi masofalarini aniqlab, ushbu joylar tushirilgan Yer kur’asi modelini yasadi. Bu insoniyat tarixida ilk bor yaratilgan yarim shar ko‘rinishidagi o‘ziga xos globus edi. Beruniy minerallar tasnifi va ularning paydo bo‘lish nazariyasini ishlab chiqdi, geodeziya faniga asos soldi.

Abu Ali Ibn Sino nomi ham dunyo fani va madaniyati tarixiga zarhal harflar bilan bitilgan. Yevropada Avisenna nomi bilan tanilgan, o‘z faoliyatida 450 dan ortiq asar yozgan qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino ta’limotlari ham bugun o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ularning aksariyati avvalo tibbiyot va falsafa, shuningdek, mantiq, kimyo, fizika, astronomiya, matematika, musiqa, adabiyot va tilshunoslik sohalariga bag‘ishlangan. Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Frengis Bekon va boshqa ko‘plab olimlar avlodi uning asarlarini o‘qib, hayratga tushganlar. Ibn Sinoning “Tib qonunlari” deb atalgan o‘zining bebaho fundamental asari Yevropada XV-asrda chop etilgan dastlabki kitoblardan biri bo‘lgan va Yevropaning etakchi universitetlarida qariyb 500 yil davomida o‘qitilgan.

X-asrning qomusiy allomasi Abu Nasr Forobiyni zamondoshlari, universal bilimlarga ega bo‘lgani bois, “Sharq Aristoteli” deb ataganlar.

U ko‘plab fanlarni ilmiy kashfiyotlar bilan boyitdi, turli mamlakatlar olimlarining falsafiy qarashlarini rivojlantirdi va 160 dan ortiq asar yozdi. Forobiy asarlarining asosiy qismi ko‘plab Yevropa va Sharq tillariga tarjima qilingan va hozirgi kunga qadar chuqur tadqiqotlar mavzusi bo‘lib kelmoqda.

Bu alloma yashagan davrda hali astrologiya bilan astronomiya o‘rtasida aniq chegara mavjud emas edi. Al-Farobiy o‘zining “Risolat fi ma yasixxu va ma lam yasaxxi fi ahkam an-nujum” (“Traktat o dostovernom i nedostovernom v nauke, o zvezdax”) va “Ixsa al-ulum” (“Opisanie nauki”)

asarlarni yozib astronomiya bilan astrologiya o‘rtasidagi aniq chegarani ko‘rsatgan.

Butun dunyoda buyuk ajdodlarimizning so‘nmas dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o‘rganishga qiziqish hamisha yuqori bo‘lgan. Buning tasdig‘ini turli mamlakatlarda ularning hayoti va faoliyati haqida ilmiy va badiiy asarlar yaratilgani, ulug‘ ajdodlarimiz xotirasiga yodgorliklar barpo etilganida ham ko‘rish mumkin. Belgiya va Latviyada Ibn Sinoga, Latviyada Mirzo Ulug‘bekka, Yaponiya, Rossiya va Ozarbayjonda Alisher Navoiyga, Misrda Ahmad Farg‘oniya o‘rnatilgan haykallar xalqimiz tarixiga chuqur hurmat ifodasidir.

O‘rta asrlarda yashab ijod qilgan, jahon sivilizatsiyasi rivojiga beba ho hissa qo‘shgan Sharq allomalari va mutafakkirlarining qomusiy bilimlari oldida hayratlanamiz. Afsuski, o‘sha tarixiy davrlarda yuz bergen har xil fojialar, urushlar, tabiiy ofatlar natijasida ular qoldirgan buyuk merosning, bir qismigina bizgacha etib kelgan, xolos. Tarixning zulmat va jaholat hukmronlik davrlarida olimlar quvg‘in va ta’qibga uchrashi, shunday paytda ham irodali va qatiyatli bo‘lib o‘z maqsadi va intilishidan qaytmasligi o‘sha davrni jasorati sifatida e’tirof etish mumkin.

O‘z davrida hozirgi zamon ilm-fanining ilk poydevorini qo‘ygan va rivojlantirgan ajdodlarimiz qadim-qadimlardan G‘arb Sharq xalqlari yaratgan tafakkur, g‘oya, kashfiyotlar va donishmandlikni sinchiklab o‘rganganlar. Shuning uchun ham o‘rta asrlarda G‘arbda “Nur Sharqdan taraladi” degan iboraning paydo bo‘lishi ham bejiz emas.

Buyuk tarixga ega bo‘lgan xalqning ma’naviyati ham buyuk bo‘ladi. Chunki buyuk ma’naviyatga ega bo‘lмаган xalq, buyuk tarix yarata olmaydi.

2.2. Bag‘doddagi “Bayt ul-hikma” va unda dunyoviy fanlarning rivojlanishi

“Bayt ul-hikma” yoki “Donishmandlar uyi” – Bag‘dod shahrida xalifa al-Ma’mun tomonidan 820-yillarda tashkil qilingan islom akademiyasi. Al-Ma’mun mutaziliylar ta’limotiga qiziqqan va uning niyatiga ko‘ra, Donishmandlar uyi mazkur ta’limot tarafдорларини ilohiyotga oid munozaralarini va mushohadalarini olib borishda boy faktik materialllar, avvalmbor falsafiy asarlar bilan ta’minlashi lozim edi. Bag‘dodga xalifalikning barcha viloyatlaridan buyuk olim-u ulamolar olib keldi, ulardan

ko‘pchiligi O‘rta Osiyo va Erondan keltirilgan edi. Donishmandlar uyiga Sahl ibn Xorun rahbarlik qildi. Bayt ul-hikma qoshida “Xizanat al-hikma” kutubxonasi” bo‘lgan. Akademianing asosiy vazifalaridan biri astronomiya, matematika, meditsina, alkimyo, falsafa bo‘yicha hind va qadimgi yunon mualliflari asarlarni arab tiliga tarjima qilishdan iborat edi. Al-Ma’munning tashabbusi bilan Vizantiyaga, Lev V Armani oldiga elchilik jo‘natilib, u erdan qimmatli yunon qo‘lyozmalarini keltirishlari kerak edi. Donishmandlar uyidagi tarjimonlarning boshlig‘i etib nestorian Husayn ibn Ishoq tayinlandi. U 4ta tilni bilgan, tarjima qilgan asarlar miqdoriga qarab mehnati uchun oltin pul bilan maosh olgan. U arab tiliga Aflatun, Arastu, Gippokrat, Galen, Dioskorid asarlarini tarjima qilgan. Ayniqsa astronomik kuzatuvlarga katta e’tibor berilgan edi. Bu kuzatuvlarning maqsadi shundan iborat bo‘lganki, qadimgi yunon va hind asarlaridagi ma’lumotlarning tekshirish va aniqlash kerak edi. Al-Ma’mun davrida, 829-yilda Bog‘dod yaqinidagi Shammasiya degan joyda observatoriya qurildi. Al-Ma’munning tashabbusi bilan 827-yilda Sinjar yonidagi vodiyya geodeziya ishlari amalga oshirildi va bu ishlar natijasida yer meridianining 1° yoyining uzunligi hisoblab chiqildi. Bu ishlar Eratosfen tomonida topilgan yer o‘lchamlarini aniqlash maqsadida qilinki, chunki qadimgi yunon va arab uzunlik birliklari orasidagi noma’lum mutanosiblikni topish lozim edi. Aytish kerakki, o‘rta asr arab astronomlari tomonidan olingan natija hozirgi zamonaviy natijadan faqat 1% ga og‘adi, xolos.

Bayt ul-Hikmada turli davrlarda al-Xorazmiy, Ibn Turk, al-Farg‘oniy, al-Javhariy, Habash al-Hasib, al-Kindiy, aka-uka Bonu, Muso al-Mahaniylar, Sobit ibn Kurra, Kusta ibn Lukka, an-Nasroniy, al-Axvaziy, Abu-l-Vafo, al-Ko‘xiy kabi mutafakkir olimlar faoliyat ko‘rsatgan edilar.

1258-yil 12-fevral kuni Bag‘dodga mo‘g‘ul xoni Xulaguning qo‘sishlari bostirib kiradi va buning natijasida Bayt ul-Hikma vayron qilinib, unda saqlangan kitob-u qo‘lyozmalar Dajla daryosiga uloqtirib yuboriladi. Ayrim manbalarda yozilganidek, o‘sha kuni Dajla daryosining suvi qop-qora tusga kirib oqqan ekan.

Bayt ul-Hikma Bag‘dodning Katta kutubxonasi nomi bilan ham mashhur bo‘lgan. U nafaqat Abbosiylar davlatidagi, balki butun O‘rta asrlar dunyosidagi eng yirik akademik va intellektual markaz bo‘lgan. Aynan Bayt ul-Hikmaning gullab-yashnagan davriga Musulmon Uyg‘onishi davri to‘g‘ri keladi va bu davrning shuningdek, Islomning oltin asri deb ham atashadi.

Mo‘g‘ullar bosqini davrida ko‘plab yozma manbalar, moddiy yodgorliklar, kutubxona binosi yo‘q qilingani uchun Bayt ul-Hikmaga asos solingan vaqt aniqlanmagan, uning funksiyalari, maqomi hanuzgacha olimlar orasida babs va munozara sabab bo‘lib kelmoqda. Donishmandlar uyiga kim asos solgani masalasi ham babsli bo‘lib, ayrimlar uni Abbosiylar xalifasi Abu Ja’far al-Mansur (754-774-yillarda hukmronlik qilgan) bo‘lgan deb, u meditsina, astronomiya, texnika va adabiyotga oid kitoblar kollektiyasini jamlagan, deb ta’kidlaydilar. Bu kitoblarning asosiy qismi antik davrga oid bo‘lib, bu xalifa davrida arab tiliga tarjima qilingan edi. Shuningdek, xalifa Abu Ja’far al-Mansur islom tarixi va Qur’oniy ilmlarga oid, Hadislarga oid asarlarni ham to‘plagan edi. Bu kollektsiya katta imorat ichida jamlangan bo‘lib, Donishmandlar uyi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan ekan.

Xalifa Abu Ja`far al-Mansur musulmonlarni ilm o‘rganishga va turli ilmlarni rivojlantirishga undagan birinchi xalifa edi. U fors, qadimgi yunon va hind tillarida yozilgan qo‘lyozmalarni tarjima qilgan olimlarni rag‘batlantirgan. Uning davrida astronomiyaga oid mashhur “Al-Sind Hind”, matematikaga oid asarlar, Arastu, Evklid, Ptolemey asarlari tarjima qilindi. Boshqa olimlar fikricha, Donishmadlar uyi Abbosiylar xalifasi Xorun ar-Rashid (786-809-yillarda hukmronlik qilgan) asos qilingan edi. Bu xalifa davrida xalifalik sivilizatsion va intellektual taraqqiyotga erishdi. Arab, fors va suriyalik olimlar rahbarligida kitoblar arab tiliga tarjima qilindi va buning maqsadi musulmon tafakkurii turli bilimlar va ilmlar bilan boyitishdan iborat edi. Bunday fikr tarafдорлари quyidagilarga asoslanadilar: Ibn an-Nadim o‘zining “Al-Fixrist” nomli asarida “Abu Sahl al-Fadl ibn Nubaxt Al-Rashid kitoblarni saqlayotgan joyning yaqinida turgan edi”, deb yozgan. Yoqut al-Hamaviy esa Donishmandlar uyi Xorun ar-Rashid davrida ham mavjud bo‘lgan, deb yozib qoldirgan.

Uchinchi fikrga ko‘ra, Bayt ul-Hikmaga xalifa Abdulloh Al-Ma’mun (813-833 yillarda hukmronlik qilgan) davrida asos solingan. Bu fikrni ayrim G‘arbiy Evropa sharqshunos olimlari ham qo‘llab-quvvatlashmoqda. Masalan, britaniyalik sharqshunos De Leysi O‘Liri (1872-1957) fikricha, Bayt ul-Hikma Al-Ma’mun tomonidan qurdirilgan. Bunday nuqtai nazar Maks Meyerxof va Uilyam Jeyms Dyurant asarlarida ham uchraydi. Shunisi aniqki, Donishmandlar uyi Al-Ma’mundan ancha oldinroq mavjud bo‘lgan. Al-Ma’munning o‘zi adabiyot va ilm bilan shug‘ullangani, olimlarni qo‘llab-quvvatlagani, ilm bilan shug‘ullanishga rag‘batlantirgani tufayli, uning

davrida Bayt ul-Hikma gullab-yashnagan davrini kechirdi. Donishmandlar uyi Qadimgi Misrdagi Aleksandriya kutubxonasi, Qadimgi Ossuriyadagi Ashgshurbanipal kutubxonasi singari ulkan ilmiy va intellektual markaz bo‘lgan. Afsuski, mo‘g‘ul qo‘sinchilari tomonidan vayron qilinganidan keyin, mazkur muassasa haqida juda kam arxeologik va yozma dalolatlar qoldi. U haqdagi bilimlarning katta qismi At-Tabariy, Ibn an-Nadim kabi o‘sha zamondagi olimlarning asarlaridan olingan.

Shuni aytish kerakki, musulmon dunyosi qog‘ozni yaratish va kitob bosish san’atini VIII asrdayoq bilgan edi. Aynan musulmonlar Hindistonni va butun Evropani qog‘oz ishlab chiqarish bilan tanishtirgan edilar. Dastlabki xalq kutubxonalari Bag‘dod, Qohira va Kordova paydo bo‘lgan. Ularda saqlanayotgan kitoblar qog‘ozdan edi. Islom dinida tirik jonzotlarni tasvirlash man etilgani tufayli, bunday kutubxonalardagi kitoblarning atributlaridan biri xattotlik edi. Musulmon dunyosida Bayt ul-Hikma, Dor ul-Hikma, Xizamat al-Hikma, Dar al-ilm, Dar al-Kutub, Xizamat al-Kutub, Bayt al-Kutub, Kitob-xona (Eron), Kutufan (Turkiya) kabi kutubxonalar mashhur bo‘lgan. Bu muassasalar madrasa, xalq va xususiy kutubxonalar, saroy va imperator kutubxonalari bo‘lgan.

Olimlarning fikricha, dastlabki arab kutubxonasiga Ummaviylar xalifasi Muoviya ibn Abi Sufiyon (602-680) Damashqda (Suriya) asos solingan. Kitoblarning ko‘pchiligi masjidlarda foydalangan. Masjid va madrasalardagi kitoblar yunon, pahlaviy, suriya, sanskrit tillaridan arab tiliga tajima qilingan. O‘sha davrdagi diniy, ilmiy va falsafiy masalalarning katta doirasi bo‘yicha ma’ruzala, bahs va munozaralar m asjidlarda ham muhokama qilingan. XIV asrda mashhur sayyoh Ibn Battutaning yozishicha, Damashqdagi kitob bozori Ummaviylarning mashhur masjidi yonida joylashgan edi. U erda kitoblardan tashqari qamishdan qilingan qalamlar, siyoh, charm, qattiq va nafis qog‘oz, elim sotilardi. An'anaviy ravishda musulmonlarp o‘z kitob to‘plamlarini masjidlarga meros qoldirganlar.

Ayniqsa, Abbosiylarning Bag‘doddagi “Bayt ul-Hikma”si, Kohiradagi Fotimiylarning kutubxonasi va Kordova Ummaviy xalifalarining kutubxonasi mashhur bo‘lgan. Ayrim kutubxonalar xususiy mulk bo‘lgan, boshqalari xalifalar, amirlar, sultonlar va vazirlar tomonidan ta’sis etilgan. Masalan, Mosul shahrida Abbosiylar asos solgan “Xizamat al-Kutub” nomli katta kutubxona bo‘lgan. X asrga kelib Basra, Isfaxon, Nishopur, Ray,

Damashq va Kohirada ko‘plab kutubxona va maktablar qurildi. Ularning ayrimlari Ibn an-Nadimning “Katob al-Fixrist” bibliografik asarida, Ibn al-Kiftiyning «Ta’rix al-Hukamo», Ibn Abi Usaybiyaning «Uyun al-Anba fi-Tabakot al-Atibba», Ibn Juljulning «Tabakot al-Atibba va'l-Hukamo” kabi tarjimayi hollarida sanab o‘tilgan. Ushbu asarlarda XIII-asrgacha ijod o‘qilgan barcha musulmon olimlari va faylasuflari haqida tarjimayi hollar va bibliografik ma’lumotlar mavjud. Islom fani tarixini tadqiq qilgan zamonaviy tarixchi va bibliograflar, shu jumladan Jorj Sarton, Karl Brokelman, Fuat Sezgin kabi olimlar islom ilmi tarixi bo‘yicha qo‘lyozmalar va bosma kitoblar ro‘yxatini tuzganlar.

Bayt ul-Hikma kutubxona, tarjimalar bo‘limi, observatoriylar, qiroatxonalar, olimlar uchun turar joylar, ma’muriy binolardan iborat bo‘lgan. Bu yerda ishlagan Elan al-Shaubiy rahbarligida qadimgi qo‘lyozmalar ko‘chirilgan. Abu Sahal va Abu al-Fazal ben Naubaxt kutubxonani kengaytirish ishlari bilan shug‘ullanishgan. IX-asrdan boshlab kutubxonalarda aniq fanlar bo‘yicha kitoblar paydo bo‘la boshladi. Vazir Yahyo bin Xolid Barmakiy hind olimlarini taklif qilib, sanskrit kitoblarini arab tiliga o‘girishni buyurgan edi. Yahyo Barmakiyning o‘zi eronlik bo‘lib, uning fors tilida yozilgan asarlari Abu Sahal va Abu al-Fazal tomonidan arab tiliga tarjima qilingan edi. Xorun ar-Rashid o‘zining Rim va Amudiyadagi sarguzashtlari haqidagi kitoblarni olganida, ularni bu yunon tilidagi asarlarni arab tiliga tarjima qilishni Yoxan Ma-Saiayaga buyurdi.

Bayt ul-Hikmada barcha mavzular va barcha tillardagi asarlar jamlangan edi. Xorun ar-Rashid turli mamlakatlarga elchilarini yuborib, ularga u erlardan kitoblar keltirishni buyurgan edi va ularni sotib oldi, buning natijasida kutubxonani sanskrit, fors, suriya, kopt tillaridagi kitoblar va qo‘lyozmalar bilan boyitgan edi.

Ibn an-Nadim o‘zining “Kitob al-Fixrist” (987-yilgacha yozilgan kitoblar ko‘rsatkichi) va Usmonlilar imperiyasidagi olim Xoja Xalifa (Katib Chalabiy, 1657) o‘zining “Kasha al-Zanun” asarida Bayt ul-Hikmada tarjima qilingan barcha kitoblarni sanab o‘tishdi. Bu kitob va qo‘lyozmalarni hind, yahudiy, fors va xristian olimlari tarjima qilishgan. Ularga maosh ham to‘langan.

Xorun ar-Rashidning o‘limidan (809-y.) so‘ng, uning vorisi Ma‘mun al-Rashid (833-y.) kutubxona uchun noyob qo‘lyozmalarni sotib oldi, ular ichida islomoldi davri she’rlari, madhiyalar, hamdu-sanolar, hukumat

hujjatlari, davlatlararo xatlar va kelishuvlar bor edi. Masalan, Bayt ul-Hikma arxivida Payg‘ambar Muhammad S.A.V.ning bobosi Abdul Muttalib bin Xoshim tomonidan to‘langan qarz haqidagi kelishuv (578-y.) bor edi.

Xalifa Ma’mun Sitsiliya hukmdoridan hech bir tirik jonzotning qo‘li tegmagan va oroldagi tashlandiq uyda saqlanayotgan kitoblarni yuborishni so‘radi. Bu kitoblarni olgach, Ma’mun ularni tarjima qilish uchun kutubxona mudiri Sahal bin Xorunga beradi. Ma’mun vizantiyaliklarga qarshi urushda g‘alaba qozonganidan so‘ng, keyinchalik imzolangan tinchlik shartnomalarida u ayrim yunon qo‘lyozmalari Bag‘dodga yuborilishi kerak degan shartni qo‘ygan edi. Shu maqsadda matematik va tarjimon Al-Xaj ibn Yusuf ibn Matar tanlangan edi. Bayt ul-Hikma tarkbiga direktor (boshqaruvchi), mirzolar, tarjimonlar, astronomlar, boshqa olimlar va kitobatchilar kirgan. Bu yerda faoliyat yuritayotgan xodimlar turli konfessiyalarga mansub bo‘lib, parslar, xristianlar, yahudiylar, hinduiylar ishlagan va ular orasida eng mashhurlari Xunayn ibn Ishoq, Hakim Ro‘yoniy, Yoxanna Masaviyya, Kusta ibn Luka, Sahal ibn Xorun, Muso al-Xorazmiy, al-Fadl ibn Navbaxt va boshqalar bor edi. Bu erdagisi o‘qitish ilohiyot, algebra, geometriya, fizika, biologiya, tibbiyot va mantiq fanlarini o‘z ichiga kiritgan.

Bayt ul-Hikma juda katta binoda joylashgan bo‘lib, keng xonalar va kitob saqlanadigan xonalardan iborat bo‘lgan. R.Gizzatullinning yozishchicha, u yerda quyidagi bo‘limlar ishlagan:

- 1) Adabiyotlarni qabul qilish bo‘limi;
- 2) Qiroatxona;
- 3) nusxa ko‘chirish va muqovalash bo‘limi;
- 4) geografik va astronomik xaritalar bo‘limi;
- 5) o‘quv bo‘limi;
- 6) Tarjima qilish va kitob tuzish bo‘limi

Bayt ul-Hikmada faoliyat yuritayotgan olimlar barcha xohlovchilarni tabiatshunoslik, tarix, geografiya, musiqa, falsafa, astronomiya, tibbiyot va islom ilmlariga o‘rgatishgan, iqtidorlilar esa tajribali ustozlar rahbarligida tadqiqotlar bilan shug‘ullanishgan.

Xalifalar al-Mansur, ar-Rashid va al-Ma’mun uchun qadimgi yunon tilidan Batrik va uning o‘g‘li Yahyo ibn al-Xajjoj ibn Matarlar, Salom al-Abrash, Abd al-Masih ibn Na’ima al-Ximsi, Xusayn ibn Batrik, Xilol ibn Abu Xilol al-Ximsi, Ibn Ava, Abu al-Faraj ibn as-Salt, Yahyo ibn Adiy, Ibn

Rabita, Iso ibn Nuh, Kista ibn Luka al-Ba'labakiy, Xunayn ibn Ishoq, Sobit ibn Kurra, Ibrohim ibn as-Salt va boshqalar, fors tilidan Abdulloh ibn al-Mukaffi', Yusuf ibn Xolid, al-Hasan ibn Sahl, al-Bilaziriy va boshqalar, hind tilidan Mink al-Hindi, nabateya tilidan Abu Bakr Axmad ibn Ali ibn al-Vaxhiya tarjima qilishgan. Xorun ar-Rashid Abdulmalik al-Asmo'ga tarixdan kitob yozish vazifasini bergen. Bayt ul-Hikmada al-Xorazmiy, Ibn Turk, al-Farg'oniy, al-Javhariy, Habbash al-Hasiba, al-Kindiy, aka va uka Bonu Muso, al-Mahoniy, Sobit ibn Kurra, Kusta ibn Luka, an-Nasroniy, al-Axvaziy, Abu-l-Vafo, al-Ko'hiy kabi yetuk olimlar faoliyat yuritganlar.

Abbosiylar olimlarni rag'batlantirgan. Arablar qadimgi yunon, vizantiya, hind tillaridan tarjima qilingan qo'lyozmalar o'rgana boshlaganlap. Abu Ja'far al-Mansur hukmronlik yillarida (752-774) bir qator kitoblarni o'zi uchun tarjima qilib berishni buyurgan. Masalan, Xunayn ibn Ishoq tomonidan Gippokrat asarlari, Ibn al-Mukaffiy tomonidan sanskritrat arab tiliga "Patachantra" asari hamda Evklidning matematikadan kitobi tarjima qilingan. Shuningdek, bu xalifa buyurtmasiga ko'ra Hadislar, tarix va pedagogikaga oid asarlar yozilgan. Ammo tibbiyot, astronomiya, matematikadan ko'pchilik asarlar Xorun ar-Rashid davrida tarjima qilindi.

Xalifa al-Ma'mun zamoni ilmiy taraqqiyot va tarjimonlik faoliyatining gullab-yashnagan davri bo'ldi. Al-Ma'mun ayrim vizantiyalik hukmdorlar bilan tinchlik shartnomalarini tuzib, unga qimmatli kitoblarni yuborishni shart qilib qo'ygan edi. Masalan, Klavdiy Ptolemeyning "Almagest" kitobi Vizantiya va Abbosiylar xalifaligi o'rtasidan tinchlikni o'rnatishda shartlardan biri bo'lган. Tarjima qilingan asarlar asosida kitoblar, asarlar va ilmiy adabiyotlar tuzilgan va bularning barchasi maorifning rivojiga olib kelgan. O'sha davrda: "Kitoblarni tuzish davlat xizmatidan keyingi faxriy o'rinni egallagan", deyilgan.

Bayt ul-Hikma butun islom dunyosida obro'li maqomga erishganidan keyin, boshqa mintaqalardagi hukmdorlar ham bunday akademiya va kutubxonalarga asos solishga kirishdilar. Bu islom dunyosidagi ilm-fan va ta'lim rivojida katta iz qoldirdi va buning natijasida quyidagi kutubxonalarga asos solindi:

1. Bayt ul-Hikma al-Aglabiy, Rakkada hukmdori Ibrohim ibn Ahmad al-Aglabiy (875-902) tomonidan asos solingan. Rakkada – hozirgi Tunishududida Aglabiyalar sulolası davrida (800-909) qurilgan shahar.

2. Andalusiyadagi Dar al-Hikma kutubxonasi, Andalusiyadagi Ummaviylar xalifasi al-Hakam al-Mustansir (961-976) tomonidan asos solingan.

3. Kohiradagi Dar al-Hikma kutubxonasi, Fotimiylar xalifasi al-Aziz Billoh (975-1006) hukmronligi davrida asos solingan.

Bayt ul-Hikma olimlar e'tiborini o'ziga tortgan va xalifalikning yaqin va uzoq hududlaridan shogirdlar bu yerga kelib ta'lim olishgan. Bag'dodda o'qishni biritgan shogirdlar o'z vatanlariga qaytib, uning madaniyati, an'analari, bilimlari va ilmiy asarlarini olib ketishgan. Bag'dod ilm-fan va ma'rifat markazi sifatida tanildi. Ibn Hazm al-Andalusiya aytganidek: "Bag'dod – jahondagi bosh shahar, barcha ezgu ishlarning manbai va bilim hamda chuqr tadqiqotlarga intilayotgan olimlarning dargohidir...". Bag'dodga o'sha zamondagi yetuk olimlar ham tashrif buyurishgan va uning madaniy darajasidan lol qolganlar.

Afsuski, mo'g'ul bosqinchilarin insoniyatning Bayt ul-Hikmadagi qimmatbaho mehnatlarini Frot daryosiga uloqtirib tashlashdi va suvlar Islom akademiyasida saqlangan ko'p asrlik yozma merosni oqizib yubordi.

2.3. Musulmon Sharqi olimlari asarlarida ilmlar tasnifi muammosi

Xorazmiy, Kindiy, Farobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Hayyom va ularning boshqa zamondoshlarining ilmiy dunyoqarashi hamda bilimlar manbai va ob'ekti tahlilidan ayon bo'ladi. Bilish jarayoni qanday bosqichlardan tashkil topgan hamda bilish va amaliy faoliyat o'rtasida qanday munosabatlar mavjud degan savol ularni doimo qiziqtirib kelgan.

Al-Xorazmiy Muhammad ibn Musoning matematikaga oid risolasi, Al-Kindiyning "Arastuning kitoblari miqdori va yana falsafani o'zlashtirish uchun nima zarurligi haqida risola"si, "Dastlabki falsafa to'g'risida", "Besh mohiyat to'g'risida kitob", "Paydo bo'lish va yo'q bo'lishning yaqin tasvirlari jzohi", Al-Farobiyning "Aql ma'nolari to'g'risida", "Fozil odamlar shahri", "Baxt-saodatga erishuv to'g'risida", "Ilmlarning kelib chiqishi", "Almagest, Ptolomeyga izoh", "Ixso-ul-ulum", Ibn Sinoning "Kitob ash ishorat va at tanbiqot", "Donishnama" (mutlaq baxt ham, mutlaq baxtiqarolik ham yo'q), "Hay ibn Yaqzon" va boshqa asarlarida, Abu Rayhon Beruniy "Masud qonuni", "Dorivor o'simliklar haqida kitob", "Saydana", "Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar",

“Yodgorliklar”, Abdurahmon Jomiyning “Musiqa” risolasi hamda Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” kabi asarlari katta qiziqish uyg’otadi.

Al-Xorazmiy bilish faoliyatini nazariyasiga ulkan hissa qo’shgan. U bilishning tajriba-kuzatuv va eksperiment metodiga asos solgan. Xorazmiy tomonidan quyidagi umumdidaktik tamoyillar hamda metodlar va shakllar asoslاب berilgan: mustaqillik; ijodiy faollik; kuzatilgan faktlarni va hodisalarini tasvirlash va uni muntazam bayon qilish; tajriba-kuzatuv; eksperiment metodi; induktsiya va deduktsiya aspektida yakkalik va umumiylig birligi tamoyili; o’qitishning savol-javob shakli.

Al-Xorazmiyning salafi Al-Kindiy mohiyatni barcha nazariy bilimlarning bosh mavzusi, deb qaraydi. U avvalo miqdor va sifatni hissiy idrok qilish zarurligini ta’kidlaydi.

Kindiy ilmiy bilishning uch pog’onali konsepsiyasini ilgari suradi tabiiy fanlar, mantiq va matematikadan bilimlar metafizika muammosiga olib keladi. Kindiy o’z falsafiy qarashlarini asoslashda ilmiy bilishni diniy bilimlarga qarama-qarshi qo’yan holda matematika va tabiiy fanlarga alohida ahamiyat beradi. Kindiy inson bilimlari hissiy va aqliy bilimlarga bo’linadi, deb hisoblaydi. Uningcha, hissiy bilimlar o’z predmeti bilan bog’langan bo’lib, uning obyekti inson tanasi va barcha materiallardir. U ta’kidlaydiki, agar hissiy bilimlar yakka bilimlardan iborat bo’lsa, aqliy bilimlar esa umumiylig bilimlardir. Kindiy fikricha, haqqoniylilik bilish va o’zining xatti-harakatlarini haqqoniylilik bilan muvofiqlashtirishda, kishi ongidagi uning sabablarini aniqlash kaliti yordam ko’rsatadi.

U shunday yozadi: “Sababini topgan holatdagina biz haqiqatning tagiga eta olamiz. Har qanday narsaning mohiyatini anglash esa haqiqatni bilish uchun zarurdir. Negaki mavjud narsalarning barchasi haqiqatdan iboratdir. Haqiqatni idrok bo’ladi, binobarin, mavjud narsalarni hammasini anglamoq mumkin”.

Bilish jarayoniga Farobiy alohida ahamiyat beradi. U o’zining “Aql ma’nolari to’g’risida” va “Baxt-saodatga erishuv to’g’risida” asarlarida insonlarning bilimga bo’lgan intilishlarini har tomonlama keng yoritishga harakat qiladi. U shunday yozadi: “Kishi biror buyum haqida bilishni istasa, uning qandaydir bir holatini biladi va ongini o’sha predmet shaklidagi bilimga yo’naltiradi. Bu o’zi intilgan haqiqatni qidirish demakdir”.

Fanlarning dastlabki muayyan darajada izchil tasnifini Aristotel falsafiy merosida ko’rishimiz mumkin. U o’sha davrda falsafaga mos kelgan

barcha bilimlarni 3-qismga: nazariy, amaliy va ijodiy bilimlarga ajratadi. O‘z navbatida, nazariy bilimlarni Aristotel “birinchi falsafa” – metafizika, matematika va fizikaga ajratadi.

Aristoteldan so‘ng izchil fanlar tasnifini taklif qilgan olimlar Markaziy Osiyodan chiqqan buyuk mutafakkiri – Abu Ali Ibn Sinodir.

Ibn Sino o‘zi taklif qilgan fanlar tasnifida nazariy va amaliy fanlarning aloqasiga o‘ziga xos tarzda yondoshdi, nazariy fanlarda birlamchi fanlarni, ya’ni oliv fan – metafizikaga bo‘ysunuvchi “sof” fanlarni ajratdi. Metafizika esa, o‘z navbatida, universal va ilohiyga ajraladi. Agar universal metafizika tabiiy fanlar asoslarini o‘rgansa, ilohiy metafizika emanatsiya, ya’ni amaliy fanlarga o‘tish vazifasini bajaradi.

2.4. Sharqdagi ilk madrasalar va ulardagi ta’lim tizimi

Madrasa (arab. darasa - o‘rganmoq) - musulmonlarning o‘rta va oliv o‘quv yurti. Madrasa ulamolar va maktabdorlar, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida davlat organlari xizmatchilarini ham tayyorlaydi. VII-VIII asrlarda islom dini ulamolari musulmon ilohiyoti masalalarini sharhlab berib turadigan markaz sifatida arab davlatlarida paydo bo‘lgan. IX-XIII-asrlarda islom diniga e’tiqod qilinadigan mamlakatlarda, jumladan, O‘rta Osiyoda tarqaldi.

Madrasalarda milliy ziyolilar tayyorlangan. Movarounnahr va Xurosonda, Shom, Ko‘fa, Bog‘dod, Hijoz, Misr kabi o‘lkalarda minglab madrasalar ishlab turgan. Ushbu madrasalarda ilmlar diniy va dunyoviylikka ajratilmasdan, Qur‘on, hadis, fiqh, aqida kabi ilmlar qatorida falsafa, tibbiyat, jug‘rofiya, handasa, adabiyot kabi fanlar o‘qitilgan. Islom olamidagi ilk madrasa Buxoroda IX -asr boshida hanafiy mazhabni faqihlaridan Abu Hafs Kabiyr Buxoriy (767-832 yy) rahnamoligida asos solingan. Bu madrasa manbalarda “Forjak” madrasasi deb zikr qilingan. “Forjak” madrasasi tarixi ko‘pgina manbalarda “Abu Hafs madrasasi” deb, zikr qilinadi. Jumladan: Tojiddin Subukiyning “Tabaqot ash-shofiiya al-kubro”, Ibn Kasirning „Al-bidoya va-n-nihoya“ asarlarida, Nishopurlik olim, Muhammad ibn Ahmad ibn Ali ibn Shahivayh Abu Bakr Al-Qozi Al-Farisiy (h.361-971y vafot.) Nishopurda bir muddat imom bo‘lib, so‘ng Buxoroga kelib, “Abu Hafs madrasasi”da dars berganligi ta’kidlanadi. Bu madrasa ko‘pgina Imom Buxoriy, Ibn Sino, Farobiyl va juda ko‘plab Buxoro zaminiga kelib ilm olgan kishilarga ilm maskani sanalgan. Abu Bakr

Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida yozilganidek, 937-yilgi yong‘inda “Forjak” madrasasi zarar ko‘rgan. Hozirda uni binosi saqlanmagan.

Madrasalarning xon madrasalari, eshon madrasalari, xususiy madrasalar kabi turlari bo‘lgan. Madrasa mutaxassislari madrasani ta’minlash uchun maxsus mulk — vaqf ajratishgan va bu mulkni boshqaruvchi mutavvalini tayinlashgan. Madrasalarning vaqf daromadlaridan bir qismi vaqf mulkini saklab turish, madrasa binosini ta’mirlash uchun ajratilgan, ma’lum qismi mutavvali, mudarrislar, talabalar, masjid imomi, muazzini, sartaroshi, farroshi va boshqa xizmatchilarga berilgan.

Madrasaga mакtabxonani tugatganlarida qabul qilingan. Talabalar yoshi 10 dan 40 yoshgacha bo‘lgan. Ular Madrasa yotoqxonalarida yashash huquqiga ega bo‘lgan kunduzgi bo‘lim va darslarga erkin qatnovchi sirtqi bo‘lim talabalari toifalariga ajratilgan. Madrasa o‘quv dasturining umumiyligi jihatlari X-XII asrlarda ishlab chiqilgan va keyinchalik takomillashib borgan. Mashg‘ulotlar, odatda, sentabrdha boshlanib, may oyigacha davom etgan. Yoz oylari va ramazon oyida ta’tilga chiqilgan. Madrasada hafta kunlari tahsil (shanba, yakshanba, dushanba, seshanba)- mashg‘ulot kunlari va ta’til (chorshanba, payshanba, juma) - o‘tilganlarni takrorlash hamda dam olish kunlariga bo‘lingan. Darslar quyosh chiqish payti (bomdod nomozidan keyinoq) boshlangan. Madrasada ta’lim 3 bosqichda: boshlang‘ich (adno), o‘rta (avsat) va yuqori (a’lo) guruhlarda olib borilgan. Adno bosqichi “Aqoid” kitobini o‘qishga o‘tguncha davom etgan, avsat bosqichi “Aqoid” kitobini o‘qishdan boshlanib, “Sharhi mulla” kitobini o‘rganguncha bo‘lgan va undan keyingi murakkab qo‘llanmalarni o‘rganuvchilar a’lo bosqichi talabalari hisoblangan. Madrasada o‘qish talabalar iqtidoriga qarab, 7-12 yil davom etgan. O‘rta Osiyodagi Madrasa larda arab va fors tilida yozilgan kitoblar o‘qitilgan, ular talabalarga mudarris tomonidan turkiy tilda sharxlab berilgan. Madrasa o‘quv kursi, odatda, “Avvali ilm” deb nomlangan fors tilidagi o‘quv qo‘llanmasini o‘zlashtirish bilan boshlangan. Keyin o‘rta asrlarning ilmiy tili hisoblangan arab tili grammatikasi (arab tili morfologiysi-sarfi va sintaksi-nahvi “Bidon”, “Kofiya” kabi darsliklar asosida) o‘qitilgan. Arab tili grammatikasidan so‘ng o‘quv kursi 2 bo‘limga: umumta’lim kursi- mushkulot va fiqh kursi - masala bo‘limlariga ajratilgan. Madrasalarda fiqh kursining faroiz - meros huquqi qismi bilan birga mat.

fani ham majburiy o‘quv kursiga kiritilgan. Talabalar o‘z xohish-istiklari va qobiliyatlariga qarab mushkulot yoki masala bo‘limlaridan birini, agar istasalar har ikki bo‘limni o‘qib tamomlashlari mumkin bo‘lgan. Madrasalarda to‘liq kursni o‘qib tamomlash uchun talabalardan falsafa va huquq fanlariga oid taxminan 137 darslik - qo‘llanmani o‘zlashtirish talab etilgan, bularni, jumladan, Imam Buxoriy va Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziylarning Hadis to‘plamlari, Abu Mansur Moturudiyning “Kitob at-tavhid”, Burhoniddin Marg‘inoniyning “Al-Hidoya fi sharh al-bidoya”, Najmuddin Ali ibn Umar Qazviniyning “Ar-risola ash-shamsiya fi-l qavod al-mantiqiya”, Abdurahmon Jomiy “Al-Favod ad-diyoiya”, Mahmud ibn Ahmad Mahbubiyning “Viqoyat ar-rivoya fi masoil”, Ubaydulloh ibn Mas’ud Mahbubiyning “An-Nuqoya” (“Muxtasar al-viqoya”) kabi asarlari tashkil etgan.

Madrasalarda talabalarning qiziqishlari va mudarrislarning mavjudligiga qarab, falakiyot, handasa, tibbiyat, kimyo, jug‘rofiya, tarix, adabiyot, aruz ilmi, me’morlik asoslari, xattotlik, musiqa, axloq, notiqlik kabi fanlar ham o‘qitilgan. XIX-asr oxiri XX-asr boshlarida O‘rta Osiyo madrasalari o‘quv dasturi bir muncha isloh etilib, ularda o‘qitiladigan fanlar tarkibiga turk, rus, fransuz, ingliz tillari, fizika, ziroatchilik, hisob, gigiyena, psixologiya, metodika, trigonometriya, siyosiy iqtisod, tijorat kabi fanlar kirib kela boshlagan.

XIX-asr oxiri – XX-asr boshlarida Buxoro amirligida 336, Xiva xonligida 132, Turkiston general-gubernatorligida 348 madrasa bo‘lgan. XX-asrning 2-choragi boshlarida sovet hukumati tomonidan Madrasalar diniy muassasalar qatorida davlatdan ajratilgan va “xurofot o‘choqlari” tamg‘asi bilan tugatib yuborilgan. O‘zbekiston musulmonlari idorasi ixtiyorida qolgan bir nechta Madrasa esa endilikda faqat ruhoniylar tayyorlaydigan o‘rta va oliy diniy o‘quv yurtlariga aylantirilgan.

Madrasalar musulmon olamida me’morlik inshooti sifatida X-XI asrlarda vujudga kelgan. Ilk Madrasalar bir qavatli, o‘rtasi hovli va uning atrofi hujralardan iborat bo‘lgan. Ba’zan gumbazli go‘rxona qurilib, Madrasaga homiylik qilgan kishining sag‘anasi qo‘yilgan. XIV-XVI asrlardan boshlab hashamatli Madrasa binolari qurish avj oldi. Ular 2-3 qavatli qurilib, odatda, katta va go‘zal peshtoqli, atrofi hujralar bilan o‘ralgan hovlisi, darsxona, kutubxona va masjidi bo‘lgan. Keyinroq, katta Madrasalar

yoniga minora qurish rasm bo‘lgan. Kirish peshtoqining ro‘parasida, peshayvon bo‘lib, u yozgi darsxona vazifasini bajargan hamda hovliga salobat bergen. Ba’zan Madrasalarda hujralarning hovli tomoni ravoqli ayvonlar bilan o‘ralib, hovli o‘rtasida hovuz qilingan. Madrasalarning tashqi va ichki qismi har xil rangli koshinkori va ganchkor bezaklar bilan pardozlangan. Qur’ondan oyatlar va hadislar ko‘chirib yozilgan. Masalan, Buxorodagi Ulug‘bek Madrasasi eshiklariga “Bilim olmoq har bir musulmon erkak va ayolning burchidir” degan hadisi-sharif bitilgan.

Madrasa umumiy qurilish tipologiyasi (tasnifi) loyihasi va qurilmasiga ko‘ra, ajralib turadi. O‘rta Osiyo me’morligida masjid va darsxona qoidaga ko‘ra, peshtoqning ikki yon qanotida joylashgan. Suriya va Misrda ular kiraverishda hovlining to‘rida ko‘ndalangiga ayvonli qilib qurilgan. Turkiyada hovli tepasi ham gumbaz bilan qoplangan. O‘rta Osiyo va G‘arbiy Osiyoda odatdagidek ravoqli qilib yopish uslubi qo‘llangan. Shimoliy Afrikada to‘sini tomlar bo‘lgan.

Arab mamlakatlarida dastlabki Madrasa vazir Nizom ul-mulk tomonidan Bag‘donna (XI-asrning 2-yarmida) qurilgan. O‘rta Osiyoda Madrasa maxsus me’morlik inshooti sifatida qurilgani haqida tarixiy ma’lumotlar saqlangan. Shohizinda tarkibida Samarqand hokimi Tamg‘och Bug‘roxon Ibrohim qurdirgan (XI-asr) madrasa qoldiqlari topilgan.

Hozirgi kunda O‘zbekistonning Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo‘qon, Andijon kabi shaharlaridagi madrasalar me’moriy yodgorliklar sifatida mashhur.

Tarixchi olimlar orasida madrasalar dastlab Saljuqiyalar davlatida (XI-XII-asrlar) sunniylarning Misrda fotimiylar-ismoiliy tomonidan shialikni targ‘ib qilish o‘choqlari Dor-ul-hikma (Donolik uyi) va Dor-ul-ilm (Fanlar uyi) muassasalarining yaratilishiga javoban paydo bo‘lgan degan fikr tarqalgan. Madrasalarning tarmoqlangan tizimi Saljuqiyalarga sunniy islom qoidalarini ommalashtirishga yordam bergen. Madrasaning davlat muassasasi sifatidagi namunasi bo‘lib Bag‘doddagi Bayt ul-Hikma bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Movarounnahrda Qoraxoniylar hukmdori Tamg‘ochxon Samarqandda “o‘z ichiga masjid, darsxonalar, maktab, Qur’oni o‘rganuvchi sinf, hovli va bog‘ni kiritgan madrasaga asos solishni, u ilm-fan va din kishilari yig‘iladigan joy bo‘lishini” aytgan ekan.

XI-asrda Saljuqiylarning mashhur vaziri Nizom ul-Mulk an-Nizomiy madrasalarining keng tarmog‘ini bunyod qildi. Madrasalar vaqf tizimi asosida davlat tomonilan moliyalashtirilgan edi. Ularda mashhur fiqhshunoslar va olimlar (masalan, al G‘azzoliy, imom al Juvayniy, Sherziy va b.) dars o‘tgan. Diniy bilimlar bilan birga astronomiya, falsafa, matematika, tarix va boshqa fanlar o‘tilgan. Bag‘dodda qurilgan Nizomiya madrasalari kabi madrasalar boshqa shaharlarda ham (Balx, Nishapur, Hirat, Isfaxon, Basra, Marv, Amul, Elburs, Mosul va b.) bunyod etildi.

O‘rtasoslarda Misr sultoni Saloh ad-Din, Zang hukmdori Nur ad-Din (XII-asr o‘rtalari) ham madrasalarga asos solishgan.

Afsuski Nizom ul-Mulk madrasalari binolari bugungi kungacha saqlanmadni. Bag‘doddagi Nizomiya madrasasi 1067-yil sentabrida ochilgan edi. Bino Dajla daryosi bo‘yida joylashgan edi. Unga mashhur shofe’iy ilohiyotchi Abu Ishoq ash-Sherziy rahbarlik qilgan, keyinchalik Abdulloh at-Tabariy, Abu Muhammad Abdulvahob ash-Sherziy, Ali ash-Shoshiy, Xatib at-Tabriziy va boshqalar mudarrislik qilishgan. Madrasada Qur‘on, Hadislar, fiqh, kalom, arab tili va adabiyoti, matematika kabi fanlar o‘tilgan. Darslar asosan namoz o‘qilgandan keyin o‘tilardi. Juma kunlari Hadislarni yozish va notiqlik san’atini o‘rganishga ajratilgan. Madrasada 20 yoshdan katta bo‘lgan talabalar 4 yil o‘qishgan. Bag‘doddagi madrasa kutubxonasida 6000 ta kitob bo‘lgan. 1116-yilda kutubxonada yong‘in sodir bo‘lgan, ammo qo‘lyozmalar talabalar tomonidan chiqarilgan edi. 1193-yili Abbosiylar xalifasi an-Nosir Lidinilloh yangi kutubxona qurdirib, unga saroydagagi minglab kitoblarni tuhfa qildi va islom dunyosidagi eng boy kutubxonaga aylantirdi. Ammo mo‘g‘ullar bosqini natijasida kutubxona vayron qilinib, kitoblar yoqib yuborilgan edi.

Bag‘dod madrasasida turli davrlarda Ibn Tumart, Abu Bakra ibn al-Arabiy, Ibn Abu Randak at-Turtushiy, Abu al-Qosim Ibn Asakir, Ibn Abi-l-Hadid, Abdullatif al-Bag‘dodiy, Imad ad-din al-Isfaxoniyalar tahsil ko‘rishgan. 1184-yiilda Bag‘doddagi Nizomiya Ibn Juboir, 1327-yilda esa Ibn Battuta tashrif buyurishgan. 1234-yilda Mustansiriya madrasasi ochilib, unga xalifa homiylik qildi. Bundan so‘ng Bag‘doddagi Nizomiya madrasasi o‘z ahamiyatini yo‘qota boshladi.

Nishopurdagi Nizomiya madrasasida al-Juvayniy, imom al-G‘azzoliy, al-Kushayriy, al-Marvaziylar mudarrislik qilganliklari manbalarda eslatiladi. Isfaxondagi Nizomiyada Abu Bakr Sadr ad-Din Muhammad ibn Sobit al

Xo‘jandiy birinchi mudarris bo‘lgan. Balxdagi Nizomiya madrasasida mashhur fors shoiri va tilshunosi Rashid ad-Din Vatvot (1088-1182) o‘qigani ma’lum.

Mosuldagi Nizomiya madrasasi va Jazirayi ibn Umar madrasasi bitta bilim yurti bo‘lishi mumkin. Abu Sha’maning yozishicha, Jazirayi ibn Umar madrasasi chiroyli bo‘lib, uni Radi ad-din madrasasi deb atashgan. Nizom ul-Mulkning laqabi esa “Radiyyu amiri al-mo‘minin” bo‘lgan. Basradagi (Turkiya) Nizomiya madrasasi xalifa al-Mustasim Billoh hukmronligi (1242-1258) davrigacha ishlab turgan, keyinchalik uning qoldiqlari boshqa madrasa qurilishida ishlatilib, yangi madrasa ham Nizomiya deb atalgan. Hirotdagi Nizomiya madrasasi Husayn Boyqaro davrida qayta qurildi. Marvdagi Nizomiya madrasasida 1075-1076 yillarda Abu al-Muzaffar as-Somoniy mudarrislik qilgan.

Shuningdek, manbalarda yozilishicha, Nizomiya madrasalari Tabaristondagi Amul shahrida, Ko‘histondagi Xargird shahrida, Rayda, Busannda, Kavkazdagi Zahirda, Quddusda, Halabda, Damashqda, Konyada va Xorazmda barpo etilgan edi. Biroq ular haqida ma’lumotlar juda kam.

Nizomiya madrasalari siyosiy, ilmiy va diniy sohalarga katta ta’sir ko‘rsatdi. Nizom ul-Mulkdan o‘rnak olib, ko‘plab sultonlar, xalifalar va davlat arboblari madrasalar qurishgan. Nizomiya madrasalarida diniy fanlar rivojlangan, shofe’iy fiqx, xilof (mazhablar o‘rtasidagi farqlarni aniqlovchi fan), jadal (mantiqiy munozara), kalom (ilohiyot) kabi fanlarda ma’lum muvaffaqiyatlarga erishilgan va ko‘plab kitoblar yozilgan. Ayrim olimlarning qayd qilishlaricha, Salerno, Parij va Oksforddagi universitetlar Nizomiya madrasalarining ma’lum ta’siriga uchragan. Tanqidchilarning yozishicha, Nizomiya madrasalarida ta’lim shofe’iy mazhabi bilan cheklangan bo‘lib, boshqa sunniy mazhablariga qiziqish susaygan hamda dasturda falsafa kiritilmaganligi tufayli, fikr erkinligi rivojiga to‘sinqilik qilgan.

2.5. Islom sivilizatsiyasining G‘arbiy Yevropaga ta’siri.

XV-XVI asrlar jahon tarixida Yangi davrning boshlanishi hisoblanadi. Shu davrdan Evropa mintaqasida ma’naviy yangilanishlar pallasi boshlandi. Asli bu yangilanish islom mintaqqa madaniyatining ta’siridan xoli emas edi.

Islom mintaqasi madaniyati Volgabo‘yi, Sharqiy Turkiston va Indoneziyadan to Shimoliy Afrika va Ispaniyagacha yoyilganligi ma’lum. Ispaniyada arab xalifaligi to XIV asrgacha davom etdi. IX asrdan boshlab rivoj ola boshlagan arab-ispan musulmon madaniyati XI-XIV asrlarda Evropa madaniyatiga ayricha ta’sir ko‘rsatdi. Ispaniya va Shimoliy Afrika hududlarida Ibn Tufayl (vafoti 1185-y), Ibn Rushd (1126-1198), Ibn al-Arabi (1165-1240), Ibn Xaldun (1332-1406) kabi islom olamining buyuk allomalari etishib chiqdiki, ularning ijodiy merosisiz mintaqasi ma’naviyatini mukammal anglab bo‘lmaydi.

XI-asrdan boshlab Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Ibn Sino, G‘azzoliy va boshqa ulug‘ islom mutafakkirlarining asarlari lotin tiliga tarjima qilinib, xristian madaniyati rivojiga hissa qo‘sha boshladи. Shu davrdan e’tiboran, yagona islom mintaqasi ma’naviyati doirasida, ikki tamoyil shakllana borganligini bir qator hozirgi zamon sharqshunoslari qayd etadilar. Bu tamoyillarning birinchisi Abu Ali ibn Sino nomi bilan bog‘liq bo‘lib, Xuroson-Movarounnahr yoki sharqiy falsafa maktabi hisoblansa, ikkinchisi Ibn Rushd ijodida yorqin namoyon bo‘luvchi g‘arbiy falsafa maktabidir. Bu ikki tamoyil islom ma’naviyati doirasida o‘zaro chambarchas bog‘liq va qat’iy chegaralar bilan bir-biridan ajralgan emas. Ammo ularning keyingi ta’sir doirasi turlicha kechdi. Mavjud voqelik hamisha turli narsa va hodisalar, jihatlar va tamoyillardan iborat bo‘lib, ular orasida o‘zaro ziddiyat ham, uyg‘unlik ham mavjud. Ibn Sino va G‘azzoliylar ko‘proq taraflarining o‘zaro uyg‘unligiga urg‘u berishsa, Ibn Rushd oradagi farqlarga e’tibor qaratdi.

Uning qarashlari XIII-XVI asrlarda Yevropada “averroizm” nomi bilan katta bir falsafiy an’ana hosil qildi. Ibn Rushdning Aristotel asarlariga yozgan sharhlari Fransiya, Italiya va boshqa Yevropa davlatlarining yirik universitetlarida o‘qitildi. Arab tilidagi falsafiy meros Siger Brabantskiy (1235-1282), Piko della Mirandola (1463-1494), Petro Pomponatstsi (1462-1525), Jordano Bruno(1548-1600) kabi O‘rta asrlar va Uyg‘onish davrining yirik faylasuflariga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Siger Brabantskiy Ibn Rushd g‘oyalarini Yevropaning o‘sha davr o‘ziga xos ma’naviy muhitiga tadbiq etib, “ikki haqiqat nazariyasi”ni ishlab chiqdi. Shu bilan birga arab falsafasi ta’sirida qadim Yunon-Rim merosi bilan bevosa tanishishga intilish kuchaydi. Bu harakat diniy va falsafiy qarashlarning o‘zaro jiddiy to‘qnashuviga olib keldi va natijada “averroizm” namoyandalari xristian

cherkovi (Rim papasi) tomonidan qattiq ta'qibga duchor bo'ldi. Siger Brabantskiy o'ldirildi. Jordano Bruno o'tda kuydirildi. Ammo yangi kuchlar quvvat kasb etib bordi. Neoplatonizmning arab-islom madaniyatidagi talqini ta'sirida xristian diniy qarashlarida yangicha yondoshuvlar shakllanib, XV-asrda Reformatsiya zarurati paydo bo'ldi. Katolik va pravoslav mazhablari qatoriga protestantizmning turli oqimlari (kalvinizm, lyuteranlik, anglikan cherkovi va boshqalar) qo'shildi. Badiiy va falsafiy tafakkur mustaqil rivoj olib, Renessans yoki Yevropa Uyg'onishi vujudga keldi.

XVII-asrdan adabiyotda klassitsizm yo'nalishi, XVIII-asrdan esa Yevropa ma'rifatchiligi shakllandi. Niderlandiya va Buyuk Britaniya burjua inqiloblari Yevropadagi ijtimoiy-ma'naviy vaziyatni tubdan o'zgartirib yubordi.

Amerika kashf etildi. Sharqqa yurish boshlandi. XIX-XX asrlar davomida fan va madaniyat taraqqiyoti jihatidan Yevropa mintaqasi boshqalardan uzil-kesil ilgarilab ketdi va natijada "jahon fani", "umuminsoniy qadriyatlar" deganda birinchi navbatda Yevropa madaniyati unsurlari tasavvur etila boshlandi. Yangi davrdagi bu mintaqaning yutuqlari ko'p jihatdan madaniy integratsiya jarayonlari bilan bog'liq. Bu davrda Yevropa xalqlari (inglizlar, nemislar, frantsuzlar va h.k.) mintaqasi miqyosidagi o'zaro madaniy axborot almashinuv doirasidan chiqib, o'zga mintaqalarda yaralgan boyliklarni o'zlashtira boshladilar. Sharqshunoslik keng rivoj oldi. Turli fan sohalari sharqshunoslarning yutuqlaridan ijodiy foydalana boshladilar. Islom mintaqasida esa XVI-asrdan boshlab madaniy-ma'naviy yaxlitlikka rahna soluvchi jarayonlar yuz bera boshladi.

Yangi davr Yevropa ma'naviy muhitiga xos qarama-qarshiliklar kurashi keyin ham davom etdi. XVIII-asr fransuz ma'rifatchiligi zaminida shakllangan ateizm yo'nalishi Gelvetsiy (1715-1771), Golbax (1723-1789), Didro (1713-1784) qarashlaridan nemis mumtoz falsafasiga o'tib, Feyerbax (1804-1872) orqali Karl Marks va F. Engelsning murosasiz sinfiy kurash targ'ibiga qaratilgan kommunistik utopiyaga olib keldi.

Islom mintaqasi ma'naviyatida bunday ziddiyatli holat yuz bergen emas. Alisher Navoiy va Mirzo Bedil talqinlaridagi Tavhid ta'limoti ma'rifatchilik va irfon bosqichlarida ba'zan ko'zga tashlanadigan ziddiyatli o'rirlarni engib o'tib, Oliy uyg'unlikka erisha bildi. Islom mintaqasi ma'naviyatida "ikki haqiqat" tasodif emas, "ayni haqiqatdir majoz", "al-majozu qantaratul haqqa" (majoz haqiqatning ko'prigidir), degan jumlalarda o'z yorqin aksini

topgan uyg‘unlik, “qarama-qarshiliklar kurashi” emas, “birligi” ko‘proq ustunlikni saqladi. Ammo bu mulohazalarini mutlaq haqiqat ma’nosida tushunish noo‘rin bo‘lardi. Yangi davrning o‘ziga xosligi shundaki, ichki ziddiyatlar ba’zan juda keskin yuzaga qalqib chiqa boshladи.

Islom dini va madaniyatini Evropada tarqalishida Andalusianing o‘rnı kattadir. Hijriy 633-yil 23-shavvol (milodiy 1236yil 29-iyun) Andalusiyadagi Ummaviylar xalifaligiga qarashli Qurtuba shahri Muhammad ibn Yusuf ibn Hud shaharni tark qilgandan keyin Kastiliya shohi Fernando III ning qo‘liga o‘tgan edi.

Sharqda ilk Uyg‘onish davri. Bu davrda ilm-fan, maorif, ishlab chiqarish, savdo-sotiq, me’morchilik va boshqa sohalar misli ko‘rilmagan darajada yuksaldi. Taraqqiyotga katta hissa qo‘sghan o‘lkalardan biri Andalusiya edi. Bu haqda mutafakkir Saloh Kamolning “Musavvar tarixi Islom” asarida batafsil ma’lumot berilgan.

Hozirgi Ispaniya va Portugaliya hududi, ya’ni, Pireney yarim oroli qadimda “Andalus” deb atalgan. Arab sultanating bir qismi bo‘lgan bu hududda VIII-X asrlarda kuchli va adolatli boshqaruvga asoslangan davlat paydo bo‘ldi. Andalusiyadagi taraqqiyot o‘z vaqtida Yevropaga har tomonlama ta’sir qildi. Islom madaniyati va ilm-fani yutuqlari G‘arb mamlakatlariga asosan shu hudud orqali yoyildi.

Andalus 711-yili fath etilib, bu yerda musulmonlar davlati qaror topgan edi. Bu haqda “Musavvar tarixi Islom” asarida quyidagi ma’lumotlar bor: “Andalus” qit’asi umaviylar davrida, Abdumalik zamonida fath etilgan edi. Va shul kundan buyon umaviya davlatining bir viloyati abbosiylardan Abdulloh Saffohga mag‘lub bo‘lgach, hukumat umaviylar qo‘lidan chiqib, abbosiylar qo‘liga o‘tdi. Abbosiylarning ummaviylarga qilgan zulmlaridan achchiqlanib, Andalus musulmonlari abbosiylar davlatini tan olmay qo‘ydi. O‘zlariga mustaqil bir hukumat tuzishga qaror berdilar». Bu mustaqil davlat 750-yili qaror topib, “Qurtuba sultanati” nomi bilan mashhur bo‘ldi. Unda o‘n to‘rt hukmdor hukmronlik qildi.

Andalus hukmdorlari ham ilm-fanga homiylik qilgan, o‘zları diniy va dunyoviy ilmlardan xabardor edi. Ularning saroylari ilm ahli bilan doimo gavjum, muntazam ilmiy majlislar, munozaralar o‘tkazilar edi. Bu davralarda hukmdor va amaldorlarning farzandlari ham ishtirok etardi.

Andalusning birinchi hukmdori Abdurrahmon (756-788 yillar) dastlab ichki nizolarni bartaraf etib, Frantsiya qiroli Pipin va boshqa tashqi

dushmanlar hujumini qaytardi. Tinchlik qaror topgach, mamlakatni isloh qilishga kirishdi. Oldin uni oltita viloyatga bo‘lib, ularni muntazam yo‘llar bilan poytaxt Qurtuba shahriga bog‘ladi. Kanallar, suv yo‘llari qazdirdi. Yurt obod bo‘ldi. Qurtuba va boshqa shaharlarda katta-katta madrasa va masjidlar, kasalxonalar qurildi. Abdurrahmon Andalusni dushmanlardan himoya qilish uchun qal'a va istehkomlar barpo ettirdi. Yurt mudofaasi va tijorat uchun kemalar yasatdi.

Hishom ibn Abdurrahmon ham otasi kabi mamlakatni isloh qilish va rivojlantirish yo‘lidan bordi. Ilm va maorif rivoji uchun ko‘p ishlar qildi. Bu hududda boshqa millat va xalqlar ham bemalol yashar edi.

Andalusning to‘rtinchchi hukmdori Abdurrahmon Ikkinchchi ibn Hishom (821-850 yillar) g‘oyat ilmli odam bo‘lib, saroyi har vaqt olim va ulamolar bilan to‘la edi. Har kuni ilmiy majlislar, turli masalalar bo‘yicha munozaralar bo‘lar edi. Saloh Kamol yozishicha, Sharq-u G‘arbdagi Islom mamlakatlari ichida Abdurrahmonidan in’om-ehson ko‘rmagan biror ilm ahli qolmagan edi. Bundan tashqari, Abdurrahmon Andalusda muntazam pochta xizmatini tashkil qildi va poytaxtga keladigan yangi yo‘llar quzdirdi. Bu Yevropadagi dastlabki pochta tizimi ekani manbalarda ta’kidlangan.

Sakkizinchchi hukmdor Abdurrahmon Uchinchi ibn Muhammad (913-962 yillar) davrida Andalusning rivoji yanada yuksaldi. Qurtuba jahonning eng rivojlangan, chiroyli shaharlaridan biriga aylandi. Shahar yaqinida me’moriy jihatdan juda noyob “Madinat uz-Zahro” saroyi barpo etildi. Sanoat va tijorat ham taraqqiy etib, Yevropa bozorlarida Andalus mollari katta shuhrat topdi.

Turli yurtlardan kelgan sayyoohlар Andalusdagи taraqqiyotdan hayratda qolishdi. Mamlakat madrasalarida tub joy aholi farzandlaridan tashqari minglab Yevropalik talaba turli fanlardan tahsil olgan edi. Natijada ilm-fan yutuqlari keng yoyildi. Shu orqali Muso Xorazmiy, Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Farg‘oniy kabi Sharq olimlarining ilmiy kashfiyotlari, asarlari Yevropaga kirib keldi va to XVII-XVIII asrlarga qadar G‘arb universitetlarida darslik sifatida o‘qitildi.

Abdurrahmon ibn Muhammad davrida Qurtubada Yevropada birinchi sanalgan tibbiyat maktabi ochildi.

To‘qqizinchchi hukmdor Hakim Ikkinchchi davrida (962-976 yillar) ilmga rag‘bat yanada oshdi.

Biroq so‘nggi hukmdorlarning uzoqni ko‘zlamay olib borgan siyosati natijasida o‘zaro nizolar kuchaydi. Shuningdek, shimoldan Evropa davlatlarining uzluksiz uyuştirgan hujumlari oqibatida Qurtuba sultanati o‘n birinchi asr boshlarida parchalaniб, mamlakat G‘arb sarkardalarining talonchilik maydoniga aylanib qoldi. Bu esa ijtimoiy hayot va ilm-fanning izdan chiqishiga sabab bo‘ldi. Asta-sekin musulmonlar bu erlardan haydab chiqarildi va Andalus o‘rnida Aragoniya, Kastiliya va Portugaliya qirolliklari tashkil topdi.

Xullas, qariyb uch asr davom etgan Andalus Uyg‘onish davrida musulmon ilm-fani va madaniyati Yevropaga kirib bordi, qit’a tamadduniga katta turtki berdi.

Mavzuni mustahkamlash yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Islom sivilizatsiyasining jahon ilm-fani va madaniyati tarixidagi o‘rni haqida gapirib bering.
2. Fanlar tasnifiga qaysi mutafakkirlar hissa qo‘shgan?
3. Islom ilm-fani va madaniyati qaysi davrda Yevropaga kirib bordi?
4. O‘zbekiston hududida qurilgan dastlabki madrasa qayerda joylashgan?
5. Sharqdagi ilk madrasalar qachon va qayerda qurilgan?
6. Nizom ul-Mulk kim bo‘lgan va uning fan taraqqiyotidagi roli nimadan iborat?

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar:

1. Абдухалимов Б. “Байт ал-ҳикма” ва Ўрта Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти (IX-XI асрларда аниқ ва табиий фанлар). Т.:Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2004. – 236 б.
2. Абдуллаев Ю., Очерки по методике обучения грамоте в ўзбекской школе, Т., 1966
3. Абу Бакр Мухаммад Наршахий, Бухоро тарихи, Т., 1991
4. Аль-Мас'уди А. Ат-Танбих ва аль-ишраф. - Бейрут, 2000
5. Ас-Суюти Дж. Тарих аль-хулафа. - Каир, 2001.
6. Андалус – Европа тараққиёти асоси
<https://azon.uz/content/views/andalus-evropa-taraqqiyoti-asosi>
7. Болтаев М. Н., Абу Али ибн Сина великий мыслитель, учёныйэнциклопедист средневекового Востока, Т., 1980
8. Гиззатуллин Р.А. «Бейт ал-ҳикма» и ее роль в развитии исламского просвещения. // Minbar. Islamic Studies, 2013,6(1). P.4-9

9. Гиззатуллин Р.А. Роль Бейт аль-хикма в эволюции исламского образования // Вестник Ленинградского государственного университета им. А.С.Пушкина. 2014. №04. Том 4: История. - С.138-143.
10. Завадовский Ю. Н., Абу Али ибн Сина, Душанбе, 1980.
11. Ибн ан-Надим. Аль-Фихрист. 1964.
12. Ибн Халдун, аль-'Ибар. - Бейрут. 1965. - Т. 4.
13. Ирисов А. Абу Али ибн Сино. Т., 1980.
14. Керенский О. М., Медресе Туркестанского края-СПб., 1892
15. Марджани Ш. Мукааддимат вафиййат аль-асляф ва тахиййат аль-ахляф. -Казань, 1883.
16. Медресе / Бобровников В. О., Стародуб Т. Х. // Маниковский — Меотида. — М. : Большая российская энциклопедия, 2012. — С. 519—520. (Большая российская энциклопедия : [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов ; 2004—2017, т. 19)
17. Озайдын Абулькерим. Медресе Низамия и их вклад в исламскую цивилизацию <https://islamosfera.ru/medrese-nizamiya-i-ix-vklad-v-islamskuuyu-civilizaciyu/>
18. Саифназаров И., Косимов Б., Мухторов А., Никитченко Г. Фаннинг фалсафий масалалари. - Т., «Fan va texnologiya». 2007, 240 бет.
19. Солижонова Г. Мадраса. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/madrasa-uz/>
20. Фаржак – ислом оламидаги ilk мадраса. https://naqshband.uz/maruzachi-kullanmasi/farjak_islom_olamidagi_ilk_madrasa
21. Хайруллаев М.М.Ўрта Осиёда илк Уйғониш даври маданияти. Т.: Фан, 1994
22. Хайруллаев М., Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири, Т., 1971.
23. Шамсутдинов Р. Т., Расулов Б. Туркистан мактаб ва мадрасалари тарихи (XIX аср охири ва XX аср бошлари), Андижон, 1995.
24. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг “Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожидаги роли ва аҳамияти” мавзусидаги Халқаро конференциянинг очилиш маросимидаги нутқини умумтаълим муассасаларида ўрганиш юзасидан методик тавсия ва дастур. Т., 2014. <http://btr2014.zn.uz/2015/01/08>
25. <https://islam-today.ru/istoria/dom-mudrosti-bajt-al-hikma-istoria-odnogo-iz-centrov-znanij-celovecestva/>

3-Mavzu: Markaziy Osiyolik allomalarining bashariyat ilmiy taraqqiyotiga qo'shgan ulushi

Reja:

- 3.1. Fan va texnika tarixida daholik fenomeni. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan daholar.**
- 3.2. Hadis ilmi rivojidagi oltin davr**
- 3.3. Imom al-Buxoriy va uning asarlari**
- 3.4. Abu Iso Muhammad at-Termiziy**
- 3.5. Qaffol ash-Shoshiy –buyuk musulmon qonunshunosi**
- 3.6. Abu Mansur al-Moturudiy kalom ilmi bilimdonlaridan biri**
- 3.7. Abu al-Mu'yin an-Nasafiy**
- 3.8. Mahmud az-Zamahshariy**

Tayanch iboralar: Hadis ilmi, Imom Buxoriy, At-Termeziy, Motrudiy, Nasafiy, Mag'rib, Ijodkor shaxs, Shom, Iroq, Hijoz, Misr, Amazon, Kitob al-niba, Maqraba, Zamashshariy, Makka, Olloq qo'shnisi, Daholik, Fenomen

3.1. Fan va texnika tarixida daholik fenomeni. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan daholar.

Daho – dunyoning rivojlantiruvchi, ilm-fan inqilobchisi, inson uchun barqaror farovon xayotni tuxfa qilishga qodir bo'lgan favqulodda tafakkur sohibi hisoblanadi. Kezi kelganda shuni aytib o'tish joizki, istetodli ijodkorlar hozirda va o'tmishda ko'p hollarda daholikka olib boruvchi yo'l deb o'ziga xos yo'nalishlarga amal qiladilar bular quyidagilar;

1. Daho savollarni o'ziga beradi, javob oladi va atrofdagilarga beradi va yana ulardan olganiga qarab, qiyoslab, tahlil qiladi.
2. Yorqin so'zlardan ko'p foydalanib, salbiy gaplardan tiyiladi, bu ularga ko'tarinki ruh va kayfiyat bag'ishlaydi.
3. Daho hech qachon yangi narsalarni o'rganish imkoniyatini qo'ldan boy bermaydi, o'z-o'zini takomillashtirishni go'ylaydi, u yangi bilimlar, g'oyalalar, va fikrlardan zaruriy ozig'ini oladi.
4. Kunlik qilgan va qilishi zarur bo'lgan ishlar yuzasida hayol surish, ularni ko'z oldiga keltirib tanqid qiladi va xato kamchiliklarini to'g'irlash uchun yangi rejalar eskizini yaratadi.
5. Dahoning do'sti- bu uning kundaligidir. Unga o'zining kelgusidagi rejalar, g'oyalari, hayotidagi qiziqarli voqealar, hissiyotlari va ichki kechinmalarida sodir bo'layotgan nozik hodisalarni yozadi. Bular unga

o‘zining “men”ini yaxshiroq anglashga, zerikarli fikrlarda xalos bo‘lishga va o‘z harakatlarini tahlil qilishga yordam beradi.

6. Maqsadga olib boruvchi shaxsiy ijod xaritasini yaratib, rejalahtirgan ishlarini bosqichma-bosqich saralab, guruhlarga ajratadi va tartib bilan ustida amalga oshirishga yordam beradi.

Yuqoridagilarning aksariyati istedodli shaxslarning muntazam amal qilgan qoidalari sirasiga kiradi deb hisoblasak bo‘ladi, chunki O‘rtal Osiyolik mutafakkir va qomusiy olimlarda bu hislatlar movjud bo‘lgan. Daholik barcha tamaddumlarning murabbiysidir. Daholik, avvalo, intelektual yoki ijodiy faoliyatining eng yuqori darajasi xisoblanadi. Bu ularning ajoyib ilmiy kashfiyotlar, ijtimoiy falsafiy g‘oyalar, texnik va texnologik ixtiolar, noyob adabiyot va san’at asarlari yaratishda namoyon bo‘ladi. Daho aql-idrok, tezkor fikr yuritish qobilyati va kuchli iroda fazilatlariga ega bo‘ladi. Uning har bir izlanish va harakatlari mahsuli insoniyat taraqqiyotiga samarali, ijobiy ta’sir etib, fan etosi qoidalari yangi sahifalarni yaratadi. Qadimgi Rim mifologiyasida “ilhom, iste’dod” kabi so‘zlar ma’nolari daho termini bilan bog‘langan; xususan Oktavian Avgust davrida o‘ta nodir fazilatli, ko‘plab yutuqlarga erishgan, tug‘ma qobilyat sohiblariga nisbatan qo‘llanila boshlagan. Aflatun daho - xudolar va odamlar o‘rtasidagi vositachilardir degan. Ular bevosita xudolarning “ichki ovoz” orqali so‘zlarini eshitib yoki tushida ayon bo‘lgan topshiriqlarni odamlarga yetkazgan. Shuningdek, ularni so‘z san’atining egalari, mastona shoirlar ham deb atashgan. Oddiy ob‘ektning she’rda juda go‘zal va ulug‘vor qilib tariflashganiga – daholar uchun berilgan mabudlar inomi deb bilishgan. Vaqtlar o‘tgani sari ilohiy daholar safiga amaliy san’at vakillarini kirgizishib, ularni ulug‘lash boshlanadi. Haykaltarosh, rassom, tosh yo‘nuvchi, duradgor va so‘z ustalaridan notiq, yozuvchi, qo‘schiqchi, sozanda hamda sarkarda va quruvchilar orasidan eng mahoratlilarini daho darajasiga olib chiqishgan. Biroq, cherkovning bosimi susayishi va zarbli madaniyatlar to‘qnashuvi sodir bo‘limguncha XIX-asrgacha daholik nazariyalarini alohida tadqiq etishga xech kim jazm yetmadi. Faqatqina I.Kantdan boshlab o‘ta iste’dodli va qobilyatli odamlarni daholar deb tarifashi, ilk “daholik” g‘oyalari haqida bosh qotira boshlashgan.

Daholik nazariyalari bo‘yicha XIX-asr o‘rtalari va XX-asr boshlarida ko‘plab olimlar tadqiqotlar olib borib, samarali natijalarga erishishdi va murakkab asarlarni kitob holida chop etishdi. Ular yozib qoldirgan

ko'rsatma, uslubiy qo'llanma va metodlardan foydalanib, bugungi kunga qadar yangi davr tamadduni uchun qobilyatli avlod tarbiyalanib kelinmoqda. O'z davrining eng mashhur olimlari F.Galton, Ch.Lombrozo, M.Nordau, V.Efremson, M.Arnaudov, A.Adler, Z.Freyd va R.Deltilarning daholik fenomenini sinchkovlik bilan tadqiq etishgan va ularni jamoatchilikka keng yoritishgan. Daholik nazariyalarining rivojlanishi haqida Ostvald Shpengler shunday deb yozgan edi “vaqtlar o'tgani sari kelajakda daholikga olib boruvchi yo'llar ochiladi va har qanday jumboq bo'lib kelgan dolzarb masalalar ishg'ol etiladi”. Shu o'rinda, XIX-asrning o'rtalarini daholik fenomeni haqida qarashlarning “uyg'onish davri” bo'ldi desak, yanglishmagan bo'lamic. Ayni shu davrdan boshlab Yevropalik olimlar daholikning kelib chiqish sabablari haqida bosh qotirganlar. Ularning qarashlari daholik haqidagi eski nazariyalardan butunlay farq qilgani holda yangi konseptual yondoshuvlarni o'z ichiga olgan. Jumladan, daholik tabiat inomi degan qarashlar haqidagi nazariyani ilgari surgan olim F.Galton hisoblanadi. U tug'ma qobiliyatlar haqidagi yangicha mazmundagi qarashlarning asoschilaridan biri bo'lib, u 1865-yil g'oyatda qiziq va keng hajmli “Irsiy avloddan-avlodga o'tuvchi qobiliyat va xarakter” nomli maqolasini e'lon qilgan. Mazkur maqolada asosan irsiy o'tuvchi qobiliyatlar haqida fikr yuritilgan va bular o'z davrida ko'pgina soha mutaxassislari tomonidan iliq kutib olingan. 1869-yildan boshlab Galton shogirdlari tomonidan “Irsiy o'tuvchi daholik qonuniyati va natijalari” deb nomlangan kitob chop etilgan. Bu asar orqali Galton mashhur olimlar, davlat arboblari, sportchi, siyosatchi, kuchli harbiy, san'atkorlar va boshqa sohalarning kuchli qobiliyat egalarini psixogenitek jihatdan shajarasini o'rganishga harakat qilgan. U, daholarning avlodi turli xil toifalarga bo'lgani holda o'z nazariyasini yaratgan, tadqiqotlari orqali ba'zi qobiliyatli insonlarning buyuk sarkarda va allomalar izidan borishini, yana boshqalari esa, telbanamo daholar yo'lidan yurishini aniqlagan.

Mazkur tadqiqotida orqali olim 300 ga yaqin daholar shajarasini tahlil qilib chiqadi. Oilalarga bo'lib o'rganganda esa, 1000 ta kuchli qobiliyat egalaridan 415 ta eng mashhur daho kelib chiqqanini aniqlaydi. Shuning uchun Galton “Modomiki daholar oilasi alohida shajaraga bo'lib o'rganish qonuniniyati borligiga e'tibor qaratsak avlodlar orasida munosib iste'dodlarni topish mumkin”, degan edi. Statistikaga ko'ra olimlarni izlanishlari masalani aniq bir o'lchamlardagina chuqur o'rganib chiqsa

bo‘ladi deb ta’kidlaydi. Bundan daholar shajarasini taqsimlash orqali o‘rganish uning asosiy qonuniyatini aniqlashga yordam beradi, deb hisoblash mumkin. Galton fikricha, daholik layoqati tabiiy tanlanish yo‘li orqali namoyon bo‘libgina qolmasdan, har bir insonga mehnatiga yarasha shuhrat olib keladi. Olimning hisob-kitobiga qaraganda, Ch.Darvinnin evolyutsiya nazariyasidagi tabiiy tanlanish mexanizimini jamiyatning eng kuchlilari saralanib zarur ishchi mexanizmga aylanishida ko‘rish mumkin deb hisoblagan. Shuning uchun ham Galton daholik qobiliyatli insonlar o‘rtasida tuzilgan nikohning mahsuli, degan xulosaga ham keladi.

Italiyalik ruhshunos olim Chezari Lombrozo 1892-yili daholar hayotini tadqiq etib “Daholik va telbalik” deb nomlangan asarini chop ettirgan. Olimning takidlashicha, telbalik insonning muayyan sohadagi qobiliyatlarining rivoji va kamol topishiga sababchi bo‘ladi. Unda kechadigan kuchli ruhiy jarayon tafakkurini charxlashga zamin yaratadi, deb hisoblaydi. Ruhshunos Lombrozo bir necha bor guvohi bo‘ladiki autizm sindromi bilan og‘rigan bemorlar o‘ta kuchli aql-idrok va noyob qobiliyat egalari bo‘lib, ularning hatti-harakatlarida olimlarga xos izlanuvchanlik va novatorlik xarakteri gavdalananadi. Bundan chuqur ta’sirlanib, o‘zi “telba olimlar” deb ataydigan autist bemorlar bilan shug‘ullanishni boshlaydi. Shuningdek, Lombrozo ba’zi olimlarning yashash tarzi telbalarcha bo‘lishini kuzatgan xolda, ular ijodi va hayot faoliyatini tadbiq etishga kirishadi. D.Garrington, M.Bolian, D.Kodatsksi, A.Amper, K.Kent, R.Shuman, T.Tasso, J.Kardano, J.Svift, I.Nyuton, J.Russo, P.Lerau, F.Shexeni va A.Shopengauer olimlarning hayoti va ijodi, shular jumlasidandir. Lombrozo yuqorida nomlari keltirilgan olimlarda kuzatilgan irrotsional harakatlarning ilmiy ijod bilan shug‘ullanishi uchun qay darajada rol o‘ynagini, tushunarsiz hayot tarzida yashashsa ham “portlash efekti”ga boy g‘oyalarni ilgari surishiga sabab bo‘lganini isbotlashga uringan. Aksariyat hollarda daholikning kelib chiqish nazariyalari juda ko‘p va aynan shu sababdan ular daho bo‘lib etishadilar, deb hisoblashadi.

Olimlar uni tadqiq etgan holda biri-ikkinchisini boyitadi yoki mutlaqo teskarisi bo‘ladi. Uni qisqa holda sanab o‘taman. - daholar irsiy buzilishda gen orqali tug‘ma qobiliyatlar bilan dunyoga kelishadi, - hayotning barcha tashvishlarini esdan chiqargan holda muntazam bir soha bilan shug‘ullanishga, mukkasidan ketish, - ilhom, ruhning ta’siri, - autist sindromi, - shizofreniya kasalligi, - bipoliyar kasalligi, - podagra kasalligi, -

psixoz davri, - o‘ta kuchli shaxvoniy xirslarga beriluvchanlik, - avloddan avlodga o‘tuvchi gen mavjudligi, - genda barcha bilimlarning mavjud bo‘lishi, - ijtimoiy muhit, ta’lim-tarbiya, yaratgan tomonidan tanlanish, - duolarning ijobat bo‘lishi, - tabiy ofatlar va falokatlar natijasida magnit maydonning inson miyasiga ta’siri, - quyush tojlari va undagi katta portlashlardan taralgan nuring insonga ta’siri, - oliv maqsad sari qo‘yilgan dadil qadamlar, kuchli iroda va boshqalar. Hammaning ham daho bo‘lishi holati cheklangan lekin farovon hayot kechirish uchun oz bo‘lsa-da uning ilmini o‘rgansa bo‘ladi, deb hisoblaydigan olimlar ham bor. Ular ta’lim jarayonida maxsus dasturlar, qo‘llanmalar va o‘ziga xos dars o‘tish uslublari ishlab chiqishi, yangicha maktablarga asos solishgan.

Anjela Mayersning 2016-yildagi “Daholik haqidagi qarashlar: afsonalarni tartibga solish va qayta tuzish” deb nomlangan asari chop etildi. Unda olma o‘z tadqiqotlariga ko‘ra yosh daholarni tarbiyalash, ularning noyob qobilyatlarini yuzaga chiqarish va ijodkorlik iqtidorini takomillashtirish uchun yangi dastur ishlab chiqdi. Ushbu dasturni amalgalash uchun esa, “Daholik vaqt” deb nomlangan iqtidorli bolalar mакtabiga asos soldi. Tasavvur qiling siz sinfda qachondir daholarga xos ixtiyoriy ravishda biror-bir ishni zavq, ishtiyoyq va o‘ta aniqlik bilan a’lo darajada qilmoqdasiz. O‘qituvchi sizga noyob qobilyatiningzni yuzaga chiqarishingizni taklif qilmoqda. Mazkur kitobda quyidagicha jumla “Siz o‘zingizda daholikni kashf eting va porloq kelajagingizga yordam bering, shunda, o‘z afsoningiz sodir bo‘lishini kutib qolasiz” kitobxonni iste’dodini namoyon etishiga da’vat etadi.

O‘quvchilar qiziqrarli “Daholar soatida” dasturida yangicha metodlarga boy loyihalarni o‘qituvchilari bilan birgalikda amalgalashadi. Daholik vaqt mакtabida o‘qituvchi, o‘quvchilarni o‘zaro mislsiz darajada bog‘laydi va ta’lim olishida samara beradi. Ta’lim dargohlari esa fuqarolarga keng yordam beradi va uni o‘ziga bir jamoa qilib bog‘laydi. Butun dunyoda daholarni tarbiyalab, o‘zgartirsa bo‘ladi. Siz daholikga bugundan qo‘shilining, uni sinchkovlik va qiziquvchanlik bilan oching, deydi muallif.

Daholik nazariyalari bo‘yicha ko‘plab, olimlar tadqiqotlar olib borib, murakkab asarlarni kitob holida chop ettirishgan. Ular yozib qoldirgan ko‘rsatma, uslubiy qo‘llanma va metodlardan foydalanib yangi davr tamadduni uchun qobilyatli avlod tarbiyalanib kelinmoqda. Daholik nazariyasi tadqiqodchilari asosan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib

turishini ko‘rsatib o‘tganlar: - Tug‘ma ijodiy qobilyat, - Ijodda noananaviy, samarali va jozibali yangilikni olib kira olish; - tadqiqotga yangi va kutilmagan yondashuvni qo‘llash; - har qanday faoliyatda yuqori tezkorlik va mehnat unumdorligiga amal qilish; - Ilgari noma’lum bo‘lgan yangi yo‘nalishlarni ochish; - Sohada yangi intillektual inqilobiy natejalarga erishish; Islom olamida daholar deb payg‘ambarlar, aziz avliyolar, tariqat yo‘lini mahkam ushlagan sufiylar, shayx darajasiga ko‘tarilgan olimlar va mavlonolarga aytiladi. Aslida payg‘ambarlik daholik tushunchasidan ancha yuqori turadi. Daholar bir umr yashab, hayot mazmunini anglab etmasliklari mumkin, lekin payg‘ambarlar bolalikdanoq borliqning mazmunin - mohiyatini to‘liq anglab eta oladi. Ular butun olamlarni yaratuvchisi yolg‘iz Allohdan va uning buyuuk farishtasi Jabroil a.s.dan ta’lim olishgan.

Biz daholar deb ta’rif beradigan genius yoki ruschasi: genialnost - tug‘ma qobiliyat, kuchli ruhiy kechinmalar maxsuli yoki nuqsonli shaxslarda kuzatiladigan noyob iste’dodga aytiladi. Ularning orasida sanoqli shaxslargina hayot tarzi ibratli va maromiga etgan deb ayta olamiz. Mavlonolik - bu xofizi qur’on va barcha fanlarning chuqur bilimdoniga berilgan ilmiy unvondir. Daholik esa muayyan sohaga chuqur yo‘naltirilgan faoliyat bo‘ladi. Mavlonolar barcha fanlarni bilimdoni, tadqiqodchisi va yetuk muallimidir. G‘.N.Fozilov bu haqda fikr yuritib, mumtoz olimlarimizni daho emas, kamolga etgan allomalar deyishni tavsiya etadi. Noyob tafakkur sohiblari qarashlarini o‘rganish har doim ham dolzarb masala bo‘lgan. Daholikni tadqiq etib uning sirlarini ochish uchun yo‘llar borgan sari ravonlashmoqda. Hozirda yurtimizda yosh olimlarga beriladigan imkoniyatlardan oqilonalik bilan foydalangan holda sohada butunlay inqilob yasaydigan favqulodda zehn egalari yetishib chiqishi uchun, ularning mamlakatimizni innovatsion rivojlanishi uchun sharoitlar mavjud.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o‘z davrida ta’kidlaganidek, “Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma’naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o‘zida mujassam etgan buyuk arboblar ko‘p bo‘lgan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Bobur va boshqa ko‘plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shdilar, xalqimizning milliy iftixori bo‘lib qoldilar. Ularning nomlari, jahon

sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hissalari hozirgi kunda butun dunyoga ma'lum".

Bizga ma'lumki aslida ist'dod, talant-nihoyatda zo'r qobiliyat, biror sohada yuksak darajadagi layoqat hisoblanib u idrok, tasavvur, tafakkur, xotira, kuzatuvchanlik benihoya o'sganligida, voqeahodisalarning yangi qirralarini, ularning zamiridagi murakkab aloqadorlikni kashf etishda ko'rinadi. Kishining bilimlarni o'zlashtirishi, nazariy va amaliy masalalarini hal etishi, ijodi, o'z bilimi va malakalarini turmushga tatbiq qila bilishidan uning Iste'dod ini bilish mumkin. Chunki inson iste'dodi haqida turli nazariyalar mavjud. Ularga ko'ra, Iste'dod xudo tomonidan beriladi bu jarayon irsiyat orqali tarbiya orqali paydo bo'ladi. Va nihoyat insondagi tabiiy, tug'ma anatomik-fiziologik layoqat muayyan faoliyatda shakllanadi va rivojlanadi.

Vaqt o'tishi bilan iste'dod insonning ma'lum faoliyati turida o'zini namoyon etadi. Ayniqsa, bilim, ko'nikma, malaka, tajribalar iste'dod rivojida katta rol o'ynaydi. Erg asosisi insonlardagi qobiliyat yoki layoqat o'sishiga ijtimoiy sharoit yaratilganda, uni tarbiyalab kamolga yetkazilgandagina iste'dod yuzaga chiqadi, iste'dodga shaxsning mehnatsevarligi ham qo'shilgan taqdirda yangilik va kashfiyot paydo bo'ladi. Vaholanki daholik iste'dodning yuksak namunasi hisoblanadi. Daho egasi batamom yangilik ijod etib, o'z sohasida original yo'nalish yaratishga intiladi.

Voholanki, Daholikka bo'lgan ehtiyoj ilmiy ijodda yaxshigina seziladi, chunki ilmiy kashfiyotlarni ko'p xollarda daholik xususiyatiga ega bo'lgan olimlarning izlanishlari orqali ro'yabga chiqishi fanda aniqlangan. Shu munosabat bilan daho kim? Daholik nima? degan savollar tug'uladi. Daholik ilmiy bilishda muxim o'rin tutadi. Demak, daholik haqida gapirar ekanmiz avvalambor uning ijodiy tafakkur natijasi ekanligini ta'kidlash zarurdir.

Inson xayotiy tajribasi va mavjud vaziyatga qarab o'z oldiga faravonlikka eltuvchi yo'l qidiradi hamda maqsad va vazifalarni o'z oldiga qo'yadi. Natijada maqsadga erishish uchun odatda yangi yo'nalish izlab, tafakkur qilishni boshlaydi.

Hozirda ko'pgina olimlar daholik formulalarini ishlab chiqib, o'ziga xos tavsiyalarni bergenlar. Bugungi kunda unga amal qilganlarning aksariyati o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga eshishlari uchun samara

berganligiga ishonadi. Inson daho bo‘lish uchun o‘z xislatlarini daholik fazilatlariga o‘zgartirishi lozimdir.

Demak, daholik sohasini tadqiq etgan mashxur olim V.Efroimsonning “Daholik genitekasi” deb nomalangan asarida daholikni shakllantirishdagi asosiy talablarni 4 bosqichga bo‘ladi. 1- bolalik va o‘spirinlik davrida jamiyat bilan qatiy, ishonchli munosabatlarni shakllantirish, 2-o‘zi uchun qiziqarli sohalar bilan individual shug‘allanish, 3-ushbu iste’dodlarni rivoshlantirishda maqbul shart-sharoitlar bazasini yaratish va 4-o‘zi va ijtimoy muxitni anglash uchun “ijtimoiy dolzarblik buyurtmasini” olishi lozim, ya’ni jamiyatdagi dolzarblikni ko‘rib ajrata olishi va unga ijobiy yechim topishga tafakkur yuritishni bilishi zarur hisoblanadi.

Lekin, daholar yangi, kutilmagan, yorqin fikrlay oladigan, o‘ziga xos fazilatlarga ega bo‘ladi. Aynan mana shu fazilatlarni uyg‘otish, uni shakllantirish va kamolga yetkazishda ijodkorlikka murojaat qilishadi. Barcha insonlarda muayyan bir sohada tug‘ma qobilyat mavjud, biroq hamma ham uni tarbiyalab iste’dod darajasiga olib chиqa olmaydi.

Tarixdan ma`lumki, o‘z sohasining asl mohiyatini tushungan mutahassisda ijodkorlik tafakkurini shakllantiradi, unda marralarni egallahga bo‘lgan intilishni yuzaga keltiradi. Hususan, Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarini 27 yoshida yozib tugatgan; Usmon Nosirning birinchi kitobi 20 yoshida chiqqan; Abdulla Qodiriy 26 yoshida “O‘tkan kunlar”ni yozib, e’lon qilgan; Chingiz Aytmatov 5 yoshida tarjimonlik qilib, haq olgan; Gyote 9 yoshida nemis, lotin va yunon tillarida she’rlar yozgan; rus bastakori Sergey Prokofev 5 yoshida birinchi musiqiy asarini yozgan, 9 yoshida esa “Pahlavon” nomli opera muallifi bo‘lgan; Lev Tolstoy 11 yoshida Moskva Kreml to‘g‘risida birinchi ocherkini ijod qilgan; Motsart o‘zining birinchi musiqiy asarini 3 yasharligida, ilk operasini esa 12 yoshida bastalagan; rus mo‘yqalam daholari Ilya Repin, Valentin Serovlar ijodlarini 4 yoshdayoq boshlashgan; Aleksandr Pushkin “Ruslan va Lyudmila” nomli mashhur poemasini 17 yoshida yozib tugatgan, Fridrix Shiller esa shu yoshga ham yetmay dunyoga mashhur “Qaroqchilar” pesasini yozgan; Paskal 15 yoshida birinchi ilmiy ishini himoya qilgan. Mixail Sholoxov o‘zini dunyoga tanitgan “Tinch Don” romanining birinchi jildini yozib tugatganida 23 yoshga to‘lmagan edi, shu yoshda Mixail Lobachevskiy matematika fanlari bo‘yicha professor bo‘lgan edi; Angliyalik fizik,

professor U. Lorens Bregg (1890–1970) esa 25 yoshida olimlardan eng yosh Nobel mukofoti sohibi bo‘lgan va hokazo.

O‘z navbatida, hamma iste’dod egalari ham daholik darajasiga erisha olmaydi. Iste’dod buyuklik, daholik tomon tashlangan bиринчи qadamdir. Ba’zan irsiyat ham iste’dodni nasldan-naslga o‘tishida rol o‘ynaydi. Masalan, bu holatni Motsart, Bax, Veronezi, Karrichi, Titsian, Darwin, Eyler, Guk, Dyumada ko‘rish mumkin.

Shuning uchun daholar har bir narsa va hodisada huddi “yosh bolalar” singari qiziqarli ma’lumotlarni va uning asl mohiyatidagi hikmatni topishga qodirdirlar. Ularni ba’zida jamoaning qo‘llab-quvatlashiga ishonch xosil qilasiz. Muvaffaqiyatsizlik ularni hech qanday tushkunlikka olib kelmaydi, uni tuzatib bo‘lmaydigan hodisa ham deb bilishmaydi, balki muvaffaqiyat kabi beba ho hayot tajribasi va maqsadga olib boruvchi yo‘l deb hisoblab, qaytadan bor kuchni ishga solishidadir.

Ko‘p xollarda daholikka olib boruvchi yo‘l deb, o‘ziga xos yo‘nalishlarga amal qilinadi. Bu borada hozirda rivojlangan davlatlarda allaqachon daholar tayyorlash maktablari ish boshlab, maxsus o‘quv dasturlari asosida faoliyat olib bormoqda. Mazkur maktablar uchun ko‘plab olimlar qo‘llanmalar, asarlar yozilib uning kutibxonasini boyitilmoqda. Anashundaylardan biri Erik Veynerdir.

U 1963 yilda Amerika Qo‘shma shtatlarining Massachuset shtatida tug‘ulgan. Taniqli jurnalist, mashxur sayohatchi va insonni ulug‘vorlikka undovchi ko‘plab kitobolar muallifi. Erik Veynerning eng mashhur kitobi “Daholar geografiyasi” deb nomlanadi. Unda yozuvchi bolalarning daho bo‘lib yetishishga yordam beruvchi sabablarni keltirib o‘tgan.

Hozirda daho tabiatи hanuzgacha sirdir va hech kim daholarni qanday yetishtirish bo‘yicha aniq bir reseptni o‘ylab topmagan. Ota-onalar bolalarini deyarli tug‘mlganidan boshlab turli kurs va sinflarga berishgan, yuzlab taniqli maktablar orasidan eng yaxshisini tanlashga va ko‘plab soha mutahasislarini yollashga harakat qiladilar. Chunki hech kim ular uchun eng yaxshi o‘qituvchi qidirmagan, yetarli sharoit yaratmagan va hayotdagi barcha muammolardan himoya qilmagan. Buning sabablarini Veynir o‘z asarida sayyoramizdagi bиринчи daholik markazi bo‘lgan qadimiy Afinani eslaydi: Qadimgi Afinada professional siyosatchilar, sud’yalar va xatto ruxoniylar yo‘q edi. Har kim hamma narsani qila oladi degan ishonch bo‘lgan. Urushga hamma bir bo‘lib boradi, unda shoirlar, sozanda va

qo'shiqchilar, xaykaltaroshlar, binokor ustalar va boshqa soha vakillari bir dam bo'lishib, ijod qilishdan tao'xtashmagan. Muntazzam bo'lib turgan urushlar oqibatida mamlakatda iste'dodli daholar soni ko'payib ketadi. Ularda daho uchun zarur deb hisoblagan sharoitlar: tinchlik, erkinlik, ustoz, murabbiy, o'quv kurslari-yu, zamonaviy uslubda jixozlangan auditoriyalar yo'q edi. Yoinki Leonardo da Vinchini ko'z oldingizga keltiramiz. Kezi kelganda shuni ta`kidlash joizki daholar xato qilishga qo'rqishmagan, ularning ko'plab sinovlari muvaffaqiyatsiz tugagan. Lekin ular aksariyat hollarda tarixdagi eng buyuk, asosiy kakshfiyotlarini tasodifan, boshqa narsalar ustida ishslash davrida qilishgan. Masalan Tomas Edison elektr chiroqni kashf qilishi uchun 14 yillik muvaffaqiyatsiz tajribalar o'tkazgan. Shuningdek tarixdan ma'lumki daholarda yuksak takomillashgan xotira, g'ayritabiiy xarakter, o'y, maqsad shunday bilinib turadi. Masalan, tarixda Kir hamda Aleksandr Makedonskiy o'z askarlarini nomma-nom bilgan, Seneka ikki ming so'zdan iborat matnni bir o'qiganda yodlab qolish qobiliyatiga ega bo'lган. Betakror qarash, yangilikni paydo qilish buyuklarning tamoyilidir. Barchaga oddiy tuyulgan, uncha-muncha aql anglab etmagan, ilg'ay olmagan holat, voqealarni, inson ko'nglidagi xayollari va ruhi uchun mavhum irmoqlarni ochib berish, mahorat hamda jo'shqin tasavvur ila tasvirlash daholarga xosdir. Doholarga jumladan Fridirix Nisshega shahar markazida bir necha bo'sh uylarni taklif qilishgan bo'lsada, u markazdan ancha chetroqda joylashgan uyni ijaraga oladi. Sababini so'rashganda – yayov yurish deb javob bergen. "Yurish paytida barcha chinakam buyuk fikrlar xayolga keladi", degan edi faylasuf. Jan Jak Russo deyarli butun yevropani yayov aylanib chiqqan. Immanuel Kant ham yurishni yaxshi ko'rgan. V.Gyote yurishni aqlning onasi deb xisoblagan. Fan daholik haqidagi yana bir o'zgacha qarashda miyadagi tug'ma nuqsonlar yoki kuchli ruhiy stress ta'sirida vujudga kelishi mumkin bo'lган tabiat tuhfasi deb biladi. Vincent Van Gogh ruxiy kasal bo'lib golyusinatsiyalardan aziyat chekardi va unga shifokorlar epilepsiya tashxisini qo'yishdi. Van Gogga kasallik ko'plab muammolar keltirib chiqargani bilan lekin uning miya faolitida rang-barang va betakror ijod qilish imkoniyatini bergen. Kasallik boshqalarnikiga solishtirganda miyada ovozli va vizual tasviriy kombinatsiyalar ketma-ketligini boyitishni ta'minlagan. Demak ba'zi kasalliklardagi nuqsonlar miya faoliyati yaxshilash uchun xizmat qiladi. Bu

atrofdagi nuqsonli insonlarni chetga chiqarib qo‘ymasdan uni talanti bo‘yicha qulay shart-sharoitlar yaratib berish lozim.

Bazi hollarda daholarning hamrohi hayolparastlik bo‘lgan. Misol uchun, Nyuton hayolparastligidan nima uchun tashqariga chiqqanini va qaytib kirganini bilmagan. Bu holat Viktor Gyugoda ham bo‘lgan. Enshteyn oddiy ko‘paytirishni, Tyusherel esa o‘z ismini unutib qo‘ygan paytlari ham kuzatilgan. Daholarning fe’lidagi ba’zi o‘zgarishlar sababli omma ularni g‘alati tasavvurda eslashadi. Bu xuddi Arximedning yalang‘och holda “Evrika” deb ko‘chaga otilganiday kishilarda daholar haqida juda jo‘n tasavvurlar saqlanib qolgan. Chunki daholarning iqtidori xilma-xil. Masalan Mendeleev ham davriy jadvalni tushida ko‘rib, keyin bunyod etgani, Agatta Kristi o‘zining detektiv asarlarini jinoiy arxivlardan qidirgan holda emas, balki oshxonada ovqat pishira turib “pishitgani” – bor haqiqat.

Shuningdek ba’zi xastaliklar aynan ijodkorlarga, daholarga xos degan tushuncha ancha bahsli. To‘g‘ri, Pifagor, Demokrit, Aleksandr Makedonskiy, Yuliy Tsezar, Petr I, Van Gog, Moler, Napoleon, Dostoevskiy kabi mashhurlar tutqanoq bilan og‘riganlar. Ko‘pgina past bo‘yli daholar juda ulkan ishlarni amalga oshirganlar. Darhaqiqat, ijodning asosiy manbai va sub’ekti ham ijodkor shaxs hisoblanadi. O‘z navbatida, ijodkor shaxs, asosan, o‘zining bilish motivatsiyasining dominantli o‘rni, tadqiqiy ijodiy faollilik, sub’ektni yangilikni topishga bo‘lgan qobiliyatida va muammolarni yechishdagi o‘ziga xoslikda namoyon bo‘ladi.

Qadimdan “Ehtiyoj –ixtirolarning onasi” degan naql bor. Ammo Erik Vayner bu fikrga mutlaqo qarshi va “Qarama-qarshilik bu ajoyib ixtirolarning sharti” deb aytadi. Masalan Stiven Xoking davolab bo‘lmaydigan kasallikka qarshi kurashmoqda. Rey Charlz bolalikdan ko‘rish qobiliyatini yo‘qotgan, ammo bu uning ajoyib jazz musiqachisi bo‘lishiga to‘sinqlik qilmadi. Stiv Jobsning ota-onasi uni atiga bir hafta bo‘lganida tashlab ketishgan. Qanchadan qancha daholar qashshoqlikda yashashgan va bu eng buyuk san’at asarlarini yaratishda to‘sinq bo‘lmagan. Masalan Albert Eynshteyn, Yoxannes Kepler, Ervin Shredingerlar turli sabablarga ko‘ra o‘z mamlakatlarini tashlab chiqib ketishga majbur bo‘lishgan. E’tirofga sazovor bo‘lish va yashash huquqini qo‘lga kiritish uchun zarurat ularni ijod qilishga undagan. Chunki daholar xavf-xatardan qo‘rqishmaydi, ular o‘z hayotlari, obro‘larini xavf ostiga qo‘yadilar. Hamkasblari va atrofdagilari uni har doim masharalashadi. Govard Xyuz bir necha bor xayotini xavf ostiga qo‘yib,

avixalokatlarga uchragan ammo uni samaliyotlarni boshqarishda va mustaqil sinovlardan o‘tkazishda davom etti. Mariya Kyuri butun umri davomida xavfli nurlanishlarda ishlagan va u nima qilayotgani yaxshi bilgan. Banihoyat, haqiqiy daho muvaffaqiyatsizlik, norozilik, masxara bo‘lishi yoki ijtimoiy qo‘rquvni yengib o‘tgandan keyingina ajoyib kashfiyotlar qilish mumkin.

Demak xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Inson o‘z ijodiy izlanishlari asosida ham dunyoni o‘zgartiradi, ham o‘zini ijodkor, kashfiyotchi sifatida namoyon etadi. Ya’ni inson o‘z oldiga xilma-xil muammolarni qo‘yadi va hal qiladi, ularning o‘ziga xos yechimlarini topadi. Ba’zan bunday yechimlarga nisbatan betakror yondashuvlar, usullarni qo‘llaydi. Ayni shu ma’noda, ijodkor shaxs deganda, yuksak qobiliyat, hayotiy tajribaga tayanadigan teran aql-idrok, haqiqat va yaxshilik birligi, oliy haqiqat,adolat va rostgo‘ylik mushtarakligi, aqliy va axloqiy kamolotning oliy darajaga yetgan holati, qadriyatlarni qadrlash, o‘zgacha his-tuyg‘ularning hayotga singib ketishi, har qanday narsa va hodisaga yangicha nuqtai nazar, aql ko‘zi bilan qarash tushuniladi. Iste’dod egalarini shakllantirsa bo‘ladi, lekin daholikni emas. Buyuklik o‘z-o‘zini yaratadi va namoyon etadi. Buyuklar hayotdan qoniqmaslik ruhi bilan yashaydi. Xullas, zamon talabiga ko‘ra yoshlарimizni ixtirochi, kashfiyotchi va boshqa sohalarda ise’dodli ijodkor, daholar bo‘lib yetishishlari uchun yuqorida sanab o‘tilgan xislat va fazilatlarni egallashlari lozimdir. Yurtimizda olib boriladigan keng islohatlar zamirida inson manfaatlari va xalqimiz farovonligini ta’minlash yotadi. Biz pedagoglar qobilyatli yoshlарimizni tarbiyalab, o‘z iste’dodlarini namoyon qilish va ijodkorlik ruhini singdirib, mamlakatimiz taraqqiyotiga o‘z hissamizni munosib qo‘shishimiz, barchamizning sharaflı va asosiy vazifamiz bo‘lmog‘i zarur.

3.2. Hadis ilmi rivojidagi oltin davr

Hadis ilmi vujudga kelgan davrdan boshlab muhaddislar ilm talabida o‘zga yurtlarga safar qila boshladilar. Mana shu jarayon Movarounnahr yerlarida hadis ilmining taraqqiy etishi uchun asosiy omil bo‘lib xizmat qildi.

Manbalarda Movarounnahrga 674-675 yilda kirib kelgan to‘qqiz kishining nomini keltiradi. Ular: Sa’id ibn Usmon ibn Affon; Qusam ibn Abbos; Abul’oliya Rufay’ ibn Mihron; Muhammad ibn Vosi’; Bard (Molik ibn Anasning mavlosi); Dahhok ibn Muzohim; Lays ibn Abi Sulaym; Ziyod

ibn Mihron; Xulayd ibn Hasson. Shu sababli ham bu o‘lkaning turli joylaridan buyuk muhaddislar etishib chiqdilar.

Shu asrning ikkinchi yarmiga kelib Xurosondagi hadis maktablari orqali Ishoq ibn Rohavayh al-Marvaziy va Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziyning (118-736 -181h.y.) hamda Abdulhamid ibn Humayd ibn Nasr Abu Muhammad Hofiz Keshiyning (170-1786m-249-863m) Movarounnahrlik shogirdlaridan mahalliy islom ulamolari yetishib chiqa boshladilar.

Ilk hadis maktablari yaratib, hadis ilmini Movarounnahrda rivoj topishiga hissa qo‘sghan muhaddis allomalar: Imom Doxiliy al-Buxoriy, Muhammad ibn Salom al-Poykandiy, Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug‘iyra al-Buxoriy, Muhammad ibn Yusuf al-Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy al-Buxoriy, Ibrohim ibn al-Ash’as al-Buxoriy, Salim ibn Mujohid al-Buxoriy, Abu Abdurahmon Shayboniy al-Buxoriy (vaf. 919 y.) va Abu Hafs Ahmad Sikijkasiy al-Buxoriy (vaf. 927 y.), Imom Abdulloh as-Subazmuniy (872m-l), Abu Ahmad Tolib ibn Ali ibn Hasan ibn Turxor ash-Shiyrakasiy, Abu Kasir Sayf ibn Hafs Zohid az-Zominiy, Abu Sahl Ahmad ibn Muhammad ibn Yazdoz ar-Roziy az-Zominiy, Abu Muhammad Ahmad ibn Muhammad ibn ad-Dabusiy ar-Rog‘iniy, Abdulg‘ushaym Zulaym ibn Hatit al-Jahzamiy ad-Dabusiy Samarqandiy, Abu Sa’iyd al-Haysam ibn Kulayb Shoshiy, Surayj ibn Ma’qil ash-Shoshiy, Ja’far ibn Shuayb Shoshiy, Makhul ibn Fazl, Muhammad ibn Mahmud Anbar, Hamad ibn Shokir, Abd ibn Muhammad Nasafiy, Haysam ibn Kulayb Shoshiy, Ahmad ibn Yusuf Nasafiy va Abul Abbas Muhammad ibn Mahbub Mahbubiyy.

Movarounnahrdagi hadis maktablari rivoji asosida yetishib chiqqan dunyoga mashhur muhaddis allomalar:

Abdulhamid ibn Humayd ibn Nasr Abu Muhammad Hofiz Keshiy, “Musnad” hadis to‘plami muallifi;

Imom Buxoriy Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug‘iyra ibn Bardazbeh al-Ju’afiy (810—870), “al-Jomi’ as-sahih” hadis to‘plami muallifi;

Imom Abu Iso Muhammad ibn Savra ibn Muso Dahhok Sulamiy Termiziyy (824–892), “as-Sunan” hadis to‘plami muallifi;

Imom Abu Muxammad Abdullox ibn Abdurraxmon ibn Baxrom ibn Abdussamad ad-Dorimiyy al-Xofiz as-Samarqandiy ad-Dorimiyy (181x/-797m 255x/-869m), “as-Sunan” hadis to‘plami muallifi;

Abu Sa’id Haysam ibn Kulayb ibn Surayj (ba’zi manbalarda Shurayh deb keltirilgan) ibn Ma’qil ash-Shoshiy (335x/-947 335-947), “Musnad al-Kabir” hadis to‘plami muallifi;

Abu Hafs Najmuddin Umar ibn Muhammad an-Nasafiy, as-Samarqandiy (461x/-1069 m), “al-Qandfiy zikri ulamoi Samarqand” to‘plamining muallifi.

Manbalarda keltirilishicha, VIII-asrning o‘rtalaridan XIV-asrning o‘rtalarigacha hadis ilmi bilan Movarounnahrning turli shaharlarida mingdan ziyod roviy muhaddislar shug‘ullangan.

3.3. Imom al-Buxoriy va uning asarlari

Imom al-Buxoriyning ismi Muhammad, kunyasi Abu Abdulloh, laqabi ba’zan imom al-muhaddisiyn (muhaddislarning imomi, peshvosi), ba’zan amir ul-mu’miniyn fil-hadis (hadis ilmining amiri, sulton) va nasabi Muhammad ibn Ibrohiym ibn al-Mug‘iyra ibn Bardazbah ibn Bazazbehdir.

Qisqachasi: **Abu Abdulloh Muhaammad ibn Ismoil al-Buxoriy.**

Jamiy muhaddislarning imomi, hadis ilmining sulton (amirul mo‘m’iniyn fil hadis), sayyidul fuqaho kabi laqablarga tuyassar bo‘lgan ulug‘ zot imom al-Buxoriy azaldan ilm fan va madaniyat ravnaqida mashhur bo‘lgan Buxoroi sharifda 194 hijriy sana shavvol oyining 13 kunida salotul jum’adan keyin (810 milodiy sana 21-iyul) dunyoga kelgan. U yoshligidayoq islomiy ilmlarga, ayniqsa, Payg‘ambar alayhissalomning muborak hadislarini o‘rganishga va yodlashga moyilllik tobora kuchaya borib, u dastavval Ibn al-Muborak va Vakiy’ning hadislarga oid asarlarini yod oladi. Imom al-Buxoriyning kotibi, uning asosiy tasnifi “Sahih” asari roviylaridan biri Abu Ja’far Muhammad ibn Abu Hotam al-Varroq shunday deb yozadi: Al-Buxoriyning: “Hadislarni yod olish ilhomni menga boshlang‘ich mifikda o‘qiyotganimda kelgan edi”-deb aytganini eshitganimda: “O‘shanda necha yoshda edingiz?”-deb so‘radim: u “O‘n yoshda balkim undan ham kichik edim”, - deb javob bergandi. U nafaqat hadislarni shunchaki yod olish, balki unda yoshligidan boshlab hadislarni sahih (to‘g‘ri, ishonchli) va g‘ayri sahihlarga (xato, noto‘g‘ri) ajratish, ularning illatlarini aniqlash, hadis roviylarini o‘rganib tahqiq qilish, ular rivoyatiningadolatlili, to‘g‘rili, ishonchli yoki ishonchsizligi, roviylarning maishiy hayotlari, yashash joylari, tug‘ilgan va vafot etgan sanalari, bir-birlari bilan o‘zaro qilgan muloqotlari turli roviylar keltirgan

hadislarni bir-biriga solishtirib muqoyasa qilish, ularning bir-birlari bilan o‘zaro bog‘liqligi va bir-biriga bog‘liq bo‘lmay uzilishlar bor holatlari, hadis ilmining xilma-xil va eng yuqori nuqtalariga etishish, uning turli masalalarini chuqur tahqiq etish, ularni ja’mlash va Qur’oni karim oyatlari bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganish kabi masalalar bilan qiziqdi. Imom al-Buxoriy hadis sohasidagi o‘z ilmi va salohiyati, ayniqsa, illatli hadislarni aniqlash mahorati bilan barchani qoyil qoldirgan, muhaddislarning hammasi unga bir ovozdan tan bergen. Imom al-Buxoriy masjidlarda, ommaviy ilmiy yig‘inlarda ham ishtirok etgan.

Imom al-Buxoriy o‘zining butun faoliyati davomida ham ilmiy, imkonni bo‘lsa moddiy jihatidan odamlarga biror navf yetkazishni o‘zining asosiy maqsadi qilib qo‘ygan edi. U doimo ilm ahllari-yu, ilm toliblariga, hatto ustozlar (ash-shuyuh) va muhaddislarga ham moddiy yordam ko‘rsatardi. Tijorat qilganda har safar o‘zi ko‘rayotgan oylik daromadidan, ya’ni foydasidan besh yuz dirhamni faqir-u miskinlarga, ilm toliblariga sarflardi. Tolibi ilmlarga ma’lum mablag‘lar (maoshlar) ajratib, ularni alohida qiziqishi, zavq-shavq bilan Payg‘ambar alayhissalom ilmlarini (hadisi shariflarini) o‘rganishga rag‘batlantirardi, ahli ilmga nisbatan g‘oyatda ko‘p ehson ko‘rsatardi.

Imom al-Buxoriy g‘oyatda beg‘ubor, halol-pokiza, diyonatli inson bo‘lib, g‘iybatu-nohaqliklardan uzoq bir kishi edi. U doimo “G‘iybat qilishlik harom ekanini bilganidan boshlab, hech qachon biror kishi haqida g‘iybat gapirmaganman”, -deb ta’kidlardi.

Imom al-Buxoriyning eng ulug‘ fazilatlaridan yana biri u taassub (mutaassiblik)ning har qanday ko‘rinishlaridan uzoq bo‘lgan alloma edi. Uning shoh asari “Sahih al-Buxoriy” bilan chuqurroq tanishilsa, al-Buxoriyning o‘z kitobidagi ma’lumotlarga nihoyatda katta sinchkovlik va ehtiyojkorlik bilan yondoshganini ko‘ramiz. Qanchadan-qancha mashaqqatlar bilan to‘plangan hadislarning sahihligiga to‘la ishonch hosil qilib, obdon tekshirgandan keyingina o‘z asariga kiritganligi ushbu fikrimizni yana bir bor tasdiqlaydi. Imom al-Buxoriyning “Sahih” asari haqida gapirar ekanmiz, shuni ham qayd qilish kerakki, ushbu kitobning sahih isnodlarida ahli sunnaga mansub bo‘lmagan roviylar ham uchraydi. Imom al-Buxoriy muhaddislarda hadislarga bo‘lgan katta mehr va intilish hamda unga qat’iy amal qilish har qanday tahsinga sazovor, deb hisoblardi. Bu masala g‘oyatda muhim bo‘lib, bu xususda ba’zi muhaddislarning o‘zlari

ham fikr-mulohazalarini bildirganlar. Jumladan, imom Ahmad ibn Xanbal “o‘zim amal qilmagan bitta ham hadisni kitobga olmaganman”- deb ta’kidlagan bo‘lsa, o‘z davrining yirik muhaddislaridan biri sanalgan Vakiy’ ibn al-Jarrah: “Agar biror hadisni yodlashni istasang, eng avvalo unga amal qil”,-degan.

Imom al-Buxoriy 256 hijriy yilning Ramazon haetida (Iyd al-fitr) kechasida (870 yil 31 avgust) vafot etdi.

Manbalarda keltirilishicha, imom al-Buxoriy o‘z ijodiy faoliyati davrida yigirmadan ortiq asarlar yaratgan. Allomaning mana shu asarlari xususida qisqacha to‘xtalamiz:

1. Imom al-Buxoriyning shoh asari “Al-Jomi’ as-Sahih” (ishonchli to‘plam). Buyuk allomaning eng muhim asari “Sahiyh al-Buxoriy” nomi bilan ham mashhur. Alloma ibn Salohning ta’kidlashicha, al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo‘lib, takrorlanmaidigan holda esa 4000 hadisdan iborat.

2. Al-Adab al-mufrad (“Adab durdonalari”). Imom al-Buxoriyning odob-axloq xususidagi eng sahih hadislarni o‘zida mujassam etgan ushbu asari katta tarbiyaviy ahamiyatga molik benazir to‘plamdir. Uning arabcha nashri ikki marta bosilib, 1990-yilda esa, olim Sh.Boboxonov tomonidan asarning o‘zbekcha tarjimasi ham nashr etilgan. Imom al-Buxoriyning bu asarida 1322 hadis va xabarlar 644 bobda ja’mlangan bo‘lib, u Hindiston, Turkiya va Misrda bir necha marta chop etilgan. Asarning bir qancha qo‘lyozma nusxalari ham saqlangan. Hindistonlik olim as-Sayiyd Fazlulloh al-Jiloniy bu asarning tanqidiy nashrini sharhi bilan birgalikda “Fazlullohisamad fi tavziyhil-Adab al-Mufrad” nomi bilan chop etgan.

3. Kitob al-kuna (“Kunyalar haqida kitob”). Azaldan muhaddislar o‘rtasida roviylarni qator hollarda asl ismlari bilan emas kunyalarini bilan atash odat bo‘lgan. Bu hol o‘z navbatida roviylarni bir-biri bilan almashtirib yuborilishiga, oxir-oqibatda xatoga olib kelgan. Shu boisdan roviylarning kunyalariga bag‘ishlangan imom al-Buxoriyning ushbu asari bu sohada katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu asar Hindistonda 1940-yilda chop etilgan.

4. Kitob al-Favoid (Foydali ashyolar haqida kitob). Imom al-Buxoriyning ushbu ta’lifi imom at-Termiziyning “Al-Jomi” nomli asarining “Kitob al-manoqib” qismida zikr etilgan. Olim Muhammad Jamoluddin al-Qosimiyy ad-Dimashqiy “Hayot al-Buxoriy” nomli tasnifida imom al-Buxoriyning ushbu asarini “Kitob al-Favoid” deb xato keltirgan. Asar illatli

hadislarga bag‘ishlangan bo‘lsa kerak. Uning qo‘lyozmalari haqida aniq ma’lumotga ega emasmiz.

5. Juz’ raf’ al-yaddayn (“Ikki qo‘lni ko‘tarish haqida”). Ushbu asarda ikki qo‘lni ko‘tarishga oid hadislар ja’mlangan bo‘lib qo‘lni ko‘tarmaslikka oid rivoyatlar bilan bahs yuritiladi. Asardagi hadislarni imom al-Buxoriydan Buxoro shahrida ta’lim olgan, uning oxirgi shogirdlaridan biri hisoblangan Mahmud ibn Ishoq al-Xaza’yi rivoyat qiladi.

6. At-Tarix al-Kabir (“Katta tarix”)-Ushbu “at-Ta’rix” asarini imom al-Buxoriy o‘n sakkiz yoshida Madinai-munavvaradagi al-Masjid an-Nabaviy (“Payg‘ambar masjidi”)da yaratgan. Ushbu asar yozib tugatilgach imom Ishoq ibn Rohvayh katta xursandchilik bilan amir Abdulloh ibn Tohir al-Xurosoniyga uni taqdim qilaturib: “Senga harqanday kishini sehrlab qo‘yadigan bir asarni ko‘rsataymi?”, -deb hitob qilgan. Imom al-Buxoriyning ushbu asari Turkiyada to‘qqiz jildda nashr qilingan. Asar qo‘lyozmasining ba’zi qismlari Haydarobod kutubxonasida saqlanadi, u “kof” harfidan boshlanib, kitobning oxirigacha etadi. Agar 1361-1362 hijriy (1941-1942 melodiya) yillarda sakkiz qism to‘rt jildda chop etilgan. “At-Tarix al-kabir” kitobi sahabalar, tobe’iynlarning izdoshlari (atbo‘) dan rivoyat qilgan hadislarni to‘la-to‘kis o‘zida qamrab olgan bo‘lib, ularning ismlari alifbo tartibda joylashtirilgan. Agarki mushtarak ismlar uchrab qolsa alifbo harflarining tartibi ular otalarining ismlariga qarab tartib berilgan.

7. At-Ta’rix al-avsat (“O‘rta ta’rix”) - Bu kitobni imom al-Buxoriydan Abdulloh ibn Abdusallom al-Haffof va Zanjaviyh ibn Ahmad al-Lubod rivoyat qilganlar. Ushbu asarning bir qo‘lyozma nusxasi Hindistonning Haydarobod shahrida saqlanishi zikr qilinadi.

8. At-Tarix as-sag‘ir (“Kichik tarix”). Imom al-Buxoriyning bu asari ham hadis tarixiga oid qimmatli asardir. Imom al-Buxoriy bu asarida mashhur sahabalar, tobe’iynlar va tobe’iynlarning izdoshlarini zikr qilgan bo‘lib, ularning vafot etgan yillari, naslu nasablarini, ularning o‘zaro muloqotlarini bayon qiladi, ko‘p hollarda noqis (jarh) va isloh qilinganlarini ham qayd etadi. Muallif o‘z asariga yilma-yil tartib berib, agar bir sanani tugatsa, u sanada vafot etgan mashhur shaxslarni, sodir bo‘lgan boshqa muhim ishlarni zikr etib, undan so‘ng keyingi sanani boshlaydi. Bu asar Hindistonda va Qohirada nashr etilgan.

9. Imom al-Buxoriyning hadislarga oid “al-Jomi’ al-kabir” (“Katta to‘plam”) asari xususida ba’zi manbalarda zikr qilinsada, bu asar haqida

batafsil ma'lumotga ega emasmiz asarning ayrim qo'lyozma nusxasi saqlanganligi haqida ba'zi taxminlar bor. "Kashf az-zunun" asarida ham shu tarzdagi ma'lumot bilan chegaralanilgan.

10. Xalq af'ol al-ibod ("Olloh bandalari ishlarining yaratilishi"). Sahobalar va tobe'iynlar Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflarga tayanib soxta guruhlarga raddi javob qilishi hadisshunoslik tarixida mavjud edi. Ushbu kitobning maqsadi ham shu yo'nalishdadir. Imom al-Buxoriydan bu asarni Yusuf ibn Rayhon ibn Abdussamad al-Firabriy rivoyat qilgan. Imom al-Buxoriyning bu asari 1958 yilda Makkai Mukarramada va 1886-yilda Hindistonda nashr etilgan.

11. "Kitob az-zuafo as-sag'ir" (Zaif roviylar haqida kichik kitob). Bu asar "Kitob az-zuafo" nomi bilan ham zikr qilinadi. Muallif bu asarida zaif roviylarning ismlarini alifbo harflari tartibida keltirgan. Aksar hollarda zaiflikning sabablari roviyning ustozlari zikri bilan birga bayon qilinadi. O'ta diqqat e'tibor bilan bu kitobda roviylarning nuqsonlari va qusurlari ko'rsatilib, ular rivoyatning zaiflik negizlarini aniqlashga imom al-Buxoriy katta extiyotkorlik va zo'r mas'uliyat bilan ish tutgan. Allomaning bu asari 1885-yilda Hindistonda chop etilgan.

12. Imom al-Buxoriy "al-Musnad al-kabir" ("Katta musnad") nomli asar yozgan bo'lsa-da, uni bizgacha etib kelgani haqida aniq ma'lumot yo'q. Lekin uning bir qo'lyozma nusxasi ikkinchi jahon urushidan oldin Olmaniyada saqlanganligi haqida taxmin qilinadi.

13. Imom al-Buxoriyning "At-Tafsir al-kabir" ("Katta tafsir") nomli asari haqida allomaning shogirdlaridan biri al-Firabriy zikr qilgan. Nemis sharqshunosi Karl Brokelmanning yozishicha, bu asarning bir qo'lyozma nusxasi Jazoirda, yana bir nusxasi Parijda saqlanar ekan.

14. "Kitob al-Hiba" ("Xayr-ehson haqida kitob"). Imom al-Buxoriyning bu kitobi haqida allomaning shaxsiy kotibi Muhammad ibn Abu Hotam al-Varroq: "Imom al-Buxoriy xayr ehson haqida bir kitob ta'lif etdilar, unga besh yuzga yaqin hadis kirgan", -deb yozgan. Lekin, afsuski bu asarning biron-bir qo'lyozma nusxasi bizgacha etib kelganligi ma'lum emas.

15. Imom al-Buxoriyning boshqa bir asari "Asomiy as-sahoba" ("Sahobalarning ismlari") deb ataladi. Imom al-Buxoriydan avval biron muallif ushbu ("Asomiy as-sahoba") mavzusida kitob yozgani ma'lum emas. Imom al-Buxoriydan keyin esa Ibn Munda, Ibn Abdulbir, Ibn al-Asir, al-Hofiz ibn Hajar al-Asqaloniy va ulardan boshqa qator mualliflar

sahobalarning ismlari, ularning siyratlari va ular solnomalari haqida asarlar yaratgan. Kezi kelganda aytish kerakki, bu juda muhim mavzu bo‘lib, uning ilmiy ahamiyati kattadir. Ushbu asarning bir qo‘lyozma nusxasi Ikkinchi jahon urushidan oldin Olmoniyada saqlanganligi haqida ma’lumotlar bor.

16. “Kitob ul-vuhdon” (“Yagonalar haqida kitob”). Alloma ushbu “Kitob al-vuhdon” asarida faqat bir hadis rivoyat qilgan sahobalarni zikr qiladi. Imom al-Buxoriy bu sohada ham birinchilardan bo‘lib asar yaratgan. Undan keyin imom an-Nasoiy ham (ayni shu tarzda) “Kitob al-vuhdon” nomli asar yaratgan, shuningdek al-Buxoriyga taqlid qilib imom Muslim ham "Kitob al-vuhdon" nomli asar yozgan. Imom al-Buxoriyning bu asari ham bizgacha yetib kelganligi hozircha ma’lum emas.

17. Imom al-Buxoriyning “Kitob al-Mabsut” (“Mufassal kitob”) nomli asari haqida olim al-Xaliliy “al-Irshod” nomli asarida zikr qilgan. Asarni Imom al-Buxoriydan Muhiyb ibn Salim rivoyat qilgan bo‘lib, uning mavzui haqida aniq yozilmagan. Lekin faraz qilish mumkinki, imom al-Buxoriy ushbu asarida hadislarni chuqur tadqiq etish natijasida fiqhiy masalalarni bat afsil bayon qilgan bo‘lsa kerak. Asarning qo‘lyozma nusxasi Ikkinchi jahon urushidan avval Olmoniyada bo‘lganligi zikr qilinadi.

18. “Kitob al-Ilal” (“Illatli hadislар haqida kitob”). Illatli hadislarni bilish g‘oyatda nozik va muhim bo‘lib, ushbu ilmni idrok etish uchun muallif keng ko‘lamda ma’lumotga ega bo‘lishi va g‘oyatda iqtidorli bo‘lishi talab qilingan. Ehtimol, Imom al-Buxoriyning “Kitob al-ilal” nomli asari ushbu mavzuga bag‘ishlangan dastlabki asarlardan biri bo‘lishi mumkin.

19. “Birr al-volidayn” (“Ota onaga mehr-muhabbat”). Manbalarda ta’kidlanishicha, bu asarni imom al-Buxoriydan Muhammad ibn Dallaviyx rivoyat qilgan. Asarning nomidan ham uning mazmun-mohiyati ma’lum bo‘lgan bilan allomaning ushbu asari bizgacha etib kelmagan hisoblanadi.

20. “Kitob al-ashribati” (“Ichimliklar (sharbatlar) haqida kitob”). Ushbu asar haqidagi qisman ma’lumotlar ad-Doruqutniyning “al-Mu’talaf va al-Muhtalaf” nomli kitobida keltirilgan. Asar bizgacha etib kelmagan bo‘lsa kerak.

21. “Qazoyo as-sahoba vat-tob’eiyn” (“Sahobalar va tobe’iynlar hukumlari”) nomli asarini Imom al-Buxoriy 827/212 hijriy sanada “at-Ta’rix al-kabir” (“Katta ta’rix”) asaridan ham oldin tasnif qilgan. Sahobalar va tabe’iynlar haqidagi qimmatli ma’lumotlarni, ular to‘g‘risidagi amaliy

munosabatlarni o‘zida mujassam qilgan ushbu asar, ming afsuski, bizgacha yetib kelmagan.

22. “Kitob ar-Riqoq” (Nafosat haqida kitob). Imom al-Buxoriyning ushbu asari haqida juda oz ma’lumotga egamiz. Olim Hoji Xalifa bu asar haqida qisqagina “Al-Buxoriyning “Kitob ar-Riqoq” asari hadis kitoblaridan biri”, - degan iboradan boshqa hech qanaqa ma’lumot keltirmagan. Aftidan, allomaning ushbu asari bizgacha etib kelmagan.

23. “Al-Jomi’ as-sag‘ir fil-hadis” (“Hadis haqida kichik to‘plam”). Imom al-Buxoriyning ushbu asari haqida Hoji Xalifa: "Bu asarni imom al-Buxoriydan Abdulloh ibn Muhammad al-Ashqar rivoyat qilgan", -deb yozgan. Shayx Al-Muborakfuriyning yozishicha, al-Hofiz ibn Hajar: “bu imom al-Buxoriyning mavjud asarlaridandir, -deb ta’kidlagan. Ikkinchi jahon urushidan oldin bu asarning bir qo‘lyozmasi Olmoniyada bo‘lganligi taxmin qilinadi.

24. “Al-Qiroatu xalf al-imom” (“Imom orqasida turib o‘qish”). Imom al-Buxoriyning qalamiga mansub bu mashhur risolada hadislari va boshqa manbalarga tayanilgan holda imomning orqasida turib qiroat qilish mumkinligi isbot qilingan. Ushbu asarida imom al-Buxoriy o‘zi qo‘llagan nafis uslub orqali o‘zi bilan munozara qilganlarga o‘rinli javob qilganligi ham tahsinga sazovor. Imom al-Buxoriyning bu asari bir necha yil ilgari Qohirada, undan keyin Hindistonda chop etilgan.

3.4. Abu Iso Muhammad at-Termiziy

Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Zahhok Sulamiy Bug‘iy Termiziy milodiy 824-825 – 892-yillar oralig‘ida yashagan mashhur muhaddisdir. Imom Termiziy Termiz yaqinidagi Bug‘ qishlog‘ida tug‘ildi. Yoshlik chog‘laridan ilmga katta qiziqish va ishtiyoq ko‘rsatdi. Samarqand, Buxoro, Marv kabi shaharlardagi mashhur ulamo va muhaddislar asarlarini o‘rgana boshladi.

Ayniqsa Manbalarda ta’kidlanishicha, al-Hakim at-Termiziy tug‘ilgan Termiz shahri IX asrda Movarounnahrning eng yirik va obod shaharlaridan biri sifatida mashhur bo‘lgan. Shaharda islomiy ilm va madaniyat yuksak darajada taraqqiy etgan. Afsuski. Al-Hakim at-Termiziyning bolalik va yoshlik yillari haqida manbalarda aniq ma’lumotlar uchratmadik. Uning ota-onasi haqidagi ba’zi xabarlardan ma’lum bo‘lishicha, uning otasi Ali ibn al-Hasan o‘z davrida hadis ilmining ko‘zga ko‘ringan olimlaridan biri sifatida

mashhur bo‘lgan. Arab tarixchisi, al-Xatib al-Bag‘dodiy o‘zining mashhur “Tarixi Bag‘dod” (“Bag‘dod tarixi”) nomli asarida yozishicha, u musulmon olamining eng yirik markazlaridan sanalgan Bag‘dod shahrida bo‘lib, o‘sha davrning mashhur olimu ulamolari bilan hadis ilmining turli masalalari bo‘yicha qizg‘in bahs va munozaralarda ishtiok etgan. Al-Hakim at-Termiziy o‘zining avtobiografik risolasi “Bad’usha’ni Abu Abdulloh” va “Ar-Radd a’lo-l-Muattila” asarlarida yozishicha, uning onasi va bobosi ham o‘z davrida hadis ilmining yetuk bilimdonlaridan bo‘lganlar.

Imom Termiziy hadis o‘rganish va ularni yig‘ish uchun qariyb 20 yil o‘zga yurtlarda bo‘ldi. Nishopurda Imom Buxoriy bilan uchrashib, ko‘pgina hadislar xususida fikr almashdi. Imom Buxoriy bilan besh yil birgalikda yashashi “Sunani Termiziy” asarining yaratilishida muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Imom Termiziy hadisning sahihligini aniqlashda “Sunan”da “sahih”dan keyin “hasan” darajasini ham kiritdi. Termiziy “hasan” iborasini o‘z kitobida bunday ta’riflaydilar: “Ushbu kitobimizda “Bu hadis hasan” degan paytimizda biz sanadining hasan ekanligini nazarda tutganmiz. Chunki roviysi yolg‘onchi deb taxmin qilinmagan har bir hadis, deyarli boshqa sababdan rivoyat qilinsa va shoz(z) bo‘lmasa, u hadis, bizning fikrimizcha, hasandir”.

O‘z ijodiy faoliyati davrida at-Termiziy o‘ndan ortiq asarlar yaratdi. Uning madaniy merosida, shubhasiz, “Al-Jomi” asari katta ahamiyatga egadir. Bu asar “Al-Jomi’ as-sahiyh” (“Ishonchli to‘plam”), “Al-Jomi’ al-kabiyr” (“Katta to‘plam”), “Sahiyh at-Termiziy”, “Sunan at-Termiziy” (“Termiziy sunnatlari”) nomlari bilan ham yuritiladi.

Termiziy qalamiga mansub asarlar ko‘p. Misrlik olim shayx Abdulfattoh Abdulloh Barakaning dalolat berishicha, Termiziy 400 dan ortiq asar yozgan, ulardan 60 ga yaqini bizgacha yetib kelgan. Ular orasida eng avvalo, Muhammad (sav) hadislariga bag‘ishlangan “Navodir al-usul fi ma’rifat axbor Rasul” (“Rasululloh xabarlarini bilishda nodir usullar”) kitobini aytish kerak. Ushbu asarning ikkinchi qo‘lyozma nusxasi Toshkentda mavjud bo‘lib, ulardan biri O‘zbekiston musulmonlar idorasining kutubxonasida, ikkinchisi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Allomaning keyingi yillarda nashr etilgan asarlaridan tasavvufga oid ikkita kitobi: “kitob haqiqat al-odamiya” (“Insoniyat haqiqati to‘g‘risida kitob”) va Adab un-nafs” (“Nafs odobi”) ko‘rsatish mumkin.

Muallifning yirik asarlaridan yana biri “Ash-shamoil an-nabaviyya” (“Payg‘ambarning alohida fazilatlari”)dir. Bu asar “Ash-shamoil muhammadiyya”, “Ash-shamoil fi shamoil an-nabiy salollohu alayhi vassallam” nomlari bilan ham ataladi. Ushbu asar Saudiya Arabistonida istiqomat qilgan vatandoshimiz Said Mahmud Taroziy (u 1992 yili vafot etgan) tomonidan o‘zbekchaga o‘girilgan (arab alibbosida va kirillchada Toshkentda bir necha bor nashr qilingan). “Kitob at-ta’rix”, “Kitob al-ilal assag‘iyr va al-ilal al-kabiyr”, “Kitob uz-zuhd” (“Taqyo haqida kitob”), “Kitob al-asmo val-kuna” (“Roviylarning ismi va laqablari haqida kitob”), “Al-ilal fil-hadiys” (“Hadislardagi illatlar yoki og‘ishlar haqida”), “Risola fil-xilof val-jadal” (“Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola”), “Asmo us-sahoba” (“Payg‘ambar sahabalarining ismlari”) shular jumlasidandir.

1990-yilda Abu Iso Muhammad Termiziyaning 1200 yilligi O‘zbekistonda keng nishonlandi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev 2017-yil 14-fevralda 2774-sonli “Imom Termiziyaning xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini imzoladi.

Markaz O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, O‘zbekiston musulmonlari idorasi, Surxondaryo viloyati hokimligining Surxondaryo viloyatida O‘zbekiston musulmonlari idorasi muassisligida tashkil etildi.

Islom dinining, Qur’oni karim va hadis ilmining asl mohiyatini, hadisshunoslik maktabining ilmiy-ma’naviy asoslarini, Imom Termiziyan hamda termiziy allomalar, yurtimizdan etishib chiqqan mutafakkir zotlar merosini har tomonlama chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish Imom Termiziyaning xalqaro markazining asosiy vazifasi etib belgilandi.

Markaz Adliya vazirligi tomonidan 2017-yil 14-martda davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.

3.5. Qaffol ash-Shoshiy – buyuk musulmon qonunshunosi

Qaffol Ash-Shoshiy nomi bilan mashhur bo‘lgan Abu Bakr Muhammad ibn Ali ibn Ismoil Qaffol ash-Shoshiy (904-976) – islom olimi, muhaddisi va tilshunosidir. U Hazrati Imom nomi bilan taniqli bo‘lgan. Arab manbalarida u kishiga alohida hurmat ko‘rsatilib, nomiga “katta”, “ulug” ma’nosini ifodalaydigan “kabir” so‘zini qo‘shib yozadilar.

Qaffol Shoshiy hijriy 291 (milodiy 903) yili Shoshda tug‘ilib, bolaligi va yoshligi shu yerda o‘tgan. Muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon (rahmatullohi alayh) ta’kidlashicha, dastlabki ilmni zamonasining mashhur muhaddisi va faqiji Haysam ibn Kulaybdan olgan. Keyinroq u ilmtalabida Movarounnahrdagi ma’rifat o‘choqlari – Samarqand, Buxoro, Termiz kabi shaharlarda bo‘ladi. Mashhur tarixchi Abu Sa’d Abdulkarim ibn Muhammad Sam’oni (1113–1167) “Al-Ansob” (“Nasabnama”) asarida bunday yozadi: “Qaffol” – qulfsuzlik kasbiga nisbat berilgan. Qaffol Shoshiy Shosh ahlidan bo‘lib, qulfsuzlikda shuhrat qozongan. U o‘z zamonasining imomi (peshvosi) bo‘lib, fiqh, hadis, usul, tilshunoslik ilmlari bo‘yicha tengi yo‘q olim edi. Qaffol Shoshiyning nomi mag‘ribu mashriqqa yoyilgan”.

Ahli sunna val-jamoaning peshvolaridan bo‘lmish Qaffol Shoshiyning huquqshunoslikka doir “Kitob fi usulil fiqh” asari o‘z davrida Islom dunyosida keng qo‘llanilgan. Abu Bakr Qaffol Shoshiy ilm talabida Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarini kezib chiqadi. Bag‘dod, Kufa, Damashq, Nishapur kabi shaharlarga boradi. Zamonasining zabardast olimlaridan saboq oladi.

Qaffol Shoshiy nomini butun musulmon olamiga mashhur qilgan narsa yozib qoldirgan durdona asarlari hisoblanadi. U kishi tafsir, hadis, kalom, fiqh, usulul-fiqh, she’riyat va tilshunoslik ilmlari bo‘yicha qomusiy olim edi. Uning asarlariga oid ma’lumotlar bir qator arab manbalarida qayd etilgan. Tarixchi Abu Sa’d Abdulkarim Sam’oniyning ta’kidlashicha, Qaffol Shoshiy “Daloilun nubuvvat” (“Payg‘ambarlik dalillari”), “Mahosinush sharia” (“Shariat go‘zalliklari”) kitoblarini ham ta’lif etgan.

Qaffol Shoshiyning “Javomi’ul kalim” (“Hikmatli iboralar to‘plami”), “Adabul qozi” (“Qozining odobi”) kabi asarlari borligi haqida ham manbalarda qayd etilgan.

Hazrat Qaffol Shoshiy asarlaridan birortasi mamlakatimiz kitob xazinalarida mavjud emas. Faqatgina marhum muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon 1970-yili Suriyaning Damashq shahridagi “Zohiriya” kutubxonasida saqlanayotgan “Javomi’ul kalim” asari qo‘lyozmasining fotonusxasini olib kelganlar, xolos. Hozir u O‘zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasining qo‘lyozmalar xazinasida saqlanyapti.

Qaffol Ash-Shoshiy mashhur musulmon ilohiyotchilari va olimlari Imom al-Buxoriy va Muhammad at-Termiziylarning shogirdi va ma’naviy vorisi hisoblangan. Musulmon diniga chuqur e’tiqod qilgan olim Makkani

bir necha bor ziyorat qilgan. Vafotidan so‘ng Toshkentda uning qabri ustida maqbara barpo etilgan bo‘lib, u hozirga qadar musulmonlar tomonidan ziyorat qilinadi.

Qaffol Ash-Shoshiyning asarlari bugunda ham qayta nashr etilmoqda. 2007-yilda Bayrutning Dar al-Kutub al-‘Ilmiyah (Livan) nashriyoti tomonidan islom fiqhi bo‘yicha “Mahasinu shariat” kitobi chop etildi. Maqbaraning X-asrga oid birinchi binosi ham saqlanib qolgan. Sag‘ana birlamchi shaklida saqlanmagan.

Maqbara bu shaklda xonning o‘sha paytdagi me’mori G‘ulom Husayin tomonidan 1542-yilda qurilgan. U asimmetrik gumbazsimon maqbara – honaqohdan iborat. Honaqo ziyoratchilarga turar joy sifatida ham berishga mo‘ljallangan. Maqbaraning yonida Qaffol Shoshiyning izdoshi bo‘lgan Xoja Ahror yashagan uy ham saqlanib qolgan.

Ushbu yodgorlik katta tarixiy va badiiy ahamiyatga ega bo‘lib, Hazrati Imom majmui tarkibiga kiradi. Bu maqbara 2007 ta maqbara qayta ta`mirlangan.

3.6. Abu Mansur al-Moturudiy kalom ilmi bilimdonlaridan biri

Abu Mansur al-Moturidiy sunniy e’tiqodidagi ikki yirik oqimlardan biri bo‘lmish Moturidiya oqimining asoschilaridan hisoblanadi. Uning hayoti haqida ma’lumotlar juda ozdir. To‘liq nomi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiydir. Buyuk kalom imomi va fiqh olimi asli Samarqandning Moturid qishlog‘idan (hozirgi Jonboy rayonida joylashgan) bo‘lib, uning taxallusi shu qishloqqa nisbatan olingandir. Abu Mansur al-Moturidiy dastlabki ta’limni shu qishloqda olib, keyinchalik Movarounnahrning o‘sha davrdagi diniy va ma’rifiy markazi bo‘lgan Samarqandda davom ettiradi.

Al-Moturidiy yashagan davr Somoniylar hukmronlik qilgan davrga to‘g‘ri keladi. Samarqand dastlab bu davlatning poytaxti bo‘lib, so‘ngra IX-asrning oxiridan boshlab poytaxt Buxoroga ko‘chirildi. Biroq o‘sha vaqtida ham Samarqand Buxoro bilan bir qatorda Movarounnahrning iqtisodiy-madaniy markazi bo‘lib qolaveradi.

Abu Mansur al-Moturidiy tug‘ilgan yili haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. U Samarqandda 944-945-yilda vafot etgan va shahar chekkasidagi Chokardiza degan qabristonga ko‘milgan.

Ba’zi manbalarda uning Samarqanddagi al-Ayoziy madrasasida ta’lim olgani qayd etilgan. Al-Moturidiy Abu Bakr Ahmad al-Juzjoniy, Abu Nasr Ahmad al-Iyodiy, Imom A’zam mazhabidagi buyuk olim Nasr ibn Yahyo al-Balxiy, Muhammad ibn al-Fadl kabilarni o‘zining ustozи deb bilgan.

Al-Moturidiy fiqh va kalom masalalari bilan qiziqib, Hanafiya mazhabi olimlaridan dars olib o‘z bilimini oshiradi. Shu vaqt davomida ko‘plab mashhur faqihlar va muhaddislar bilan muloqatda bo‘lgan va munozaralar qilgan. Butun umri davomida shu sohaga oid asarlar yozib qoldirgandir. Mahmud ibn Sulaymon al-Kafaviyning (vafoti 1582 yil) “Katoib ul-a’lom al-axyor fi taboqot va mashaoyix mazahab an-Nu’mon” (“Nu’mon mazhabiga mansub bo‘lgan taniqli alloma faqihlar va shayxlar haqidagi kitob”) nomli kitobida al-Moturidiy va uning asarlari haqida ayrim ma’lumotlar beriladi. Masalan, quyidagi asarlari nomlari keltirilgan: “Kitab Tavhid” (“Allomani yakkalashlar kitobi”), “Kitab Maqomat”, “Kitab rad avomil lil adila lil kabiy” (“Ka’biy zalolatlarining boshlanishini rad qilishga bag‘ishlangan kitob”), “Kitab bayon va hum ul-mu’tazila” (“Mu’tazila g‘avg‘olari va undan qo‘rmaslik haqidagi kitob bayoni”), “Kitab Ta’vilot al-Qur’on” (“Kur’on ta’vili kitobi”).

Lekin Hoji Xalifaning (1609—1659) “Kashf az-zunun an-asomil kutub va-funun” (“Kitob va fanlar nomlari haqidagi shubhalarni bartaraf etish kitobi”) kitobida e’tirof etilishicha, yana Abu Mansur al-Moturidiyning “Ma hazi ash-shari’a” (“Shariat asoslari sarasi”), “Kitab al-jadal” (“Dialektika haqida kitob”) kabi asarlari ham bo‘lgan. Bulardan tashqari al-Moturidiyning “Kitab al-usul” (“Diniy-ta’limot usuli kitobi”) asari ham ma’lum.

Abu Mansur al-Moturidiyning ko‘p asarlari bizgacha etib kelmagan, yetib kelganlari ham asosan xorijiy mamlakatlar kutubxonasi va qo‘lyozma fondlarida saqlanadi.

Al-Moturidiy islam olamida juda nozik hisoblangan “Kitab Tavhid”-asari bizning davrimizga etib kelgan va u 1970-yilda Fathulloh Xulif tomonidan Bayrutda nashr etilgan.

U islam dinidagi sunniylarning to‘rtta asosiy mazhabi asoschilarining asarlarini o‘rganib, fiqhga va kalomga oid asar yozadi.

Bu al-Moturidiyning “Ta’vilot ahli sunna” yoki boshqa bir nomi “Ta’vilot al-Qur’on” deb nomlanadi. Al-Moturidiy bu asarida sunniy aqidaga (ta’vilda) zid qarashlarni rad qilishga harakat qiladi va Abu Xanifaning qarashlariga suyangan xolda ish ko‘radi. Bu asar O‘zbekiston Respublikasi

Fanlar Akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. “Ta’vilot”ning bиринчи jildi Qohirada 197- yilda Ibrohim Avadayn va as-Said Avadaynlar tomonidan nashr etilgan.

Al-Moturidiyning bu birgina asari tarix jarayonida ko‘p allomalar asarlariga asos solgan, ular ijodiga turtki bo‘lgan. Shulardan biri Alovuddin Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad as-Samarqandiyning sharhidir. U “Sharqta’vilot ahpi as-sunna” deb nomlanib, Institut fondida bu asarni ikkita nusxasi saqlanadi.

Shu bilan birga al-Moturidiy nomi ostida yozilgan bir necha soxta asarlar ham ma’lumdir. Masalan: “Favoid” (qoidalar), boshqa nomi “Pandnoma”, “Kitob al-Usul”, “Sharh al-Fiqh al-Akbar” asarlari shular jumlasidandir. Bu al-Moturidiyning diniy ilmlar namoyandalari orasida qanchalik mashhur bo‘lganligidan dalolat beradi.

Al-Moturidiy ko‘p shogirdlar etishtirdi, ular orasida islom olamiga mashhur allomalar: Abul-Hasan ar-Rustug‘faniy (vafoti 961), Ishoq ibn Muhammad as-Samarqandiy va Abdul-Karim al-Pazdaviy (vafoti 999), Abu Ahmad al-Iyodiy kabi olimlar bor edi. Shogirdlari o‘z ustozlarining ta’limotini davom ettirishganligi tufayli Hanafiya mazhabidagilar ichida Moturidiya oqimi vujudga kelgan.

Abu Mansur al-Moturidiyning zamondoshlari hamda hamfikrlaridan mashhur fihq olimi Abul-Qosim Hakim as-Samarqandiyni alohida ko‘rsatib o‘tish lozim. Bu olim Samarqandda tug‘ilib, butun umrini shu erda o‘tkazgan (vafoti 953). Fiqh va kalom sohasida mashhur bo‘lgan.

Abu Mansur umri davomida faqihlar, muhaddislar bilan muloqatda bo‘lgan va munozarlar olib borgan. U islom dini Hanafiya mazhabini Movarounnahrda tarqatish va o‘zidan keyingi avlodlarga qusursiz etkazish ishiga muhim hissa qo‘shdi.

Al-Moturidiy nafaqat fihq, kalom ilmiga oid, balki boshqa fanlarga oid asarlar ham yozgan deb aytish mumkin. O‘zR FAning Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan al-Moturidiyning ovchilikka oid asari bunga dalil bo‘ladi. Bu asarning bir qo‘lyozma nusxasi “Risola jonvor doriy” (“Jonvorlarga oid risola”) deb nomlangan bo‘lib, unda ovchi qushlarni boqish haqida fikr yuritiladi. Bu asarda ovchi burgutlarning har xil zotlari, ularning tashqi ko‘rinishlari, oziqlantirish, ovga yaroqliligi bilan bir qatorda ko‘paytirish, izi va chatishtirish usullari kabi masalalar haqida gap boradi.

Al-Moturidiy o‘z davrining islomiy ilmlari sohasida eng etuk bilim sohibi hisoblanib, musulmon dunyosi olimlari tomonidan tan olingan va hozirda ham turli diniy asarlarda zo‘r ehtirom bilan tilga olinadi.

Al-Moturidiyni ulug‘lab “Imom al-Xuda” va “Imom al-mutakallimin” (Hidoyat yo‘li imomi va mutakallimlar imomi) kabi nomlar bilan ham ataganlar.

Movarounnahr -Markaziy Osiyo xalqlari turli falsafiy, tabiiy, aniq fanlar, adabiyot, san’at sohalarida dunyoga mashhur siymolar, allomalar bilan birga islom nazariyasi, diniy ilmlar bo‘yicha ham al-Moturidiydek butun musulmon olamida nom qozongan olimlarni ham yetishtirib chiqardilar.

3.7. Abu al-Mu’yin an-Nasafiy

Abu Mansur Moturidiy maktabining atoqli namoyandalaridan biri, ulug‘ olim Abul Muin Maymun ibn Muhammad ibn Mo‘tamad ibn Muhammad ibn Makhul ibn Fazl Nasafiy milodiy 1027-yili Nasafda tug‘ilgan. Abdulkarim Sam’oniy Abul Muin ismiga “Ibsoniy”ni ham qo‘sib aytadi va Ibson qishlog‘i Qarshi shahridan bir farsah (taxminan 5–6 chaqirim) uzoqlikda joylashganini ta’kidlaydi. Abul Muin Nasafiy shu qishloqda tug‘ilgan. Uning katta bobosi Makhul Nasafiy (vafoti 930 y.) Imom Moturidiyning shogirdlaridan edi. Bobosi Mo‘tamid ibn Makhul Nasafiy esa hanafiy olimlar orasida mashhur edi. Abul Muin boshlang‘ich bilimlarni bobosi va otasidan oladi. Keyinchalik Abul Yusr Pazdaviyga shogird bo‘ladi.

Abul Muin Nasafiy Buxoro va Samarqandda yashab, samarali ijod qilgan. Uning shogirdlari orasidan Alouddin Samarqandiy, Ibrohim Saffor Buxoriy kabi olimlar yetishib chiqqan.

Abul Muin Nasafiy asarlarining ko‘pi kalom ilmining turli masalalariga bag‘ishlangan. “Al-umda fi usulil fiqh”, “Bahrul kalom fi ilmil kalom”, “Tabsiratul adilla fi ilmil kalom”, “At-tamhid li qova’idit tawhid fi ilmil kalom”, “Al-olim val muta’llim”, “Izohul mahajati li kavni ahli hujjatan”, “Sharhul jome’ul kabir lish-Shayboniy fi furu” va “Mu’taqidot” kabi asarlari shular jumlasidandir.

Olimning “Bahrul kalom fi ilmil kalom” asari moturidiya maktabining kalom bo‘yicha asosiy manbalaridan biridir. U o‘rta asrlarda katta shuhrat qozongan, o‘sha davrda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxalari hozir Dubay,

Damashq, Bag‘dod, Qohira va Iskandariya kutubxonalarida saqlanmoqda. Olimning ushbu asari uchta katta asari orasida (“Tabsiratul adilla”, “Attamhid li qova’idit tazhid”, “Bahrul kalom”) birinchi bo‘lib nashr etilgan.

Abul Muin Nasafiyning mashhur asarlaridan yana biri “Tabsiratul adilla fi usulid din ala toriqil imom Abu Mansur Moturidiy” (“Din asoslarini imom Abu Mansur Moturidiy tariqatiga binoan dalillar bilan sharhlash”)dir. Nomidan ham ma’lum, asarda moturidiya ta’limoti dalillar bilan sharhlanadi.

Allomaning kalom ilmiga oid yana bir mo‘jaz kitobi “Kitobut tamhid li qova’idit tazhid” asaridir. Jahon kutubxonalarida kitobning ko‘plab nusxalari saqlanadi. Yaqinda Turkiyada bu asar Istanbul kutubxonalarida saqlanayotgan qo‘lyozmalari asosida qayta nashr etildi.

Abul Muin Nasafiy abbosiylar hukmronligi zaiflashib, inqirozga yuz tutayogan davrda yashab ijod qildi. Bu davrda ulkan imperiya bir necha mustaqil mamlakatlarga bo‘linib ketdi, siyosiy ahvol ancha keskinlashdi. Bu holat ilm sohasiga salbiy ta’sir qilmadi. Aksincha, yuksak madaniyat markazi bo‘lgan poytaxt Bag‘dodga bellashadigan Qurtuba, Qohira, Buxoro kabi madaniyat o‘choqlari paydo bo‘ldi. Shunday ilm-irfon markazlarida Abul Muin Nasafiydek buyuk olimlar etishib chiqdi.

Alloma mol-dunyoga qiziqmadi, parhezkor, faqih, muhaddis, mutakallim bo‘lib, qat’iy dalillar bilan salaflarning fikrlarini mustahkamladi, mo‘tazila, jahmiya, rofiziya, xorijiya kabi muxolif firqalarga qarshi turib, ularning aqidasi botilligini aniq, ishonchli hujjatlar bilan isbotlab, odamlar orasida ilmu ma’rifat ziyyosini sochdi. Abul Muin Nasafiy milodiy 1114-yili vafot etdi. Qabri Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanidagi Qovchin qishlog‘ida.

3.8. Mahmud az-Zamaxshariy

Allomaning to‘liq ismi Abul Qosim Mahmud ibn Umar Zamaxshariy bo‘lib, u hijriy 467-yil rajab oyining 27-kuni (1075-yil 19-mart) Xorazmnинг Zamaxshar qishlog‘ida tug‘ilgan. Otasi ko‘p vaqtini Qur’on tilovati-yu namoz o‘qish bilan o‘tkazar, Zamaxshardagi masjidlardan birida imomlik ham qilgan.

Og‘ir illat tufayli alloma yoshligidan oqsoq bo‘lib qoladi va shundan so‘ng otasi uni og‘ir mehnatga majburlamay, madrasaga beradi. Zamaxshariy

ilmga bo‘lgan zo‘r ishtiyoqi tufayli arab tili va adabiyoti, diniy ilmlar va xattotlikni puxta egallaydi.

Uning buyuk olim bo‘lib etishishida ustozlarining ham hissasi beqiyos. Xususan, Abu Mudar ibn Jarir ad-Dabbiy al-Isfahoniydan til, lug‘at va adabiyotdan ta’lim olgan. Bag‘dodda shayxulislom Abu Mansur Nasr al-Xorisiy, Abu Soad ash-Shaqqoniy, Abu Xattob ibn Abul Batarlardan hadis ilmini o‘rgangan bo‘lsa, Makkada nahv va fiqh bo‘yicha Abu Bakr Abdulloh ibn Talxat al-Yabiriylaridan shayx as-Sadid al-Xayyatiylardan saboq olgan. Lug‘at ilmini esa Abu Mansur Mavhub abn al-Xodar al-Javoliqiy kabi mashhur olimlardan o‘rgangan.

Olim ko‘p asarlarini Makkadaligida yozgan. Hayotida chuqur iz qoldirgan bu zaminda Zamaxshariy besh yilga yaqin yashagan. Allomaning Jorulloh (Alloh qo‘shnisi) degan sharaflı ta’rifga sazovor bo‘lishi shundan. Islom olamida yirik olim darajasiga ko‘tarilgan Zamaxshariyning Xorazmda ham, Sharqning boshqa shaharlarida ham juda ko‘p shogirdlari bo‘lgan. U qarindosh-urug‘larining qiyin-qistovlariga qaramasdan, uylanmagan. Buyuk alloma hijriy 538-yilda arafa kechasi (1144-yil 14-aprel) Xorazmda vafot etgan.

Zamaxshariy arab tili grammatikasi, lug‘atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, jo‘g‘rofiya, tafsir, hadis va fiqhga oid 50 dan ortiq asarlar yozgan. Jumladan, uning “Mufassal” asari arab tili grammatikasiga oid kitob bo‘lib, nafaqat Sharq, balki G‘arbda ham juda mashhur edi. Aynan shu asar tufayli olimlar: “Agar shu turk (Zamaxshariy) bo‘lmaganida edi, arablar o‘z tillari nahvi (grammatika)ni unutib yuborgan bo‘ldi”, deb aytishgan.

Olimning “Muqaddamul adab” asari tilshunoslikka, “Asosul balog‘at” kitobi nutq madaniyatiga, “Atvoquiz zahab fil Mavoiz val xutab” risolasi didaktikaga, “Rabi ul-abror va nususul axyor”i adabiyot, tarixga bag‘ishlangan.

Zamaxshariyning “Al-Kashshof an haqoiqit tanzil va uyunil aqovil fi vujuhit ta‘vil” asarini alohida tilga olmaslikning iloji yo‘q. Asar Qur’onning sharhi, ya’ni tafsirdir. Asarning yozilish turi murakkabligiga qaramay, butun jahonda katta shuhrat qozongan.

Hatto shu kunlarda ham Qohiradagi “Al-Azhar” universiteti talabalari “Al-Kashshof”ni alohida o‘quv kursida o‘rganadilar. Chuqur bilimi, zukkoligi va boshqa sifatlari tufayli alloma “Arab va ajam ustozi”, “Xorazm faxri” deya tilga olinadi.

Mavzuni mustahkamlash yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Daho deganda nimani tushunasiz ?
2. Daholik fenomenining mohiyatini olimlar qanday talqin qilishadi ?
3. Markaziy Osiyodagi buyuk muhaddis olimlardan kimlarni bilasiz ?
4. Imam al Buxoriyning nechta asari ma'lum ?
5. Imam at Termiziyning shoh asari qaysi?
6. Qaffol ash Shoshiy kim bo'lgan ?
7. Imam Moturudiy qaysi asari bilan mashhur bo'lgan ?
8. Nasafiy qaysi fanlar rivojiga o'z hissasini qo'shgan ?
9. Az-Zamaxshariy qaysi shaharlarda dars o'tgan ?

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. – Т.:Ўзбекистон, 1996. 173 б.
2. Аль-Бухари М. Сахих аль-Бухари [Свод хадисов имама аль-Бухари] (Краткое изложение), 1-е изд., пер. с араб. В. А. Нирша. М.: В 2-х т., Благотворительный Фонд «Ибрагим Бин Абдулазиз Аль Ибрагим». 2002
3. Али-заде А. Абу Мансур аль-Матуриди // Исламский энциклопедический словарь. — М. : Ансар, 2007.
4. Аҳмаджонов И. Имом Маҳмуд Замахшарий даврида илм фан / https://hidoya.uz/251/maolalar/imom_mahmud_zamahshariy_davrida_ilm_fan.html
5. Бозаров Д. Ижодкор шахс ва даҳолик: фалсафий талқин // “Шарқ юлдузи”, 2014.2-сон.Б.161-165.URL: <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/ijodkor-shaxs-va-daholik-falsafiy-talqin/?imlo=k>
6. Данилин А.Г. Прорыв в гениальность. Москва, 2008. 190 с.
7. Зохидов М. Абу ал-Муъйин ан-Насафий // Ҳидоят. 2012. №1.
8. Имом ал-Бухорий: илмий-маънавий мерослари <https://qadriyat.uz/tarix/muhaddislardan/590-imom-al-bukhorij-ilmiy-ma->
9. Каттаев П. Мовароуннахрда Ҳадис илмининг ривожланиши / <https://hidoyat.uz/2749>
10. Каттаев П. Имом Абу Исо Мухаммад Термизий / <https://hidoyat.uz/2903>

11. Уватов У. Икки буюк донишманд. Т.:Шарқ, 2005
12. Усмонхон Алимовнинг “Ҳазрати Имом мажмуаси” китобидан.
<https://hidoyat.uz/44904>
13. Фозилов F.N. Даҳолик ҳақидаги қарашлар ривожи. // ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. VOLUME 2.ISSUE 6. 2021. P.1055-1061 / URL:https://ares.uz/storage/app/media/2021/Vol_2_N o6/1055-1061.pdf
14. Шлейермахер Ф. Речи о религии к образованным людям ее презирающим. Монологи. /Пер. с нем. и пред. С.Л.Франка/- СПб.: АО «АЛЕТЕЙЯ»,1994. - 432с.
15. Angelia Maiers. Leberating Genius. 2016. <https://teacherspay.com>
16. Bulmer, Michael. "Galton's law of ancestral heredity". Heredity. London. 1998.
17. Galton Francis.Hereditary genius. London. 2014.
18. Lambert S., Frances J. "genius" encyclopedie.hdl.handle.net. 2015.
19. Shaw Tamsin. Wonder boys?. New York Review. 2014.
20. <https://qadriyat.uz/tarix/aqidaimomlari/594-imom-abu-mansur-al-moturidij>

**4-mavzu. MARKAZIY OSIYOLIK QOMUSIY
MUTAFAKKIRLARNING DUNYO SIVILIZATSIYASIDA TUTGAN
O'RNI**

Reja:

- 4.1. Muhammad Muso al-Xorazmiyning faoliyati.**
- 4.2. Ahmad-al-Farg'oniy va uning faoliyati**
- 4.3. Abu Nasr Farobi - Markaziy Osiyolik mashhur faylasuf.**
- 4.4. Xorazm Ma'mun Akademiyasi**
- 4.5. Ibn Sino va uning faoliyati**
- 4.6. Abu Rayhon Beruniyning fanga qo'shgan buyuk hissasi.**
- 4.7. Mahmud Qoshg'ariy – yirik tilshunos olim.**
- 4.8. Mustaqil O'zbekistonda Xorazm Ma'mun akademiyasining qayta tiklanishi va uning bugungi kundagi faoliyati.**
- 4.9. Mustaqil O'zbekistonda qomusiy allomalarimiz merosini qayta o'rghanish va targ'ib qilish.**

Tayanch iboralar: Qomusiy olimlar, Mutafakkirlar, Ahmad Farg'oniy, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Donishmandlar uyi, Abu Rayxon Beruniy, Dunyo sivilizatsiyasi, Meros, Ibn Sino, "Tib qonunlari", "Zij", Observatoriya, Algebra, Xzuter, A.Mallino, Horun ar-Rashid, Halab, Qohira, Badiiy san'at, Ikkinci ptolomey, Buqrot soniy, Ikkinci Gippokrat.

4.1. Muhammad Muso al-Xorazmiyning faoliyati.

O'rta Osiyolik buyuk matematik, astronom va geograf Muhammad Muso al-Xorazmiy Xivada 783 yilda tavallud topgan. Xorazmiy yoshligidanoq ilm fanga qiziqdi. Arab, fors, xind va yunon tillarini qunt bilan o'rgandi. Bilimdonligi tufayli donishmand sifatida tanilgach, IX asr boshlarida o'sha davrning katta ilmiy ma madaniy markazi xisoblangan bog'dodga taklif qilindi. Bu yerda u barakali ijod qilish bilan birga Sharqning dastlabki akademiyasi "Donishmandlar uyi" ("Bayt-ul xikma") da faol ishtirok etdi. Xorizmiy o'z ilmiy faoliyatini o'sha davrdagi tabiiy fanlarni rivojlantirish, tabiatni o'rghanish va dunyonи tajriba yo'li bilan bilish va boshqa masalalarga qaratdi.

Xorazmiy talaygina asarlar yaratdi, lekin ularning xammasi ham bizgacha yetib kelmadı, ayrimlari qisqaroq xolda, ba'zilari esa boshqa

tillarga qilingan tarjimalar orqali yetib keldi. Xorazmiyning arifmetika va algebraga oid asarlari matematika tarixida yangi davmi – O'rta asrlar matematikasi davrini boshlab berdi va matematikaning keyingi asrlardagi taraqqiyotiga beqiyos ta'mir ko'rsatdi. Xorazmiy o'zining matematiga oid asarlarida kundalik xayot talab va extiyojlarini e'tiborga olgan xolda olimlar uchun ham, hunarmandlar uchun ham eng zarur ma'lumotlarni to'pladi, ularni mazmunli va sodda iboralar bilan qisqagina bayon etdi.

Shu jumladan Xorazmiyning ushbu shox asarlari g'arb va sharq xalqlari tillariga tarjima etilib, asrlar mobaynida qo'llanma bo'lib xizmat qildi. Xorazmiyning "Hind xisobi va sonlar haqida", "Al-Jabr" ("Algebra"), "Arifmetika", "Marmar soat haqida", "Usturlob yordamida azimutni aniqlash", "Usturlob bilan ishlash usuli", "al-Xorazmiy ziji", "Er sur'ati", "Tarix kitobi", "Yaxudiy eralari va bayramlari xaqida" kabi asarlari ma'lum.

Xorazmiyning algebraik risolasining to'liq nomi – "Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala". Risolaning nomidagi "al-jabr" va "almuqobala" so'zлari "to'ldirish" va "ro'para qo'yish" – o'rta asr algebrasining ikkita asosiy amalini anglatadi. "Aljabr" (o'zi lotincha traskripsiya "algebra" bo'lib, Xorazmiy asos solgan yangi fanning nomi bo'lib qoldi. Xorazmiyning algebraik risolasi uch qismdan iborat: 1) algebraik qism, buning oxirida kichik bir bo'lim – savdo muomalasidagi bob keltiriladi; 2) geometrik qism, algebraik usul qo'llanib o'lhash haqida; 3) vasiyatlar haqidagi qism. Xorazmiy uni alohida nom bilan "Vasiyatlar kitobi" deb atagan, Xorazmiy o'z risolasida hech qanday belgi keltirmaydi va mazmunni butunlay so'z bilan bayon etadi va shakllar keltiradi.

Har bir fan ma'lum bir zaruratdan paydo bo'lishi ayon. Jumladan "Al-Jabr" ham merosxo'rlar orasida mol dunyo taqsimlanishiga xizmat qilgan. Mol va yerni o'lhash, kimga qancha qism tekkanini aniqlash, ariq, anxor qazish va bu ishlarni bajarganlar mehnatiga tegishli haq to'lash kabi qator masalalarni xal qilish borasida bu fanga zarurat tug'ilgan. Xorazmiy ijodiga geografiya fani ham muxim o'rin tutnan. Uning "Er sur'ati" kitobi O'rta asr sharqida dastlabki geografik asar bo'lgan. Xorazmiy ilk o'rta asr davrida Afrika, Osiyo va yevropa qit'alarini ikkinchi asrda yashagan qadimgi yunon olimi Ptolomeyga nisbatan ancha keng va aniq tavsiflaganligi, yerning insonlar yashaydigan qismlarini ham keng tasavvur etganligi ma'lum.

Geografiyani iqlimlar nazariyasiga to'la rioya etgan holda birinchi marta Xorazmiy bayon qiladi. U arning ma'mur, ya'ni insonlar yashaydigan

obod qismini yetti iqlimga ajratadi. Xorazmiy qadimgi yunon olimi Ptolemeydan farqli o‘larоq, mintaqalar, mamlakatlar va ulardagi geografik joylarni emas, balki 1-iqlimdan to 7-iqlimgacha joylashgan joylarni tavsif etadi.

Xorazmiyning geografik risolasi o‘rta asrlardagi eng birinchi geografik asar edi. Shuning uchun uning iqlimlar nazariyasi keyingi davrlarda geografiyaning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi. Xususan, uning iqlimlar nazariyasi Yerning ma’mur qismini iqlim mintaqalari bo‘yicha o‘rganishni osonlashtirdi.

Xorazmiy Geografi fani tarixida birinchilardan bo‘lib Amudaryo va Sirdaryoning Orol dengiziga quyilishini isbotlagan. SHu bilan birga Xorazmiy o‘zining asarlarida o‘zidan avvalgi olimlarga noma’lum bo‘lgan ko‘p tomonlarni ham ochib bergen. Jumladan, juda ko‘p muhim joylar, ko‘pgina tog‘larning geografik tafsilotlarini, daryolar, dengizlar va okeanlar xavzasining shakli, ularda joylashgan orollarning ko‘rsatkichlarini bayon etgan.

Xorazmiy ham Ptolemey kabi uzunliklarni Kapar orollaridan boshlab hisoblaydi. Xorazmiy ekvatoridan janubda 8 shahar, 1-iqlimda 64-shahar, 2-iqlimda 54 shahar, 3-iqlimda 59 shahar 4-iqlimda 146 shahar, 5-iqlimda 79 shahar, 6-iqlimda 63 shahar, 7-iqlimda 25 shahar va 7-iqlimdan shimolda 40 shaharning koordinatlarini keltiradi.

Xorazmiyning astronomiyaga oid “Ziji” asari ham dastlabki astronomik asarlardan biri xisoblanadi, u o‘rta asrlarda SHarqdagina emas balki g‘arbda xam astronomiya fani rivojida katta rol o‘ynagan.

Xorazmiy o‘z “Zij”ida boshlang‘ich meridian sifatida, hind an’anasiga ko‘ra, Arin (hozirgi Hindistonligi Ujayn) shahridan o‘tgan meridianni tanlagan, Ovro‘poda XIII-asrda Rojer Bekon va Buyuk Albert ham Arin meridiani g‘oyasining tarafдорлари bo‘lganlar. Arin g‘oyasiga ko‘ra, Ayyalik Petr (Fransiyadan) 1410-yili o‘zining “Yer tasviri” nomli asarini yozdi. Bu asarning 1487-yili chop etilgan bir nusxasidan Xristofor Kolumb foydalangan. Kolumbning o‘ziga tegishli nusxa hoshiyasiga yozgan eslatmalariga ko‘ra, Arin g‘oyasi unda Erning noksimon ekanligi va erning Aringa diametal qarama-qarshi tarafida Aringa o‘xshash joy bo‘lishi kerakligi haqida tasavvur hosil qilgan.

Asarning 1037-yili ko‘chirilgan yagona arabcha nusxasida bizgacha etib kelgan bo‘lib, bu nusxa Strasburg universiteti kutubxonasida saqlanadi.

Kitobda shaharlar, tog‘lar, dengizlar, orollar va daryolardagi 2402 ta geografik joyning koordinatlari keltiriladi. Shaharlar, daryolar, tog‘lar, orollar va boshqa ob‘ektlar iqlimlar bo‘yicha taqsimlangan. Iqlim so‘zi aslida yunoncha klima — “og‘ish” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, uni fanga Gipparx (eramizdan oldingi II asr) kiritgan. Gipparx yerning odamlar yashaydigan qismini 12 ta iqlimga ajratgan. Undan so‘ng Ptolemey iqlimlarning sonini 8 tagacha kamaytiradi, lekin o‘z “Geografiya”sida u iqlimlar nazariyasiga to‘la rioya qilmaydi, chunki geografik joylarni mintaqalar va eparxiyalar bo‘yicha taqsimlaydi.

Xullas Xorazmiy turli fanlar taraqqiyotiga muxim xissa qo‘shgan so‘zsiz buyuk olim xisoblanadi. Uning asarlari bugungi kungacha xam o‘zining mazmun moxiyatini yo‘qotgan emas.

4.2. Ahmad-al-Farg‘oniy va uning faoliyati.

Ahmad-al-Farg‘oniy taxminan 798-yilda Davon (hozirgi Farg‘ona) viloyatining Qubo (hozirgi Quva shahrida dunyoga keldi. O‘rta asrlarda yashagan Markaziy Osiyolik olimlar orasida buyuk astronom, matematik va geograf Ahmad-al-Farg‘oniy salmoqli o‘rin egallaydi.

Olimning to‘liq ismi Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg‘oniydir. Manbalarda uning farg‘onalik ekanligidan tashqari deyarli boshqa ma’lumotlar saqlanmagan. Lekin shuni ham e’tiborga olish kerakki, o‘rta asrlarda musulmon o‘lkalarida bo‘lgan an’anaga binoan, mamlakat poytaxti yoki markazini ham mamlakat nomi bilan atashgan. Yosh, qobiliyatliva tirishqoq Ahmad dastlab Quboda, so‘ng o‘sha davrning madaniy markazlaridan bo‘lgan Aksi shahrida an`anaviy fanlardan ta`lim olib, olim bo‘lib etishdi. Taqdir toqozasi bilan xalifalikning muhim tayanchlaridan bo‘lgan Marv shahriga kelib, Xorun ar-Rashidning o‘g‘li xalifa Abdulloh al-Ma`mun saroyidagi ilmiy doiraga qo‘shiladi. Bundan tashqari shunisi ma’lumki, al-Farg‘oniy xalifa Xorun ar-Rashidning sharqiy yerlaridagi muovini, o‘g‘li Abdullohning (bo‘lajak xalifa al-Ma’munning) Marvdagi olimlari doirasiga kirgan. Bu erda Muhammad Xorazmiy, Yahyoib Abu Mansur, Xolid ibn Abdulmalik al-Marvarrudiy, Abbas ibn Said al-Javhariy, Ahmad ibn Abdulloh Habash al-Hosib singari Movarounahrda nom chiqargan olimlar ham bor edi. Bu olimlar Xorun ar-

Rashid acos solgan “Baytul hikma” –“Donishmandlar uyi”an`analarini davom ettiradilar.

Xalifa Xorun ar-Rashid 809-yili Tusda to`satdan vafot etadi va uning vasiyatiga ko`ra Bag`dodda taxtga katta o`g`li — Muhammad al-Amin nomi bilan o`tiradi. Saroydagi xurosonlik a`yonlar esa Abdullohni taxtni qo`lga olishga da`vat etadilar. 811-yildan 813-yilgacha aka-uka Muhammad va Abdulloh o`rtasida taxt uchun olib borilgan kurash Abdullohning g`alabasi bilan tugaydi va Muhammad qatl qilinadi. O`sha yili Abdulloh taxtga al-Ma`mun nomi bilan o`tiradi. Lekin u Bag`dodga bormay 819-yilga qadar Marvda yashaydi. Natijada, Marv 813-yildan to 819-yilgacha xalifalikning vaqtincha poytaxti bo`lib turadi. 819-yili al-Ma`mun butun saroy a`yonlari va ulamolari bilan birga Bag`dodga ko`chadi. Ular orasida al-Farg`oniy ham bor edi. Shunday bo`lsa ham al-Ma`mun qo`l ostida u tuzgan ilmiy markaz “Bayt ul-hikma”da ishlagan olimlar orasida al-Farg`oniyning nomi eslatilmaydi. Buning sababi, bizningcha, shunday bo`lishi mumkin: u davrda xalifalikda ikkita rasadxona faoliyat olib borardi, biri Bag`dodning ash-Shammosiya mahallasida va ikkinchisi Damashq yaqinidagi Kasiyun tepaligida edi. Bu rasadxonalarning har birida “Bayt ul-hikma” olimlarining ikkita doimiy guruhlari ishlar edi. Ana shu olimlarning o`zi rasadxonalari hojatidan kelib chiqib, ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirardilar va umumiy rahbarlik Bag`doddan turib boshqarilardi. Balki al-Farg`oniy Damashqdagi olimlar guruhida bo`lishi, al-Ma`mun uni Bag`dodga kelishi bilanoq u erga yuborgan bo`lishi mumkin. Abu Rayhon Beruniyning bir xabari shunday taxminga asos bo`ladi. Uning aytishiga ko`ra, Bag`dod rasadxonasining ishida Yahyo ibn Abu Mansur, al-Xorazmiy va boshqa olimlar, Damashq rasadxonasida esa Xolid ibn Abdumalik va al-Farg`oniy bilan birga ikkinchi guruh olimlar ishlaganlar U shuningdek, al-Farg`oniyning Suriya shimolida, Sinjor sahrosida 832-833-yillar Tadmur va ar-Raqqa oralig`ida yer meridiani bir darajasining uzunligini o`lchashda ishtirok etganini ham aytgan.

Bu davrda yunon, hind, xitoy olimlari asarlarini arab tiliga, arabnavis olimlar asarlarini esa evropa va sharq xalqlari tillariga tarjima qilish keng avj olgan va bu ishning borishini xalifa al-Ma`munning o`zi nazorat qilardi. Keyinchalik “Baytul hikma” olimlari aniq fanlar yuzasidan tadqiqotlar bilan shug`ullanishdi. Jumladan, er meridiani bir darajasining uzunligini, Quyoshning eng katta og`ishini o`lchash, yulduzlar o`rnini ko`rsatilgan jadvalni yaratish singari ishlar bajarilgan. Mashhur Shammosiya

rasadxonasida boshqa tadqiqotlar olib borildi, astronomik asbob-uskunalar yaratilishida bevosita Ahmad Farg‘oniy ham ishtirok etgan.

Nihoyat, al-Farg‘oniyning hayoti haqidagi eng so‘nggi va eng aniq xabar 861-yil bilan bog‘lanadi. Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, u shu yili Qohira yaqinidagi Ravzo orolida nilometrni, ya’ni Nil daryosi suvi sathini belgilovchi uskunani yasagan yoki ta’mirlagan. Biroq, al-Farg‘oniy qanday qilib va qanday sharoitda Misrga borib qolgani haqida ham aniq ma’lumot yo‘q.

Ma’lumki, al-Ma’mun Marvdan Bag‘dodga nafaqat olimlarni, balki g‘ulomlari bo‘lmish turk askarlarini ham olib kelgan edi. Bag‘dodga kelishi bilan u ma’lum ma’noda lashkarni turklashtirdi: ana shu turk askarlaridan lashkarboshilar tayinladi. Turk g‘ulomlaridan biri buxorolik To‘lunni xalifa Suriya, Falastin va Misrdagi lashkarlarning amiri etib tayinladi. Uning o‘g‘li Ahmad esa Suriya va Misrni mustaqil deb e’lon qilib, To‘luniylar sulolasiga asos soldi. Al-Xorazmiy xalifa al-Ma’munning yaqin odami va maslahatchisi bo‘lgani kabi al-Farg‘oniy ham To‘lunning yaqin odami yoki uning saroy ahli doirasidagi kishilardan biri bo‘lganligi taxmin qilinadi. Bu holda al-Farg‘oniyning Misrda paydo bo‘lganidan ajablanmasa ham bo‘ladi.

Ahmad Farg‘oniy samoviy yoritgichlar o‘rnini aniqlab, ularning harakat yo‘nalishini kuzatadi. Shuningdek, Quyosh va oyning to‘liq va to‘liqsiz tutilishi sabablarini o‘rganib, bu xodisa ular orasida yerning o‘tishi bilan bog‘liqligini aniqladi. Xatto navbatdagi quyosh tutilishi vaqtini ham hisoblab chiqadi.

Tarixiy manbalarda Ahmad Farg‘oniy bir qancha astronomik asboblarni yaratganligi haqida ma’lumotlar saqlanib qolgan. Shuningdek u astronomik atamalarni ishlab tartibga solgan va izohlab bergen.

Ahmad Farg‘oniy asarlaridan bir nechtafigina bizga ma’lum. Boshqa asrlari bizgacha yetib kelmagan. Uning asosiy asari “Ilmiy nujum asoslari haqida kitob” bo‘lib, unda olim yerning dumaloq shakldagini isbotlab bergen. Bu asar XII asrda lotin tiliga, XIV asrda Yevropadagi boshqa xalqlar tillariga tarjima qilinib XVII asrgacha Yevropada astranomiyadan yagona darslik sifatida hisoblangan.

Ahmad Farg‘oniy “Astrurlob bilan amal tutish kitobi”, “Al-Farg‘oniy jadvali”, “Jadi diametri uchun al-Farg‘oniy jadvali”, “Oy yer ustida va ostida bo‘lgan vaqtida vaqtini aniqlash haqida risola”, “Yetti iqlimni hisoblash”, “Quyosh soatini yasash haqida kitob” sigari asarlarini ham yozgan.

Ahmad Farg‘oniy nomini abadiylashtirgan yana bir narsa – Nil daryosi ustiga qurilgan suv o‘lchash inshooti – “Miqyosi Nil” (Nilometr) dir. Bu inshoot 861 yildan 865 yilgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida qurilgan deb hisoblanadi. O‘n bir asrdan ortiq vaqt mobaynida xalq xizmatida bo‘lgan bu inshoot Asvon to‘g‘oni qurilgach, o‘z ishini to‘xtatgan va xozirda muzeysi aylantirilgan.

Ahmad Farg‘oniy – jahonga dong‘i ketgan astronom, matematik, muhandis, gidrotehnik. Yevropada u Alfraganus nomi bilan mashhur.

Al-Farg‘oniyning hayoti haqidagi ma’lumotlar juda kam bo‘lganligiga qaramay, o‘rta asrlarda Sharqda uning nomi mashhur bo‘lgan. Ibn an-Nadim (X asr), Ibn al-Qiftiy (XII-XIII asrlar), Abul Faraj Bar Ebrey (XIII asr), Hoji Xalifa (XVII asr) kabi Sharq fiqhchilari uni o‘z asarlarida eslatadilar.

Al-Farg‘oniyning asosiy astronomik asari “Samoviy harakatlar va umumiyligi nujum kitobi” (“Kitob al-harakat as-samoviya va javomi” ilm an-nujum”) XII-asrda Ovro‘poda lotin tiliga ikki marta va XIII-asrda boshqa Ovro‘po tillariga ham tarjima qilinganidan so‘ng, uning lotinlashtirilgan nomi “Alfraganus” shaklida G‘arbda bir necha asr davomida keng tarqaladi. Uning bu kitobi shu asrlar davomida Ovro‘po universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik vazifasini o‘tadi. Al-Farg‘oniy asarining lotincha tarjimasi birinchi marta 1493-yilda nashr etilgan bo‘lib, u eng qadimgi nashr qilingan kitoblardan hisoblanadi. 1669-yili mashhur Golland matematigi va arabshunosi Yakob Golius al-Farg‘oniy asarining arabcha matnini yangi lotincha tarjimasi bilan nashr etganidan so‘ng, al-Farg‘oniy va uning asarining Ovro‘podagi shuhhrati yanada ortdi. Ovro‘po Uyg‘onish davrining buyuk namoyandalaridan biri bo‘lgan mashhur olim Regiomontan XV-asrda Avstriya va Italiya universitetlarida astronomiyadan ma’ruzalarni al-Farg‘oniy kitoblaridan o‘qigan. Al-Farg‘oniy nomini Dante (XV-asr) va Shiller (XVIII- asr) ham eslagan. Ovro‘po olimlaridan Dalambr, Brokelman, X. Zuter, I. Yu. Krachkovskiy, A. P. Yushkevich va B. A. Rozenfeldlar al-Farg‘oniyning ijodini yuqori baholaganlar.

Shunday qilib, buyuk ajdodimizning bu asari Ovro‘po Uyg‘onish davridagi va undan ancha keyingi davrdagi madaniyat rivojida sezilarli rol o‘ynadi. Asarning iqlimlar nazariyasiga ko‘ra, bayon qilingan geografik bo‘limi diqqatga sazovordir. Mamlakat va shaharlarning nomlariga qaraganda, al-Farg‘oniy al-Xorazmiyning geografik asari bilan tanish

bo'lgan yoki u ham al-Xorazmiy foydalangan manbadan foydalangan, chunki ikkala muallifda ham bu nomlar bir xil.

Geografik bo'lim (9-bob) bunday atalgan: "Yerdagi ma'lum mamlakatlar va shaharlarning nomlari va har bir iqlimdagи narsalar haqida". Bundan so'ng, yetti iqlimning hammasi ulardagi mamlakatlar, viloyatlar va shaharlari bilan birga tavsiflanadi. Shuni ham aytish kerakki, o'rta asrlarda arab tilida yozilgan geografik asarlarning eng birinchisi al-Xorazmiyning "Kitob surat-ul-arz" asari edi. Unda al-Xorazmiy yetti iqlimdagи dengizlar, mamlakatlar, tog'lar, daryolar, ko'llar va shaharlarning tavsifini keltirgan edi. Bunda u tavsifni rub'i ma'murning eng g'arbiy chekkasidan, ya'ni Afrikaning Atlantika okeani qirg'og'iga yaqin joylashgan orollardan boshlab, eng sharqiy chekkasigacha, ya'ni Tinch okeanidagi Yaponiya orollarigacha davom ettiradi. Tavsif kenglama yo'nali shida ekvatorial erlardan to shimoliy qutubiy erlargacha davom etadi.

Iqlimlarning al-Farg'oniy keltirgan tafsiflash usuli al-Xorazmiy nikidan farq qiladi. Al-Xorazmiy o'zining tafsiflash usulida Ptolemey an'anasiga asoslangan bo'lsa, al-Farg'oniy hindlarning an'anasiga asoslanib, rub'i ma'murning tafsifini eng sharqiy chekkasidan boshlaydi. Uning iqlimlar tafsifida 3, 4, 5, 6, va 7-iqlimlarning tafsifi diqqatga sazovordir. Chunki bularda Markaziy Osiyoning va unga tutash erlarning shahar va viloyatlari tavsiflanadi. Shuning uchun quyida o'sha tafsiflarni o'z ichiga olgan parchani keltiramiz.

Uchinchi iqlim Sharqdan boshlanib, Xitoy mamlakatining shimolidan, so'ng Hind mamlakatidan va so'ngra Kobul va Kerman viloyatlaridan o'tadi.

To'rtinchi iqlim Sharqdan boshlanadi va Tibetdan, so'ngra Xurosondan o'tadiki, bunda Xo'jand, Usrushona, Farg'ona, Samarkand, Balx, Buxoro, Hirot, Amuya, Marvarrud, Marv, Saraks, Tus, Nishopur shaharlari bor. Undan so'ng Jurjon, Qumis, Tabariston, Demovand, Qazvin, Daylam, Ray, Isfahondan o'tadi.

Beshinchi iqlim Sharqda Yajuj mamlakatidan boshlanadi, so'ng Xurosonning shimolidan o'tadi, unda Toroz shahri - savdogarlar shahri bor, Navokat (Navkat), Xorazm, Isfijob (Sayram), Turarband (O'tror - hozirgi Aris) va Ozarbayjon, Armeniya (Armaniston) viloyati, Barda'a (Barda), Nashava (Naxchivon) shaharlari bor.

Oltinchi iqlim Sharqdan boshlanadi va Yajuj mamlakatidan o'tadi, so'ng Xazar mamlakatidan (Shimoliy Kavkaz va Quyi Volgabo'y), Jurjon

(Kaspiy) dengizining o‘rtasidan kesib o‘tadi va Rum (Vizantiya) mamlakatigacha boradi.

Yettinchi iqlim Sharqda Yajuj mamlakatining shimolidan boshlanadi, so‘ng turkiy mamlakatlardan (Markaziy Osiyo), so‘ng Jurjon dengizining shimolidan, so‘ng Rum dengizini (Qora dengiz) kesib, saqlablar (slavyanlar) mamlakatidan o‘tadi va G‘arb dengizida (Atlantika) tugaydi».

Keltirilgan parchadan ko‘rinadiki, al-Farg‘oniy katta kenglikdagi o‘lkalarni tavsiflagan bo‘lsa ham, o‘zining asl vatani Movarounnahrni mufassalroq tavsiflagan. Undan tashqari shuni ham ta’kidlash kerakki, al-Farg‘oniyning rub‘i ma’mur haqidagi tasavvuri ancha aniq bo‘lib, har xil afsonaviyliqdan xolidir. Chunonchi, u Yajuj mamlakati deb Sharqdagi afsonaviy yerni emas, balki hozirgi Mo‘g‘ulistonning sharqi va Xitoyning shimoli-shraqiga mos keladigan aniq geografik hududni aytgan.

Farg‘oniyning nomi Xorazmiy kabi butun Sharq va G‘arbda mashhurdir. O‘rta asrda tabiiy-ilmiy bilimlarning rivojiga ulkan hissa qo‘sghan olim sifatida manbalarda, so‘nggi G‘arb va Sharq mualliflari asarlarida, o‘z yurti O‘zbekistonda, ayniqsa, zo‘r g‘urur va iftixor bilan tilga olinadi, o‘rganiladi, hozirgi qunda ko‘chalar, o‘quv yurtlariga uning nomi berilgan. 1998-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan allomaning 1200-yillik tavallud sanasi katta tantanalar bilan nishonlandi.

4.3. Abu Nasr Farobi - Markaziy Osiyolik mashhur faylasuf.

Abu Nasr Forobi (873-950) Jahon madaniyatiga katta hissa qo‘sghan Markaziy Osiyolik mashhur faylasuf, qomusiy olim Forobiyning to‘liq ismi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug‘ Tarxon.

O‘rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyparvar ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivoji uning nomi bilan bog‘liq. Forobi o‘z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilgan va bu ilmlar rivojiga katta hissa qo‘sghanligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitgani tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi ulug‘lanib, “Al-muallim as-soniy” – “Ikkinchi muallim” (Aristoteldan keyin), “Sharq Arastusi” deb yuritilgan.

Forobi 873-yilda turkiy qabilalardan bo‘lgan harbiy xizmatchi oilasida, Sirdaryo qirg‘og‘idagi Forob – O‘tror degan joyda tug‘ilgan. U tug‘ilgan

hudud Somoniylar tomonidan boshqarilib, arab xalifaligining shimoliy chegarasi hisoblangan.

Forobiy boshlang‘ich ma’lumotni ona yurtida oldi. So‘ng Toshkent (Shosh), Buxoro, Samarqandda o‘qidi. Keyinroq o‘z ma’lumotini oshirish uchun arab xalifaligining madaniy markazi bo‘lgan Bag‘dodga keldi. Bag‘dodda bu davrda muslimmon dunyosining turli o‘lkalaridan, xususan, Markaziy Osiyodan kelgan ko‘p ilm ahllari to‘planishgan edi. U yerga bora turib Forobiy Eron shaharlari Isfahon, Hamadon, Ray va boshqa joylarda bo‘ldi.

Forobiy Bag‘dodda o‘rta asr fani va tilining turli sohalari, yunon falsafiy maktablari bilan chuqur tanishib, o‘zga diniy e’tiqod, falsafiy fikrdagi kishilar bilan ilmiy muloqotda bo‘ldi. Abu Bashar Matta ibn Yunusdan (870–940) yunon tili va falsafasini, Yuhanna ibn Xiyalon (860–920) dan tabobat va mantiq ilmini o‘rgandi. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, u 70 dan ortiq tilni bilgan.

Ilk o‘rta asrdan boshlangan Sharq Uyg‘onish davrining yirik mutafakkirlaridan biri, o‘z davrining yorqin yulduzi Abu Nasr Forobiy edi. O‘rta asrlar Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida qator ilmiy yutuqlarning, ilg‘or falsafiy tafakkur rivoji, hurfikrlilik, aql va ilm tantanasi, insondagi ma’naviy ozodlik, adolatli jamiyat to‘g‘risidagi g‘oyalarning shakllanishi buyuk ajdodimiz Abu Nasr Forobiy nomi bilan bevosita bog‘liqdir. U milodiy 873 yilda Sirdaryo bo‘yidagi Forob (O‘tror) shahrida dunyoga keldi va o‘sha erda, so‘ng Shom, Samarqand, Buxoroda, keyin arab dunyosi shaharlari Bag‘dod, Halab, Damashqda ta’lim oldi va kamtarona yashadi. 950 yilda Damashqda vafot etdi. Abu Nasr Forobiy ijtimoiy-siyosiy va tabiiy-ilmiy sohada 160 dan ortiqasarlar yaratdi. Bu asarlarida u mantiqiy xulosalarga ilmiy yondashish orqali erishish zarurligi haqida va falsafiy masalalarda tabiiy va ijtimoiy-siyosiy hayot zaruriyati va qonunlari asosida yondashish qoidalarini o‘rgatdi. Bu bilan Forobiy insoniyat bilimlari rivojiga katta hissa qo‘shti va jahon madaniyati tarixida salmoqli iz qoldirdi. Forobiy yashagan davr muslimmon dunyosida katta iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy o‘zgarishlar yuzaga kelayotgan edi. Hunarmandchilik, ijtimoy-madaniy taraqqiyot, yirik me’moriy inshootlar barpo etilayotgan, xalifalikning jahon bo‘ylab savdo-sotiqni yo‘lga qo‘yishi, xalqaro munosabatlar yuksalishlari davri edi. Forobiy o‘z asarlarida o‘sha davrning yutuqlari va ziddiyatlarini, ijobjiy va salbiy tomonlarini aks ettirdi. U qadimgi yunon donishmandlari

Platon, Aristotel, Epikur, Zenon, Ptolomey, Evklid kabilarning asarlarini chuqur tahlil qildi va ularga sharhlar yozib, sharqilmiy dunyosini tanishtirdi. Mutafakkir o‘z sharhlarida ularning qarashlariga o‘zining ilmiy va amaliy munosabatlarini ham bildirdi, bu bilan qomusiy bilim egasi ekanligini ko‘rsatdi. Qomusiy aqli va fanga qo‘sghan ulkan hissa uchun Forobiy “al-Muslim as-Soni” (Ikkinchi Muallim)”, “Sharq Aristoteli” degan unvon oldi. Forobiy o‘z asarlarida har bir sohada aql tamoyillariga va narsalarning ob’ektiv munosabatlariga mos keladigan haqiqiy ahvolni bilishga, uni isbot qilishga erishdi.U “Inson tanasining a’zolari haqidagi” risolasida inson organizmi bilan ijtimoiy-siyosiy muhitning o‘zaro birligiga, insonning ruhiy va jismoniy holatining tashqi muhit ta’siriga bog‘liqligiga e’tibor qaratdi.

Forobiy “Bo‘sqliq haqidagi risola”da mutlaq bo‘sqliqning bo‘lishi mumkin emasligini va tabiatda fazoni tashkil etuvchi ko‘zga ko‘rinmaydigan zarrachalar mavjud degan fikrni aytadi. U yunon va sharq mantiqshunoslarini chuqur o‘rgandi va ularni rivojlantirdi. U mantiq ilmini eng to‘g‘ri fikrlashning shakllari va qoidalari haqidagi ilm, to‘g‘ri bilimga erisha oladigan omil deb ko‘rsatdi. Forobiy ilmgaga va ilmiylikka e’tibor berib, faqat ilmda borliqning birdan bir to‘g‘ri holati aks etishdan iborat degan o‘lchamni-mezonni ilgari suradi. Uning fikricha, bilimlar borliqdan kelib chiqadi va insonning o‘z ehtiyoji uchun borliqni o‘rganishi jarayonida tinimsiz bilimlarimiz oshib boradi. Barcha ilmlar yig‘masi dunyoni birligiga va insonlar baxt-saodatga erishishiga xizmat qiluvchi yagona halqani tashkil etadi. U Platonning jamiyatni boshqarish uchun qonunlar mavjud bo‘lishligi va uni joriy etish juda mushkul ish ekanligi to‘g‘risidagi fikrlarini quvvatlaydi. Bu hozirgi jamiyatda qonunlar ustuvorligini ta’milanishi kerakligi to‘g‘risidagi qoidaga mosdir. Forobiy o‘z sharhlarida “O‘zi qonunni mensimaydigan va shu bilan birga, qo‘li ostidagilarni ham shunga undaydiganlar o‘z xatti-harakatlari ila katta tartibsizliklar keltirib chiqaradilar.

Xalq qonunlarga ehtiyoj sezishi va ularni chuqur o‘rganishlari zarur, chunki ular keyinchalik xalqning o‘ziga foyda keltiradilar”, - deb qayd etadi.Jamiyat rivoji uchun oqil, idrokli insonlar borligi muhimligi to‘g‘risida u oqil, idrokli insonlar xohlagan narsa yaxshi, farahbaxshdir, lekin nodonlarning xohlaganlarini rad etmoq kerakligini, hokimning tarbiyali, boshqaruvning ko‘ngildagidek bo‘lishi shahar aholisi uchun juda muhimligini tushuntiradi. Yaxshi boshqaruv yaxshi qonunlarga bog‘liq,

yomon boshqaruv yomon qonunlarga, etuk boshqaruv etuk qonunlarga bog‘liq degan qoidalarni u o‘z sharhlarida keltiradi. Forobiy inson axloqiy fazilatlari, ruhi va badani e’zozlanishini, odamlar o‘rtasidagi tenglik ularning har biriga ato etilgan, o‘zlari munosib bo‘lgan mavqedir, - deb uqtiradi. Forobiy o‘z sharhlarida yoshlarning jismoniy mashqlari foydaliligi, xalq urf-odatlari, bayramlari ularga ko‘ngilxushlik berishlari, yoshlarning oqilona va xayrli ishlariga, e’tibor qilinadigan erlarga, ibodatxonalarga katta e’tibor berishligini, muqaddas uylar va inshootlarni ziyorat qilishlikni uqtiradi va bu ishlarni sohibi qonunlar-rahbarlar amalga oshiradilar, deb ko‘rsatadi. U Platonning inson va oliy jamiyat to‘g‘risidagi ta’limotini rivojlantirib “agar odamlar oliy fazilatga ega bo‘lsalar u holda ular juda baxtiyordirlar”, - deydi .Forobiy Arastuni o‘rganishida agar inson g‘ayriaxloqiy, go‘zallik, oljanoblik va ulug‘vorlikka o‘zi va o‘z ruhi o‘rtasidagi mavjud narsa orqali erishgan bo‘lsa, u barkamolikka erishgan bo‘ladi. Fikrlash va tahlil etish tufayli odam o‘zida avvaldan noma’lum bo‘lgan bitiklarni topadi, - deb ko‘rsatadi.

Ma’lumki (bu falsafiy qonuniyat) insonlar zarurat sababli o‘zlari ehtiyoj sezgan holatlarni bilishga, idrok etishga intiladilar. Ammo insonni o‘rab turgan tabiat,koinot, jamiyat muammolari behisobki, buning barchasini bir yoki bir necha insonlarning bilishlari, tushunib etishlari, haqiqiy manzara mohiyatini to‘liq anglash juda qiyin. Forobiy inson intilayotgan narsalar haddan ziyodmi, bu insonga tabiatan xosmi, uni chegaralash yoki bosib turish kerak-mi? degan savollarga javob berib, bular barchasi mulohazalar yuritishni talab qiladi, ular bo‘yicha turli fikrlar mavjud, – deb ko‘rsatadi. Demak, dunyoning tuzilishi va insonning uni bilishga intilishi o‘zi murakkab bo‘lib, bunda tafakkurli inson haqiqiy bilimlarga, garchi ular hali nisbiy bo‘lsalarda intilib yashaydilar. Inson koinotning bir bo‘lagi ekan, uning maqsadini bilish uchun avvalo butun koinotning maqsadini bilib olishimiz kerak degan xulosa kelib chiqadi.

Forobiy Arastuning turli turkum va darajadagi odamlarni qanday, nimalarga, bilimlarning qaysi turlariga o‘rgatish zarurligini tushuntiradi, toki ular o‘zi intilayotgan maqsadni yaxshi tasavvur etsak, olgan bilimlari bilan johiliyatdan qutulib shu bilimlarni o‘zlariga rahnama, dastur qilib olsin degan g‘oyasini ma’qullaydi. U o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida ilk borliq – Tangri ta’rifi yo‘qligi, ilk borliq-javhar-aslini maydonga keltiruvchi narsalarga bo‘linmaydigandir, degan fikrni beradi. U Tangri ilk borliqdir, U

bo‘linmasdir, U Birinchi Borliq o‘z javharidan ham bo‘linmasdir, U modda emas ham, U o‘z mohiyati bilan fe’lli aqldan iboratdir, - deb ko‘rsatdi. Forobiy ko‘rsatishicha Birinchi Borliq o‘zining kamolotiga ko‘ra boshqa barcha narsalardan ajralib turadi. U (Tangri) o‘z zoti bilan ulug‘vor, oljanob va sharafli bo‘ladi, uning asli o‘zidan boshqa har qanday bir narsaga qaram emas, u o‘zi boqishidan buyuklikka, o‘zi boqishidan shon-sharafga sohibdir.

Bu sifatlar tangrining ulug‘vorligidandir. Forobiy borliq to‘g‘risida ilk borliq bu shuki, undan barcha borliq vujudga kelad, boshqalari usiz yashay olmaydi, ilk borliq faqat o‘zining borlig‘i uchun mavjud, boshqa mavjudot esa uning o‘zida bordir deydi. U mavjudoti soniy (ikkinchi mavjudot) to‘g‘risida fikrlab, birinchi mavjud (Haq ta’alo)dan taralgan ketma ketlikda olamda o‘n bitta borliq mavjudligini va ular barchasi birinchi sababdan kuch-quvvat oladi, deb isbot beradi .U barkamol inson to‘g‘risida to‘xtalib, bunday odam insoniy kamolot cho‘qqisiga etgani sababli eng a’lo baxtsaodatga etishgan odamdir. Uning ruhi faol aql bilan bog‘langani, u barcha insonlarni haqiqiy baxtsaodatga etaklaydi, - deb ko‘rsatadi. Forobiy o‘zining bu fikrlarini Fozil shahar (davlati) hokimi sifatlarini ko‘rsatishda rivojlantirdi. Fozillar shahrining birinchi boshlig‘i shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo‘lib, u tabiatan o‘n ikkita xislat-fazilatni o‘zida birlashtirgan bo‘lishi zarurligini ko‘rsatdi. Forobiy o‘zining qator falsafiy, mantiqiy ta’limotlari bilan butun dunyo ilm-u ma’rifatiga ulug‘vor hissa qo‘shdi va xalqimiz tarixida dastlabki Uyg‘onish davrining shakllanishini boshlab berdi. Hozirgi kunda yoshlarning ma’naviy dunyosini yanada mukammallashtirishda, ilm-bilim olishini takomillashtirishda alloma bobolarimiz meroslarini chuqur o‘rganish dolzarb ekanligini yana bir bor anglamoq zarur Sharqda “Muallim as-soniy” deb nom qozongan buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy (873-950 yy.) inson, davlat va fozil jamiyat qurish masalalariga oid nafaqat o‘z davri, balki hozirgi zamon uchun ham muhim bo‘lgan g‘oyalarni ilgari surgan. Mutafakkir o‘rta asrlar sharoitida birinchi bo‘lib jamiyatning shakllanishi, maqsad va vazifalari haqida izchil ta’limot yaratdi. Bu ta’limotda ijtimoiy hayotning ko‘p masalalari - davlatni boshqarish, ta’lim-tarbiya, axloq, ma’rifat, diniy e’tiqod, urush va sulh, mehnat va boshqa masalalar qamrab olingan.

Mutafakkirning fikricha, har bir inson yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday

narsalarni qo‘lga krita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi. Forobiy orzu qilgan fozil vaadolatli jamoaning johil jamoalardan farqi shundaki, unda odamlar eng go‘zal va yaxshi maqsadlarga hamda umumiy manfaatlarga erishish yo‘lida bir-birlariga yaqindan yordam beradilar. Forobiy asarlarida “jamiat” va “davlat” tushunchasi bir-biridan farqlanadi. Unga ko‘ra, jamiat hodisasi davlatga nisbatan birlamchi bo‘lib, asos, tashkil etuvchi hisoblanadi. Davlat yoki shahar birlashmasi muayyan hududdagi aholini boshqaruvchi, kishilar orasida ijtimoiy va xo‘jalik aloqalarini muvofiqlashtiruvchi va fuqarolarning yurish-turish qoidalarini o‘rnatuvchi hokimiyat tuzilmasidir. Davlat faqatgina insonlarning jismoniy ekanligini, taraqqiy etishga qodir ekanligini namoyon qilish vositasi hamdir.

Davlat inson tabiatiga mos bo‘lib, u inson uchun to‘laqonli mavjud bo‘lishning yagona imkoniyatidir. Uning ijtimoiy-siyosiy ta’limotining bosh g‘oyasini aholisi komil, baxtiyor va farovon insonlardan iborat bo‘lgan fozil shahar barpo etish tashkil etadi. Unga ko‘ra, inson mohiyatini ong belgilaydi. Shuning uchun ham, har bir shaxs ilm olishga, o‘rganishga va komillikka intilishi lozim. Inson ijtimoiy mavjudotligi bois, alohida, yakka holda baxtga erishishi mumkin emas. Haqiqiy baxtga boshqa kishilar bilan birga, jamiatga uyushib yashash orqali erishiladi. Fozil jamiatda individning ijtimoiy holati boylik bilan emas, bilim bilan o‘lchanadi va belgilanadi. Forobiy jamiatning kelib chiqishi haqida shunday deb yozgan: “Har bir inson o‘z tabiatiga ko‘ra shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtojlik sezadi, uning bir o‘zi esa bunday narsalarni qo‘lga krita olmaydi. Shu bois ularga ega bo‘lishda kishilik jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi... Shu sababli yashash uchun zarur bo‘lgan, kishilarni bir-biriga etkazib beruvchi va o‘zaro yordamlashuvchi ko‘p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o‘z tabiat bo‘yicha intilgan etuklikka erishuvi mumkin”. U o‘zaro birlikda, ittifoqda yashab, bir-biriga yordam ko‘rsatuvchilar shahrini fozillar shahri deb baholaydi. Davlat boshliqlarini va barcha fuqaroni yaxshilik qilishga, o‘zaro yordam asosida yashashga da‘vat etadiki, bunday da‘vat hozirgi zamon jamiatlari uchun ham katta ma’rifiy-falsafiy qimmatga ega. Mutafakkirning fozil shahri- barcha organlari o‘zaro bog‘langan va o‘zaro harakatda bo‘lgan, takomillashgan inson organizmiga o‘xshaydi. Fozil shaharning eng mukammal, muhim organi va yuragi Boshliq hisoblanadi.

Davlatning amalda bo‘lishi, jamiyatda turli tabaqalar o‘zaro munosabatlarining muvofiqligi, ular orasida murosai madoraning bo‘lishi, ko‘p jihatdan, Boshliqning mukammalligiga bog‘liq. “Mobodo biror zamonda boshqa zarur xislatlar bo‘lsa-yu, - deb yozadi Forobiy, - ammo donishmandlik bo‘lmasa, fozillar shahri yaxshi hokimsiz qoladi, bunday shahar halokatga yuz tutadi”. Shahar boshlig‘ining vazifasi ijtimoiy organizmning u yoki bu kamchiliklarini o‘z vaqtida bartaraf etishdir. Hukmdor baxt-saodat va unga erishish yo‘llari to‘g‘risida bilimga ega bo‘lib, qolgan barcha aholini o‘qitish va tarbiyalash vositasida o‘z orqasidan ergashtirib boradi. Shuning uchun ham u –komil inson- shaharning barcha aholisi uchun namuna bo‘ladi. Aholi kundalik turmushda, jamiyatdagi o‘z holati va ijtimoiy majburiyatiga qarab unga taqlid qiladi va unga ergashadi. Forobiy hozirgi davr uchun ham dolzarb bo‘lgan, madaniy jamiyat va shahar ijtimoiy-siyosiy hayotining muhim tamoyillari-tenglik, erkinlik, ozodlik, kasb tanlash huquqi, tinchlik va osoyishtalik to‘g‘risidagi g‘oyalarni aytib o‘tadi. Uning fikricha, jamiyatning barcha a’zolari o‘zaro teng hisoblanadi. Ular bir-biridan faqat aql-zakovati, bilim darajasi bilan farqlanishi mumkin. Shunga muvofiq, qullar va quvg‘inlar ham boshqa a’zolar kabi tengdir. “Tenglik - har kimga o‘ziga yarasha berilgan darajadir. Bu tenglik mehr-muhabbat va do‘slikni vujudga keltiradi”. Adolatli jamiyat qurishda ma’rifatning o‘mini chuqur anglash uchun insonning o‘zini ma’rifiy anglash sub’ekti sifatida o‘rganish ehtiyoji paydo bo‘ladi.

Insoniylikning ma’rifiy talqini uning g‘oyalarida quyidagicha: “Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang‘ich asos “insoniylik”-dir. Shuning uchun ham odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari tufayli o‘zaro tinchlikda yashamoqlari lozim” . Forbiy insonlarning jamiyatga uyushib yashashidan maqsadi farovonlik va tinchlikka erishish ekanligini quyidagicha ta’riflaydi: “Insoniy vujuddan maqsad-eng oliy baxt-saodatga erishuvdir; avvalo u baxt-saodatning nima va nimalardan iborat ekanligini bilishi, unga erishuvni o‘ziga g‘oya va eng oliy maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan maftun bo‘lishi kerak”. Buyuk mutafakkirning Platondan olgan fozil shahar namunasi shundan iborat ediki, bunday orzudagi shahar davlat haqiqiy fazilatli hayotni qurishga imkon beradi va bunday adolatli jamiyatda tabib va qoziga hech ehtiyoj qolmaydi. Ammo fozil shahar davlat inqirozga yuz tutsa, u to‘rt turdag‘i razillik hukmronlik qilgan qilgan davlatning biriga aylanadi. Bunday jamiyatda yashagan faylasufning qiyinchiliklari ikki

barobar ortadi. Agar u bunday davlatdan boshini olib ketmasa, o‘z xalqi ichida yoki o‘ziga o‘xshaganlar orasida bir begonadek yashashga majbur bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mutafakkir fozil jamiyat shakllanishi hamda qaror topishining ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma’naviy-axloqiy va ma’lum darajada iqtisodiy masalalari haqida fikr yuritar ekan, bu borada ob’ektiv xulosaga kelish uchun o‘z zamonasidagi mavjud jamiyatning tashkiliy jihatlari hamda muammolarini atroflicha tadqiq qiladi. Forbiy ushbu shaharlarnig hayotiy faoliyati, ularni boshqaruv usullariga baho berar ekan, o‘z tasavvuridagi mukammal jamiyat va davlatning oliv maqsadi insonlarni tom ma’noda baxt-saodatga erishuvi yo‘lidagi vazifalardan kelib chiqadi. U ilk o‘rta asr sharoitida birinchi bo‘lib, insonparvarlikka asoslangan ijtimoiy tuzum, davlatni boshqarish, insonlarni baxt saodatga elituvchi jamoa haqidagi ta’limotni olg‘a surdi, barcha xalqlarning o‘zaro yordam va do‘slik asosida yashashi xususida mulohaza yuritti. Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliv darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko‘p narsaga muhtoj bo‘ladi, uning bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirlita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo‘lgan narsalar, bir-biriga yordamlashuvchi kishilarning o‘zaro birlashuvi orqaligina inson o‘zi intilgan etuklikka erishishi mumkin. Haqiqiy baxtga etishish maqsadida o‘zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar-fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi-fazilatli jamoadir. Baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam bergen xalq-fazilatli xalqdir. Shu tartibda barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir-biriga yordam bersa, butun er yuzi fazilatli bo‘ladi.

Xususan, Ibn Rushd Forobiy asarlarini o‘rganibgina qolmay, ularga sharhlar ham yozdi. Averroizm nomi bilan mashhur bo‘lgan uning falsafiy ta’limotining shakllanishi dastlab Forobiy va Ibn Sino faoliyati bilan bog‘liq. Averroizm ilmiy tendensiyalarni ifodalovchi ilg‘or yo‘nalish sifatida keng yoyilgan va Uyg‘onish davrining ko‘p ilg‘or mutafakkirlari dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatgan.

4.4. Xorazm Ma’mun akademiyasi.

O‘rta asrlarda Xorazmning poytaxti Gurganj shahrida qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy rahbarligida hamda Ali ibn Ma’mun va Ma’mun ibn

Ma'mun homiyligida Sharqdagi yirik ilmiy markaz Dorul Hikma va maorif tuzilgan edi. Bu markaz turli davrlarda olimlar, yozuvchilar va shoirlarning dargohi bo'ldib keldi. Xorazm ma'mun akademiyasi, yoki Ma'muniylar akademiyasi Xorazmda X-asr oxiri XI-asr boshlarida faoliyat ko'rsatgan ilmiy muassasa edi. Ma'muniylar davlati (992-1017) tarixi bilan bevosita bog'liq. Siyosiy, iqtisodiy, harbiy qudratga erishgan xorazmshoxlar davlati mamlakatni birlashtirish, unda tartib o'rnatish bo'yicha tadbirlarni boshlab yuborgan. Kun tartibida davlat ichki va tashki siyosatini olib borishda mafkuraviy masalalarni hal qilish turgan. Ali ibn Ma'mun (997-1010) dono va zukko maslahatchilarga muhtoj bo'lgan. Uning baxtiga tog'asi, Abu Nasr ibn Iroq o'z davrining o'ta bilimdon olimi bo'lgan. 1004- yilning boshida Ibn Iroq taklifi bilan Beruniy Gurganjga qaytib kelgan; Ma'mun saroyida ilm ahli uchun yaxshi sharoit yaratib berilgan. Bu ikki shaxs Yaqin va O'rta Sharqdagi ko'plab olimlar bilan shaxsiy yozishmada bo'lganlar. Ularning taklifi bilan Nishopur, Balx, Buxoro va hatto arab Iroqidan ko'plab olimlar Gurganjga kelishgan.

Shu tariqa 1004-yildan boshlab Gurganjda "Dorul hikma va maorif" (ba'zi bir manbalarda "Majlisi ulamo") nomini olgan ilmiy muassasa to'la shakllangan. Bu ilmiy muassasada xuddi Afinadagi "Platon", Bag'doddagi "Bayt ul-hikma" akademiyasi faoliyatiga o'xshab ilmning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib borilgan, juda ko'p manbalar to'plangan, tarjimonlik ishlari bajarilgan; hind, yunon, arab olimlarining ishlari o'rganilgan; Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy larning o'lmas asarlari, ilmiy ishlaridan foydalanilgan va tadqiq qilingan.

XIX-XX-asr tarixchi olimlari tomonidan ilmiy muassasa har tomonlama o'rganilgan va o'z faoliyati nuqtai nazaridan bu dargoh o'z davrining akademiyasi bo'lganligi isbotlangan va unga "Ma'mun akademiyasi" nomi berilgan.

Xorazm Ma'mun akademiyasi asosini quyidagi olimlar tashkil etgan: Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq al-Ja'diy (10-asr - 1034), Abulkayr ibn Hammor (941 - 1048), Abu Saxl Iso ibn Yah'yo al-Masihiy al-Jurjoniy (970-1011), Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad an-Beruniy, Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn Sino, Abu Ahmad ibn Muhammad ibn Ya'qub ibn Miskavayh (1030 y. v.e.), Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad ibn Ismoil as-Saolibiy an-Naysaburiy (961 - 1038), Ahmad ibn Muhammad as-Sahriy (1015 y.v.e.), Abu Ali al-Hasan ibn Horis al-Hububiy al-Xorazmiy

(X-XI-asrlar), Abu Abdulloh Muhammad ibn Homid al-Xorazmiy (X-XI-asrlar) va boshqa olimlar Yunoniston, Yaqin va O'rta Sharq, Hindiston ilm-fan yutuqlarini ijodiy, tanqidiy o'rganib, uni yanada yuksak bosqichga ko'targanlar. Akademiya a'zolarining aksariyati olim sifatida Markaziy Osiyoda shakllanganlar. Ularning ilmiy faoliyati, asarlari tufayli Qadimiy Xorazm badiiy san'ati, adabiyoti, astronomiyasi, matematikasi, sug'orish madaniyati yutuqlari jahon tamadduni xazinasiga kirgan va butun insoniyat manfaatlariga xizmat kila boshlagan.

Masalan, Abu Nasr ibn Iroq, astronomiyaga doir ilmiy asarlari tufayli "Batlimusi soniy" ("Ikkinchi Ptolemy") degan faxriy nom olgan.

Abulxayr ibn Hammor mantiq, falsafadan tashqari tabobatda ham juda mashhur bo'lgani uchun "Buqroti soniy" ("Ikkinchi Gippokrat") laqabiga sazovor bo'lgan.

Abu Sahl al-Masihiy tabib, Ibn Sinoning ustozи bo'lgan. Akademiya rahbari Abu Rayhon Beruniy fanning deyarli hamma sohalari bilan shug'ullangan. Uning geodeziya va matematika sohalari bo'yicha asarlari bugun ham dolzarbdir. Beruniy O'rta Osiyoda birinchi bo'lib, tibbiyotga oid. "Kitob as-Saydana fit-tib" ("Tabobatda dorishunoslik kitobi") asarini yozgan. Beruniy Amerika qit'asi mavjudligini Yevropalik olimlardan taxminan 450 yil oldin aytib o'tgan. Uning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida qad. xalklar (yunonlar, eroniyalar, sug'diyilar, xorazmiylar va boshqalar) ning yil hisoblari, bayramlari va mashhur kunlari, urf-odatlariga oid qimmatli ma'lumotlar to'plangan.

Xorazm ma'mun akademiyasining yana bir zabardast krmusiy olimi Ibn Sino jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Xususan, uning "Tib qonunlari" asari butun dunyoga mashhur bo'lgan. Xorazmda Ibn Sino, asosan, matematika va astronomiya bilan shug'ullangan. Olimning Aristotel ta'limoti xususida Beruniy bilan va o'zining shogirdi Baxmanyor bilan yozishmalari tarixda mashhurdir. Bu yozishmalar savol-javob tarzida bulib, unda Beruniy va Ibn Sino fazo, issiqlikning tarqalishi, jismlarning issiqliidan kengayishi, nurning aks etishi va sinishi kabi masalalarda ilmiy munozara olib borganlar. Ibn Sino Xorazmshoxlar vaziri Abul Husayn as-Sahliy bilan do'stlashib, unga atab alkemyoga oid "Risola al-iksir" ("Iksir haqida risola") asarini yozgan.

Xorazm ma'mun akademiyasi olimlari Xorazm tabiatи, iqlimi, sug'orish tizimi, mineralogiyasi, yer osti suvlari, Amudaryo deltasining

tarixi, korizlar qurish orqali tuproqni tozalash yo‘llarini tadqiq etishgan. Akademiya a’zolaridan Abu Bakr al-Xorazmiy, tabib Abul Faraj ibn Hindu she’riyatda yuksak mahoratga erishganlar. Xorazm tarixi, dirlari, taqvimi, bayramlari, urfodatlari, yozuvi, milliy qadriyatlari haqidagi qimmatli ma’lumotlar ularning faoliyati tufayli bizgacha etib kelgan. Ularning o‘zlariga xos shiori: “Ilm - insonlar hojatini chiqarmoqlikka xizmat qilsin”, — deya atalgan edi.

Xorazm ma’mun akademiyasi olimlariga ilmda qat’iylik xos bo‘lgan. Aristotel yo‘l qo‘ygan ko‘p xatolar tekshirishlar davomida tuzatilgan, qutbdagi davomiy tun va kunlar masalasi osonlik bilan falakiyot fani nuqtai nazaridan tushuntirilib, echilgan. Beruniy qayd etishicha, qadimda Xorazm astronomlari yulduzlar joylashish tartibini arablardan ko‘ra yaxshiroq bilishgan.

Xorazmshoh Ma’mun ibn Ma’mun (Ma’mun II) saroyidagi olimlar shuhrati o‘z davrida uzoq o‘lkalarga tarqalgan. Bu esa Mahmud G‘aznaviyning g‘ashiga tekkan. U uyushtirgan suiqasd natijasida 1017-yilning bahorida Ma’mun II o‘ldirilgan va o‘sha yilning iyunida kuyovi uchun qasos olish bahonasi bilan Mahmud G‘aznaviy Xorazmga bostirib kirgan. Katta qirg‘in va talon-tarojliklar natijasida Xorazm ma’mun akademiyasi faoliyati tugatilgan va bu erdag‘i olimlarning kupchiligi G‘aznaga majburan olib ketilgan.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning “Xorazm Ma’mun akademiyasini qaytadan tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni (1997-y. 11-noyabr) O‘zbekistonning ilmiy salohiyatini yuksaltirish, uning jahon ilmiy hamjamiyatidagi o‘rnini mustahkamlash, mintaqalarda fanni yanada rivojlantirish hamda iste’dodli va fidoyi olimlarni qo‘llab-quvvatlash, yuqori intellektual muhit yaratishdagi milliy an’analarni rivojlantirishda quyilgan muhim qadam bo‘ldi.

1997-y. noyabr oyida akademianing tarkibida arxeologiya, tarix va falsafa, til va adabiyot, biologiya muammolari bo‘limlari tashkil qilinib, 9 ilmiy mavzu bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi.

Arxeologiya, tarix va falsafa bo‘limining xodimlari “Xorazmda qadimgi va o‘rta asrlar o‘zbek davlatchiligi tarixi”, “O‘zbek xalqining etnik tarixida Xorazm vohasining o‘rni”, “Xorazm viloyati arxeologik yodgorliklarini tadqiq qilish” mavzulari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishdi.

Til va adabiyot bo‘limida, “IX-XIII-asrlarda Xorazm yozma adabiyoti va og‘zaki epos”, “IX-XIII-asrlar Xorazm yodnomalari tili” mavzusi bo‘yicha Xorazm yozma adabiyoti va og‘zaki afsonalari hamda rivoyatlar Avestodagi mifologik qatlam bilan qiyosiy tahlil qilindi. Og‘zaki va yozma namunalar tahlili orqali adabiy va badiiy tillarga xos xususiyatlar, ularning o‘zaro ta’siri o‘rganildi.

Biologiya muammolari bo‘limida 4 ilmiy mavzu “Xorazm vohasi tuproq - iqlimi sharoitida istiqbolli, serhosil, kasalliklarga va zararkunandalarga chidamli ko‘niktirilgan o‘simpliklar navlarini o‘rganish”, “Xorazm viloyati sharoitida ekinlarni almashlab ekishning biologik asoslarini ishlab chiqish”, “Xorazm viloyati sharoitida asosiylar, oraliq va takroriy ekishlarda ozuqaviy ekinlarni parvarish etishning samarali texnologiyalarini va makkajo‘xorining urug‘chilik tizimini barpo qilish”, “Quyi Amudaryo mintaqasi tuproqlarining suv tuz rejimini yaxshilaydigan kollektor - zaxkash tizimlarining ish rejimini boshqarish usullarini ishlab chiqish” bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi.

Xorazm ma’mun akademiyasi jamoasi ilmiy tadqiqotlarni xalq xo‘jaligi talablari asosida shakllantirish, ularni dolzarb masalalarni echishga qaratish, budget mablag‘larining samaradorligini oshirishda ustuvor fundamental tadqiqotlarni amalga oshirishga intilmoqda. 2003-yildan boshlab akademiyada 2 fundamental va 8 amaliy dasturlar bo‘yicha 58 xodim, shu jumladan, 2 akademik, 8 fan doktori va 24 fan nomzodlari ilmiy izlanishlarni amalga oshirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-y. 9-noyabrdagi qaroriga muvofiq, 2005-yilda X.Xorazm ma’mun akademiyasining 1000 yilligi nishonlanishi belgilandi.

4.5. Ibn Sino va uning faoliyati

O‘zbekistonda mustaqillik yillarda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlar jarayonida buyuk mutafakkirning hayoti, ijodi va faoliyatini to‘la tadqiq etish, uning asarlaridagi ezgu g‘oyalarni yosh avlod ongiga singdirish, ularni boy tariximizga ehtirom ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shayx ur rais – donishmandlar ustozi nomi bilan shuhrat qozongan tabib, shoir, qomusiy bilim egasi Abu Ali Husayn ibni Abdulloh ibni Hasan ibni Sino 980 yili Buxoro yaqinidagi Afshona

qishlog‘ida tug‘iladi. Otasi Abdullo asli balxlik bo‘lib, Somoniy hukmdorlar mahkamasida xizmatchi bo‘lgan, onasi Sitora esa afshonalik edi. Ibn Sino 5 yoshga kirgach, bolani o‘qitish uchun oila Buxoroga ko‘chib boradi. Avval xususiy muallimdan - Abu Abdullo Notiliy va Ismoil Zohidlardan mantiq asoslarini, riyoziyot, falsafa, fiqh-dinshunoslikni mukammal o‘rganadi, keyin madrasada ta’lim olgan Ibn Sino o‘tkir zehni, favqulodda qobiliyati bilan alohida ajralib turadi. U qunt bilan mustaqil mutolaaga beriladi. Ibn Sino o‘z qo‘li bilan yozgan tarjimai holida ilm o‘rganish borasida chekkan zahmatlarini quyidagicha bayon etadi: “Keyin yana bir yarim yil ilm va mutolaaga berildim. Mantiq va falsafaning barcha qismlarini qaytadan o‘qib chiqtsim. O‘sha kezlarda men kechalari kam uqlab, kunduzlari ham ilmdan boshqa narsa bilan shug‘ullanmas edim... Agar bir oz uyquga ketsam tushimda ham o‘ngimdagи o‘sha masalalarni ko‘rardim, ko‘p masalalar echimi tushimda ayon bo‘ldi. Ana shu zaylda hamma ilmlarni mustahkam egallab oldim va ulardan inson imkoniyati darajasida xabardor bo‘ldim”. U haqiqiy ma’rifatparvar sifatida nnsn ahl-zakovatining har tomonlama rivojlanishga, tabiat sirlari va haqiqatni bilish mumkinligiga ishongan edi. Ana shuning uchun ham olim odamlarni bir-biri bilan do‘st-inoq bo‘lib yashashga chaqiradi. Insonlar bir-biri bilan sofdil, samimiy bo‘lsa, bir yoqadan bosh chiqarsa har qanday mushkulliklar osonlashishiga, qiyinchiliklarga barham berishga chaqiradi.

Ibn Sino chin ma’rifatparvar edi. U insonlarni fan va madaniyat, bilim va ma’rifat o‘chog‘ini yokishga, ilm yo‘lida og‘ishmay kamolot hosil qilishga, har bir masalaga ilmiy, aqliy yondashishga, rostgo‘y vijdonli bo‘lishga - xullas, insoniylikning eng yaxshi xislatlarini o‘zida aks ettirib, mujassamlantirishga, inson degan ulug‘ nomni yanada yuqori kutarishga chaqiradi. “Johilligi va ahmoqligi tufayli o‘zini dunyoda dono deb biladigan bu ikki uch nodonlar bilan munosabatda bo‘lganiningda, sen o‘zingni eshak deb hisobla, chunki dunyoda yashayotgan har bir kishi o‘zini eshak deb hisoblamasa, eshakligi haddidan oshib ketgan bu gurung uni kofirga chiqaradi Ibn Sino mustaqil mutolaa bilan shug‘ullanib, matematikani, astronomiyani, fizikani, arab va fors tillarini puxta bilib oladi. Mashhur tabib Abu Mansur Kamariydan ilmi tibni o‘rganadi. O‘n etgi yasharligida Ibn Sino atoqli olim va tabib sifatida dong chiqaradi. Qo‘slnisi Abulhasan Aruztoga turli bilimlarni o‘rgatishga yordam beradigan “al-Majmu” (“To‘plam”) risolasini, Abu Bakr Baraqiyga yigirma jild keladigan “Saxovat va jinoyat

haqida kitob”qo‘llanmalarini yozib beradi. Buxoro amiri Nuh ibni Mansurning oshqozon kasalini davolashga muvaffaq bo‘ladi. Afsuski, yuqoridagi kitoblarning dastxati o‘sha odamlar qo‘lida qolib, yo‘qolib ketgan yoki hali topilmagan.

Abu Ali ibn Sino oilasiz edi . Uning butun hayoti kitoblar bilan o‘tdi, insonni kasalliklardan qutultirish haqida o‘yladi va mehnat qildi, shogirdlar etishtirdi. Juzjoniydan tashqari, uning shogirdlaridan Abu Nasr Isfahoniy - matematik va muzikashunos (1057 yilda vafot etgan), Abulqosim Abdurahmon - tabib, faylasuf (1068 yilda vafot etgan), Abul-Husayn Ahmad-olim, shoir va boshqalarning nomi mashhurdir. Manbalarning guvohlik berishicha, Ibn Sino jismoniy jihatdan juda baquvvat bo‘lgan. Vazirlik Ibn Sinoning ko‘p vaqtini olgan bo‘lsa-da, u to‘xtovsiz ijod etar va nihoyatda tez yozar edi. U kitoblar, manbalarga ko‘pincha murojaat qiloolar edi, undagi xotira shunchalik kuchli ediki, qachonlardir mutolaa qilgan kitoblarini yoddan to‘la bilar edi. Kechalari uxmlamay o‘zining ilmiy qarashlarini bayon etar, shogirdlarp, olimlar bilan suhbatlar, bahslar o‘tkazar edi. Juzjoniyning xabar berishicha, Gurgonda Abu Muhammad ash-Sheroziy degan kishi ilmlarni juda sevar edi va u Ibn Sino uchun qo‘shnisining uyini sotib olib, uni o‘sha erga joylashtirgan. “Men, - deydi Juzjoniy, - har kuni ustozning oldiga borib turardim va “al-Majastiy” kitobini o‘qir edim. Men u kishidan mantiqni aytib tursangiz, men qog‘ozga tushirsam degan edim, u kishi “al-Muxtasaral-avsat fi-l-mantiq” (“O‘rtacha qisqa mantiq”)ni aytib turdi, men yozib oldim. Abu Ali ibn Sino 1014 yili Ray viloyatiga borib, shu viloyat hokimasi Sayida saroyida tabib bo‘lib xizmat qiladi. So‘ngra Qazvin va Xamadon shaharlariga boradi. Hamadonda u yirik olim, mutafakkir va mohir tabib sifatida katta obro‘ qozonadi va shuning uchun ham u saroy tabibi va vaziri etib tayinlanadi. Hamadonda u 9 yil yashaydi.

Aslini olganda, Abu Ali ibn Sino vazirlik lavozimida turgan chog‘larida davlatni adolatli boshqarish masalalariga bag‘ishlab bir necha ijtimoiy-siyosiy risolalar yozgan. Bu risolalarda u o‘zining ilg‘or fikrlarini bayon etgan. Ammo bu fikrlar hukmron doiralarga, chunonchi, reaktsion ruhoniylar va oliy darajadagi harbiy zodagonlar fikriga, harakatiga, manfaatiga tamomila zid bo‘lgan. Abu Ali ibn Sino o‘zining “Nimani o‘qitish lozim” risolasida quyidagilarni yozadi, Avvalambor (o‘quvchilarga) Qur’oni Karim o‘rganishlari, din tushunchalarini talqin qilishlari va til qoidalari usulidan ta’lim kerak. Qur’oni Karimni o‘rganib, uni yod olib, til

qidalarini, fikrlashni bilganlaridan so‘ng yashash tarzi uslubi va mablag‘ topish uchun qanday huquqlar va san’at o‘rganishni va uning sohalari qoidalari va usulidan ta’lim olishni xohlaydilar.San’atni o‘rgatmoqchi bo‘lgan ustoz har bir shogirdiga qandaydir bir san’atni o‘rgata olishini bilishi kerak. Balki, har qaysi shogird ma’lum bir san’atni o‘rganish va qo‘lga kiritishda iqgidorga va shavqu zavqqa egadir. Ta’lim va tarbiya kutilgan natija bermasa ham, har bir kishiga uning iste’dodi va intilishiga qarab, (muayyan) san’atni o‘rganish kerak bo‘ladi.Ibn Sino o‘zining ko‘p qirrali ijodida fanning turli tarmoqlarini qamrab oldi. Bu esa dunyoni yaxpshrok tushunishga inson va uning tabiatiga yana ham chuqurroq kirib borishga imkon berdi. U o‘z hayotidaadolatsizliklarni, darbadarlikni ko‘rdi, har xil tabaqa - kishilar bilan munosabatda bo‘ldi.

O‘rta asr sharoitlarida, ayniqsa Ibn Sinodek bir joyda qat’iy qo‘nim topolmay o‘lkama- o‘lka, shaharma-shahar tentirab yurgan holda bunday keng bir fikrga ega bo‘lish ancha mushkul bir hol edi. Olimning bunday shuhratga olib borgan sabablardan yana biri ham shu ediki, u o‘z davrining eng ilg‘or g‘oyalariga ergashib, bu g‘oyalarni o‘z fikri va xulosalar bilan yanada boyitdi. Shu tariqa bu buyuk mutafakkir o‘zining oljanob burchini bajardi, insonlararo gumanistik fikr va g‘oyalar tarqatdi, o‘zi esa insoniyat oldida tolmas ma’rifatparvar sifatida tarixda qoldi. O‘rta asrlarda Sharqda yashab ijod etgan buyuk alloma va mutafakkir Ibn Sinoning ilmiy merosini chuqur o‘rganish va anglash, uning zamонавиу тсivilizatsiya tarixida tutgan o‘rni va roliga baho berish muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi o‘rta asrlar Sharq tarixi shundan dalolat beradiki, madaniyat va ta’lim tarbiya, tibbiyot adabiyot, san’at va arxitektura sohalardagi beqiyos yuksalish, ilmiy maktablarning vujudga kelishi, yangi-yangi iste’dodli avlodlar to‘lqinining paydo bo‘lishi, voyaga etishi va ularning barchasi, birinchi navbatda, iqtisodiyot, qishloq va shahar xo‘jaligining ancha jadal o‘sishi, hunarmandchilik va savdo-sotiqning yuksak darajada rivojlanishi yo‘llar qurilishi, yangi karvon yo‘llarinig ochilishi va avvalambor nisbiy barqarorlikning ta’minlanishi bilan bevosita bog‘liq holda bo‘lgan deyishimiz mumkin.Tadqiqotchi olimlarning fikricha, Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX-XII va XIV-XV asrlarda bamisolı buloqdek otlib chiqqan ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalardagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan Sharq Uyg‘onish davri Sharq renessansi sifatida dunyo ilmiy

jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olinganligi bejiz emas. Shu bilan birga ko‘plab tadqiqotchilar qayd etganidek, agar Evropa uyg‘onish davrining natijalari sifatida adabiyot va san’at asarlari, tibbiyot va insonni anglash borasida yangi kashfiyotlar yuzaga kelgan bo‘lsa, Sharq uyg‘onish davrining o‘ziga xos xususiyati avvalo matematika, astronomiya, fizika, ximiya, tibbiyot kabi aniq va tabiiy fanlarning shuningdek, tarix, falsafa va adabiyotning rivojlanishida namoyon bo‘lgan.

Yirik qomusiy olim “Islom olamining eng mashhur faylasufi, qomusiy allomasi hamda insoniyatning eng buyuk mutafakkirlaridan biri” degan unvonga sazovor bo‘lgan Abu Ali ibn Sinoning hayoti va faoliyati avlodlardan alohida g‘urur va ehtirom tuyg‘ularini uyg‘otadi, Ilmiy tadqiqot ishlarini 16 yoshida boshlagan bu ulug‘ zot o‘z umri davomida 450 dan ortiq asarlar yaratgan. Ularning aksaryati, avvalo, tibbiyot va falsafa, shuninigdek, mantiq, kimyo, fizika, astronomiya, adabiyot va tilshunoslik sohalariga bag‘ishlangan. Ayniqsa, tabobat, u bilan bog‘liq holda anatomiya, psixologiya, farmakologiya, terapiya, xirurgiya, diagnostika, gigiena kabi ilmlar Abu Ali ibn Sino ijodida bir qancha yangi ixtiolar bilan boyidi va yangi bosqichga ko‘tarildi.

Bulardan tashqari, kimyo, mineralogiya, astronomiya, matematika, o‘simlik dunyosi, geologik jarayonlarni o‘rganish sohasida ham u yangi yangi fikrlarni olg‘a sura oldi. Abu Ali ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi asarlaridan “Kitob al-qonun fit-tibb” (Tib qonunlari), “Kitob ul-qulanj” (Ichak sanchiqlari), “Kitob un-nabz” (Tomir ko‘rish haqida kitob), “Fuj ul-tibbiya joria fi majlisih” (Tib haqida hikmatli so‘zlar), “Tadbir ul-manzil” (Turar joyning tuzilishi), “Fil-hindubo” (Sachratqi haqida), “Risola fi-dastur fit-tibbiy” (Tibbiy ko‘rsatmalar haqida) kabi asarlari mavjud. Uning tibbiyotga oid qomusiy asari “Kitob al-qonun fit-tib”ni biz doim g‘urur va iftixor bilan e’tirof etamizki tibbiyot tarixida eng mashhur bo‘lgan “Tib qonunlari” deb atalgan o‘zining bebahoh fundamental asari bilan Ibn Sino keyingi bir necha yuz yillar uchun tibbiyot fanlari taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini oldindan belgilab berdi, hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Amaliy tibbiyot formokologiya sohalarining eng muhim usullari besh mustaqil bo‘limlardan iborat mazkur asarda o‘z aksini topgan, ularning har biri ma’lum sohani izchil, har tomonlama yoritib beradi. Jumladan, birinchi kitobda tibbiyotning nazariy asoslari, uning predmeti, vazifalari, bo‘lim va metodlari, kasallikning kelib chiqish sabablari, belgilari,

sog‘liqni saqlash yo‘llari, kishi anatomiyasи haqida mazmundor, aniqligi bilan kishini taajubda qoldiruvchi qisqacha ocherk, sog‘liqni qanday saqlash kerakligi haqidagi ta’limot (keyinchalik gigiena deb nomlangan) bayon etiladi. “Qonun”ning bu kitobini hozirgi zamon ichki kasalliklar darsligiga tenglashtirish mumkin. “Qonun”ning oddiy dorilarga bag‘ishlangan ikkinchi kitobida 800 ga yaqin dorining xususiyatlari, ularni tayyorlash va iste’mol qilish usullari bayon etilgan. Ibn Sino simob, uning birikmalarini dori qilib ishlatishni birinchi bo‘lib tavsiya etadi, sharobni quvvatga kirituvchi, jarohatlarni tozalovchi dori sifatida ishlatadi. Uchinchi kitobida esa ayrim organlar (hatto soch, tirnoqlar)ning kasalliklari, ularni davolash usullari bayon etiladi, uni maxsus patologiyadarsligi deb atasa ham bo‘ladi. Bu kitobda bosh miya, nerv, ko‘z, quloq, burun, tomoq, qorin, tish, yurak, jigar, buyrak kasalliklari batafsил tahlil qilinadi.

“Qonun”ning to‘rtinchi kitobi organizmning umumiy kasalliklariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda isitmalar, o‘sмalar, ularning sabablari, xirurgik kasalliklar (suyak sinishi, chiqishi, jarohatlanish) va ularni davolash usullari har xil dorilardan zaharlanish va bunda ko‘riladigan choralar to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Chechak, qizamiq, moxov, toun, vabo va boshqa yuqumli kasalliklar bayon etiladi. Va nihoyat “Qonun”ning beshinchi kitobida murakkab dorilarning organizmga ta’siri, ularni tayyorlash, iste’mol qilish usullari bayon qilingan. Shuningdek, alloma tibbiyotning asosiy vazifalari to‘g‘risida fikr yuritib allomaning ta’biricha, inson sog‘lig‘ini saqlash, agar kasallik paydo bo‘lgan bo‘lsa, bu kasallikni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash va ularni yo‘qotish orqali sog‘liqni tiklashdan iboratligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, Ibn Sinoning fikricha, tib ilmida nazariy bilimlar va amaliyat o‘zaro bog‘liq bo‘lishi, bir-biriga asoslanmog‘i zarur, aks holda u rivoj topmasligi, o‘z maqsadiga erisha olmasligini ta’kidlab o‘tgan. Ibn Sino har doim kasallikni o‘rganishda ob’ektiv sharoitni har tomonlama bilishga katta ahamiyat bergen, muhitdagi turli tabiiy narsalar, suv, havo orqali kasallik tarqatuvchi ko‘zga ko‘rinmaydigan “mayda hayvonotlar” haqidagi fikrni ilgari surdi. Bejiz emaski, bu kitob Evropada XV asrda chop etilgan dastlabki kitoblardan biri bo‘lgan va Evropaning etakchi universitetlarida qariyb besh yuz yil davomida tibbiyot ilmi ayni shu asar asosida o‘qitib kelingan. Xulosa shundan iboratki, o‘rta asrlarda yashab, ijod etgan buyuk alloma va mutafakkir Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotga oid tengsiz asarlari va ilmiy merosi faqat bir millat yoki xalqning emas, balki

butun insoniyatning ma’naviy mulki ekanini yana bir bor e’tirof etish zarur. Allomaning boy merosi kelgusi avlodlar uchun hizmat qiladi. Uning merosidan butun bashariyat ravnaqi yo‘lida oqilona va samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda amalga oshirilgan tub ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar jarayonida bajarib kelinayotgan amaliy faoliyat miqyosi nihoyatda keng va sermazmun. Har qanday mamlakatda va har qaysi davrda ham millatning buyukligiga erishish uchun avvalo o’sib kelayotgan yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga muhim e’tibor beriladi. Chunki ko‘hna tarix sabog‘idan ma’lumki, ma’naviyati butun xalqni hech kim hech qachon enga olmaydi. Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda oilaning, ota-onaning ta’siri katta. Oiladagi halol-pokizalik, o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, yurtparvarlik va insonparvarlik kabi tamoyillar farzandlar tarbiyasida muhimdir.

Aynan ana shu fazilat va sifatlarning avloddan avlodga o‘tib kelayotganini unutmaslik zarur. Shu o‘rinda o‘tmish tariximizdagi buyuk allomalar va ulug‘ shaxslarning ilmiy madaniy merosining ahamiyati, uni fan taraqqiyotidagi o‘rni mislsiz beqiyosdir. Faxr bilan ta’kidlash joizki, ajdodlarimizdan ko‘pchiligi ma’lum bir soha bo‘yicha emas, balki turli sohalar bo‘yicha etuk, mashhur mutaxassis bo‘lishi bilan birga, ularning aksariyati tarixda nom qoldirgan tashkilotchi, davlat va jamoat arbobi sifatida ham tanilib kelganlar. Ana shunday qomusiy olim, xalqparvar inson, ayniqsa tibbiyot olamida buyuk nom qozongan vatandoshimiz Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sinoning qator asrlarida, jumladan “Tabiat durdonasi”, “Oila tadbiri”, “Ishq risolasi”, “Mantiq risolasi”, “Ahloq risolasi” kabilarda tabiatning turli hodisalari, ijtimoiy hayotning o‘ziga xos muammolari – inson maqomi, baxt-saodatga erishishning vosita va yo‘llari,adolat, komil inson, shaxs va jamiyat, jamoani oqilona boshqarish, tabiat va inson to‘g‘risidagi ezgu g‘oyalarga bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Olim muayyan tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy muammolarning echimini tavsiya etishda qadimgi yunon faylasuflari va tabiatshunoslari ilgari surgan samarali g‘oyalarga tayangan holda ish tutdi. Uning uchun qadimgi uchun qadimgi yunon faylasufi Aristotel va Abu Nasr Forobiy kabi allomalar tengi yo‘q namuna sanaladi. Lekin bundan Ibn Sino ularning oddiy izdoshi bo‘lgan, degan xulosaga kelish o‘rinsizdir. U aksariyat hollarda yunon falsafasini bir necha asrdan keyin yuzaga kelgan tarixiy sharoitlar, mafkuraviy kurash, yangi din va jamiyat talablariga moslashtirishni yagona real imkoniyat

sifatida qabul qildi. Ibn Sinoning fikricha, ijtimoiy munosabatlar, shaxs va jamiyat, jamiyatni boshqarish, ustoz va ta’lim-tarbiya jahbalarida erishilgan yutuqlar tarixiy sharoit hamda islom an’analari bilan hamnafas bo‘lsagina kutilgan natija va sezilarli samara berishi mumkin.

Ibn Sinoning ilm-ma’rifatga, tabiat sirlarini bilishga bo‘lgan intilishi cheksiz edi. U kishilarning aql-idroki, fahm-farosati, tadbirkorligi ham umuman insoniy fazilatlarining shakllanishi va kamoloti o‘qish, ilmli bo‘lishlari bilan bir o‘rinda tasavvur qilgan, ilmiy bilimlarga katta baho bergen. Abu Ali ibn Sino inson kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma’rifatni egallashga da’vat etadi. Ma’rifatli kishi mard, o‘limdan ham qo‘rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo‘ladi, deydi Ibn Sino. Bilimsiz kishilar johil bo‘ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni etuk bo‘lмаган kishilar qatoriga qo‘sadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta’kidlaydi. U haqiqatni bilish uchun bilimga ega bo‘lish kerakligi, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligi, inson o‘z bilimi-ning haqiqiyligini bilishi uchun mantiqni ham bilishi zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning qarashlarida bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkur, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak, degan g‘oya yotadi. Ibn Sino ta’limotida shaxsda haqiqiy bilim hosil qilish mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini hayotda tatbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad bo‘lgan. Zamonasida kishilar uchun muammo bo‘lib ko‘ringan tabiat sirlari sehrlar, tilsimotlar orqali tasvirlangan mo‘jizalarning ham ilm orqali ro‘yobga chiqishiga ishonch bildirib, ilm orqali dunyoda eng qimmatbaho hisoblangan narsalarni ham yaratish mumkinligiga ishongan. Ibn Sino haqidagi rivoyatlarning birida aytishicha, buxorolik katta savdogar Balx shahrida bo‘lganida bir kitob sotib oladi. Odamlar: “Bu kitobni o‘qib tushungan kishilar tuproqdan oltin qilarmish” deb ta’riflaydilar. Biroq bu kitobni olgan savdogar tuproqdan oltin yarata olmaydi. Bor bisotidan ajragan savdogar suv sotuvchi bo‘lib, har kim suv olib ichsa pul olmay, kitob muallifi Abu Ali ibn Sino haqiga la’nat o‘qishni talab qiladi. Kunlardan bir kuni bir mudarris kelib, savdogarning qo‘lidagi kitob tafsiloti asosida oltin yaratib beradi va savdogarga: “Oltinning siri siz pul berib sotib olgan kitobda emas, ilmda, mansabni pulga olish mumkin, lekin ilmni sotib olib bo‘lmaydi. Bu kitobni yozgan kishi o‘ttiz-qirq yillik ilmiy tajribaga asoslanib yozgan. Mana shu kitobni yozgan...men bo‘laman, bundan keyin mening nomimga la’nat

aytishni to‘xtatarsiz,- deb umid qilaman –deb chiqib ketgan ekan.Ibn Sinoning butun hayoti va faoliyati haqiqatni bilishga qaratilgan edi. U odamlarni ilmni egallash yo‘lidagi qiyinchiliklardan cho‘chimaslikka, dadil, sabr-matonatli bo‘lishga undaydi: “Odamlarning botiri kelajakdagi ishlardan qo‘rqmaydi. Eng qo‘rroq kishigina o‘z kamolotini oxiriga etkazmaydi” - deb ta’kidlagan Ibn Sino. Olim o‘z asarlarida o‘sha davrning juda ko‘p g‘oyalarini, ilm-ma’rifatni to‘g‘ri aks ettira oldi. Voqelikni ma’naviy o‘zlashtirish inson a’zosiga xos. Ibn Sinoning ta’kidlashicha, insonning hayvonlardan farqi shundaki, Alloh unga aql in’om etgan. U tufayli inson, ezgulikni yovuzlikdan, intellektual etuklikni yolg‘on-yashiq, adashishdan, do‘stni dushmanidan ajrata oladi. A ql nuri insonni tasodifiy kuchlar ta’siridan ozod shaxsga aylantiradi. Aql “donishmandlik tarozisi”dir. Bilish jarayonida sezgi a’zolari va ularga tayangan mushohada aqlning eng yaqin ko‘makchilari vazifasini bajaradi.

Mantiq ilmi vositasida inson bilmagan narsasini, oldin bilib olgan narsasi orqali bilib boradi, to‘g‘ri tafakkur yuritish ko‘nikmalarini hosil qiladi. Jonli mushohadasiz voqelikni o‘zlashtirib bo‘lmaydi, lekin sezgilar dalolatiga asoslangan empirik (asotir) tushunchalar, tasavvurlar, ko‘p hollarda, hodisalar mohiyatini ohib berishga yordam beradi. Ibn Sino “Axloq haqidagi risola”sida inson to‘g‘risida gapirib, odamdagи yaxshi va yomon xulqning hammasi ijtimoiy sharoit, tarbiya va odat natijasida vujudga kelishini ta’kidlaydi. Insonda yaxshi axloqiy fazilatlar paydo bo‘lishi uchun ularni tarbiyalash kerakligini va boshqalarga bu ishda yordamlashishni maslahat beradi. Yaxshi axloqli kishida insonning eng yaxshi fazilatlari mujassamlashganini aytadi. Shunday fazilatlar jumlasiga insonparvarlik, haqiqiy do‘stlik, sadoqatlik, kelajakka ishonch bilan qarash, mehnatsevarlik, mustahkam iroda, tadbirdorlik va shu kabilarni ko‘rsatib, u kishilarni shunday fazilatlarni egasi bo‘lishga chaqiradi.

Olimning fikricha, jamiyatning har bir a’zosi, jamiyat uchun foyda keltiruvchi biron bir ish bilan shug‘ullanishi lozim. Birovlar halol mehnat qilib foyda keltirsa, boshqalar tekinga yashasa - bu adolatsizlik deb ta’kidlaydi. Kishilardagi qo‘rroqlik, ikkiyuzlamachilik, aldamchilik, munofiqlik, dangosalik kabi salbiy xislatlarni qoralaydi va odamlarni bunday illatlardan qochishga undaydi.Ibn Sino merosidagi ma’rifiy va ma’naviy ahloqiy qarashlar o‘z davrining ko‘zgusidir. Unda o‘z aksini topgan g‘oyalar, serjilo echimlar ona-Vatanimiz istiqboli va mustaqilligimizni yanada

mustahkamlashda barchamizga ma’naviy ko‘mak va madadkor bo‘layotganligining guvohimiz.Ibn Sino ilmiy madaniyat xazinasiga ulkan hissa qo‘sha olgan siymolardan biridir. U insonning ham moddiy, ham ma’naviy salomatligi, inson tanasi va ruhining sofligi, insoniy qobiliyatlarning cheksiz rivoji, odamlarning ma’rifatli, o‘zaro inoq, mehribon bo‘lishi, ma’naviy va ilmiy ravnaq yo‘lida birlashuv haqidagi ajoyib insonparvarlik g‘oyalarni ilgari surgan.

Alloma dunyoda yuz berayotganadolatsizlik, norozilik va tengsizlikni ko‘rar ekan, o‘zicha mushohada qiladi, ammo uning sababini topolmay hayronlik daryosiga sho‘ng‘ib, olamni tushuna olmagani, dunyo falsafasi bilan boshi qotganini bir ruboysiда shunday yozadi: “Eh, koshki edi, men o‘zimning kimligimni, olamda nima uchun tentirab yurganimni bilsam edi. Agar kelajagim xayrli bo‘lsa edi, mayli, tinchgina, bemalol tirikchiligidagi qilaverardim. Bordi-yu, agar unday bo‘lmasa yuz-ko‘z bilan yig‘lardim”. Voqelikni ma’naviy o‘zlashtirish insonga xosligini Ibn Sino alohida ta’kidlagan edi. Uning fikricha, Alloh insonga shunday kuch – quvvat ato etganki, shu tufayli u ezgulikni yomonlikdan, intellektual etuklik, kamolotni yolg‘on yashiq, gumrohlikdan farq qiladi. Inson aqli mavjudot bo‘lgani uchun tabiatda alohida mavqeni egallaydi va boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. Ibn Sinoning bu falsafiy mulohazasi bugun ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan. Bugungi kunda insoniyatga daxldor bo‘lgan global muammolarni hal qilishda odamlardan umuminsoniy axloq tamoyillariga amal qilish, oshkorlik, hamjihatlik, aql-idrokini ezgu ishlarga yo‘naltirishni taqozo etadi. Chunki global muammolarga to‘g‘ri yondoshuv taraqqiyotni tezlashtiradi, tinch-totuvlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi. Bunga erishish esa dunyoga yangicha qaragan, yangicha tafakkur qilishni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va falsafiy merosga xolisona tarixiylik va dialektika nuqtai nazardan yondoshishni talab etadi.

Buyuk allomalarimiz ta’kidlaganlaridek, insondagi komillik eng avvalo, uning fikr, tafakkur va amaliy faoliyati bilan bog‘liqdir. Insonni o‘z-o‘zini bilishi, anglashi, boshqalar oldidagi mas’uliyat va majburiyatni his qilishi uning tarbiyasi bilan bog‘liqdir. Insonni jismoniy sog‘lom aql – zakovatli bo‘lishi ham ta’lim-tarbiya bilan belgilanadi.Ibn Sino haqiqiy insonparvar mutafakkir sifatida inson ahlining har tomonlama rivojlanishiga, tabiat sirlari va haqiqatni bilishi mumkinligiga ishongan. Shuning uchun ham mutafakkir odamlar orasidagi adovat o‘chog‘ini quritishga chaqiradi.

Insonlar bir-biri bilan sofdil, samimiy bo‘lsa, bir yoqadan bosh chiqarsa, har qanday mushkulliklar osonlashadi. Har qanday qiyinchilik hal bo‘lishga va haqiqat sirlarini ochish mumkinligiga qattiq ishongan. U odamlarni ilm yo‘lidagi qiyinchiliklardan cho‘chimaslikka, dadil, sobitqadam bo‘lishga undaydi. “Odamlarning botiri, - deydi Ibn Sino, – kelajakdagi ishdan, mushkulotdan qo‘rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo‘rqog‘idir”. Ibn Sino o‘z ijodida diniy aqidalarga johilligi haddan oshib, o‘zini olim toat-ibodatdan nari o‘tmaydigan va kimki bilim va san’at, fan va ma’rifat bilan shug‘ullansa qoralaydigan, uni xudosiz, daxriylikda ayblaydigan diniy mutaasiblarga qarshi murosasiz kurash olib boradi. Xo‘s, shunday ekan, bugungi kunda bola tarbiyasi qay ahvolda? Ushbu hozirgi kunning eng dolzarb muammosi haqida ne-ne buyuk zotlar boshqotirishmagan. Naql qilishlaricha, donishmand Abu Ali Ibn Sino huzuriga yosh ota-onas kechagina tug‘ilgan farzandlarini olib kelib, undan bolani qanday tarbiya qilish kerakligi haqida so‘rashibdi. Shunda donishmand: “Tarbiyada to‘qqiz oy kechikibsizlar”, degan ekan. Ushbu rivoyatda bola tarbiyasi qancha erta boshlansa, shuncha yaxshi, degan fikr mujassam. Shu bilan birga bola halol paydo qilinib, ona qornida ham halollikdan oziqlanishiga, munosib parvarishlanishiga ishora bor. Ibn Sino farzandlarning namunali xulq egalari bo‘lib etishishlari uchun odamlarni bir-birlari bilan do‘st-inoq bo‘lib yashashga, insonlarni pastlikka eltadigan adovat o‘chog‘ini quritishga, birodarona ahil, hamjihat turmush kechirishga chaqiradi: “Ey birodarlar! Bir-biringiz bilan samimiy do‘st bo‘linglar. Har biringiz o‘z birodaringiz uchun xolis dilingizdagи pardalarni oolib tashlanglar”. Ibn Sino oila tarbiyasi masalalari bo‘yicha maxsus “Tadbir almanozil” nomli asarini yozgan. Unda olim ota-onaning bolalar tarbiyasidagi vazifalarini yoritgan va o‘zining ta’lim-tarbiya haqidagi har tomonlama mukammal mulohazalarini bayon qilgan.

Asarning “Muqoyasa dar axloq” bobida ota-onalar va tarbiyachilarga quyidagicha maslahatlar berilgan: “Ota-onas bolalarni tarbiyalashda ularga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo‘lishlari kerak. Ayniqsa, bolaning xulqidagi kamchiliklarini uning shaxsiyatiga tegmasdan bartaraf etishlari lozim”. Asarning “Nasihat yo‘li” bobida ota-onalarning vazifalari ifodalanib, bu vazifalarni bajarish uchun ota va onada qanday fazilatlar bo‘lishi kerakligi ko‘rsatilgan:”...tarbiyaning biri bolaga yaxshi ot qo‘yish, unga ilmu adab o‘rgatish, barchani hurmat qilishga o‘rgatish, kasb-korli qilish” va hokazo.

Sharq donishmandligida: “bolang etti yoshga etguncha uning aytganini qil, chunki bu davr bolaning aytganini qildiradigan podsholik davri, etti yoshdan o‘n sakkizgacha tarbiyada unga talabchan bo‘l, aytganingni qildir, toki ular mehnatga ko‘nikma hosil qilishsin. O‘n sakkizdan keyin esa uni o‘zing bilan teng ko‘r, huddi o‘z do‘stingdek munosabatda bo‘l”, degan pandu-nasihat ham o‘zining hayotiy asosga egaligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda bola tarbiyasi oilada ko‘proq onalar zimmasida. Shunday ekan, butun mas’uliyatlari va zifani bajaruvchi onalar ma’naviyati qay darajada, oilaviy muhit, er-xotin munosabatlari qanday, ota-onalara bola uchun ibrat bo‘la oladimi? Ibn Sino “Tadbir al-manozil” asarida onalar fazilati haqida ham fikr yuritgan: “Xotin kishi bilimli bo‘lsin. U dinga ishonsin. Uyatchan, sharmu hayoli, iboli, tabiatan jasur, o‘z erini qattiq sevadigan, tug‘ish va bola tarbiyasi haqida o‘yaydigan bo‘lishi, ezma bo‘lmasligi va o‘z eriga bo‘ysunishi,to‘g‘ri, kamtar, farosatli bo‘lishi kerak”. Xalqimizning “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, ”Onasini ko‘r,qizini ol” degan asrlar sinovidan o‘tgan maqollari ham behudaga to‘qilmagan. Ularda katta hayot saboqlari mujassamlashgan. Ibn Sino bolaga nima yaxshi-yu, nima yomon ekanligi haqidagi fikr tinimsiz singdirib borilishi lozimligi haqida shunday deydi: Yomon yo yaxshilik qilgay har kishi Shu yomon, yaxshini topmoqdir ishi.Xalqimizda “Sut bilan kirgan, jon bilan chiqadi” degan naql bor. Agar bola tanasiga, ongiga ona suti bilan mehr-muruvvat, go‘zallik, odamlarga yaxshilik qilish, fazilatlari joylashtirilsa bola xulqida ijobiy natijalarga erishiladi. Zolimlik, zo‘ravonlik, qo‘pollik urug‘lari sochilsa-chi? Ilm ma’rifatdan mahrumlik, qoloqlik, madaniyatsizlik, nodonlik, zulmat namoyon bo‘ladi. Bu “jaholat” deb nomlanadi. Ibn Sino bu haqda shunday deydi: “Modomiki, mening do‘stim dushmanim bilan ko‘p o‘tirgan ekan, endi men uni hech do‘st deb bilmayman. Chindan ham zahar aralashgan shakardan parhez qilish kerak; ilonga qo‘ngan pashshadan esa qochish kerak bo‘ladi”, deb quyidagicha ifodalaydi: Do‘stim dushman bilan o‘tirmish bisyor, Endi o‘tirmayman u bilan zinhor. Parhez qil shakardan zaharli bo‘lsa, Pashshadan qoch, qo‘nish joyi bo‘lsa tor. Jaholatga qarshi faqat ma’rifat bilan kurashish lozim.

Donishmandlardan biri: “Har bir millatning ma’naviy boyligi uning qancha kitob o‘qishiga qarab belgilanadi” degan ekan. Hozirgi kunda avlodlarning ajdodlarimiz yaxshi xislatlarini o‘zlashtirib, yomon jihatlarini takrorlamasligiga juda ko‘p narsa bog‘liq. Bu borada tarbiyaning rolini hech kim inkor qila olmaydi. Ajdodlar ma’naviy merosini, ularning tarixiy

madaniyatga qo'shgan hissasini o'rganish, ular ilgari surgan ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilmiy asosda talqin etish va ta'lim-tarbiya sohasida keng foydalanish yosh avlodni milliy g'oyalar ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ular ijodida ma'lum bir davrning yutug'i, zamonaning, katta bir guruxning orzu-intilishlari, maqsad-muddaolari mujassamlashgan ma'rifatparvarlik g'oyalar o'z ifodasini topgan bo'ladi.

Xullas, Ibn Sino qomusiy olim sifatida tanilib, ayni vaqtida uning ilohiyot, falsafa, fizika, kimyo, matematika, astronomiya, botanika, musiqa, she'riyat, arab filologiyasi, din tarixi, tibbiyot, geologiya, minerologiya va boshqa fanlarga oid asarlari saqlanib kelinmoqda. Ulug' olim yunon, arab, fors olimlarining kitoblarini, Ahmad Farg'oniy, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Farobi, Abu Bakr Roziy kabi vatandoshlarining asarlarini o'rgandi, ularga ijodiy yondoshadi. Uning kitoblari va yozishmalari qadimgi yunon ilmi vakillari bo'lmish Suqrot, Platon, Aristotel, Yevklid, Fales, Geraklid, Pifagor, Gippokrat, Galen kabi olimlarning asarlaridan yaxshi xabardor ekanligini ko'rsatdi. U ana shu ma'naviy xazinaga tayanib, o'zining falsafa, tibbiyot va tibbiyot ilmlariga bag'ishlangan "Kitob ash shifo" ("Shifo kitobi"), "al -Qonun fi-t-tibb" ("Tib qonunlari"), "Kitob an-najot" ("Najot kitobi"), "Donishnoma" ("Bilimlar kitobi") kabi yirik asarlarini bitdi. Ibn Sino haqiqiy qomusiy olim sifatida o'z davridagi fanlarning deyarli hammasi bilan muvaffaqiyatli ravishda shug'ullangan va ularga oid ilmiy asarlar yaratgan. Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asarlari qayd etilgan bo'lsa ham, zamonlar o'tishi bilan ularning ko'pi yo'qolib ketgan va bizgacha faqat 242 tasi yetib kelgan. Shu 242 dan 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga tegishli, 43 tasi tabobatga oid, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi psixologiya, 23 tasi tibbiyot ilmiga, 7 tasi astronomiyaga, 1 tasi matematikaga, 1 tasi musiqaga, 2 ta kimyoga, 9 tasi etikaga, 4 tasi adabiyotga va 8 tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan ilmiy yozishmalarga bag'ishlangan. U o'z asarlarini arab va fors-dariy tillarida yozgan. Ko'p qirrali qobiliyat sohibi Ibn Sino ayniqsa falsafa va tabobat sohalarida o'chmas iz qoldirdi.

Olimning bizgacha yetib kelgan umumiy falsafaga oid muhim asarlari quyidagilar: "Kitob ash shifo" ("Shifo kitobi") Ibn Sinoning eng yirik falsafiy asari hisoblanadi, uni o'z davrining ilmiy qomusi deyishi mumkin. Bu asar 4 qismdan iborat: 1) mantiq; 2) tabiiy fanlar (bu qismida minerallar, tibbiyot minerallar, o'simliklar, hayvonot olami va insonlar haqida bahs

yuritiladi); 3) matematika, ya’ni riyoziyot ilmlari (bunda arifmetika, handasa, astronomiya va musiqa fanlari haqida babs yuritiladi); 4) metafizika yoki ilohiyot. II “Kitob an-nojot” (“Najot kitobi”). Bu asarda “Kitob ash shifo”ning mazmuni qisqartirilib bayon etilgan. III. “Al-ishorot va-tanbixot” (“Ishoralar va tanbehlar”). Ibn Sinoning eng so‘ni yirik asari bo‘lib, unda olim falsafaning asosiy masalalarini qisqa iboralarda bayon etgan.“Donishnama” (“Bilimlar kitobi”) esa Ibn Sinoning fors-dariy tilida yozilgan falsafiy asarlaridan eng muhim hisoblanadi. Ibn Sino o‘z asarlarida o‘zidan oldingi va o‘z davridagi tabiiy fanlar va falsafaning yutuqlaridan foydalangan holda shunday bir falsafa yaratdiki, uni o‘rta asr Sharqdagi nazariy bilimlarning eng yuqori cho‘qqilaridan biri deb ta’riflash mumkin.

Olimning tarjimai holidan malumki, u hind hisobini juda erta o‘zlashtirgan. Keyinchalik esa Yevklidning “Negizlar”, Ptoleymenning “Almagest” asarlaridagi matematika va astronomiyaga oid boblarini katta qiziqish bilan o‘rgangan. Muallifning ta’kidlashicha, u 18 yoshidanoq ancha murakkab, matematik masalalar ustida chuqur mulohaza yuritishga qodir bo‘lgan.Ibn Sino matematik fanlarni arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa kabi asosiy turlarga taqsimlaydi. Shuningdek, u kitob “Kitob ash shifo”ning tarkibiga kirgan “al Xisob” asarini to‘rt maqolaga taqsimlab, ularda sonlarning arifmetik xossalari bayon etdi. “Kitob ash shifo”ning geometriyaga oid bo‘limlari “Yevklidning qisqartirilgan asari” (“Muxtasar Uqlidis”) nomi bilan keltiriladi. Ularning asosini Yevklidning I-VI kitoblari tashkil etildi. Ibn Sino matematika va geometriya masalalarini takomillashtirishda o‘zining munosib hissasini qo‘sha oldi. Shu o‘rinda olimning arifmetikada sonlarning kvadrat va kubga orttirishida to‘qqiz soni orqali tekshirish usulini tavsiya etgani fikrimizga dalil bo‘ladi. Ibn Sinoning astronomiyaga qiziqishi umrining oxirigacha uni tark etmadni. Ulug‘ olim “Risola al-ajsom as-samoviyya” (“Samo jismlari haqida risola”) “ar-Risola fi illat kiyom al-art vasat al-samo” (“Astronomiya ilmi haqida muxtasar”) “Fi-l-abad az-zaxira li-lajrom as-samoviyya” (“Samo jismlarining ko‘rininsh masofalari”) kabi asarlarining muallifidir. Ibn Sino astronomik kuzatishlarga mo‘ljallangan maxsus jihoz ixtiro qildi va unga bag‘ishlangan risola yaratdi. XI asr oxiriga kelib Sharq xalqlari ma’daniyati ravnaq topdi. Biz yoshlarimizga al-Xorozimiyy va Ibn Sino kabi dunyoga mashhur allomalarimiz borligini , ular bilan qancha faxirlansak, qancha g‘ururlansak joyiz ekanligini bot-bot eslatib turmog‘imiz, biz qurayotgan buyuk

Vatanimizning o‘tmishi ham etborli bo‘lganligini eslatib turmog‘imiz lozim. Bu holat, komil ishonch bilan aytish mumkinki, o‘sib-unub kelayotgan yosh avlod qalbida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakillantiradi.

Jahonning turli kutubxonalarida Ibn Sino asarlarining qo‘lyozmalari saqlanadi, shu jumladan, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida ham alloma qalamiga mansub 50 asarning 60 ta qo‘lyozmasi mavjud. Evropa olimlari E. Bishmann, Yu. Ruska Karra de Vo, X. Korbin, Kruz Xernandez, L. Garde, A. M. Guashon, X. Ley, P. Morividj, J. Saliba hamda arab, turk va eron olimlari M. U. Najotiy, A. N. Nodir, J. Sh. Qanavotiy, Said Nafisiy, Yahyo Maxdaviy, Umar Farrux, E. Ihsono‘g‘lu, F. Rahmon, M. Muso, H. G‘araba, M. Shohvardiy va boshqalar Ibn Sino ijodini o‘rganishga ma’lum hissa qo‘shdilar. Rossiyalik olimlardan E. E. Bertels, A. Ya. Borisov, I. S. Braginskiy, S. I. Grigoryan, B. A. Petrov, B. A. Rozenfeld, V. N. Ternovskiy, A. V. Sagadeev, M. M. Rojanskaya, Tojikiston olimlaridan S. Ayniy, M. Dinorshoev, T. Mardonov, N. Rahmatullaev, A. Bahovuddinov, Yu. Nuraliev bu yo‘nalishning rivojlanishiga xizmat qildilar.

O‘zbekistonda Ibn Sino asarlarini tarjima va tadqiq etishda sharqshunos olimlar S. Mirzaev, A. Murodov, A. Rasulov, U. I. Karimov, Yu. N. Zavadovskiy, A. A. Semyonov, M. A. Sale, P. G. Bulgakov, Sh. Shoislomov, E. Talabov, H. Hikmatullaevlar ulkan ishlarni amalga oshirdilar. T. N. Qori-Niyoziy, I. M. Mo‘minov, M. M. Xayrullaev, M. N. Boltayev, A. Axmedov, G. P. Matvievskaya, V. K. Jumaev, N. Majidov, O. F. Fayzullaev, M. B. Baratovning monografiya va maqolalarida Ibn Sino ijodining turli qirralari tadqiq etilgan.

Rus antropologi M. M. Gerasimov, bir necha tarixiy shaxslar qatori, Ibn Sinoning ham kalla suyagi asosida haykal-portretini yaratgan. Andijon tibbiyot instituti xodimlari (Yu. O. Otabekov, Sh. H. Hamidullin, E. S. Sokolova) Ibn Sinoning ilmiy asoslangan timsolini haykal-byustda tasvirladilar (1965). O‘zbekistonlik rassom S. Marfin Ibn Sino badiiy portretini ishlagan (1968). Ibn Sino haqida “O‘zbekfilm” studiyasi ijodkorlari (rej. E. Eshmuxamedov; O. Agishev, E. Eshmuhamedov stsenariysi) “Dahoning yoshligi” tarixiy-biografik badiiy filmini (1984) yaratdilar.

O‘simliklarning birinchi ilmiy tasnifini yaratgan mashhur shved botanigi Karl Linney (1707-78) doimo yashil bo‘lib turuvchi bir tropik

daraxtni Ibn Sino sharafiga Avitsennia deb atadi. O‘zbekiston erida topilgan (1956) yangi mineral Ibn Sino nomi bilan Avitsennit deb ataladi. Buxoro shahri va Afshona qishlog‘ida Ibn Sinoga haykal o‘rnatildi, Belgiyaning Kortreyk shahrida ham Ibn Sinoga qo‘yilgan (2000) haykal bor. Afshonada Ibn Sino muzeyi ochildi. O‘zbekiston va Tojikistondagi tibbiy oliy va o‘rtalim yurtlariga, nashriyotga, sanatoriy, shifoxona, kutubxona, maktab, ko‘cha, jamoa xujaliklari, turar joy mavzeleriga Ibn Sino nomi berildi. Tojikistonda fan sohasida katta yutuqlarni taqdirlash uchun Ibn Sino nomidagi respublika davlat mukofoti ta’sis etilgan. O‘zbekistonda Ibn Sino xalqaro jamg‘armasi tuzildi (1999-yil), “Ibn Sino” va “Sino” nomli xalqaro jurnallar nashr qilinadi.

4.6. Abu Rayhon Beruniyning fanga qo‘shgan buyuk hissasi.

Ma’lumki, Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma’naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o‘zida mujassam etgan buyuk arboblar ko‘p bo‘lgan. Xususan, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Baxovuddin Naqshband va boshqa ko‘plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishda ulkan hissa qo‘shdilar, xalqimizning milliy iftihori bo‘lib qoldilar. Ularning nomlari, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo‘shgan buyuk hissalari hozirgi kunda butun dunyoga ma’lum. Shu sababli ham bugungi kunda buyuk mutafakkirlarimizning bizga qoldirgan ma’naviy boyliklarini kengroq o‘rganishimiz, tadqiq etishimiz zarur.

Movarounnahrda ming yillar oldin yashab o‘tgan allomalar, faylasuflar va fikhshunosu muhaddis olimlarning ilm sohasida erishgan yutuqlari bugungi kunda ham jahon hamjamiyatini hayratga solib, keng miqyosda e’tirof etib kelinmoqda. Beruniyning ilm dengizi naqadar keng ekanligini uning qomusiy olim sifatida yaratgan asarlari orkali ham bilib olish mumkin. U bir vaqtning o‘zida astronom, astrolog, matematik, geolog, geograf, biolog, o‘lkashunos, o‘simplikshunos, ma’danshunos, tarixchi, manbashunos, dinshunos, adabiyotshunos, faylasuf, sotsiolog, mantiqshunos, ilohiyotchi va shoir bo‘lgan. Shunga asoslanib, Beruniyga nisbatan uning “shug‘ullangan sohasini sanashdan ko‘ra, shug‘ullanmagan sohasini sanash osonroqdir”, - deb ta’rif berishgan.

Abu Rayhon Beruniy shubhasiz, dunyo fani tarixida yorqin iz qoldirgan ulug‘ mutafakkir va qomusiy olimdir. Manbalarda ta’kidlanishicha, Beruniy o‘zidan 150 dan ortiq asarlarida jamlangan fan sohasidagi izlanishlaridan iborat ilmiy merosini yaratib qoldirgan. Biroq, bizga qadar uning 40 ga yaqin qo‘lyozma ko‘rinishidagi kitoblari etib kelgan. Mavjud asarlarining ko‘pchiligi o‘zbek, rus, fors, nemis, ingliz va qator boshqa tillarga tarjima qilingan. Beruniyning 1000 yillik yubileyi arafasida uning asarlari o‘zbek tilida bir necha jildli ko‘rinishda nashr etilgan va bugungi kunda ham chop etib kelinmoqda.

Sharqshunoslarning eng so‘nggi hisobiga ko‘ra, Beruniy asarlari quyidagicha taqsimlanadi: astronomiyaga oid - 70 ta; matematikaga oid - 20 ta; geografiya-geodeziyaga oid - 12 ta; kartografiyaga oid - 4 ta; iqlim va ob-havoga oid - 3 ta; mineralogiyaga oid - 3 ta; falsafaga oid - 4 ta; fizikaga oid - 1 ta; dorishunoslikka oid - 2 ta; tarix va etnografiyaga oid - 15 ta; adabiyotga oid asrlari esa 28 tadir.

Beruniyning asarlari mavzulari jihatidan ham xil tarzda bo‘lib, ular matematika, fizika, astronomiya, ma’danshunoslik (minerologiya), geodeziya, matematika, geografiya, kartografiya, meteorologiya, dorishunoslik, etnografiya, tarixshunoslik (madaniyat va dinlar tarixi), filologiya va falsafa fanlari sohalarida qoldirilgan ilmiy merosdir. Ushbu ilmiy meros o‘z vaqtida dunyoning turli hududlariga etib borib, u erlarda ham fan fidoyilarini tomonidan o‘z tillariga tarjima qilingan. Bu esa Beruniyning bir qator mashhur asarlarining asl qo‘lyozmalari dunyoning yirik kutubxona va muzeylarida saqlanayotganidan dalolat beradi.

Beruniy o‘z davrining yuksak bilimdoni sifatida bir qancha tillarni mukammal o‘rgandi. Jumladan, qadimgi xorazm tilidan tashqari, arab, fors, sug‘d, yunon, suryoniy va qadimgi yahudiy tillarini puxta o‘rganish barobarida ushbu tilda yozilgan kitoblarni o‘qiy olgan va bu orqali ilmiy salohiyatini yanada oshirgan. Keyinchalik u Mahmud G‘aznaviy bilan Hindistonga borganida sanskrit tilini ham o‘zlashtirib olganligi xususida ma’lumotlar mavjud. Shunisi muhimki, Beruniy qator xalqlarning tillarini o‘rganish barobarida o‘z davrida o‘lik hisoblangan tillarni (qadimgi xorazm, qadimgi sanskrit kabi tillar) ham katta ishtiyoq bilan o‘rganadi. Bu esa uning ilmiy faoliyatida mavjud bilimlar bilan birga o‘lik tillarda yozilgan ilmiy nazariyalarni ham kunt bilan o‘zlashtirib, o‘z ilmiy izlanishlarida tadqiq

qilish imkonini beradi. Beruniyning bir nechta yirik asarlari ana shu izlanishlarning natijasida vujudga kelgan.

Xorazmshox Ma'mun II Xorazmda ilmiy akademiyaga asos solgan va bu akademiya shu sababdan ham uning nomi bilan "Xorazm Ma'mun akademiyasi" sifatida tarixdan joy olgan. Ushbu akademiyada Beruniy Abu Sahl al-Masihiy, Abu Nasr Ibn Iroq, tabib Abul Hasan Hammor, mashhur tarixchi Ibn Miskavayx, Ibn Sino bilan birgalikda ilmiy faoliyat olib bordi va juda ko'plab yangiliklarni yaratishga, bir qator yunon, fors, hind tilidagi asarlarni arab tiliga tarjima qilishga muvaffaq bo'ldilar. E'tirof etish o'rinliki, Beruniy ushbu akademiyaning rahbari edi va tom ma'noda, u tufayli shu akademiya a'zolari to'plangandi. Ma'mun akademiyasining akademiya darajasiga erishishida ham Beruniyning ilmiy salohiyati katta o'rin tutganligi shubhasizdir. Bunda Beruniy ilm ahlini qadrlovchi Ma'mun yordamida Xorazm olimlarini birlashtirib, akademiyaning bugun biz biladigan darajaga olib chiqishga erishadi.

Xorazmdagi ilmiy faoliyati natijasida Beruniy qimmatbaho toshlar, kamyob metallar ustida kuzatishlar olib borib, "Kitob al-jamahir fi ma'rifikat al-javohir" ("Qimmatbaho toshlarni bilib olish bo'yicha ma'lumotlar to'plami") nomli mineralogiya sohasiga oid mashhur asarini yozadi. Shu bilan birga alloma, bir qator astronomik asboblardan ham foydalanganligini va ularning o'sha davrga mos ko'rinishlarini yaratganligi ham ma'lum.

Beruniy "Geodeziya" asarida yozishicha, Ma'mun akademiyasida ilmiy faoliyat olib borgan vaqtida ixtiyorida turli asboblar, jumladan, diametri 3 metr keladigan va oralik minutlarga bo'lingan kvadrant bo'lgan ekan. Ammo o'sha davrdagi siyosiy vaziyat sabab Beruniy ushbu akademiyada uzoq faoliyat yuritolmagan hamda akademiyaning buyumlari va astronomik asboblari haqida ham keyinchalik deyarli hech qanday ma'lumot uchramaydi. Ba'zi tadqiqotchilar esa, Beruniy Xorazmdan G'aznaga olib ketilgan paytida o'zi bilan ko'p yillik kuzatishlari natijalari, qo'lyozmalarini, astronomik asboblarini ham olib ketgan, deyishadi. Beruniyning Xorazmda ishlatgan kvadranti ham G'aznaga olib ketilganmi yoki yo'q qilinganmi, bu xususida aniq bir fikr yo'q. Beruniy 1017-yildan boshlab umrining yakuniga qadar (1048-yilda vafot etgan) G'azna shahrida yashab, ijod etgan. Ma'lumotlarga ko'ra, alloma 1031-yilda vatani Xorazmga ma'lum muddat safar uyushtirgan.

Beruniy G‘aznada sharqning bir qator atoqli olimlari bilan faoliyat olib borgan. Ular orasida Kavkazdan kelgan ustoz Abu Sahl Abdulmunis ibn Ali ibn Nuh Tiflisiy, asir olingan hind olimlari, fors olimlari va Xorazm Ma’mun akademiyasidan keltirilgan bir qator olimlar ham bo‘lgan.

Shunisi ahamiyatliki, Beruniy G‘aznada rasadxona barpo etib, unda diametri 4,5 metr keladigan kvadrant o‘rnatgan (bu kvadrantning Xorazmdagi kvadrant bilan bog‘liqligi haqida aniq ma’lumot yo‘q. Ammo Beruniy o‘z ilmiy salohiyatidan kelib chiqib, Xorazmdagi kvadrant tajribasidan G‘aznada uning takomillashghanini yaratishda foydalangan bo‘lishi ehtimoli yuqori). Beruniy G‘aznada shogirdlar tayyorlab, ularga dars berish va ijod qilish barobarida davlat ishlarida ham faol qatnashib turgan (Allomaning Xorazmda Ma’munning eng yaqin maslahatchisi sifatida faoliyat olib borganligi ham uning Mahmud G‘aznaviy saroyida katta obro‘e’tiborga erishishida yordam bergen).

AQSHning Markaziy Osiyo va Kavkaz instituti direktori Frederik Starr Beruniy hayoti va ilmiy faoliyatiga oid izlanishlaridan kelib chiqib, quyidagi fikrlarni bayon etgan edi: “Kimyo fani sohasida Markaziy Osiyoliklar reaktsiyalarini qaytarishga, kristallizatsiyadan kimyoviy tozalashning bir vositasi sifatida foydalanilgan, go‘yo Dmitriy Mendeleevning 1871-yilgi davriy jadvaliga poydevor yaratish maqsadida muayyan tortish kuchini o‘lchash va uni chuqur elementlarida qo‘llash kabi yutuqlarga erishdilar”. Bu orkali Frederik Starr Abu Rayhon Beruniyni qadimgi Rim tsivilizatsiyasi bilan Evropa Uyg‘onish davri tsivilizatsiyasini o‘zaro bir-biri bilan bog‘lagan mutafakkirdir, deb ta’riflagan.

Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” (“Al-osor al-boqiya an al-kurun al-xoliya”) asari orqali dunyo xalqlarining boy an’analari, urf-odat va marosim-udumlari haqida keng ma’lumot berib o‘tgan. Bu esa bizga O‘rta Osiyo, yahudiy va Yaqin Sharq xalqlarining turli xil madaniyatlari haqida to‘liqroq ma’lumot olishga yordam beradi. Beruniy bu asarini yozgan vaqtida xali o‘ttiz yoshga kirmagan yigit edi. Ushbu yirik asar esa unga katta shuhrat keltirdi. Beruniy ushbu asarini o‘z saroyidan joy berib, ilmiy ishlar olib borishiga yaxshi sharoit yaratib bergen Jurjon hokimi Shams Maoli Qobus Vashmgirga bag‘ishlagan.

Beruniy yana bir shox asari – “Hindiston” kitobidir. Bu asarning to‘liq nomi “Kitobu fi tahqiqi mo‘lil hind min ma’qulatin maqbulatin fil aqli av

marzulatin” (“Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarini aniqlash kitobi”) deya nomlanadi. Ushbu asarda Erning harakatlanishi haqidagi o‘z mulohazalarini bayon etadi. Aynan, shu izlanishlari davomida Beruniy Kristofor Kolumb Amerikani kashf etishidan 500 yil oldin, dengiz safariga chiqmasdan turib, Shimoliy va Janubiy Amerika materiklarining mavjudligini aniqlab bergan. Tadqiqotchi-mutaxassislarining bergan ta’rifiga ko‘ra, ushbu asar hind fani va madaniyatiga qo‘yilgan haykal hisoblanib, mamlakatning haqiqiy qadimgi va o‘rta asrlar davriga oid entsiklopediyasidir.

Beruniy aynan “Hindiston” asarini yozish maqsadida sanskrit tilini mukammal tarzda o‘rganadi. Bu esa olimga yangidan yangi izlanishlarga yo‘l ochib, Hindiston haqida ko‘plab ma’lumotlar va tarixiy bilimlarni o‘zlashtirishiga yordam beradi. Kitobda Hindistonning tabiatni, tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, madaniyati, fanlari, dinlari, urf-odatlari, o‘simgilik, hayvonot dunyosi va xalqlari haqida bir qator muhim hamda asosli ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. Beruniy o‘z davrining astronomiyasiga katta o‘zgarishlarni va yangiliklarni olib kirdi. Uning asarlarida va ilmiy tadqiqotlarida doimo aniqlikka e’tibor berilgani ham keyingi asrlarda yaratilgan astronomik ishlarning asosini tashkil etib bergan edi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Beruniy 18 yoshidayoq Xorazmdagi rasadxonada mustaqil kuzatish ishlari bilan shug‘ullana boshlaydi. 22 yoshida esa ilk kichik asarlarini yaratadi. U sayyoralar holatiga qarab, odamlarning taqdirini aytib berish mumkin emasligini va bu yolg‘onchilikdan boshqa narsa emasligini o‘z kuzatuvlari natijasida to‘liq tushunib etgan. Shu sababdan, sayyoralarining holatiga qarab kishilarning umrini bashorat qilish noto‘g‘ri ekanligini o‘zining “Aldamchilik san’ati”, ya’ni “Yulduzlar hukmidan ogohlantirish kitobi” nomli risolasida to‘la bayon etib bergan edi. Beruniy o‘z ilmiy izlanishlarining yuqori natijasi sifatida “Mineralogiya” – “Kitob al-jamahir fi-ma’rifat al-javohir” (“Javharlarni tanish uchun jam kitob”), “Kartografiya” – “Tastih as-suvar va tabtih al-quvar” va “Geodeziya” – “Kitobu tahdidi nihoyot al-amokin li tashih masofat al-masokin” (“Turar joylarning oralaridagi masofalarni aniqlash uchun joylarning chegaralarini belgilash haqida kitob”) nomli kitoblar yozgan. Bu asarlarida esa tog‘ va sahrolar, ularning paydo bo‘lishi haqida, daryo va okeanlar, geografiya, tabiatshunoslikka oid, foydali qazilmalar, minerallar va ularning kimyoviy, fizik xossalari haqida qator qimmatli

ma'lumotlarni sanab o'tgan. Jahon ilmiy hamjamiyati: "...Beruniy jahon paleontologiya va geologiya fanlari rivojiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan edi", deya e'tirof etadi.

Beruniy astronomik tadqiqotlarida asosiy e'tiborini –Erning harakatiga qaratib, Ptolomeyning geotsentrik qarashlariga zarba bergan. Bu orqali Beruniy birinchi bo'lib, gelotsentrik g'oyani ilgari suradi. Keyingi asrlarda yashagan evropalik olimlar –Nikolay Kopernik, Jordano Bruno, Galileo Galiley ham Beruniyning qarashlaridan ilhomlanib, o'z asarlarida arning quyosh atrofida aylanishi haqida dadil yozadilar. Beruniyning yana bir asari borki, u ham arabcha, ham forscha tilda yozilgan allomaning yirik asarlaridan hisoblanadi. Bu kitob "At-Tafhim" –“at-Tafhim li avoili sinoat at-tanjim” (“Nujum san'atining avvalini tushuntirish”, ya’ni “Astronomiya ilmidan boshlang‘ich ma'lumotlar”) deb nomlangan. Ushbu kitob boshqa asarlariga nisbatan taniqli bo‘lmaseda, undagi ma'lumotlar ancha qiziqarli va o‘rganuvchiga osonligi bilan o‘z o‘rniga ega. Chunki asar asosan savol-javob ko‘rinishida berilgan bo'lib, unda hisob, geografiya, geometriya, astronomiya, kalendar masalalari kengroq yoritilgan va juda ko‘plab shakllar bilan izohlangan. Ushbu ma'lumotlarga qo'shimcha tarzda doira shaklidagi dunyo xaritasi ham ilova qilingan. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Beruniy o‘z davri uchun muhim bo'lgan dunyo xaritalarini tuzishda zamonasining eng ilg‘or olimiga aylangan edi. Xaritashunoslikdagi tajribalar va bilimlar keyinchalik Beruniyga er sharining ilk globusini yaratishiga yordam bergenligi shubhasizdir.

Beruniy o‘z vaqtida Sulton Mahmud G‘aznaviy tazyiqi va g‘azabi ostida yashashga majbur bo‘lgan. Ammo, olim hech qachon ilmiy izlanishlardan, yangi asarlar yaratishdan to‘xtab qolmagan. Hattoki, sultonning g‘azabiga duchor bo‘lishini bilsada hech qachon o‘zi tanlagan, bilgan yo‘lidan, e’tiqodidan chekinmagan. Aynan shu fazilatlari sabab Beruniy Sulton Mas’ud G‘aznaviy davrida ancha e’zoz topadi. Sababi, Sulton Mas’udning o‘zi ilm-fan homiysi, olimu shoirlarni, iste’dod egalarini yuksak qadrlagan va siyosiy faoliyatda otasi kabi yuksak salohiyatga ega bo‘lmasa ham saroyida olimlarga yuksak sharoitlar yaratib, ilm-fan homiysiga aylangan. Sultonning yaxshiliklaridan ilhomlangan va erkin ijod qilishiga keng yo‘l ochilgani tufayli vaqt kelib Beruniy Mas’udga bag‘ishlab asar yozadi. E’tiborli jihat Beruniy Mahmud G‘aznaviy tazyiqida bo‘lsada, hech qachon yozgan asarlarining birortasini ham sultonga

bag‘ishlamagan edi. Mas’udga bag‘ishlaganligi xususida Beruniy shunday degan edi: “Mas’udning “al-Hikmat” deb ataluvchi xazinasiga ilmi nujumga xos bir qonun bilan xizmat qilishni ixtiyor etdim, bu “Qonun” uning oliv ismi va nishoni bilan sharaflandi”.

1036–1037 yillarda Beruniy o‘zining yana bir muhim asari –“Qonuni Mas’udiy”ni yozadi. Asarning to‘liq nomi “al-Qonun al-Mas’udiy fil hay’ a van nujum” (“Astronomiya fanida Mas’ud ismiga yozilgan qonun”) shunday ataladi. Asar 12 maqoladan (kitobdan) iborat bo‘lib, unga o‘nlab yangi ma’lumotlar kiritilgan. Asarda kosmologiya, sferik astronomiya, trigonometriya, matematik geografiya masalalari va qadimgi xalqlarning yil hisoblari tahlili berilgan. Yana bir xulosa shuki, Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarini 1000 yilda yozgan va unda alloma anchayin yosh bo‘lgan. “Qonuni Mas’udiy” asari yozilgan vaqtida esa olim anchayin bilimlar va tajribalarni o‘zlashtirgan edi. Shu sababdan ham bu asar “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarini bir qadar to‘ldirilgan ko‘rinishi deyish ham o‘rinli bo‘ladi.

Bundan tashqari Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiylik, axloq va odobning asosiy masalalari buyicha qarashlari insoniylik tuyg‘ulari bilan kurilgan. U xalqlar bilan do‘slikni yoqlab, xukmdorlarning ýzaro urushlariga qarshi chiqadi. Uning ijtimoiy qarashlari markazida inson, insoniy jamiyat yotadi.

Beruniy barcha qimmatli narsalar inson mehnati bilan yaratiladi va insonning qadr-qimmati avlod-ajdodlarining kim bo‘lganligi bilan emas, balki mehnati bilan belgilanadi, deb hisoblaydi.

Beruniyning ijtimoiy qarashlari xalqlar orasida do‘slik bo‘lishni istashida, do‘slikni kuylashida ko‘rinadi. U “Er - bu bizning yerimiz, din - bu bizning e’tiqodimiz, fan - bu bizning mashg‘ulotimiz” - deb, baho beradi. Shunday qilib, Beruniyning tabiiy-ilmiy va ijtimoiy - falsafiy qarashlarini qisqacha o‘rganib chiqishning o‘ziyoq olim o‘z davridagi taraqqiyat parvar ijtimoiy kuchlar tashviqotining ifodasi ekanligidan, hayotdan ancha olg‘a ketganligidan dalolat beradi.

Beruniyning ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarida fan va madaniyat, ta’lim-tarbiya va tarixida, ularning rivojlanishida birmuncha qimmatli ta’sir ko‘rsatganligini tasdiqlaydi.

Beruniy ruh masalalariga ham ko‘p qiziqish bilan qaraydi. Eng avvalo, Yunon va Rim, Sharq olimlari, jumladan Muhammad Xorazmiy, Forobiy va

boshqa mutafakkirlarning asarlarini qunt bilan o‘rgangan va ruhiyatga doir qarashlarining ahamiyatini tushunib yetgan. Qolaversa, insonni o‘qitishda va tarbiyalashda odam ruhiyatini bilish zarurligini aytgan. Bulardan tashqari insonlar bilan o‘zaro munosabatlarda ruhiy jarayonlarni bilish lozim ekanligini yaxshi tushungan. Beruniy ruhiy jarayonlarni barcha hayvonlarga va odamlarga xos deb biladi. Hayvon ruhiyati ongsiz xarakterda, insonda esa ongli, inson mantiqiy fikrlashga, mantiqiy xulosalar chiqarishga qodir, odamda aktiv asab xizmatlari mavjud, deydi.

U o‘zining Abu Ali ibn Sino bilan bog‘lagan munozaralarida barcha narsalarning asosida 5 ta element, ya’ni suv, olov, havo, yer, borliq yotishini hamda dunyonn bilish jarayonida bilimlarimizning manbaini sezgi a’zolarimiz va ular orqali qabul qilgan missiy bilimimiz tashkil etadi, deb ta’kidlagan. U so‘zini davom ettirib: “Agar sezgi a’zolarimiz bulmaganda, olam haqida bilimga ega bo‘lmagan bo‘lardik va undan tashqari olam haqida tasavvurga ega bo‘lmasdik”, - deydi.

Beruniy insonning barcha mavjudotdan ustunligini uning tafakkuri orqali ekanligini izohladi. Uning uchun ham yerdagi barcha hayvonlar bo‘ysunadi, aks holda inson eng kichik hayvondan ham ojiz bular edi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Beruniy olamni bilish jarayonida mehnatning roliga juda katta ahamiyat bergen. “Har bir insonning qadri qimmati o‘z ishini qanday bajarayotgani bilan o‘lchanadi”.

Uning ruh, ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari, metodlari tabiiy va ilmiy falsafaga asoslangan. Shu sababli o‘tmishdagi mutafakkirlarning ta’lim-tarbiyaga oid fikrlarini bilmoq, uning nazariy asosi, olam haqidagi, inson va jamiyat haqidagi ta’limotini o‘rganish hozirgi zamon ziyolisining birinchi navbatdagi vazifasidir.

Abu Rayhon Beruniy umrining so‘ngiga qadar ilm olishdan, o‘rganishdan to‘xtamagan buyuk alloma edi. Alloma umri yakunlanayotganini sezib, 1047 –1048 yillar davomida yana bir asarini yozishga erishadi. Uning bu asari tibbiyot sohasiga oid bo‘lib, “Saydana” – “Kitob as-saydana fit-tibb” (“Dorivor o‘simliklar haqida kitob”) deya nomlangan va evropa tillarida “Farmakognoziya” nomini olgan. So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, Beruniy ilmiy bilishning yangi metodlari – tajriba va amaliyot metodlarini ishlab chiqqan va rivojlantirgan. Beruniy har qanday olimning izlanishlari tajriba bilan boyitilsa va amaliyot natijasida rivojlantirilsa albatta, foydadan xoli bo‘lmasligini va ilm

izlayotgan inson uchun ham kerakligini ta'kidlab: “har bir olim o‘z muhokamasida amaliyotga asoslanishi, o‘z tadqiqotida aniq bo‘lishi, to‘xtovsiz mehnat qilishi, xatolarini qidirib tuzatishi, ilmda haqiqat uchun har xil uydurma, yuzakichilikka qarshi kurash olib borishi zarur”, –degan edi. Yana, ilm ahlini olimlar mehnatiga alohida e’tibor berishga, ularga xayrixoh bo‘lishga ham undagan edi. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhim ekanligini ta’kidlaydi. Bular hozirgi ma’rifat, ilm-fanni ham e’tirof qiluvchi –irsiyat, ijtimoiy muhit va to‘g‘ri ta’lim-tarbiyadir. Bu orqali insonni ulug‘lash haqida XV-asr gumanizm vakillari –Petrarka, Bokachcho, Solyutattilardan ilgariroq fikr yuritgan hamda inson kamoloti shu uch holatning naqadar yuksak shakllanishida ekanligi va ko‘p bilimga ega bo‘lish bilan birga yuksak axloqiylikni ham muhim jihat sifatida keltirib o‘tadi.

Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Geodeziya” asarida ta’kidlaganidek: “Har bir kuzatuvchi (olim) diqqat bilan o‘lchasin, hamisha o‘z ishlaridan qoniqmasin, o‘z ishlarini qayta-qayta tekshirib tursin, mumkin qadar kamroq g‘ururlansin, tobora tirishqoqlik bilan ishlasin va mehnatda hech mahal zerikmasin”. Bu bilan alloma hech bir ilm yo‘lida izlanayotgan insonning o‘z ishidan to‘la qanoat hosil qilmasligini, aks holda olib borayotgan ishida yuksalish bo‘lmasligini aytmoqda. Chunki qayta-qayta tekshirish orqali olim o‘z bilimini ham boyitib boradi. Bu esa keyingi ilmiy izlanishlarda doimo foyda berishini yaxshi tushungan. Tirishqoqlik va to‘xtovsiz qilingan mehnat albatta o‘z natijasini berishini, o‘z egasiga rohat keltirishini ham tushuntirib o‘tgan edi.

Xulosa qilib aytganda O‘zining noyob asarlari hamda olamshumul kashfiyotlari bilan jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo‘sghan buyuk mutafakkir va qomusiy olim, Ilk Renessans davrining yorqin namoyandası Abu Rayhon Beruniy sanaladi. Tabarruk diyormizda kamol topgan ulug‘ olimlar, fozilu fuzalolarning nomini butun dunyo ahli yaxshi bilishadi. Bobokalonlarimiz bilan nafaqat faxrlanish, balki ularning boy ma’naviy ilmiy merosini tatbiq va targ‘ib etish burchimizdir. SHu ma’noda, buyuk mutafakkirlar bobolarimiz: Abu Abdulloh Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek kabi allomalarimizning meroslarini ilmiy asosda chuqur o‘rganish, shu asosda yosh avlodni ezgu g‘oyalar ruhida tarbiyalashdek ulug‘vor maqsadlarga xizmat qiladi.

4.7. Mahmud Qoshg‘ariy – yirik tilshunos olim.

Mahmud Koshg‘ariy (1030–1127) Markaziy Osiyoda ilk o‘rta asr madaniyatining buyuk arboblaridan bo‘lib, tilshunoslik sohasida, xususan, turkiy tillarni o‘rganish sohasida mashhur bo‘ldi va tarixda o‘chmas iz qoldirdi.

Mahmudning otasini ismi Husayn, bobosiniki Muhammad bo‘lib, kelib chiqishi va tiliga ko‘ra Koshg‘ariy nisbatini olgan. U yashab ijod etgan davrda Movarounnahrda Somoniylar o‘rnini Qoraxoniylar sulolasiga egallagan, turkiy adabiy til mintaqada keng urf bo‘la boshlagan edi. Hatto Abbosiylar xalifaligi markazlarida, azaldan arab va boshqa somoniy xalqlar yashab kelgan o‘lkalarda turkiy elatlar namoyandalari ko‘payib, turkiy tilga e’tibor oshgan edi. Mahmud Koshg‘ariy ham o‘zining uzoq yillar davomida yaratgan “Devonu lug‘atit turk” kitobini 1075-yilda tugallagan. Asarning asosiy matni o‘sha davrda keng mintaqa musulmon Sharqida, butun Yaqin va O‘rta Sharkda din, fan tiliga aylangan arab tilida yozilgan bo‘lib, turkiy tilning boyligini, mazmundor va rang-barangligini tushuntirish uchun yozilgan.

Mahmud Koshg‘ariy Balasog‘unda tug‘ilib, shu erda yigitlik chog‘larini kechirgan bo‘lsa ham, uzoq yillar Qoshg‘ardan boshlab butun Movarounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxoro, hozirgi Shimoliy Afg‘onistoniga qadar cho‘zilgan turkiy o‘lkalarni, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini kezib chiqdi, turli sheva va lahja xususiyatlarini o‘rgandi, ularni adabiy til bilan chog‘ishtirdi, o‘z ishi uchun nihoyatda boy material to‘pladi. Lug‘at tuzishda arab tilshunoslari yaratgan an‘anadan unumli foydalangan holda, ishga ijodiy yondashdi, turkiy til qonuniyatlarini birinchi navbatda inobatga olib kitobiga tartib berdi.

Koshg‘ariy asari, o‘zi ta’kidlashicha, “... oldin hech kim tuzmagan va hech kimga ma’lum bo‘lmagan alohida bir tartibda” tuzilgan. Unda ko‘p shevashunoslikka oid qiyosiy qoidalar, grammatik, morfologik, leksik, semantik alomatlar ko‘rsatilgan. Asar foydalanuvchilarga osonlik tug‘dirish uchun sodda yozilgan. Unda qadim turk alifbosi, fonetik qonuniyatlar va orfografik qoidalar puxta tushuntirib berilgan. Lug‘atda turkiy so‘z tuzilishi an‘analari, jumladan so‘z tartibi, fe’l shakllari, so‘z etimologiyasiga oid fikrlar bayon etilgan.

Muallif ko‘rsatishicha, kitob bo‘limdan, muqaddima va xulosadan iborat. Har bir bo‘limda ot-ism so‘zlar, fe’llar qulaylik uchun alohida ajratib berilgan. Asarda 7500 dan oshiq turkiy so‘z va iboralar izohlangan. “Devonu lug‘atit turk” ham adabiy til, ham asosiy turkiy shevalarni qamrab olgan bo‘lib, undagi adabiy til, sheva unsurlari nisbati o‘rtacha adabiy tildagi 10–12 so‘zga, shevaga oid bir so‘zga to‘g‘ri keladi, ya’ni umumturkiy adabiy tilga ayricha ahamiyat ajratilgan. Bu holat o‘sha davr islom mintaqasida turkiy adabiy til qancha keng tarqalgani va mustaxkam mavqega ega bo‘lganini tasdiqlovchi qat’iy dalildir.

Lug‘atda yuzlab kishi ismlari, shahar va qishloq, o‘lka nomlari, daryo, tog‘, yaylov, vodiy, dara, yo‘l, dovon, ko‘l, soy kabi geografik atamalar, turli qabila, urug‘, elat, sayyora, yulduzlar, fasllar tilga olinadi. Asarga Mahmud Qoshg‘ariy tuzgan dunyo xaritasi, dunyoning doira shaklidagi tasviri ham ilova qilingan. Uning markazida Markaziy Osiyo joylashgan. XI-asr geografiya ilmining namunasi bo‘lmish bu xarita Qoshg‘ariyning qomusiy olimligining daliidir.

Turkiy xalqlar tarixiga oid qadimiy afsona va rivoyatlar, 300 ga yaqin maqol va matallar, hikmatli so‘zlar, 700 satrdan oshiq she’riy parchalar ushbu asar sahifalaridan o‘rin olgan. She’riy parchalarning ko‘p qismi turkiy xalqlar og‘zaki ijodiga xos to‘rtliklardan iborat. Ammo “Devon”da keltirilgan she’riy satrlardan 150 satrga yaqini islom davri she’riyatiga xos bo‘lgan “bayt” tipidagi masnaviy, qasida, g‘azal, qit’a parchalari bo‘lib, ularni Koshg‘ariy o‘zi ham ko‘pincha “bayt” deb ataydi.

Kitobda 7 ta epik doston, ishqiy qo‘shiqlar, pandnomalar, koinot yaratilishiga oid asotir, she’rlar, tabiat manzaralari tasviri, madhiyalar, falsafiy mushohadalar uchraydi. Koshg‘ariy devonda keltirilgan VIII–XI asrlarga oid turkiy she’riyat namunalarida u yoki bu darajada aruz vazniga o‘tish moyilligi seziladi.

Mahmud Koshg‘ariyning islomdan ilgarigi va ilk islom davri turkiy madaniyat obidalarini tadqiq etish, to‘plash va avlodlarga etkazib berishdagi xizmatlari nihoyatda ulkandir. Uning tarix, etnografiya, geografiya xususidagi keng bilim doirasi, til va adabiyot sohasidagi qomusiy salohiyati, tadqiq qudrati bugungi kunda ham hayratlanarli darajadadir. Uning kitobida jamlangan aniq-ravshan ma’lumotlar VIII–XI-asrlar ham turkiy adabiy til va badiiy adabiyotning, ham og‘zaki xalq ijodi va turli lahjalarning boy manbai sanaladi. “Devonu lug‘atit turk”ni o‘sha davrlarda Markaziy Osiyo

mintaqasida yashagan turkiy xalqlar hayoti haqidagi qomusiy asar deb atash mumkin.

4.8. Mustaqil O‘zbekistonda Xorazm Ma’mun akademiyasining qayta tiklanishi va uning bugungi kundagi faoliyati.

Xorazm noyob madaniyat, nafis san’at, yuksak ma’rifat, turmushning dono falsafiy va insonparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan adabiyot va she’riyat maskani, dunyoviy ilm o‘choqlaridan biri ekanligi quvonchli voqeadir. Xorazm vohasining tarixiy-madaniy merosi bevosita ilm fan, shu bilan birga me’morchilik san’atining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov 1997-yil 20-oktabrda butun dunyo miqyosida nishonlangan qadim Xivaning 2500 yillik yubileyiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan tabrik nutqida ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san’at namoyondalari qatori betakror tarixiy obidalar, imoratlar bunyodkorlari sha’niga ham iliq so‘zlar, qimmatli fikrlar bildirgan edilar. Yurtboshimiz shu anjumanda odamzod tarixidagi ilk akademiya bizning zaminimizda tashkil topganligini alohida ta’kidlab, uni qaytadan tashkil etish ko‘p ulug‘ ish bo‘lishini e’tirof etgan edilar. Oradan ko‘p o‘tmay 1997-yil 11-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xorazm Ma’mun Akademiyasini qaytadan tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilindi. Xiva shahriga kiraverishdagi ajoyib tarixiy obida-Qo‘scha darvoza bilan yonma-yon joylashgan salobatli, muhtasham binoda mana to‘qqiz yilki, Xorazm Ma’mun Akademiyasi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Mustaqilligimiz sharofati, yurtboshimiz tashabbusi, sa’y xarakatlari bilan qaytadan tashkil etilgan bu akademiya respublikamiz ilm ahli, ayniqsa xorazmliklar uchun keng imkoniyatlar yaratdi. O‘zbekistonimizning ilmiy salohiyatini yuksaltirish, uni jahon ilmiy hamjamiyatidagi o‘rnini mustahkamlash, mintaqalarda ilm-fanni yanada rivojlantirish, iste’dodli, qobiliyatli, elim deb, yurtim deb yonib yashashga qodir fidoiy olimlarni qo’llab-quvvatlash, milliy urf-odat, qadriyatlarimizni ulug‘lash, Vatanimiz tarixini chuqur o‘rganish, bobolarimizdan qolgan boy merosni asrabavaylashda akademiya faoliyati muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Xorazm dunyo madaniy taraqqiyotiga salmoqli ulush qo‘sghan, o‘zining boy tarixi,

yuksak ma’naviyati, noyob obidalari, hunarmand- chiligi, dehqonchiligi bilan jahonga tanilib kelayotgan muqaddas zamindir. Xorazm o‘zbek davlatchiligiga asos solingan, dunyo xalqlari- ning qo‘lyozmasi “Avesto” asari yaratilgan tabarruk diyordir. XII – XIV asrlarda elimizga tashrif buyurgan arab sayyoohlari Yoqub Al Xamaviy, Ibn Batutalar dunyodagi hech bir o‘lkada Xorazmdagidek olajanob, ma’rifatparvar, hunarmand, mehmondo‘st elni ko‘rmadim deb yozib qoldirganlar. Darhaqiqat, dunyo ilm faniga asos solgan buyuk siymolar, donishmand allomalar Xorazm farzandlari, Xiva dilbandlari. Butun jahonda har kuni, har soat, har lahzada millionlab kishilar murojaat qilib kelayotgan-Al jabr, algoritm algebra faniga xorazmlik buyuk alloma Muxammad Muso Al Xorazmiy asos solgan. Er shari globusini bizning vatandoshimiz Abu Rayxon Beruniy (Ma’mun Akademiyasining ilk rahbari) yaratgan. Atlantika ummoni ortida Amerika qit’asi borligini Xristofor Kolumbdan 500 yil oldin bashorat etib, hattoki uning xaritasini chizib qoldirgan ham Abu Rayxon Beruniy xazratlari bo‘ladilar. Mana bu e’tirofga e’tibor bering: “Dunyodagi barcha qishloqlar jamlanib, Xorazmning birgina Zamaxshar qishlog‘iga fido bo‘lsa arziydi. Chunki bu qishloq ming yillarda bir marta kelishi mumkin bo‘lgan Mahmud Az Zamaxshariydek allomani dunyoga keltirdi”. (Ibn Vaxxos-Makkai Mukarrama Amiri). Zamahshariy ellikdan oshiq nodir asarlar yozib qoldirgan. Arab grammatikasiga asos solgan. “Jorulloh” ya’ni “Xudoning qo‘shnisi” deb e’zozlangan.

Shayx Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Ogahiy, Munis, Avaz O’tar, Komil Xorazmiy, Sayyid Muhammad Rahimxon Soniy- Feruz kabi buyuk siymolar, ardoqli allomalar shu tabarruk zaminda yashab kamol topganlar.

X asr oxirida-1004 yilda tashkil qilingan “Dorul-xikma” Ma’mun Akademiyasida ham Sharqning ko‘plab ilm sohiblari turli fan yo‘nalishlari bo‘yicha qator izlanishlar olib borib, o‘z faoliyatlari bilan jahon ilm fani rivojiga munosib xissa qo‘shdilar. Xorazm Ma’mun Akademiyasi sardori va rahnomasi Abu Rayxon Beruniy “Minerologiya”, “Geodeziya”, “Hindiston” kabi bir yuz ellikdan oshiq noyob asarlar yozib qoldirdi, yuqorida ta’kidlaganimizdek buyuk kashfiyotlar yaratdi. Abu Ali Ibn Sino o‘zining qator asarlari, jumladan, dunyoga mashhur “Tib qonunlari” asarini ayni Ma’mun Akademiyasida ishlab yurgan kezlari yozgan. Abu Sahl Masihiy, Abulhayr ibn Xammor, Abu Abdulloh Iloqiy, Ibn Maskovayx, Umar

Isfaxoniy, Abu Abdullox ibn Ibrohim an-Notiliy (Ibn Sinoning xorazmlik ilk ustozi), Ibn Iroq, Jurjoniy, Muhammad as Saoribiy kabi o‘nlab etuk allomalar Ma’mun akademiyasidagi faoliyati bilan jahon ilm-fani taraqqiyotiga ulkan ulush qo‘scha oldilar. Astronomiya, kimyo, riyoziyot (matematika) tarix, falsafa, tabobat fanlarini ayniqsa yuqori darajada o‘rganib, boshqalarni ham bahramand etganlar. Ma’mun Akademiyasi allomalarining yaratgan asarlaridan taralayotgan nurafshonlik, yog‘du, ziyo asrlar o‘tsada istiqbolga xizmat qilayotganligi, mamlakat ravnaqi uchun dasturilamal bo‘lib qolishidan dalolat berib turibdi.

O‘tgan qisqa yillar ichida Xorazm Ma’mun Akademiyasida sezilarli, muayyan ishlar amalgalash oshirildi. Akademiya tarkibidagi “Arxeologiya, tarix va falsafa» bo‘limida «Xorazmda qadimgi va o‘rta asrlar o‘zbek davlatchiligi”, “O‘zbek xalqining etnik tarixida Xorazm vohasining o‘rni”, “Xorazm viloyati arxeologik yodgorliklarini tadqiq qilish” bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borildi. Xiva xonligiga asos solinishi, shu davrlardagi ijtimoiy, iqtisodiy vaziyatlar, Xiva xonligi davlatchiligidagi boshqaruva tizimi, davlat xujjatlari, shu jumladan chet ellarda Xiva xonligiga oid arxiv xujjatlari, ilmiy meros chuqur o‘rganilmoqda. “Biologiya muammolari” bo‘limida esa “Xorazm vohasi tuproq-iqlim sharoitida istiqbolli, serhosil, kasalliklarga va zararkunandalarga chidamli o‘simliklar navlarini o‘rganish va yaratish”, “Xorazm viloyati sharoitida asosiy oraliq, takroriy ekinlar parvarishi samarali texnologiyasini joriy qilish”, “Makkajo‘xori urug‘chiligi tizimini barpo qilish”, “Quyi Amudaryo mintaqasi tuproqlarining suv-tuz rejimini yaxshilaydigan kollektor- zahkash tizimlarining ish rejimini boshqarish usullarini ishlab chiqish” kabi muhim mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Akademiyada fanga nobyudjet mablag‘larni keng jalb qilish, xorijiy ilmiy markazlarning faoliyatidan keng foydalanish va xo‘jalik shartnomalari asosida bajariladigan ishlarga e’tibor kuchaytirilmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida olimlarimizning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida o‘quv dasturlari, qo‘llanmalar yaratishda oliy va o‘rta ta’lim tizimi bilan samarali hamkorlik qilinmoqda. Akademiya qoshida xo‘jalik hisobida faoliyat yurituvchi “Dorivor o‘simliklar bog‘i” va “Planta” ilmiy ishlab chiqarish markazi mavjud. 26 ilmiy xodim, shu jumladan 5 fan doktori, 9 fan nomzodlari muhim mavzularda ilmiy tadqiqot ishlari olib bormoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xorazm Ma’mun Akademiyasining 1000 yilligini nishonlash to‘g‘risida” qabul qilgan qarori butun eldoshlarimiz tomonidan iliq kutib olindi. Shu asosda alohida tadbirlar, rejalar belgilab olingan edi. Ularni amalga oshirish tezkorlik, izchillik, uyushqoqlik va eng asosiysi yuqori sifat, yuksak did bilan olib borildi. Urganch aeroportidan to Xivaga kelguncha katta magistral yo‘l ta’mirlandi. Xorazm Ma’mun Akademiyasi binosining ichkarisi va tashqarisi ham dunyo andozalari asosida to‘la ta’mirlandi. Yangi jihozlar, uskunalar, o‘quv qo‘llanmalari, ko‘rgazmali vositalar keltirildi. Eng zamonaviy kompyuterlar olimlar, tadqiqotchilar xizmatida. Respublikadagi va akademianing o‘zidagi nashriyotlarda yubileyga bag‘ishlangan kitoblar, bukletlar, plakatlar chop etildi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Urganch Davlat Doril- fununi, Urganch qurilish kasb-hunar kolleji, Xiva pedagogik kasb- hunar kolleji hamda YUNESKO xalqaro jamiyati bilan hamkorlikda qator ilmiy anjumanlar o‘tkazildi. Dunyoning 20 dan ortiq kutubxonalari va muzeylarida mavjud Akademiya hayotiga oid hujjatlardan nusxalar olindi.

Keng miqyosda obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, bunyodkorlik ishlari olib borildi. Akademiya binosi bilan yonma-yon allomalar hiyoboni, amfiteatr barpo etilmoqda. Bog‘, gulzorlar yaratildi. Favvoralar o‘rnatildi. Chiroyli pannolarda Respublikamizning mustaqillik yillaridagi yutuqlari, O‘zbekistonimizning jahonaro nufuzi namoyon bo‘lib turibdi.

2006-yilda insoniyat tarixidagi ilk ilm maskani – Xorazm Ma’mun Akademiyasining 1000 yilligi YuNESKO shafeligidagi keng nishonlandi.

Bugungi kunda mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoevning ilm-fanni rivojlantirish, olimlarning ilmiy faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlash, zarur shart-sharoitlar yaratish, fan yutuqlarini sohalar taraqqiyoti uchun amaliyotga tatbiq etish borasidagi yangi tashabbuslari barchamizni behad mamnun etmoqda. Xorazm Ma’mun akademiyasida ilmiy yo‘nalishlarni kengaytirish, tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ularni amaliyotga keng joriy qilish, moddiy-texnik ta’minotni yaxshilashga katta e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda bu ilm-fan dargohida 41 nafar ilmiy xodim, jumladan, 7 nafar nafar fan doktori, 19 nafar fan nomzodi faoliyat yuritmoqda. Ular Xorazm davlatchilik tarixi, ona yurtimizdan etishib chiqqan olimlarning jahon fani va madaniyati rivojiga qo‘sghan hissasi, Xorazm me’moriy

yodgorliklarini biologik, fizik va boshqa salbiy ta'sirlardan himoya qilish, hududdagi ekologik holatni yaxshilash, er-suv resurslaridan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish, voha sharoitiga mos qishloq xo'jaligi o'simliklarini iqlimlashtirish, sho'rlanish va cho'llanishning oldini olish kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borishmoqda. Ma'mun akademiyasi Xiva shahrida joylashganligi bu ilmiy muassasani sayyohlik yo'nalishlariga kiritish uchun imkon yaratadi.

Xususan, akademiyadagi genetik tahlil laboratoriyasiga AQShning O'zbekistonidagi elchixonasi FULLBRIGHT dasturi orqali amerikalik biotexnolog olimning tashrifi ko'zda tutilgan. Xorijlik etuk olimdan Urganch davlat universiteti biologiya yo'nalishi talabalarini 15 kun davomida biotexnologiyaning yutuqlari bo'yicha ma'ruza tinglaydilar. Xorazm Ma'mun akademiyasi genetik tahlil laboratoriyasida iqtidorli talabalar bilan amaliy tadqiqotlar olib borilishi rejashtirilgan.

Bugungi kunda akademiya olimlari nafaqat respublikamizning Fanlar akademiyasi ilmiy-tekshirish institutlari bilan, balki jahonning etakchi ilmiy markazlari va oliv ta'lim muassasalari, jumladan, Germaniya, Amerika Tabiat tarixi muzeyi, Florida va Kaliforniya universitetlari, AQSh qishloq xo'jaligi departamentiga qarashli "Termiltarga qarshi kurash" markazi, Germaniyaning Bonn, Xorvatiyaning Zagreb, Moskva davlat universitetlari va boshqa bir qator ilm dargohlari bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib bormoqdalar. Akademiya laboratoriyalarda fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni amalga oshirish orqali unga iqtidorli yoshlarmizni jalb qilish, ilmiy maktab yaratish, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan tarixiy me'moriy obidalarni yaxshi holatda saqlab qolish, yangi innovatsion ishlanmalarni yaratish va ishlab chiqarishga tatbiq qilish va shu kabi bir qator muhim vazifalarni belgilab olingan.

4.9. Mustaqil O'zbekistonda qomusiy allomalarimiz merosini qayta o'rghanish va targ'ib qilish.

Buyuk allomalarimizning ilmiy-ma'naviy asarlari insoniyatning ezgu ishlar va to'g'ri yo'lga yurishga boshlovchi ezgu chorlovdir deb hisoblash bejizga emas. Buyuk tariximizning nodir merosini o'qib-o'rghanishimiz, chuqur tadqiq etib, dunyo hamjamiyatiga keng targ'ib qilish, kelajak avlodlarga yetkazish, buyuk ajdodlarimizning ishini davom ettirish

maqsadida innovatsion metodlarga asoslangan va zamonaviy dunyo bilan chambarchas holda “Meros” mobil ilovasi yaratildi.

Uzoq o‘tmishdayoq o‘zbek xalqining ilg‘or mutafakkirlari olib borgan tadqiqotlar, ularning amalga oshirgan kashfiyotlari jahon, umuminsoniyat fani va madaniyatining oltin xazinasini tashkil etadi. Bilimlar xazinasini ochgan buyuk ajodolarimizning nomlari butun dunyoda mashhur.

Sharq Uyg‘onish davri ham ulug‘ allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlarni yetishtirdi. Bu davrda nafaqat ilm-fan, balki o‘z nomi bilan barcha sohalarda yangilanishlar, evrilishlar yuz berdi.

Shonli tariximizdagi har ikkala Uyg‘onish davrida ham eng muhim jihat – davlatning, davlat rahbarining yuksak e’tibori bo‘lib kelgan. Ma’mun akademiyasining barpo etilishida xorazmshoh Ma’muniylar sulolasining, Ikkinci Uyg‘onish davrining yuzaga kelishida esa buyuk bobomiz Amir Temurning va temuriylarning hissasi beqiyosdir. Har ikki sulola hukmdorlari o‘z davrining yorqin iste’dodlarini, olimlarini davlat qanoti ostiga to‘plagan va g‘amxo‘rlik qilib, kerakli shart-sharoitlarni yaratib bergani uchun tarixan qisqa davr ichida ona yurtimiz dunyo ilm-faniga poydevor bo‘lgulik buyuk kashfiyotlarni yaratdilar.

Birinchi Ma’rifiy Uyg‘onish davrida buyuk allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlar yetishib chiqqan. Aniq fanlar sohasida Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg‘oniy, Umar Hayyom, Mirzo Ulug‘bek, falsafa sohasida Abu Nasr Forobi, Ibn Rushd, Muhammad G‘azzoliy, Aziziddin Nasafiy, tibbiyot sohasida Abu Ali ibn Sino, tilshunoslikda Mahmud Zamaxshariy, she’riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Hofiz SHeroziy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, rassomchilikda Kamoliddin Behzod barakali ijod qilgan. ularning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga mislsiz hissa qo‘shtan. Ana shunday ilm ummoniga o‘z xissasini qo‘shtan allomalardan biri Maxmud az-Zamaxshariydir.

Abul-Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad az-Zamaxshariy hijriy 467 yil 27 rajab chorshanba kuni, milodiy 1075 yil 19 martda Xorazmnning Zamaxshar qishlog‘ida tavallud topgan. Mahmud az-Zamaxshariyning otasi uncha badavlat bo‘lmasa-da, o‘z davrining savodli, taqvodor, diyonatli kishisi bo‘lgan va Zamaxshardagi bir masjidda imomlik qilgan edi. U xulq-atvori yaxshi, shirinsuxan va oyatda muruvatli kishi bo‘lib, bu fazilatlari

bilan el orasida katta obru-e'tibor topgan. Bo'lg'usi olimning onasi xam taqvodor diyonatli ayol bo'lgani ma'lum. Az-Zamaxshariy dastlabki bilimlarni o'z otasi Umar ibn Ahmaddan oldi. Bir oyog'i cho'loq bo'lib qolgach, otasi tikuvchilik xunarini egallasin deb uni tikuvchi ustaga shogirdlikka bermokchi bo'ladi. Ammo, yoshligidan ilmga intilgan Mahmud otasidan o'zini madrasaga o'qishga yuborishni iltimos qiladi. O'g'lidagi ilmga bo'lgan zo'r ishtiyoyqni sezgan ota uning ra'yiga yurdi. Ana shu paytdan yosh tolibi ilm fanning turli sohalari bilan qiziqib, ularni noyob iste'dod va ajoyib ijтиҳод bila egallay boshlaydi. Shu bilan bir usha davrda ilm ahllari orasida muhim hisoblangan xattotlik san'ati siru asrorlarini xam mukammal o'zlashtiradi.

Arab tarixchisi Ibn Xallikonning (1211-1288 yy.) yozishicha: Talabalik yoshiga (12 yoshlarga) yetgach, o'z bilimini oshirish va har tomonlama mukammal bilimga ega bo'lish maqsadida u Buxoro shahriga yo'l oladi. Chunki, Buxoro o'sha paytda, mashhur olim Abu Mansur as-Saolibiyning iborasi bilan aytganda "Somoniylar davridan boshlab shonshuhrat makoni, saltanat ka'basi va zamonasining ilg'or kishilari jamlangan, yer yuzi adiblari to'plangan va o'z davrining fozil kishilari yig' ilgan joy edi".

Ikkinci Sharq Uyg'onish davri – XIV-XVI asrlardagi "Temuriylar Renessansi" davridir. Bunda Amir Temur bunyod etgan ulug' saltanatning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Sohibqiron bobomiz ilm-fan va madaniyat ravnaqiga keng imkoniyatlар yaratgan, din peshvolari, olimlar, san'atshunoslar, yozuvchilar, shoirlarga alohida g'amxo'rlik ko'rsatgan. Bu ma'naviy-ma'rifiy siyosat natijasida Sharq Uyg'onish davrining ikkinchi bosqichiga asos solingan.

Uchinchi Renessans uzoq istiqbol masalasi emas. U bugun, ushbu onda jamiyatimiz, uning har bir jabhasida muttasil yetilib kelayotgan real voqelikdir. Ishonchimiz komilki, yurtimizda boshlangan bu yangilanishlar izchil davom etadi va xalqimiz orzu qilgan buyuk davlat, farovon kelajak barpo etishda mustahkam poydevor bo'ladi.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda mamlakatimizda yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlarni chek chegarasi yo'q desam mubolag'a bo'lmaydi menimcha. Hozirda kun mavzusiga aylangan uchinchi renesans deb atalayotgan tarixiy rivojlanishning bir bosqichi hisoblanadi.

Bugungi imkoniyatlardan biz yoshlar unumli foydalanishimiz kerak. O'tmishda bobolarimiz ijod, ilim, kashfiyotlar qilishgan davrda internet, tayyor qo'llanmalar, kitoblar bo'limgan ular shunday og'ir sharoitda ham izlanishdan to'xtashmagan. Nega endi biz bugungi dorilamon kunlarni qandaydur bo'limg'ir narsalarga sarflashimiz kerak.

Mavzuni mustahkamlash yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Daholik nima ?
2. Daho deb kimlarni aytish mumkin ?
3. Bayt ul Hikmaga qaerda va kim tomonidan asos solindi ?
4. Bayt ul Hikmadagi qaysi allomalarni bilasiz va ularning asarlari ro'yxatini keltiring (jadvalda).
5. Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari faoliyatini baholang.
6. Al Xorazmiy faoliyati haqida tushuncha bering
7. Al Farobiy qaysi asari bilan mashhur ?
8. Al Beruniy qaysi sohalarda asarlar yozgan ?
9. Mahmud Qoshg'ariyning ilm fan rivojiga qo'shgan hissasi haqida gapirib bering.
10. Bugungi kunda Xorazm Ma'mun akademiyasi faoliyatini tahlil qiling.
11. Uchinchi Renessans atamasini kim kiritdi va u nimani bildiradi ?
12. Bugungi kunda buyuk mutafakkirlarimiz merosini o'rganish yo'lida qaysi ishlar amalga oshirilgan ?

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. – Т.:Ўзбекистон, 1996. 173 б.
2. Абу Али ибн Сино туғилган кунининг 1000 йиллигига, тўплам, Т., 1980.
3. Абу Райхон Беруний, Танланган асарлар, V том, II китоб, Қонуни Масъудий, Тошкент, Узбекистон ССР ФАН нашриёти, 1973.
4. Аҳмадов А. Аҳмад ал Фарғоний. // <https://ziyouz.uz/ilm-van/tarix/manaviyat-yulduzlari/ahmad-al-fargoniyy-797-865/>
5. Байджанов И.С., Давлетов С.Р. Муқаддас даргоҳ. Сўз боши. / Хоразм Маъмун академияси ўтмишда ва ҳозир. Хоразм Маъмун академияси ташкил топғанлигининг 1000 йиллигига боғишиланади. Урганч, 2016.

6. Бартольд В.В. Введение к изданию Худуд Ал-адам. Сочинение: т. VIII, М., 1973, стр. 504-545.
7. Болтаев М. Н., Абу Али ибн Сина великий мыслитель, учёный-энциклопедист средневекового Востока. Москва, 2002.
8. Ёдгоров Абдулло. Учинчи Ренессанс нима дегани? / «Газета.uz». 17 август 2021 й. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/08/17/renaissance/>
8. Жуманиёзов Авазяз. Маъмун академияси мамлакат тараққиётига хизмат қиласди // Adolat газетаси. №5. 2017 й. <https://adolatgzt.uz/society/4430>
9. Каримова С. Абу Али ибн Сино. <https://ziyouz.uz/ilm-vafan/tarix/allomalar/abu-ali-ibn-sino-980-1037/>
10. Мухаммед ал-Хорезми. Математические трактаты. Т., 1964.
11. Мухаммад ибн Мусо ал-Хоразмий. Танланган асарлар. Тошкент, «Фан», 1983.
12. Садуллаев А., Хоразм Маъмун академияси, Хива, 2000
13. Садуллаев А., Сотликов А., Хоразм Маъмун академиясининг тарихий иддизлари, Урганч, 2003.
14. Старр Ф. Утраченное Просвещение: золотой век Центральной Азии от арабского завоевания до времен Тамерлана / пер. С англ. - М. : Альпина Паблишер, 2017. - 574 с.
15. Старр Ф.С. Марказий Осиёни кайта кашф этиш. // Зарафшон газетасининг 19.09.2009 (654) сони
16. Тожиев Д. Абу Райхон Берунийнинг илмий хазинаси тарихига бир назар. // Oriental Art and Culture. Scientific-Vtthodical Journal. 2020.I (2). P.85-90.
17. Уватов У. Буюк юрт алломалари. Тошкент: Ўзбекистон, 2016.
18. Эркаев А. Учинчи Ренессанс – миллий ғоя сифатида // Халқ сўзи ONLINE. 8 сентябр 2020 й. <https://xs.uz/uzkr/post/uchinchirenessans-millij-goya-sifatida>
19. Юшкевич А.П. Арифметический трактат Мухаммеда ибн Муса ал-Хорезми. Труды института истории естествознания и техники, АН СССР, вып. 1, М., 1964.
20. Юшкевич А.П. История математики в среднее века. М., 1961.
21. Марказий Осиё мутафаккирлари. Т.: YANGI NASHR, 2011 // <https://shosh.uz/mutafakkirlar-abu-nasr-forobiy-873-950/>
22. Марказий Осиё мутафаккирлари. Т.: YANGI NASHR, 2011. // <https://shosh.uz/category/allomalar/>
23. https://uza.uz/uz/posts/sharq-allomalari-va-mutafakkirlari-hamisha-yuksak-etirof-etiladi_240538
24. <https://kun.uz/63800282>

5-mavzu: MARKAZIY OSIYODA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI: FAN VA TEXNIKA TARAQQIYOTI

Reja:

- 5.1. Amir Temur homiyligida Markaziy Osiyoda fan va madaniyatining yuksalishi**
- 5.2. Amir Temur va Temuriylar davrida falsafa, tarix, matematika, til va adabiyot, harbiy texnika va boshqa sohalarning taraqqiyoti**
- 5.3. Mirzo Ulug‘bek Akademiyasining ilmiy faoliyati**
- 5.4. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning fan taraqqiyotiga qo‘sghan hissalarini**

Tayanch iboralar: Temuriylar davri, Falsafa, Tarix, Matematika, Milliy uyg‘onish madaniyati, Harbiy texnika, Alisher Navoiy, Bobur, “Temur tuzuklari”, “Podsholarga qo‘llanma”, Jurjoniy, Taftazoniy, Ibn Arabshoh, Sheroz, Mutafakkir ajdodlarimiz, Ulug‘bek, “Ziji”, V.Vyatkin, Qozizoda Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Ikki til muhokamasi, H.Vamberi, Buyuk o‘zbek shoiri, “Hamsa”.

5.1. Amir Temur homiyligida Markaziy Osiyoda fan va madaniyatining yuksalishi

O‘zligini anglashga bel bog‘lagan har bir xalq va millat avvalo buyuk ajdodlari, siyosiy, harbiy arboblari, va ulug‘ allomalarining mamlakat, qolaversa, jahon tarixida tutgan o‘rni, xizmatlarini e’zozlashni o‘rniga qo‘yadi. Ana shunday kishilardan biri bu buyuk sohibqiron Amir Temur bo‘lib, uning zakovati, mardligi, jasorati, vatanparvarligi, topqirligi, ilm-fan homiysi ekanligi, temir irodaviy xususiyatlari biz, yosh avlodlar uchun ibrat, hayot maktabi, Vatanga xizmat qilish namunasi bo‘lib qolishi lozim. Ulug‘ bobomiz Amir Temur ko‘hna Shahrisabzga qarashli Xo‘jailg‘or qishlog‘ida 1336-yil 9-aprel kuni tug‘ilgan. Otasi Tarag‘ay Bahodir Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta nufuzga ega bo‘lgan barlos qavmidan chiqqan o‘rtahol beklardan bo‘lib, Chig‘atoy xonlaridan bo‘lgan Qozonxon (1338-1346) lashkarida xizmat qilardi. Onasi Takina begin esa Buxorolik mashhur faqih Toj ash-sharia (shariat toji) tahallusi bilan mashhur bo‘lgan Ubaydulla ibn Ma’sudning qizi edi.

Tarixchi olim Bo‘riboy Ahmedovning ta’kidlashicha, o‘sha zamonlarda xonzoda, shahzoda va bekzodalar yoshligidan maxsus ustozlar tomonidan ot chopish, harbiy ilmlarni o‘rganish, ov, saltanat tebratish, ya’ni amaldorlarni tanlash va o‘z o‘rniga qo‘yish, hukumat ishlarini yuritish, fuqarolarning arz-shikoyatlarini eshitish va hukm chiqarish kabi bilimlarni o‘rganganlar. Bundan “Suluk ul-mulk” (“Podsholarga qo‘llanma”), “Tuzuklar” va boshqa bizgacha etib kelgan asarlar guvohlik beradi. Demak, albatta, Temur ham yoshligidan shu ilmlarni o‘zlashtirib. Tarixiy kitoblarda Temur 7 yoshidan Qur’onni yod bilgan, 12 yoshida bolalarcha o‘yinlardan orlanadigan, 16-18 yoshida qilichbozlik, nayzabozlik va ov qilish san’atini mohir egallaganligi va 20 yoshida abjir chavandoz bo‘lib etishganligi ta’kidlanadi. Amir Temur o‘zining keyinchalik qo‘lga kiritgan barcha zafarlarini piru ustozlari Mulla Alibek, Shayx Shamsuddin Kulol, Shayx Zayniddin Abu Bakr Tayobodiy va Mir Sayyid Baraka nomlari bilan bog‘lagan edi.

Sohibqiron Amir Temur tarixan o‘sha murakkab vaziyatda, XIV asrning 60- yillarida siyosat maydoniga chiqadi, ya’ni o‘zaro feodal tarqoqliq urushlariga barham berish, mamlakatni mug‘ul istibdodidan ozod etish uchun markazlashgan kuchli davlat tuzish zaruratini birinchilardan bo‘lib anglab etadi. Temurning haq vaadolat yo‘lida boshlagan bunday qutlug‘ ishining shiori “Rosti-rusti” bo‘lib, uning ma’nosи “Haqguy bo‘lsang najot topasan” demakdir. Shu tariqa Movarounnahrni mug‘ul zulmidan ozod qilishni va markazlashgan kuchli davlat tuzishni o‘z oldiga bosh maqsad qilib qo‘ygan Temur o‘zining barcha faoliyatida shunga amal qilib yashadi.

Ilm-fan va madaniyat sultanat uchun qanchalik zarurligi his qilgan Amir Temur olim va fozil kishilarni o‘ziga do‘s tutgan, ularning izzat-hurmatini o‘rniga qo‘ygan, davlatni idora qilishda ularning kengash va maslahatlaridan foydalangan. Qariyb 150 yillik mo‘g‘ul istibdodi davrida ilm-fan tushkunlikka uchrab, faqat Amir Temur davriga kelib mamlakatda osoyishtalik o‘rnatildi, tarixiy-ma’rifiy urf-odatlar qayta tiklanib, Temur fan va madaniyatning ham jonkuyar homysi bo‘lib maydonga chiqdi. Temur o‘z saroyiga ilmu-fanning turli sohalari bo‘yicha iqtidorli olimlarni jalb etadi. Temurning o‘zida ham ilmga zo‘r ishtiyoq bo‘lganligi haqida hatto frantsuz muarixi Alfons de Lamarti shunday deb yozgan: “Amir Temur din, tibbiyot, tarix, huquq va astronomiya ilmining bilimdoni, ko‘p qo‘llanuvchi uch til – turkcha, forscha va arabchani g‘oyat mukammal bilgan, zarofat va qudrat ila

yozish mahoratini puxta egallagan bir hukmdor edi”. Shuningdek, Temurning ilmga qiziqishi haqida Sultoniya episkopining xotiralarida shunday deyiladi: “Temur, ayniqsa, tarixni, fiqh va harbiy ilmni yaxshi bilar, me’morchilik, falsafa, tabobat va yulduzshunoslikka qiziqar, she’riyat va musiqani yoqtirar, o‘zi ham she’rlar o‘qir edi. Temur o‘z ona tili - turko‘zbek tilidan tashqari, fors va arab tillarida bemalol so‘zlashgan”.

Amir Temurning ilm-fan va olimlarga qay darajada munosabatda bo‘lganligini uning “Tuzuklari”da keltirilgan ma’lumotlardan ham bilsa bo‘ladi. Masalan: “Saroy kengashlarida taxtning o‘ng tomonida ilm ahli ham sayyidlar, qozilar, ulug‘lar va ashroflar qatorida joy olganlar”. Amir Temur olim va fazil kishilarni o‘ziga do‘sit tutgan va buni o‘z avlodiga ham vasiyat qilib ketgan. Masalan, “Tuzuklarda” shunday deb yozilgan: “Baxtli farzandlarim va qudratli nabiralarimga ma’lum bo‘lsinkim, men sayyidlar, ulamo, mashoyix, oqilu donolar, muhaddislar, tarixshunoslarni sara va e’tiborli odamlar hisoblab, izzatu-hurmatlarini o‘rniga qo‘ydim”.

Tarixdan ma’lumki, Sharq mamlakatlarida davlat boshliqlari o‘z saroylarida iqtidorli olimu shoirlarni to‘plaganlar, davlat ahamiyatiga molik masalalar xususida ular bilan kengashib turganlar. Sohibqiron Temurning ham mazkur an’anaga rioya qilganligini farang muarixi L. Lyangle ham ta’kidlab shunday yozadi: “Temur olimlarga seriftifotli edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda sofkilligini ko‘rgan kishilarga ishonch bildirardi. Utarixchilar, faylasuflar, shuningdek, ilm-fan, idora va boshqa ishlarda bilimdon bo‘lgan barcha kishilar bilan suhbatlashish uchun ko‘pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi. Negaki, Temur bu sohalarga g‘amxo‘rlik qilishga asosiy e’tiborni berar edi”. Shu bilan birga Amir Temurning qaysi mamlakatni zabit etmasin, u erdan olimu fozillar, elga tanilgan san’at ahlini va turli tuman kasb-hunar egalarini Samarqandga olib kelganligi tarixdan ma’lum. Masalan, Ibn Arabshohning “Ajoyib ul-maqdur fi tarixi Taymur” (“Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”) nomli asarida ana shunday olimlardan ba’zilari haqida qisqa, lekin o‘ta qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Masalan, “O‘z sultanati kunlarida Temur Samarqandga faqih olimlardan mavlono Abdulmalikni hosil etgan edi – u “Hidoya” sohibi (Burhoniddin al-Marg‘inoniy)ning avlodidan bo‘lib, mudarrislik qilar, shatranj va narddan ta’lim berar hamda yagona bir holatda she’r va nazm etardi”. Shuningdek, “Temuring muhaqqiq (olim)lardan mavlono Sa’uddin at-Taftazoniyni – u 791-yilning muharram (1389- yil yanvar) oyida

Samarqandda vafot etdi va Sayyid Sharif Muhammad Jurjoniyni – u Sherozda vafot etdi , hamda muhaddis olimlardan Shayx Shamsuddin Muhammad ibn al-Jazoriy (Temur uni Rumdan olib kelgan) va boshqalarni Samarqandga olib keldi”. “Mana shular, – deb yozadi Ibn Arabshoh, – men tanib, zikriyu ismi xotirimga kelgan kishilardurlar. Ammo men bilmagan yoinki bilganu biroq zikriyu ismi xotirimga qolmagan kishilar son-sanoqsiz bo‘lib, hisob-kitobdan xorijdur. Xullasi kalom, Temur har bir foydali jonni yig‘ib, nimaiki bo‘lsa sarasini Samarqandga keltirdi. Natijada, Samarqandda har bir ajoyib fan ahli namoyandasidan va san’atlar g‘aroyib uslubidan, fazilati peshonasida nishona bo‘lib, o‘z tengqurlaridan ustun turgan o‘z sohasida alloma kishilar yig‘ilgan edi”.

5.2. Amir Temur va Temuriylar davrida falsafa, tarix, matematika, til va adabiyot, harbiy texnika va boshqa sohalarning taraqqiyoti

Amir Temur davrida Samarqandda ilm-fanning rivojlanishiga, ayniqsa, mashhur faylasuflardan Sa’duddin bin Umar at-Taftazoniy va Mir Sayyid Sharif al-Jurjoniy katta hissa qo‘shdilar. O‘z davrining ko‘zga ko‘ringan faylasufi, fiqhshunosi va qomusiy olimi bu - Sa’duddin bin Umar at-Taftazoniy (vafotini Fasixiy (Mujmal, 174 bet) 787 (1386) yil, Xondamir (Habib us-siyar, 88 bet) 797 (1394-1395) yil deb ko‘rsatsalarda, hozirgi adabiyotlarda Ibn Arabshoh yozganidek, 1389-yil deb keltiriladi) bo‘lib, u asli Xurosonning Niso shahri yaqinidagi Taftazon degan joyda tavallud topadi. Taftazoniy 16 yoshidan arab tilini, tafsir, fiqh, mantiq, islom aqidalarini mukammal o‘rganadi. Shuningdek boshqa ilmlarda ham zamonasining yagona kishisi bo‘lgan Taftazoniy Temur saroyida o‘tkazilib turiladigan ilmiy diskussiyalarning faol ishtirokchisi bo‘lgan qomusiy olim edi. U G‘ijduvon, Turkiston, Seraxs, Hirot va boshqa shaharlardagi madrasalarda mudarrislik qiladi. Umrining oxirgi yillarini Samarqandda Temur saroyida o‘tkazadi. Taftazoniy ilmning ko‘p sohalarida, mantiq, sarfu nahv, fiqh, kalom, insho, geometriya va boshqa ilmlarda ijod etganligini J.Yaxshilikov va Sh.Ahadovlar ham o‘zlarining “Temuriylar ma’naviyati” nomli asarida qayd etadilar. Masalan, uning “As-sa’diya”, “Tahzib ul-mantiq va al-kalom”, “Al-irshod al-xodi” kabi asarlaridan biri (mualliflar bu erda aynan qaysi asar ekanligiga aniqlik kiritmaganlar) chiziqlarning paralleliga bag‘ishlangan bo‘lib, Taftazoniy unda Evklidning mashhur

beshinchi aksiomasini sharhlashga harakat qiladi va ikki to‘g‘ri chiziqni uchinchi to‘g‘ri chiziq kesganda hosil bo‘ladigan burchagi unga qo‘snni bo‘lmanik ikki burchagining yig‘indisiga teng kelishi zarurligini isbotlab ko‘rsatadi. Shu jarayonda u o‘tkir va o‘tmas, qo‘snni va yoyiq burchaklarning boshqa bir qator xossalari ham ta’riflaydi hamda dalillaydi.

Sa’duddin Taftazoniy haqida akademik Botirxon Valixo‘jaev ham o‘z ilmiy tadqiqotlarida qo‘yidagilarni yozib qoldirgan. Masalam, “Sa’diddin Ma’sud ibn Umar al-Taftazoniy” (1322-1390) o‘z davrining qomusiy bilimli alloma mudarrislaridan bo‘lib, u sohibqiron Amir Temur takliflari bilan 1374-1375 melodiylar yilda Samarqandga kelib, Idigu Temur madrasasining mudarrisi sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Bu davr orasida ko‘pgina iqtidorli shogirdlari, jumladan, Muhammad ibn Ahmad al-Hizriy, Shoh Fathulloh Shervoniylarni etishtirdi. Sa’duddin Taftazoniy mudarrislik faoliyati bilan bir qatorda ilmiy tadqiqotlarni ham samarali tarzda davom ettirib, ko‘pgina mashhur asarlarni ham yozdiki, ular madrasalarda o‘qitilish bilan birga, qator sharhlarning yozilishiga ham asos bo‘lganlar. Ana shunday mashhur asarlaridan “Miftoh ul-ulum” (Ilmlar kaliti), “Al-muxtasar al-maoniy” (Maoniy ilmining muxtasar bayoni), “Al-mutavval”, “Sharh risola al-shamsiya”, “Sharh aqoid al-Nasafiya” eslatish mumkin”. Olimning ta’kidlashicha, Sa’diddin Taftazoniyning asarlari faqat Samarqand madrasalarida o‘qitilibgina qolmay, uzoq yillar davomida asosiy o‘quv qo‘llanma sifatida O‘rta Osiyoning va boshqa davlatlarning madrasalarida ham foydalanilgan.

Ali ibn Muhammad Sayyid Sharif Jurjoniy (1339-1413) mashhur faylasuf, mantiqshunos, astronom, she’rshunoslik va tilshunos olim bo‘lib, uning tug‘ilgan joyini, J.Yaxshilikov va Sh.Ahadovlar keltirgan ma’lumotga ko‘ra, Jurjon viloyatining Tog‘u qishlog‘i ko‘rsatilsa, Ibn Arabshoh asariga yozilgan izohda Esa uning Sherozda tug‘ilganligi va 1388-yilda Temur Sherozni zabit etganida Jurjoniyni Samarqandga olib kelganligi keltiriladi.

Yoshligidan ilm-fan sirlarini o‘rganishga qiziqqan Jurjoniy dastlab Hirotgaga, so‘ngra bu erda biroz bilim olgach, Turkiyaga boradi va taniqli faylasuf Muhammad Fanoriydan mantiq ilmidan saboq oladi. So‘ngra u Misrga safar qiladi. U erda falsafa va mantiq sohasidagi bilimini rivojlantiradi. Keyinchalik Jurjoniy Sherozga kelib, “Dorushshifo” madrasasida dars beradi. 1387-yilda yuqorida aytganimizdek Temur Sherozni zabit Etgach, Jurjoniyni boshqa olimu hunarmandlar qatori

Samarqandga olib keladi. Samarqandga kelgach, olim ilm-fan bilan shug‘ullanish bilan birga, Idigu Temur madrasasida mudarrislik qiladi. Uning “Sharh ul-mulaxxas”, “Usul ul-mantiqiya”, “Tarjimon al-Qur’on”, “Fan ul-muammo”, “Odob ul- munozara”, “Risolai vujudiya”, “Oynai gitinoma” va boshqa asarlari o‘sha davrda va, keyinroq yashagan boshqa tarixchilarning xabar berishicha, musulmon mamlakatlaridagi barcha madrasalarda talabalar tomonidan mutolaa qilib kelingan va ular uchun dastur vazifasini o‘tagan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, u Movaraunnahr va Xurosonda yashagan olimlar, xususan Arastu, Ibn Sino, Asiriddin Abxariy, Nasriddin Tusiy va boshqalarning mantiqqa bag‘ishlangan risolalariga sharhlar yozgan, ularning g‘oyalarini rivojlantirgan. U o‘zining falsafiy qarashlarida borliq, osmon sayyoralari, to‘rt unsur haqida so‘z yuritib, barcha narsa va hodisalar sababiy bog‘langanligi, ularni aql yordamida bilish mumkinligiga ishonadi. Uning “Astronomiyaga oid sharh” nomli asarida yulduzlar haqida qisqacha ma’lumot berilib, unda osmon jismlarining bo‘linishi haqida, harakatlanuvchi va harakatsiz yulduzlar haqida, murakkab va sodda yulduzlar haqidagi o‘z g‘oyalarini yozib qoldirgan.

Jurjoniy insonni tirik mavjudodlar orasida eng a’losi hisoblab, uning fikrlash qobiliyatiga katta baho beradi. Xondamir ma’lumotiga (Habib us-siyar) ko‘ra, ilmning turli sohalari bo‘yicha ilmiy munozaralarda faol qatnashgan Jurjoniy o‘zining o‘ta qiziqqonligi va o‘tkir aql-zakovati bilan ko‘pincha engib chiqqan. Bir necha yillar Ulug‘bekka ustozlik qilgan Jurjoniy, hatto uning Akademiyasining tuzilishiga ham katta hissa qo‘shgan. Shunday qilib, Idigu Temur madrasasida 18 yil samarali faoliyat ko‘rsatgan Sayyid Sharif Jurjoniy Temur vafotidan keyin Sherozga borib, u erda Temuriyzoda Iskandar mirzo (1409-1415) huzurida mavlono Natanziy, mavlono Haydar Xorazmiy kabi olimlar bilan birga ilm-fan bilan mashg‘ul bo‘ldi. 1413-yilda Sherozda vafot etdi.

Temur saroyida hadischi olimlardan shayx Shamsuddin Muhammad ibn al-Jazoiriy ham bo‘lib, u 1350-yilda Damashqda tug‘ilgan. Keyin Rumga kelgan. Temur Boyazidni yenggach uni Rumdan Samarqandga olib keladi. Ibn Arabshoh bergan ma’lumotga ko‘ra u Sherozda vafot etgan. Ikki ta’limot bilimdoni Shayx Shamsuddin Muhammad ibn al-Jazariy (1350-1449) Samarqandda samarali ijod qilib, Movarounnahrda ilm-fan taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shdi. Ulug‘ tafsirchi, hadischi va hofiz Xoja Muhammad

az-Zohid Buxoriy (1419 yilda Makkada vafot etgan) bo‘lib, u Qur’onning yuz jildlik tafsiri (sharh) ni tuzgan.

Amir Temur davrida o‘tgan yirik olimlardan yana biri xoja Muhammad Porso edi. U Naqshbandiya tariqatining ko‘zga ko‘ringan namoyandalarining hayot va karomatlari haqida, umuman tasavvufning nazariy va amaliy masalalariga bag‘ishlangan ko‘plab asarlar muallifidir. Uning “Risolayi qudsiya”, “Maqomati xoja Alouddin Attor”, “Fasl ul-xitob”, “Mahaq al-orifin”, “Tahqiqot” va boshqa asarlarida tasavvufning qat’iyat, ma’rifat, haqiqat va sohalari keng va bat afsil izohlanadi.

Amir Temurda katta taassurot qoldirgan olimlardan biri arab tarixchisi va mutaffakkiri Valiuddin Abdurahmon Ibn Xaldundir (1332-1406). Ibn Xaldun Tunisda tug‘iladi. Shimoliy Afrikada bir qancha davlatlarda yuqori lavozimlarda xizmat qilgan Ibn Xaldun 1382-yilda Qohiraga kelib mudarrislik qiladi, qozilik lavozimida ishlaydi.

Keyinchalik Shomda (Suriya) yashaydi. Amir Temur Damashqni zabit etganida olim yashirincha qochib ketmasdan Temur huzuriga boradi va u bilan uchrashadi. Ibn Arabshohning yozishicha, Amir Temur Ibn Xaldundan Mag‘rib podsholari tarixi, shaharlari va yerlari vasfini bayonlab berishni so‘raydi. Shunda Ibn Xaldun qalblarni titratuvchi fasohatli, chiroyli, balog‘atli, kishini maftun etib, aqlini oluvchi ajoyib bayoni bilan Temurni maftun qilib, lol qoldiradi. Ibn Xaldunning asosiy asarlari “Kitob ul-ibor” (Ibratli misollar kitobi) va “Devon ul-mubtado va-l-xabar fi ayyomi-l-arab va va-l-ajam va-l-berber va man o‘sarahum min zaviy sulton ul-akbar” (Muqaddima) nomli risolalari o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy va tarixiy masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda kishilar turmishida axloq, mehnat va jug‘rofiy muhitning roli haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek Amir Temur saroyida o‘z davrining turkcha, forscha, arabchada “malik ul-kalomi” bo‘lgan mashhur kotib Ahmad ibn Shams ul-Aimma, ya’ni mavlono Shamsuddin Munshiy, mohir hattot Xoji Bandgir Tabriziy, mashhur tabiblardan Husomiddin Ibrohimshoh Kirmoniy va mavlono Jamoluddin, musiqa ilmida ustoz bo‘lgan Abdulqodir al-Marog‘iy va uning o‘g‘li Safiuddin, kuyovi Nasriyn, Qutb al-Mousuliy, Ardasher al-Changi va boshqalar (bu yerda Ibn Arabshoh ko‘plab shatranjchilar, sangtaroshlar, misgarlar, naqqoshlar va bog‘bonlarni misol keltiradi) faoliyat yuritib ular o‘z sohasining mohir kishilari edi.

Shunday qilib, Temur davrida Samarqandda, nainki Samarqandda, balkim butun Turonzamin o‘lkasida fanning barcha sohalari gurkirab o‘sadi, tabiiy va gumanitar fanlar sohasida bir qator buyuk olimlar etishib chiqadi, ular jahon fani va madaniyatiga munosib hissa qo‘shadilar. Ayniqsa, bu davrda, atoqli tarixshunos va manbashunos Bo‘riboy Ahmedov ta’kidlaganidek, tarix fani taraqqiy etib, tarix ilmi bobida sohibqiron Amir Temurning harbiy zafarli yurishlarini o‘zining “Zafarnoma” asarida yoritgan Sharafiddin Ali Yazdiy, Temur xizmatida munshiylilik qilib, keyinchalik jug‘rofiy va tarixnavis olim sifatida tanilgan “Zubdat ut-tavorix” (Tarixlar qaymog‘i) asarining muallifi Hofizu Abro‘, Temur devonining arboblaridan biri, “Tarixnama” asarining muallifi Tojiddin as-Salmoniy, Temur hayot paytida (1405-yilgacha) unga bag‘ishlab “Zafarnoma” asarini yozib tugatgan Nizomiddin Shomiy, Temurning tarjimoni, Shom (Suriya) olimlari bilan suhbatda tarjimonlik qilgan mavlono Abdujabbor, Temurning Hindiston yurishida qatnashgan, 1399-1403 yillar orasida Temur bo‘yrug‘iga binoan ushbu yurish haqida “Kundalik” yozgan G‘iyosiddin Ali Yazdiy va boshqalar tarixnavislik sohasida barakali ijod qiladilar.

5.3. Mirzo Ulug‘bek Akademiyasining ilmiy faoliyati

Buyuk davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek sultanat egasi bo‘lish bilan birga ulug‘ olim, osmon ilmi- astronomiya (falakiyotshunoslik)ni mukammal egallab olgan, rasadxona (observatoriya) qurdirgan, shu rasadxonasida olib borgan kuzatishlari natijasida astronomik jadval-“Ziji Ko‘ragoniy” ni tuzgan va har tomonlama barkamol inson bo‘lgan.

O‘rta Osiyoda, jumladan O‘zbekistonda etishib chiqqan buyuk allomalar dunyo tsivilizatsiyasiga, ilm-fan taraqqiyotiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shishgan. Dunyo tarixida va islom madaniyatida buyuk ajdodlarimiz Forobiy, Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Navoiy kabi mutafakkirlar bilan bir qatorda taniqli davlat arbobi, jahon astronomiya fanining asoschilaidan biri, mashhur olim Mirzo Ulug‘bek ham munosib o‘rin egallaydi.

Muhammad Tarag‘ay – Mirzo Ulug‘bek (1394-1449) – shuhrati jahonga taralgan temuriyzoda olim, ma’rifatparvar podshoh.

2019-yilda buyuk olim va davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek (1394-1449) tavalludining 625 yilligi, vafotining 570 nishonlandi. Mutafakkir ajdodimiz

qisqa umr ko‘rgan bo‘lsa-da, hayoti davomida ulkan, jahonshumul yutuqlarga erishdiki, uning nomi bugungi kunda ham dunyo ilm-fan ahli tomonidan chuqur hurmat-ehtirom bilan tilga olinmoqda. Mirzo Ulug‘bekning hayoti, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, ilmiy faoliyati, astronomiyaga doir mashhur asari – «Ulug‘bek Ziji» (Ulug‘bekning trigonometrik va astronomik jadvallari»), uning Samarqand shahri yaqinida qurdirgan rasadxonasi, Samarqand akademiyasi va akademiyada faoliyat ko‘rsatgan olimlar, Ulug‘bekning nihoyatda boy kutubxonasi, shogirdlari, Ulug‘bek va uning shogirdlarining astronomiya va matematika fanlari rivojiga qo‘shtgan hissasi – bularning barchasi Ulug‘bekning buyukligidan dalolat beradi.

Ulug‘bekning davlat arbobi sifatidagi faoliyati birmuncha fojeaviydir. U yashagan zamona zayli bilan hokimiyat uchun sulolaviy kurash hamda o‘zini ilmu fanga bag‘ishlagani tufayli bid’at va xurofot qurboni bo‘ldi. Shunday bo‘lsa-da, Sohibqiron Amir Temurning nabirasi Ulug‘bek davlat boshqaruvi jilovini o‘z qo‘liga 17 yoshda olganligi, uning davlatni idora qilish bobida ham katta iroda va qobiliyat sohibi, tug‘ma hukmdor bo‘lganligidan dalolat beradi. Chunki qobiliyatsiz hukmdor hech qachon Ulug‘bek kabi davlatni 40 yil davomida boshqara olmaydi.

Ulug‘bek hayotida eng katta o‘rin tutgan, Evropada “Samarqand akademiyasi” deb shuhrat topgan, Ulug‘bek va u homiylik qilgan olimlarning ilmiy kashfiyotlari, laboratoriyasi va oliy mahkamasi hisoblangan, Samarqandda bunyod etilgan mashhur binolardan biri Ulug‘bek rasadxonasıdır. U 1424-1429 yillari hozirgi Cho‘ponota tepaligida, Obirahmat arig‘i bo‘yiga yaqin joyda quriladi. Rasadxona uch qavatli, g‘oyat hashamdar va pishiq g‘ishtdan ishlangan ulkan bino bo‘lgan. Mutaxasislarning fikricha, bino balandiligi 30,4 metr, aylanasini diametri esa 46,4 metrga teng. Binoning asosiy qismini radiusi 40,2 metrli suds (sekstant) deb atalgan ulkan kuzatish asbobi tashkil qilgan. Sudsning saqlanib qolgan qismi er ostida joylashgan bo‘lib, qolgan qismi yer sathidan 30 mertcha baland bo‘lgan. Rasadxona binosi kattaligi, qurilish uslubining originalligi va uskunalanishi jihatidan Sharq va Yevropa mamlakatlaridagi barcha boshqa astronomik inshootlardan ustun turgan. Suds astronomiyaning asosiy doimiyliklari – muaddil (ekvator) va falak al-burj (ekliptika) tekisliklari orasidagi burchakni o‘lchash, yilik protsessiya doimiysini va boshqa fundamental astronomiy doimiyliklarni aniqlashga imkon bergen.

Rasadxonada sayyoralar, oy harakati tekshirilgan. Kichik o'lchamli asboblar: amilyar sfera, 2,4 va 7 xalqadan iborat o'lhash asboblari, quyosh va yulduz soatlari, usturlob (astrolyabiya) va boshqalar bo'lgan.

Rasadxona bitgach, Ulug'bek va uning homiyligidagi taniqli va mashhur olimlar fan ishlarini qizitib yuboradilar. Shogirdlar ilmiy kuzatishlarda, jadval tuzishda hisob-kitob ishlari bilan mashg'ul bo'ladilar. Ulug'bek boshchiligidagi ushbu "akademiya" olimlari o'sha davr mezoni bilan olganda, astronomik kuzatishlarda ajoyib muvaffaqiyatlarga erishganlar. Jumladan, ekliptikaning og'maligini, beshta sayyoraning – Zuhra (Venera), Zuhal (Saturn), Mirrih (Mars), Mushtariy (Yupiter) va Utorud (Merkuriy)ning yillik harakatini, yulduz yilining uzoqligini, 1018 yulduzni o'z ichiga olgan jadval va, nihoyat, aholi yashaydigan punktlardan 683 tasining geografik koordinatalarini tuzganlar. 1437-yili ko'p yillik kuzatish va ilmiy mulohazalardan so'ng Ulug'bek va uning shogirdlari "Samarqand akademiyasi"da ishlangan buyuk asar – "Ziji jadidi Ko'ragoniy" ("Ulug'bek Ko'ragoniyning yangi astronomik jadval")ni yozib tugatdilar. Bu asar keyinchalik Sharq klassik astronomiyasining nazariy va amaliy masalalarini o'zida mujassamlashtirgan, uni yangi dalillar bilan boyitgan ulkan kashfiyat sifatida butun dunyoga tanildi.

Mirzo Ulug'bek zamonida Muvarounnahrda dunyoviy fanlardan tashqari tarix, adabiyot va san'at, ayniqsa, tasviriy san'at taraqqiy etgandi. Ulug'bekning ukasi Boysunqur bilan o'zaro yozishmalarida ham ilmiy adabiyot mavzularida mubohasa borgani ma'lum. Ulug'bek she'riyatda ozarbayjon shoiri buyuk Nizomiy Ganjaviy uslubi va maktabini ustun deb isbotlamoqchi bo'lsa, Mirzo Boysunqur genial shoir va mutafakkir Amir Xusrav Dehlaviy ijodiyotining haqiqiy mahsuli sifatida bahs qilardi. Ulug'bek o'z ona tili (o'sha davrda chig'atoy-turkiy tili)dan tashqari arab va fors tillarini mukammal bilardi. Muhammad Haydar o'zining mashhur "Tarixi Rashidiy" asarida Mirzo Ulug'bek "tarixnavis donishmand" edi va "To'rt ulus" tarixini ham yozib qoldirgan edi"- deb yozadi. Bu asar Ulug'bekning "Tarixi arba' ulus" kitobi bo'lib, unda bir vaqtlar Chingizzon bosib olgan mamlakatlarning XIII-asr – XIV-asrning birinchi yarmidagi siyosiy hayoti aks ettirilgan edi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, buyuk olim va jamoat arbobi Mirzo Ulug'bek davrida Samarqandda faqat O'rta Osiyodagina emas, balki Sharqda ma'lumu mashhur byuo'lgan sozandalar, bastakorlar, xonandalar va

raqqosalar ijod etardilar. Ulug‘bekning o‘zi ana shu iste’dod egalarining birinchi muxlisi va homysi ham edi. Tarixchi G‘iyosiddin ali kundaliklarining dalolat berishicha, Samarqandga kelgan chet ellik elchilar ham saroy qabul marosimlarida qatnashib, bu erda musiqa tinglar va tasviriy san’at asarlarini tomosha qilardilar.

Buyuk Alisher Navoiyning ta’rifiga ko‘ra, Ulug‘bek ajoyib shoir ham bo‘lgan. “Tuxfatu surur” kitobi esa uning buyuk musiqa bilimdoni ekanligidan dalolatdir. “Muhit attafviq” kibtobida Ulug‘bekning “Bilujiy” “Shodiyona” (bu asar bizgacha etib kelgan), “Axloqiy”, “tabriziy”, “Usuli ravon”, “Usuli bahriy” singari katta musiqa asarlarini ijod etganligi ko‘rsatilgan. Ulug‘bek homiyligida Samarqandda Darvesh Ahmad Samarqandiy, Sulton Ahmad Noiy, Hosimi Abuvafo, Muhammad Ali G‘aribiy, Yusuf Burxon Naqqorachi (Navoiyning amakisi), Mavlono Sohib Balxiy, Abul baraka va boshqa san’atkorlar ijod bilan band bo‘lganlar. Shuningdek, Ulug‘bek madrasasining ko‘zga ko‘ringan mudarrislari - qomusiy olimlar Mavlono Muhammad Havofiy, Said Imomiddin, mashhur tib olimi Hoja Burhoniddin Nafis, yirik adabiyotshunos va tilshunos olim Hoja Fazlulloh hamda Abulqosim Samarqandiy zamonasining peshqadam olimlari sifatida dong taratdilar.

Rasadxona xodimlar, jumladan Ulug‘bekning o‘zi ham, madrasada dars berishar edi. Madrasada diniy – Qur’oni Karim, Hadis va tafsirdan tashqari, tabiiy fanlar – riyoziyot, xandasa, ilmiy hay’at, ya’ni astronomiya, tibbiyat, ya’ni meditsina, surat al-ard, ya’ni geografiya kabilar o‘qitilar edi. Ulug‘bek observatoriyasini asta-sekin vayron bo‘lib, XVII-asr oxirida g‘ishtlari aholi tomonidan tashib ketildi.

V. L. Vyatkining tadqiqotlari natijasida 1908 va 1914-yillarda Ulug‘bek observatoriyasining qoldiqlari topildi va qazish ishlari olib borildi. Tadqiqotlar M. E. Masson tomonidan 1941-yilda, A.A.Pulyavin tomonidan 1943-yilda va V.A.Shishkin tomonidan 1948-yilda davom ettiriladi.

Evropalik astronomlarga yulduzlar katalogi 1648-yili Oksfordda chop qilinganidan keyin ma’lum bo‘ldi. Asarni chop etishga Oksford universiteti professori Jon Grivs (1602-1652) tayerladi va unga sharh ham ezdi. Bundan 17 yil o‘tgach, Oksforddagι Bodleyan kutubxonasi dagi olim – saqllovchisi Tomas Xayd (1636-1703) asarni fors va lotin tillarida tayyorlab, chop ettirdi. Yan Geveliy tomonidan nashr qilingan “Yulduzli osmon katalogi”da turli

davrlarda dunening turli mamlakatlarida yashab ijod qilgan buyuk astronomlarning ramziy yig‘ilishini tasvirlovchi gravyura joylashtirilgan edi. Ular astronomiya ilohasi Uraniyadan ikki tomondan joylashib o‘tirishibdi. Ular orasida Ulug‘bek ham tasvirlangan edi.

Ulug‘bek yulduzli katalogining bat afsil tahlili Buyuk Britaniya kutubxonalarida saqlangan 8 ta qo‘lyozmadagi ma’lumotlar asosida E.B.Nabl tomonidan tayyorlandi va 1917 yilda AQShda chop ettirildi.

5.4. Ulug‘bek akademiyasida xizmat qilgan mashhur olimlar

Alouddin Abulqosim Ali ibn Muhammad al-Qushchi Samarqandiy (tav. 1402 (1403), Samarqand, vaf. 1474, Istanbul) - astronomiya sohasining mashhur allomasi, matematik. Mirzo Ulug‘bek, al Koshiy va Qozizoda ar Rumiylarning shogirdi. Avvalida Mirzo Ulug‘bek madrasayi oliyasida ta’lim olib, keyinchalik uning mudarrisi va rasadxonaning etakchi ilmiy xodimi sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Ali Qushchi madrasada astronomiyaga oid asarlar ham yozdi, Mirzo Ulug‘bek “Ziji jadidi Kuragoniy”sining maydonga kelishiga, uni nihoyasiga etkazishga o‘zining munosib ulushini qo‘shdi. Rumiyning vafotidan so‘ng, Samarqanddagi observatoriyyaga boshchilik qildi. Ulug‘bek vafotidan keyin Hirotg‘a ketdi. Navoiy tavsiyasi bilan Sulton Husayn Boyqarodan yo‘l yorlig‘ini olib, Samarqand observatoriyasidagi qo‘lezmalarни olib, Istanbulga ketdi. Bu erda o‘z faoliyatini sulton Mehmed II saroyida davom ettirib, turk olimlarini samarqandlik kashfietlar bilan tanishtirdi. Ayya Sofiya masjidi qoshida madrasa tashkil qildi, turk olimlarini etishtirdi. Ali Qushchi “Arifmetika fani haqida traktat”, “Astronomiya fani haqida traktat” asarlarini yozgan. Bu asarlar XVI-XVII asrlarda O‘rta va Yaqin sharq mamlakatlarida matematikani o‘qitishda katta rol o‘ynagan. Ulug‘bekning “Ziji” va al Koshiyning “Osmon narvoni” asarlariga sharhlarni, tilshunoslikka oid qator asarlarni, “Xitoy haqidagi kitob”ni yozdi. Ali Qushchi 1474-yilda Istanbulda vafot etdi.

Nuriddin Abdurahmon Jomiy (1414-1492)-mashhur shoir, mutafakkir va naqshbandiyaning murshidi. 1436 yilda Mirzo Ulug‘bekning Samarqanddagi madrasasiga o‘qishga kelib, Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug‘bek, xoja Fazlulloh Abu Laysiylardan saboq oldi. So‘ng Abdurahmon Jomiy 1452 yilgacha madrasayi oliyaning mudarrisi sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Abdurahmon Jomiy madrasada arab sarf va nahvi hamda she’riyat

ilmidan dars o‘tgan. 1492 yilda «Favoid-i Ziyoiya» yoki “Sharhi mullo” nomli asarini yozgan, bu asar keyingi asrlarda madrasada qo‘llanadigan darslik kitoblaridan biri bo‘lib qolgan edi.

Abdurahmon Jomiy yana “Risola-i kabir dar muammo” (Muammo haqida katta risola) asarini yozgan (1452).

Mirzo Ulug‘bek hayot bo‘lgan vaqtida madrasa-yi olivada ta’lim olib, keyinchalik mashhur olim, shoir va adib bo‘lib etishganlar juda ko‘p. Shulardan biri Mavlono Qozizoda-yi Rumiyning o‘g‘li Hasan Chalabiy bo‘lsa, ikkinchisi mavlono Muiniddin al-Koshiyning o‘g‘li Mansur al-Koshiydir. Mavlono Mansur al-Koshiy mashhur faqeh va astronomiya sohasining donishmandi Nizomiddin al-Birjandiyning ustozidir.

Giyosiddin Jamshid ibn Ma’sud al Koshiy (al-Koshoniy) (1380 y., Koshon (Eron) – 1429 (eki 1430) y., Samarqand - mashhur alloma, muhandislar sultonı. Avval Hirotda yashab faoliyat ko‘rsatdi. 1417-yilda Mirzo Ulug‘bek taklifi bilan Samarqandga kelib, umrining oxirigacha shu erda faoliyat ko‘rsatdi. Mirzo Ulug‘bek madrasasida mudarrislik ham qildi. Allomaning asarlari astronomiya, matematika masalalariga bag‘ishlagan. Ular darslik sifatida madrasada, qo‘llanma sifatida rasadxona ilmiy xodimlari tomonidan foydalanilgan. Samarqand observatoriyasiga rahbarlik qildi, unli kasrlar nazariyasining dastlabki tizimli bayonini chop ettirdi. Al-Koshiy tomonidan tuzilgan “Hoqon Ziji” (1414) Nosiriddin at-Tusiyning “Elxon Ziji”ning qayta ishlanmasi hisoblanadi. “Osmonlar narvoni” (1407) asarida al-Koshiy Oy va Quyoshgacha masofalarni, ularning hajmini, sayeralargacha va harakatsiz yulduzlar doirasigacha masofalarni muhokama qiladi. “Kuzatish asboblarini tushuntirish” (1416) asarida kuzatish astronomiyasida qo‘llaniladigan asboblar tavsiflanadi. “Bog‘lar lazzati” asarida o‘zi yaratgan uskunani ta’riflaydi, bu uskuna erdamida yoritg‘ichlar kengligi va uzunligini, ularning Ergacha masofasini va boshqalarni aniqlash mumkinligini aytadi. Shuningdek, “Astronomiya haqida traktat”, “Merkuriy haqidagi takliflarni echish to‘g‘risidagi traktat” asarlarini ezdi. “Arifmetika kaliti” nomli asarida u hisoblashning oltmishtali tizimini ta’riflaydi. Qadimgi yunonlarning astronomik traktatlarda oltmishtali tizimda faqat sonning kasrli qismi qayd qilingan, butun qismi esa an‘anaviy harfli ionik tizimda yozilgan. Al-Koshiy butun qismini ham oltmishtalik tizimda ezishni taklif qildi. Bu bilan u qadimgi bobilliklar qo‘llagan yozuv shakliga qaytgan, biroq buni o‘zi ham bilmagan. O‘sha traktatida al-Koshiy unli kasrlarni kiritadi, ular bilan

amallar bajarishga oid asosiy qoidalarni chiqaradi, oltmishtali kasrlarni unli kasrlarga va aksincha o‘tkazish usullarini keltiradi. “Doira haqidagi traktat” nomli asarida Arximed retsepti bo‘yicha doira uzunligini hisoblab chiqadi. Bu unga 2π uchun 6,2831853071795865 yaqinlashuvini beradi. Bu qiymat barcha 16ta unli belgilarda to‘g‘ribo‘lib, 1596 yilgacha saqlanib qolgan rekord edi. 1596 yilda esa Lyudolf van Tseylen π sonini 35ta unli belgilar bilan hisobladi.

Qozizoda ar-Rumiya va boshqa mualliflar al-Koshiyning “Xorda va sinus haqidagi kitob” nomli asarini ham tilga olishgan. Unda al-Koshiy burchak trisektsiyasi tenglamasini echishning iteratsion usulini taklif qilgan va natijasi o‘laroq sin 1° q 0,017452406437283571 ekanligini hisoblab chiqqanki, bu erda barcha 19 raqam to‘g‘riliqi qayd qilinadi.

Salohiddin Muso ibn Muhammad ibn Mahmud Kozizoda ar-Rumiya (Bursa, Turkiya, 1364 – Samarqanl, 1437) – Temuriylar davri o‘rtaosiyolik matematik va astronom. Samarqandda, Amir Temur saroyidagi mavlono Ahmad degan astronomning shogirdi bo‘lgan. Ulug‘bekning ustozи bo‘lib, Samarqand obsurvatoriyasida ishlagan va astronomik jadvallarning mualliflaridan biri hisoblanadi. Uzoq vaqt davomida buyuk astronomni Shohi Zinda majmuasidagi ikki gumbazli maqbarasida dafn etilgan deb hisoblashgandi, biroq, 1977-yilda bu maqbara ochilganida (me’mor P.Sh.Zohidov, arxeolog N.B.Nemtseva, atnropolog T.Xodjanova tarkibidagi kompleks guruh), unda erkak skeleti yo‘qligi aniqlandi. Natijada Rumiyning dafn etilgan joyi hanuzgacha noma’lum hisoblanadi.

Ar-Rumiya qalamiga Evklidning “Boshlanish” (“Ibtido”) asarining dastlabki 7ta kitobining tarjimasi, Shamsuddin as-Samarqandiyning “Asosnomaga oid takliflar” asariga sharhlar, “Arifmetika haqida traktat”, “Bir gradus sinusini aniqlash haqida traktat”, “Qiblaning azimuti haqida traktat”, “Astronomiya fani haqida traktat”, “Chag‘miniyning asariga sharhlar, Qazviniyning “Manba falsafasi” asariga sharh kabi ishlar mansub.

5.5. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning fan taraqqiyotiga qo‘sghan hissaları

O‘rta asrlarda Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk davlat arboblari, buyuk allomalar sifatida tanildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur- Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonning Aksi qa`lasida, Farg‘ona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga keladi. Bobirning ona tomonidan bobosi Yunisxon mashhur shoir va davlat arbobi. Shoirning onasi Qutlug‘ Nigorxonim, u o‘qimishli va madaniyatli ayol bo‘lib, o‘g‘lining tarbiyasiga katta e`tibor bergen. Boburning otasi Umarshayx Mirzo esa Farg‘ona viloyatining hokimi bo‘lgan, u Amur Temurning uchunchi farzandi Mironshohning nabirasi Sulton Abusaid Mirzoning o‘g‘li edi.

Bobur o‘n ikki yoshda ekanligida otasi Umarshayx fojiali halok bo‘lgan. Shunda keyin Bobur otasi o‘rniga Farg‘ona viloyatiga hokim bo‘ladi. Shu vaqt dan e`tiboran Boburning davlat arbobi va sarkarda sifatidagi mustaqil faoliyati boshlanadi. Bu davrda Markaziy Osiyo va Xurosonda turli hokimlar, aka-ukalar, tog‘a-jiyanlar, amakivachchalar o‘rtasida hokimiyat — ulug‘ bobolari Amir Temur tuzgan yirik davlatga egalik qilish uchun kurash nihoyat keskinlashgan davr edi.

U Mavarounnahrda ulug‘ bobosi sohibqiron Amir Temur sultanati kabi markazlashgan qudratli davlat barpo qilish rejasini tuzadi, shu maqsadda Samarcand tomon yurish boshlaydi va 1497-yil kuzida shaharni qo‘lga kiritadi. Ammo, uzoq muddatli qamal oqibatida shahar iqtisoda izdan chiqqan, hatto emish topish ham mushkul bo‘lganligidan, Samarcandni tashlab ketadi. Bu orada yosh hukumdorning raqiblari, uning Samarcandda ekanligidan foydalanib, Andijonni o‘z ixtiyorlariga ilgan edilar. Shu bois Bobur to‘g‘alari huzuriga-Toshkentga qarab yo‘l oladi. Keyinchalik bir necha urunishlardan keyin 1498-yil yozida Andijonni qaytarib olishga erishadi. 1500-yilning kuzida Bobur Samarcandni ikkinch bor egallaydi. Ammo u erda bu safar ham mustahkam o‘rnashib qola olmaydi- katta qo‘sish bilan kelgan Shayboniyxon tayziqi ostida shaharni tark etishga majbur bo‘ladi. 1504-yili Shayboniyxon Andijonni ham qo‘lga kiritgandan so‘ng, Bobur janubga qarab yo‘l oldi va Kobul ulusida o‘z hokimiyatini o‘rnatdi. So‘ng o‘z mavqeini yanada mustahkamlash maqsadida, 1519-1525-yillar davomida Hindistonni qo‘lga kiritish uchun bir necha bor harbiy yurish uyushtirdi. Banihoyat 1526-yil aprel oyida Panipatda Hindiston sultonı Ibrohim Lo‘di bilan va 1527-yili mart oyida Chitora hokimi Rano Sango bilan bo‘lgan janglarda Boburning qo‘li baland keldi. Tarixiy ma’lumotlarning bayon qilishicha, Boburning Hindistonga yurishida Dehli hukmdori Ibrohim Sulton siyosatidan norozi bo‘lgan Panjob hokimlari ham

Boburni qo'lllaganlar va Sikri jangidagi bu g'alaba Boburga Hindistonda o'z hukmronligini uzil-kesil o'rnatish va Boburiylar sulolasini barpo etish imkoniyatini berdi.

Bu sulola Hindistonda 300 yilga yaqin hukmronlik qilib, mamlakat tarixida katta iz qoldirdi. Boburiylar mamlakatda qabilalar va dinlar o'rtasidagi nizolarga chek qo'yib, ilm-fanni, madaniyatni rivojlantirishga, qurilish va obodonlashtirih ishlariga katta e'tibor berishdi.

Bizga ma'lumki Bobur o'z ijodiy faoliyatini ruboiy va g'azallar yozishdan boshlagan edi. Umrining oxirida esa sohibi devon adib sifatida shuhrat qozondi. Bobur va uning hukmdor avlodlari huzurida o'sha davrning ilg'or va zehni o'tkir olimlari, shoirlari, musiqashunoslari va davlat arboblarini mujassam etgan mukammal bir ma'naviy-ruhiy muhit vujudga keldi. Boburiylar davlatidagi madaniy muhitning Hindiston uchun ahamiyati haqida Javaharla'l Neru shunday yozgan edi,- Bobur Hindistonga kelgandan keyin katga siljishlar yuz berdi va yangi rag'batlantirishlar hayotga, san'atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi. Bobur Hindistonda katga hajmdagi davlat ishlari bilan bir qatorda o'zining adabiy-badiiy faoliyatini ham davom ettirdi va yuqorida zikr etilgan asarlarini yaratdi.

Boburning butun jahon ommasiga mashhur bo'lgan shoh asari "Boburnoma"dir. Unda qomusiy mazmundagi bu tarixiy-voqeiy va ilmiybadiiy asarda adib XVI asrda Movarounnahr, Afg'oniston va Hindistonda yuz bergan muhim ijtimoiy-siyosiy voqealar va ko'plab tarixiy shaxslar faoliyatini haqqoniy bayon etgan. Mazkur mamlakatlarda yashovchi xalqlar va qabilalarning tarixi, urf-odatlari, kasb-u hunar, shuningdek, shahar va qishloqlari tabiatи, yer osti boyliklari, hayvonot va nabotot olami to'g'risida juda qimmatli va ishonchli ma'lumotlar bergan. Asar asosan uch qismidan iborat bo'lib, uning birinchi qismi -XV-asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro'y bergan voqealarni; ikkinchi qismi — XV-asrning oxiri va XVI-asrning birinchi yarmida Kobul ulusi, ya'ni Afg'onistonda ro'y bergan voqealarni; uchinchi qismi - XVI-asrning birinchi choragidagi Shimoliy Hindiston xalqlari tarixiga bag'ishlangan. «Boburnoma»da o'sha davrning siyosiy voqealarini mukammal bayon qilinar ekan, o'z yurti Farg'ona viloyatining siyosiy-iqtisodiy ahvoli, uning poytaxti Andijon shahri, Markaziy Osiyoning yirik shaharlari: Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, O'sh, Urganch, O'ratepa, Termiz va boshqa shaharlar haqida

nihoyatda nodir ma'lumotlar keltirilgan. Unda Kobul ulusining yirik shaharlari Kobul, G'azna va ular ixtiyoridagi ko'pdan-ko'p tumanlar, viloyatlar, Shimoliy Hindiston haqida ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Bobur islam qonunshunosligi va boshqa sohalarda ham asarlar yaratgan. 1522-yilda o'g'li Humoyunga atab yozgan "Mubayyin" nomli asarida o'sha zamon soliq tizimini, soliq yig'ishning qonun-qoidalarini, shariat bo'yicha kimdan qancha soliq olinishi va boshqa masalalarni nazmda izohlab bergen. "Xatti Boburiy" deb atalgan risolasida arab alifbosini turkiy tillar, xususan, o'zbek tili nuqtai nazaridan birmuncha soddalashtirib berishga harakat qilgan. U, tajriba sifatida "Xatti Boburiy" alifbosida Qur'oni Karimni ko'chirgan. Boburning aruz vazni va qofiya masalalariga bag'ishlangan "Mufassal" nomli asari ham bo'lganligi ma'lum, biroq bu asar bizgacha etib kelmagan.

Xulosa qilib aytganda Bobur o'zining ma'lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib, lirik shoir va ijtimoiy masalalar echimiga o'z hissasini qo'shgan olim sifatida xalqimiz ma'naviy madaniyati tarixida munosib o'rin egallaydi.

Umri davomida bir necha bor og'ir hastalikka chalingan Bobur Agrada vafot etadi. Uning xoki, o'zining vasiyatiga ko'ra, keyinchalik Kobul shahriga keltirilib "Bog'i Bobur"ga dafn etilgan.

Alisher Navoiy- 1441-yilning 9-fevralida Xurosonning markazi bo'lgan Xirotda tavallud topdi. Alisher Navoiyning favqulodda iste'dodi uch-to'rt yoshlarida namoyon bo'lgan. O'shanda u birinchi marta she'r yod olgan, "Azizlar" (hurmatli kishilar) orasida shu nshe'rni o'qib ularning hayratiga sazovor bo'lgan. Bu Alisherning bolalik chog'ida Xirotda eng mashhur shoir Amir Qosim Anvorning bir g'azali edi.

Alisher Navoiyni 1445-yilda maktabga berishadi. U Xurosonning bo'lg'usi podshohi Husayin Bayqaro bilan birga tahsil oladi. Alisher maktabda yaxshi o'qishdan tashqari, sheriyatga qiziqib ketadi. Badiiy asarlarni o'qish va o'rganish bilan kifoyalaniq qolmay, 10-12 yoshlaridayoq ilk she'rlari bilan ko'pchilikning diqqatini o'ziga jalb eta olgan. Alisher g'oyat qobiliyatli, tirishqoq, harakatchan, zehinli bo'lib, uning iste'dodi o'sha davrning ulug' kishilari tomonidan juda erta tan olingan.

Alisher Navoiy ikki tilda- turkiy(qadimgi o'zbek) va fors tillarida g'azallar yozadigan shoir edi. Lekin turkiy tilda buyuk adabiyot yaratish hayotidagi asosiy maqsadi bo'lgan.

Buyuk mutafakkir shoir va alloma Alisher Navoiy noyob iste'dod egasi bo'lishi bilan dunyoga mashhur bo'ldi. Navoiy matematika, astronomiya, hikmatshunoslik, muhandislik ilmini qunt bilan o'rgangan. Hirotda o'zining vazirlik yillarida ham mansab va shon-shavkat uchun emas, balki butun kuchini el-yurt uchun xizmat qilishga, hunar ahli va hakimlar ishini xalq farovonligiga qaratgan. Bugungi zamon qanchalik tezkor, globallashuv davri shiddatli bo'lmasin Alisher Navoiy o'z asarlarida talqin etganidek qalbi pok, maqsadi ezgu, niyati xolis inson har doim jamiyatning orzusi bo'lib ketgan.

Shu bois, 1863-yilda O'rta Osiyoda bo'lgan Vengriya sharqshunosi, sayyohi Arminiy Vamberi "Buyuk o'zbek shoiri Navoiy barchaga va har kimga ma'lum va mashhurdir", deb ezgan edi.

Alisher Navoiyning adabiyotshunoslik va tilshunoslikka doir asarlari orasida mashhurlari "Mufradot" – muammo janriga bag'ishlangan asar, "Majolisu-n-nafois" – turkiy tildagi birinchi tazkira; "Mezonu-l-avzon" - aruz nazariyasiga doir asar; "Muhokamatu-l-lug'atayn" - turkiy va forsiy til qiyosi masalalari; "Sab'at abhur" – arab lug'atshunosligiga oid asar.

Shuningdek, odob-axloq, pedagogik, tarixiy va boshqa qarashlari "Xazoinu-l-maoniy", "Devoni Foni", "Hamsa": "Hayratu-l-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy"; "Lisonu-t-tayr" asarlarida o'z aksini topgan.

Alisher Navoiy badiiy ijod bilan birga ilmiy faoliyatni teng olib borgan buyuk mutafakkirdir. Uning adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix, din tarixi va nazariyasiga doir ko'plab asarlari muhim ma'lumotlarni qamrab olganligi, aniq dalillarga asoslanganligi va ob'ektiv xulosalarga egaligi bilan bugungi kun ilm-fani uchun ham nihoyatda qimmatlidir. Alisher Navoiy adabiyotshunoslikka doir uch asar yaratgan bo'lib, uning "Mufradot" yoki "Risolai muammo" asari hijriy 890, milodiy 1485-yilda fors-tojik tilida yaratilgan. Risola muammo janrini echish qonun-qoidalariiga bag'ishlangan. Asarda Alisher Navoiy muammo amallarini 3 qismga ajratadi: 1) a'moli tahsiliy – hosil qilish amallari; 2) a'moli takmiliy – mukammallashtirish amallari; 3) a'moli taxxiliy – osonlashtirish amallari. Asarda 3 amal, 15 qism va 48 ta uslub qoidalari va ular bilan bog'liq holda 121 ta muammo va uni echish usullari ko'rsatib beriladi. Risolada muammoning turli uslub qoidalari yuqorida ko'ringanidek, ixcham va tushunarli tilda bayon qilib berilganligi uchun asar o'z davri va undan keyin ham keng shuhrat qozondi.

Alisher Navoiyning adabiyotshunos olim sifatidagi faoliyatini ko‘rsatib beruvchi yana bir asar bu “Majolisu-n-nafois” tazkirasıdir. Navoiy tazkirani 1491-98-yillar davomida yaratadi. Tazkirada XV-asrda yashab, faoliyat yuritgan 459 shoir haqida ma’lumot keltiriladi.

Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asari 1492-93 yillarda yaratilgan. Navoiy turkiy tildagi adabiyotshunoslik masalalariga bag‘ishlangan Shayx Ahmad Taroziyning “Fununu-l-balogs‘a” asari bilan tanish bo‘lmagani uchun aruz nazariyasiga doir qonun-qoidalarni turkiy tilda ilk marta bayon qilayotganini alohida ta’kidlaydi. Shuningdek, Alisher Navoiy muqaddimada o‘zidan avval yaratilgan aruzga doir manbalar: Xalil ibn Ahmadning “Kitobu-l-ayn”, Shams Qays Roziyning “Al-mo‘jam”, Nasiriddin Tusiyning “Me’yoru-l-ash’or”, Abdurahmon Jomiyning “Risolai aruz” asarlariga to‘xtalib o‘tib, ularda mavjud bo‘lmagan ba’zi doira va vaznlarni o‘z asarida keltirib o‘tishini aytadi. “Mezonu-l-avzon”da jami 19 bahr, 160 ta vazn keltirilgan bo‘lib, barcha vaznlarga misollar muallifning o‘z ijodi mahsulidir. Faqat asarning xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq janrlar qismida bir bayt Husayn Boyqarodan, bir bayt “Muhabbatnoma”dan keltirilganligini ko‘ramiz.

Navoiy turkiy tilning rivojiga shoh asarlar yaratish bilangina hissa qo‘shib qolmay, uning taraqqiyotini nazariy jihatdan ham boyitdi. Uning bu boradagi xizmatlaridan biri 1499-yilda yaratilgan “Muhokamat ul-lug‘atayn” (“Ikki til muhokamasi”) asaridir. Mazkur asarida Navoiy turkiy va forsiy (sort) tillarini bir-biriga qiyoslash asnosida, turkiy tilning boy va keng imkoniyatlarga ega ekanligini isbotladi. Shuningdek, asarda Alisher Navoiyning ijodiy biografiyasi bilan bog‘liq qimmatli ma’lumotlar ham keltirilgan. Xususan, turkiy tilda yaratgan asarlari ro‘yxati ularga asos bo‘lgan manbalar nomi bilan birga keltirilishi Navoiy asarlarining tub mohiyatini anglashda muhim ahamiyatga ega.

Alisher Navoiyning arab tili lug‘atshunosligiga bag‘ishlangan asari “Sab’at abhur” deb atalib, navoiyshunoslikda nisbatan kam tadqiq qilingan asarlar sirasiga kiradi. Asarning “Sab’at abhur” – “Etti dengiz” deb atalishiga sabab arab lug‘atshunosligiga mansub etti kitobning mazkur asar uchun manba bo‘lganligidir. Ular quyidagilardir:

- 1) Javhariyning “Sahoh” izohli lug‘ati;
- 2) Sog‘oniyning “Takmila” lug‘ati;
- 3) Zamaxshariyning “Kashshof” (Qur’on tafsiriga oid) asari;

4-5) Ibn Hojibning grammatikaga oid “Mufassal” (ikkita muqaddim va sharhlari);

6)“G‘aroyibu-l-hadis” – hadis so‘zlariga tuzilgan lug‘atlar;

7) turli mualliflar, devon, risola va boshqa asarlarning sharhlari. Ular shartli ravishda “Zavoyid” nomi bilan atalgan. Alisher Navoiyning mazkur asari arab lug‘atshunosligi rivojlanishi susaygan davrda vujudga kelganligi bilan alohida ahamiyat kasb etib, arab leksikografiysi tarixida Javhariyning “Sahoh” va Firuzobodiyning “Qomus” lug‘atlari bilan bir qatorda turadi.

Xullas Navoiy o‘zbek adabiyotini jahon yuksalishiga ko‘targan va avlodlarga boy adabiy meros qoldirgan shoirdir. Uning asarlarini qata-qayta o‘qiymiz va har gal ulardan yangi-yangi ma`naviy ozuqa olamiz.

Mavzuni mustahkamlash yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Amir Temur homiyligida Markaziy Osiyoda fan va madaniyatining yuksalishi sabablari nimada?
2. Temuriylar davrida tarix, matematika, geografiya va tibbiyot taraqqiyotini izohlab bering
3. Mirzo Ulug‘bek Akademiyasining ilmiy faoliyati nimalardan iborat?
4. Alisher Navoiy o‘zbek tili va adabiyoti rivojiga qanday hissa qo‘shgan?
5. Zahiriddin Muhammad Boburning fan va texnika tarixiga qo‘shgan hissasi nimalardan iborat?

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar:

1. Абдураҳмонов А. Улуғбек академияси. – Т.:Қомуслар Бош таҳририяти, 1993
2. Ашраф Аҳмад. Улуғбек Муҳаммад Тарагай.- Т., 1994
3. Аҳмедов Б, Мукминова Р. Пугаченкова Г. Амир Темур Т. 1999
4. Аҳмедов А. Улуғбек (ҳаёти ва фаолияти) – Т., 1991
5. Аҳмедов А. Мирзо Улуғбек. Илми нужум. – Т., 1994
6. Бартольд В. В. Улугбек и его время. – М., 1962
7. Бобур З.М. Бобурнома. – Т., 1994
8. Валихўжаев Б. Самарқандда мадрасайи олия – университет тарихидан лавҳалар.- Самарқанд, 2003
9. Зоҳидов Л. Алишер Навоий ижодида муаммо жанри / Масъул мухаррир: С.Эркинов.- Т.: Фан, 1986.
10. Из истории эпохи Улугбека. Отв.ред. А.К.Арендс.- Т., 1965
11. Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Ватан тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1997

12. Матвиевская Г.П., Розенфельд Б.А. Математики и астрономы. / Из истории эпохи Улугбека. Отв.ред. А.К.Арендс.- Т., 1965
13. Матвиевская Г. П. *Учение о числе на средневековом Ближнем и Среднем Востоке*. Ташкент: Фан, 1967.
14. *Матвиевская Г. П., Розенфельд Б. А.* Математики и астрономы мусульманского средневековья и их труды (VIII—XVII вв.). — В 3 тт. — М.: Наука, 1983.
15. Математические трактаты Джемшида Гиясэддина Каши // Историко-математические исследования. — М.: ГИТТЛ, 1954. — № 7. — С. 11-452
16. Мирзо Улугбек. Тўрт улус тарихи.- Т.,1994
17. Мирзо Улугбек таваллудининг 600 йиллигига бағишланган халқаро илмий анжуман материалари – Тошкент-Самарқанд, 12-16 октябрь, 1994. – Т., 1994.
18. Мухаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати.- Т.:Қомуслар бош таҳририяти, 1994
19. Неру Дж. Открытие Индии. – М., 1955.
20. Пасилов Б. Улугбек. Рисола. – Т.: ABU MATBUOT-KONSALT, 2011.
21. Саккокий. Танланган асарлар.- Т., 1958.
22. Темур ва Темурийлар даври тарихи. –Т., 1994.
23. Улуғбек Муҳаммад Тарагай. Зижи жадиди Курагоний. – Т.,1994
24. Улуғбек мероси. // Фан ва турмуш. 1995. №1
25. Файзиев Т. Мирзо Улугбек авлоди.- Т., 1994
26. Эргашев X., Темиров X. Улугбек хазинаси тилга кирганда. «Ленин йўли» газетаси, 1979 йил 28 ноябрь.
27. Юсупова Д.Ю. Письмо Гийас ад Дина Каши к своему отцу из Самарканда в Карши. // Из истории науки эпохи Улугбека. Т.,1979
28. Юсупова Д. Жомий ва Навоий: арузга доир рисолаларнинг қиёсий таҳлили / Ўзбек филологиясининг долзарб муаммолари. – Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2010
29. Юшкевич А. П. История математики в Средние века. М.: Физматгиз, 1961
30. Қори-Ниёзий Т.Н. Улугбек ва унинг илмий мероси. Тошкент, «Ўзбекистон» нашриёти, 1971
30. Ҳасанов Б. Алишер Навоийнинг “Сабъат абхур” луғати. – Т.: Фан, 1981.

6-Mavzu: XVI-XIX asrlarda Markaziy Osiyoda fanning ahvoli Reja:

- 6.1. XVI-XIX asrlarda Markaziy Osiyoda madrasa va maktablar**
- 6.2. XVI-XIX asrlarda Markaziy Osiyo aniq va tabiiy fanlar rivojiga hissa qo'shgan arboblar**
- 6.3. Tarixnavislik vakillari**
- 6.4. Rossiya imperiyasi davrida Markaziy Osiyoda ilm-fan**
- 6.5. Rus-tuzem va jadid maktablari**

Tayanch iboralar: Madrasa, Maktab, Yangi usul maktablari, Jadidchilik, Rus-tuzem maktablari, Jadid makatablari, Tarixnavislik, Sadr madrasasi, Sherdor madrasasi, Jomiy masjidi, Devonbegi, Tillakori, Maqbaralar, Dorixona, Dori-ul shifo madrasasi, Ahmad Donish, Xonliklardagi madaniy hayot, Tarixi tabariy, Ta'limi avval, Birinchi muallim, Ustodi avval, Oltin meros jamg'armasi, Bartold, **Semyonov-Tyanshanskiy, Fedchenko Aleksey Pavlovich, Shreder Rixard Rixardovich**

6.1. XVI-XIX asrlarda Markaziy Osiyoda madrasa va maktablar

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'z milliy-diniy qadriyatlarning tiklanishi va uzoq o'tmishda yashab o'zlarining sermahsul ijodlari bilan islom dinining turli sohalariga bag'ishlab ko'plab asarlar yozib qoldirgan allomalarning hayotlari va boy ilmiy meroslarini har tomonlama chuqur o'rghanish eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Milliy tiklanish juda keng, chuqur murakkab tarixiy jarayon bo'lib, u millat hayotining hamma sohalarini: iqtisodiyotni ham, siyosiy faoliyatni ham, ma'naviyatni ham, ilm fan, til, tarix, urf-odatlar, hunarmandchilik, me'morchilikni ham, inson kamoloti bilan bevosita daxldor barcha masalalarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Milliy tiklanish uzoq davom etadigan, ko'p yillarni o'z ichiga qamrab oladigan murakkab jarayondir. Bu yo'nalishdagi eng muhim bosqich – inson omiliga va uning ma'naviy qadriyatlariiga bo'lgan ijobiy munosabatlardir. Tabiiyki, tadqiqotlarda ularning tarixiga murojaat etish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki boy milliy qadriyatlаримизнинг tarixini o'rGANmay turib, ularning bugungi holatini tahlil qilish va kelajagi haqida fikr yuritish

qiyindir. Binobarin, yirik mutafakkirlar hayoti va ularning boy ma’naviy meroslarini o‘rganib, tadqiq qilish keng quloch yozmoqda.

Chunonchi, bu tarzdagi tadqiqotlar bir tomondan jamiyat uchun har tomonlama muhim bo‘lgan ma’naviy komil insonlarni tarbiyalash, qolaversa, ularda sog‘lom diniy tafakkurni shakllantirishda ham alohida ahamiyatga egadir. Shu bilan birga aytish joizki, islom dini tarixi bu o‘tmishda yurtimizda faoliyat yuritgan madrasalar, kutubxonalar va ularning taraqqiyot bosqichlari, shuningdek, Movarounnahrda yashab ijod etgan mutakallimlarning hayoti va asarlarini o‘rganishda hali etarli darajada tadqiqotlar amalga oshirilgan, deb aytolmaymiz.

Madrasalar va kutubxonalar tarixini ilmiy asosda chuqur o‘rganish hozirgi davrda amaliy ahamiyatga ega ekanligi naqadar muhimligini ko‘rsatadi.

Ilk o‘rta asrlarda aniq ilmlarni rivojlanishi bu o‘sha davrdagi kutubxonlar aynan shu sohadagi kitoblar jam bo‘lganidan dalolat bersa, keyinchalik diniy ilmlarni rivoji shu sohadagi asarlarni kutubxonlarda saqlanganligidan xabar beradi.

Somoniylar davrida Movarounnahrda ko‘p mashhur qomusiy olimlar yashab ijod etgan. Bu hududdagi boy kutubxonalarida yunon faylasuflari, tabiblari, qomusiy olimlarining arab tilidagi tarjimalari, islom diniga oid mumtoz asarlar saqlangan. O‘z navbatida bu manbalar olimlarimiz uchun ilmiy ozuqa bo‘lib xizmat qilgan. Dastlab, saroylar va madrasalarda saqlanib kelgan qo‘lyozmalar bu davrda asta-sekin kutubxonalarda to‘plana boshlandi. Ayni vaqtida qo‘lyozmalarni xillarga ajratish usullari ishlab chiqildi, bu ish IX-X asrlarga kelib ancha yuqori darajaga ko‘tarildi.

Keyinroq Temuriylar, Shayboniylar davrlariga kelib yangi asarlar, yangi kitoblar paydo bo‘lishi natijasida yangi kutubxonalar barpo bo‘lishiga olib kelgan. Xonliklar davriga kelib esa, kutubxonalar o‘ziga xos jihatlari bilan rivojlangan. Yangi-yangi asarlar yozilib, Samarqand ilm-fan markaziga aylana bordi.

Bu o‘qimishli va bilimlilik bo‘lishlik an’anasi IX-XIII asrlarda musulmon dunyosini gurkiragan davridan qolgan ajoyib meros edi.

Turonzamin madrasalari o‘rta asrlarning har bir tarixiy bosqichida qo‘lyozma kitoblarning muhim majmulariga egalik qilishardi. Kitobat madaniyati manbalarining bilimdoni prof. A.A. Semyonov ta’kidlaganidek, “Buxoro, Samarqand, Qarshi, Xiva va boshqa shaharlardagi katta

madrasalarning hammasida katta-katta kutubxonalar bo‘lgan. Hatto, nisbatan yosh Qo‘qon xonligining Qo‘qon, Andijon, Marg‘ilon, Namangan shaharlaridagi madrasalarda, Buxorodagi kabi boy bo‘lmasa ham, har holda kutubxonalari bor edi”.

Madrasa kutubxonalari kitob zahiralarining tarkibi, avvalo, madrasalarning yoshi, qadimiylik darajasiga qarab turlicha edi. So‘ngra, kutubxona vaqfiga kim asos solgani bilan mablag‘ ta’minoti kim tomonidanligi, mudarris va talabalarning aqliy mushohada darajasi va ko‘plab ilg‘ab bo‘lmas omillar xususiyatini belgilar edi. A.A. Semyonov Buxoro madrasalarining kitob majmualari taqdiri haqida qiziq va ibratlari voqeani keltiradi. Buxoro amiri Muzaffar (hukmronlik yillari 1860-1868) madrasa kutubxonalarining barchasidan qiziqarli kitoblarni xazinaga o‘tkazish to‘g‘risida buyruq chiqardi.

Turli tarixiy manbalar va tadqiqotlarda turli-tuman madrasalar va ularning kutubxonalari, muayyan davrda faoliyat ko‘rsatgan madrasalar soni haqida juda ko‘p qimmatli ma’lumotlar mavjud bo‘lib, ular kutubxonachilik ishi tarixi to‘g‘risida ma’lum xulosalar chiqarish imkonini beradi. Quyida bunday materiallardan xronologik tartibda tanlab olingan ma’lumotlar keltiriladi:

A.I. Kormilitsin bergen ma’lumotlarga qaraganda, XI-asrda Samarqandda turli diniy mazhablarga tegishli bo‘lgan 17 ta xususiy madrasa faoliyat ko‘rsatgan. Xususiy madrasalardan tashqari, o‘sha davrda hukumat tomonidan mablag‘ bilan ta’minlanib turilgan davlat madrasalari ham bo‘lgan. Xurosonning dastlabki davlat madrasalariga G‘aznaviylar sulolasiga mansub hukmdorlarning bevosita farmoyishiga binoan X-asrda asos solingan.

XV-asrning birinchi choragida Mirzo Ulug‘bek Samarqanddagi Registon maydonida juda go‘zal me’morchilik obidasi – o‘z kutubxonasiga ega bo‘lgan madrasa binosini barpo etdi. Mazkur madrasa keyingi bir asr mobaynida Markaziy Osiyodagi eng yirik madrasa bo‘lib qoldi. O‘z kutubxonasiga ega bo‘lgan madrasani Ulug‘bek Buxoroda ham barpo etdi.

XVI-asrning o‘rtalarida Samarqand va Buxoroda bir nechta yirik madrasa va masjidlar qurib bitkazildi va vaqf mulkiga berildi. Samarqanddagi toqiga tilla hal yurgizilgan, ko‘p sonli hujralari va katta kutubxonasiga ega bo‘lgan Shayboniyxon madrasasi, Abdurahim Sadr

madrasasi, Miri Arab madrasasi, Ko‘kaldosh madrasasi, Buxorodagi Abdullaxonning ikkita katta madrasasi shular jumlasidan.

XVI-asrning dastlabki ikki o‘n yilligida Samarqandda amir Yalangto‘shbiy mablag‘iga bir yo‘la ikkita yirik madrasa barpo etildi. Ulardan biri – jahon me’morchilik san’atining mumtoz namunasi bo‘lgan Sherdor madrasasi va ikkinchisi – jome masjidi vazifasini ham bajarishi lozim bo‘lgan Tillakori madrasasi. Ikkala madrasada ham kitob saqlashga mo‘ljallangan xonalar va mutolaa zallari nazarda tutilgan edi.

Ashtarxoniy Imomqulixonning nufuzli a’yonlaridan biri bo‘lgan Nodir devonbegi tomonidan XVII-asrning 30-yillarida Buxoroda shahar masjidi va madrasasi barpo etildi. U, shuningdek, Samarqand yaqinida Xo‘ja Ahror Vali maqbarasi yaqinida qurilgan madrasani ham mablag‘ bilan ta’mirladi. XVII-asrning ikkinchi yarmida ashtarxoniy Abdulazizzon Buxoroda Ulug‘bek madrasasining ro‘parasida kutubxonasi bo‘lgan juda go‘zal bir madrasa binosini bunyod etdi.

XVII-asr oxirida ashtarxoniylar sulolasining vakili Subhonqulixon davrida Buxoroda yana bir yirik vaqf ommaviy kutubxonasi ochilgan. Bu haqda prof. A.A. Semyonov xabar berib, kutubxonanining hayoti, uni ta’sis etgan shaxslar haqida manbalarda hech qanday ma’lumot yo‘qligini ta’kidlaydi.

XIX-asrning o‘rtalarida Toshkentda yashaydigan 50 ming aholiga 300 masjid, 50 dan ortiq madrasa to‘g‘ri kelgan. Taxminan mana shunday nisbat Samarqandda ham kuzatilgan. Buxoroda yashaydigan 70 ming aholiga 200 taga yaqin madrasa, 300 dan ortiq masjid, 38 ta karvonsaroy, to‘qqizta timli bozor, 16 ta hammom, shahar ichida 45 ta va uning atrofida 22 ta bozor to‘g‘ri kelgan. Qo‘qonda xuddi shu davrda 30 ming aholi yashagan, 9 karvonsaroy, 6 hammom, 36 tadan ortiq madrasa, yuzga yaqin masjid faoliyat ko‘rsatgan. Xivada XIX asrning 40-yillarida jami 22 ta madrasa bo‘lgan, umuman Xorazmda 50 dan ortiq madrasa va 100 dan ortiq masjid faoliyat ko‘rsatgan. Andijonda 42 ta madrasa bo‘lgan. Yuqorida zikr etilgan madrasa va masjidlarning barchasi katta-kichik kutubxonalarga ega bo‘lgan. Mazkur kutubxonalarda qo‘lyozma kitoblarning katta yo kichik jamg‘armalari to‘plangan. Masjidlar qoshidagi maktablarni, madrasai oliya, o‘rta va quyi madrasalarni har yili minglab talabalar – potentsial kitobxonlar va kitobsevarlar tamomlagan.

Qo‘qon shahrining rasmiy qurilgan yili Abdukarimbiy davri (1739-65 yy) ga to‘g‘ri keladi, ya’ni 1740-45 yillarga. Shundan so‘nggina shahar xonlik poytaxtiga aylanadi va haqiqiy taraqqiyotga erishadi. Qo‘qonda 620 ta masjid, 52 ta madrasa, 23 ta qorixona, 39 ta karvonsaroy, 6 ta usti yopiq umumiyl bozor va 10 dan ziyod maxsus bozor, milliy me’morchilik an’analari asosida qurilgan 200 dan ziyod hashamatli hovli va boshqa ko‘rkam imoratlar mavjud edi. Hozirgi kunda Xo‘qandning kishi diqqatini o‘ziga tortadigan me’moriy obidalari asosan XIX-asrga mansub. Ular orasida esa Xudoyorxon o‘rdasi, Jome’ masjidi, Dahmai shohon, Dahmai Modarixon, Norbo‘tabiy, Miyon Hazrat, Dasturxonchi va Zinbardor madrasalari e’tiborga loyiqidir.

Madrasai Mir, yohud, Madrasai Norbo‘tabiy hijriy 1213, milodiy 1798-yilda Xo‘qand hukmdori Norbo‘tabiy Abdurahmonxon o‘g‘illari tomonlaridan qurdirligani. O‘zbek davlatchiligi tarixida Norbo‘tabiyni buyuk davlat arbobi, dono siyosatchi, iqtisodchi va ilm-ma’rifat namoyandasini deb bemalol aytishimiz mumkin. Chunki uning davrida Farg‘ona vodiysida markazlashgan davlat tuzishga erishildi, pul islohoti o‘tkazildi, xonlikning iqtisodiy ahvoli yaxshilandi. Norbo‘tabiy davrida mashhur ilm sohiblari faoliyat ko‘rsatishgani bilan axamiyatlidir.

Norbo‘tabiy xukmronligi davrida bir qancha madrasalar qurildi: Madrasai Sulaymoniya(1762), Xonxo‘ja eshon(1789), Imom Boqir(1794), Hakim to‘ra(1795), Madrasai Mir(1798) madrasalari shular jumlasidandir. Norbo‘tabiy nomidagi madrasa xalq orasida Madrasai Mir deb ham yuritiladi. Bir qavatli, hovlili, to‘g‘ri to‘rtburchak tarhli, 4 burchagiga minora-guldastalar ishlangan. Hovli atrofiga qator ravoqli xujralar joylashgan. Peshtog‘i shimolga qaragan. Miyonsaroyning 2 tarafida peshtoq bo‘ylab tutashgan gumbazli masjid va 12 ta derazali (panjaralar o‘rnatilgan) darsxona mavjud. Norbo‘tabiy madrasasasi pishiq g‘ishtdan qurilgan. Xonalar ichi ganchsuvoq qilingan. Masjidning gumbaz osti sharafasi va mehrobinining yulduzsimon bezaklari serhasham ko‘rinadi. Eshiklari girih naqshlar bilan bezatilgan, ichki qismida esa o‘ymakori islomiy naqsh qo‘llanilgan. Norbo‘tabiy madrasasining tashqi ko‘rinishi Buxoro me’morlik maktabi uslubiga xosdir. Hozigi paytda Xo‘qandning bosh jome’ masjidi.

Muhammad Yahyoxon Dadaboev tuzgan ro‘yxatga ko‘ra, Qo‘qonda 19 asr oxiriga kelib 56ta madrasa faoliyat yuritgan ekan.

Buxoro xonligi

Abdullaxon madrasasi – Buxorodagi Qo’sh madrasa ansamblining shimoliy qismida joylashgan. Me’mori noma’lum, Abdullaxon II qurdirgan (1588-1590). Tuzilishi odatdagi madrasalardan ancha farq qiladi. Hovli atrofini ikki oshyonli hujralar o’rab turadi. Har ikki tomonida baland peshtoq joylashgan. Peshtoqlar orqali ichkari xonalar va xonaqohga o’tiladi. Madrasaning katta peshtoqi janubga qaragan. Peshtoq qanotlari va guldastalar sirkor bezaklar bilan padozlangan. Darvozadan o’tib, ikki yoqdagi katta xonalar – darsxona va masjidga kiriladi. Abdullaxon davri me’morligi etuk namunasi bo’lgan bu Madrasa Buxoro me’morchiliginning XVI-asrda erishgan barcha ijodiy yutuqlarini namoyish etadi.

Dorush-shifo madrasasi – Subxonqulixon 1697-yilda 18 hujrali qilib barpo ettirgan. Madrasaning qoshida kasalxona, dorixona hamda kutubxona bo’lgan. Bir nechta xodimlar dori tayyorlash bilan shug‘ullangan

“Jo‘ybori Kalon” madrasasi Subhonqulixon davrida, ya’ni, XVII-asr oxiri – XVIII asr boshlarida Buxoro hokimi Abdulazizzon farmoni bilan barpo qilingan. Madrasaning qurilishiga Abdulazizzonning onasi Oyposhshabibi boshqosh bo’lgan. U nihoyatda ma’rifatli, taqvoli ayol bo‘lib, madrasa uchun mablag‘ ayamagan. Madrasa bilan bir qatorda “Volidai Abdulazizzon” jome masjidi ham qad ko‘targan. Shuningdek, mazkur ikki bino oralig‘ida hovuz – “Havzi Nav” ham qurdirligan.

Ko‘kaltosh madrasasi – Buxorodagi me’moriy yodgorlik. Buxoro xonining vaziri Qulbobo Ko‘kaldosh qurdirgan (1568- 69 y.). Labi Hovuz ansablining shimolida joylashgan. Peshtoqini bezatib turgan koshinlar saqlanib qolmagan. Madrasa hovlisiga 5 gumbazli miyonsaroy orqali kiriladi. Madrasa hovli uzun (42x37 m), o’rtaga yangi imorat 1929 yil qurilgan. Hovli atrofi 2 qanatlari 160 hujra bilan o’ralgan. Yon tomonidagi hujralarning pastki qanatiga (tashqi devorlarida) xonani yoritish uchun panjaralar o’rnatilgan. Peshtoqining ikki yonidagi masjid va darsxona oldiga ikki qavatli uch qismga ajratilgan chuqur ravoqlar va burchaklaridagi guldastalarda Buxoro me’morligiga xos qadimgi milliy an’analar aks ettirilgan. Ko‘kaltosh madrasasida Sadriddin Ayniy tahsil ko‘rgan, u yashagan hujra muzeyga aylantirilgan va eksponatlar bilan jihozlangan. 1960-70 va 1995-97 yillarda ta’mirlangan. Buxoro viloyat “Oltin meros” jamg‘armasi joylashgan.

Miri Arab madrasasi – madrasa 1530-1536 yillarda Miri Arab nomi

bilan tanilgan Shayx Abdulla Yamaniy rahbarligida qurilgan. Miri Arab madrasa qurilishini oxiriga etgaza olmagan. 1536-yil boshida vafot etgan va uning vasiyatiga ko‘ra kuyovi Shayx Zakariyo qurilishni oxiriga etkazgan. Miri Arab madrasasi jahonga tanilgan yirik diniy oliy madrasalaridan hisoblanadi. Madrasa Minori Kalonning qarshisida joylashgan. Bosh tarzi ulkan peshtoqli, darvozasi orqasida besh gumbazli miyonsaroy, ikki yonida baland gumbazli keng darsxona va masjid, go‘rxona joylashgan. Madrasanining umumiy tarhi 68,5x51,8m, hovli 35,4x31,3m, darsxona 8x8m. Hovlisi to‘rtburchak shaklda bo‘lib, atrofini oldi ravoqli, ikki ayvonli 114 hujra o‘rab turadi

Modarixon madrasasi – Buxorodagi Abdullaxon madrasasi qarshisida joylashgan me’moriy yodgorlik(1566-67 y.). Ikkalasi “Qo‘shmadrasa majmua”sini tashkil qiladi. Bu madrasani Abdullaxon onasi sharafiga qurdirgan (nomi ham shundan). Madrasa ikki qavatli. Modarixon madrasasidagi xonalar oldi handasiy uslubda koshinkor naqshlar bilan bezatilgan. Modarixon madrasasi devori qurilmasi XVI-asr Buxoro me’morligiga xos bo‘lib, 1997-1998 yillarda qayta ta’mirlangan.

XX-asrning boshlarida Buxoroda madrasalar sonini o‘sha davrda yashagan Abdurauf Fitrat va Sadriddin Ayniy 200 ta, Sadr Ziyo 204 ta, Muhammad Ali Baljuvoni esa 400 ga yaqin, Turkiston general-gubernatorligi hisoboti bilan bog‘liq arxiv hujjatlardan birida 1914 yilda Buxoro amirligida 350 ta madrasa faoliyat ko‘rsatayotgani qayd etilgan. O‘zR MDAda saqlanayotgan “Qushbegi” fondidagi hujjatlarga tayanib, Buxoro shahrining o‘zida 160 tadan ortiq madrasa faoliyat yuritganini keltirib o‘tish mumkin. Bundan tashqari, XIX-asrning 40-yillari, rus sayyohi N.Xano‘kovning ko‘rsatishiga ko‘ra, Buxoroda amir ro‘yxatida ko‘rsatilgan 103 ta madrasa bo‘lib, ulardan 60 tasi eng katta madrasa hisoblangan. Ingliz sayyohi A.Byorns shaharda madrasalar soni 366 ta desa, P.P.Ivanov esa 150 dan ortiq madrasa faoliyat yuritgan va o‘quvchilarining soni 30 mingtaga etgan deb ko‘rsatadi. L.Klimovich amirlik poytaxtida 103 ta madrasa, talabalar soni 20 000 ta deya ta’kidlaydi. Xullas, turli ma’lumotlar umumlashtirilganda Buxoro amirligida 200 dan 400 ga yaqin madrasa mavjud bo‘lgan.

Movarounnahrga islom dini kirib kelishi bilan diniy ta’lim va u bilan bog‘liq ilmlar ham rivojlana boshladи. Ma’naviyatda hurfikrlilik, ilm-fanga hurmat-e’tibor va uning qadr-qimmatini yuksak baholash ustunlik qildi.

Ayniqsa, diniy va dunyoviy ilmlar uzviy holda taraqqiy etdi. Aynan shu davrdan hududlarda maktablar va madrasalar paydo bo‘la boshladi. Madrasalar qadimdan Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida alohida nufuzga ega o‘quv maskani sifatida katta obro‘-e’tibor qozongan. Ko‘hna Buxoro ham o‘zining ko‘p sonli madrasalari bilan nom taratgan. U turli erlardan ilm tahsili uchun talabalar tashrif buyuradigan shahar hisoblangan. Bu an’ana keyingi asrlarda ham davom etgan. Shu sababli aksariyat mualliflar Buxoro haqida so‘z ketganda avvalo uning shu jihatni bilan ta’riflaganlar. Xususan ashtarxoniyalar davri muarixi Mahmud ibn Vali (XVII asr) Buxoroning ilm tarqatuvchi markaz sifatidagi xizmatini shunday bahOloydi: “Olimlarning ko‘pligidan, uni olimlar va ilm-fan bulog‘i deb ataydilar”. Buxoroga XIX asrda safar qilgan E.K. Meyendorf esa Buxoroning islom olamida tutgan o‘rnini quyidagicha ta’riflaydi: “O‘zining ko‘plab maktablari, olimlari hamda muqaddas qadamjolari sababli musulmonlarning ziyoratgohiga aylangan. Ehtimol shuning uchun u “sharif” nomiga sazovor bo‘lgandir”.

Rus sayyohi N. Xano‘kov o‘z esdaliklarida Buxoroni yirik ilm-fan va ma’rifat, diniy bilimlar markazi sifatida ta’riflab: “Buxoro ilm tarqatuvchi markaz hisoblangan va hisoblanadi”, deydi. J.Kunits ham Buxoroni “araberon madaniyatining qal’asi”, Markaziy Osiyoning yuz yillik tarixidagi “Islomning yuragi”, 250 masjid va madrasalar markazi deya atagan.

Toshkent madrasalari.

XIX-asrda Toshkentda ta’lim-tarbiya sohasi Toshkent-Buxoro, Toshkent-Qo‘qon madaniy-ma’naviy aloqalar tizimida rivojlanib borgan. Bu jarayonda Toshkent madrasalari va mudarrislarining o‘rni katta bo‘lgani tabiiy.

Turkiston general-gubernatorligi Maorif boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, 1890—1893 yillarda gubernatorlikda jami 214 ta Madrasa bo‘lib, shundan 21 tasi Toshkentda joylashgan edi. Chorizm istilosining dastlabki yillarida madrasalarda ta’lim va o‘qitish ishlari an’anaviy qoidalar asosida olib borilgan bo‘lsa, keyinchalik ularning faoliyatini nazorat qilish va o‘quv ishlarini tartibga solishni o‘lka maorif boshqarmasi o‘z qo‘liga olgan. Bu paytda Toshkent madrasalaridan Abulqosimxon madrasasida 120, Xoja Ahror madrasasida 80, Beglarbegi madrasasida 150, Ko‘kaldosh madrasasida 80, Sharifboy madrasasida 20, Shukurxon madrasasida 20 nafar talaba o‘qigan. Lekin oldingidek, aksariyat talabalar Toshkent madrasalari

bilan qanoatlanmay, Buxoro, Samarqand, Qo‘qon madrasalarida bilimlarini oshirib qaytganlar.

Toshkent madrasalari to‘g‘risidagi arxiv, o‘sha davr matbuoti yoki ana shu yillarda Toshkentda bo‘lgan rus o‘lkashunoslarining ma’lumotlari, ayniqsa, madrasalar soni borasida har xil xabar beradi. Xususan, 1865—1868 yillari Toshkentda bo‘lgan A. Xoroshxin “Ocherki Tashkenta” nomli kundaligidagi ma’lumotda ayrim madrasalarning nomini, vaqf mulklarini keltirib o‘tgan bo‘lsa, N. Maev 1876 yili Toshkentda jami 11 ta Madrasa mavjudpagini ta’kidlaydi. “Turkestanskie vedomosti” gazetasining 1876-yilgi 48-sonida bosilgan rasmiy ma’lumotda esa 13 ta Madrasa tilga olingan.

Biroq XIX-asrda Toshkentda yashab ijod qilgan muarrix Muhammad Solihxoja esa o‘zining “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida Toshkentdagi 20 ta Madrasa to‘g‘risida birmuncha batafsil ma’lumot berib o‘tgan.

Ular orasida eng qadimiyi - Xoja Ahror jome’ masjidining shimolida pishiq g‘isht va yo‘nilgan toshdan qurilgan Xoja Axror madrasasi yigirmata hujra, bitta darsxona va masjidni o‘z ichiga olgan.

Shayxontohur dahasidagi madrasalardan biri Ko‘kaldoshdir, Muhammad Solixhojaning yozishicha, bu Madrasa Baroqxonning o‘g‘li Darvishxon tomonidan bunyod etilgan. 1735-yil Ufada bo‘lgan toshkentlik savdogar N. Alimov ma’lumotlariga ko‘ra, XVIII asr oxiriga kelib Madrasa karvonsaroya aylantirilgan. Toshkent tarixi tadqiqotchilaridan A. Dobrosmo‘slov Ko‘kaldosh madrasasi dastlab uch qavatli, o‘ttiz sakkizta hujrali bo‘lganini ta’kidlaydi. Keyinchalik madrasaning faqat bir qavati saqlanib qolgan. Muhammad Solihxoja Ko‘kaldosh madrasasi 1868 va 1886-yillarda Toshkentda yuz bergen zilzilalardan qattiq zarar ko‘rganini yozadi.

Shuningdek, XIX-asrning 30-yillarida Muhammad Alixon buyrug‘i bilan bunyod etilgan Azimota madrasasi ham Chorsu yaqinida bo‘lgan. Lekin bu Madrasa haqida ma’lumotlar juda kam.

“Tarixi jadidayi Toshkand” asarida batafsil tavsiflangan va eng ko‘p tilga olingan Madrasa Eshonqli dodxoh madrasasidir. Bu Madrasa 1256 (1838) yili Toshkent hokimi Lashkar Beglarbegining o‘g‘li Eshonqli dodxoh tomonidan qudirilgan bo‘lib, Yunusxon madrasasining janubi-sharqida joylashgan va Katta ko‘chaga tutash bo‘lgan. Madrasa binolari to‘rt tarafdan bir-biriga qaratib solingan, o‘rtada qolgan bir tanoblik qadimiy Langar hovuzi Eshonqli dodxoh buyrug‘i bilan tekislanib, sahnga aylantirilgan. Yunusxon madrasasi chor-bog‘ida bir tanoblik yangi hovuz

barpo qilingan. Lashkar Beglarbegi Kaykovus arig‘iga ikkita tegirmon qudirib, ularning daromadini shu madrasaga vaqf qilgan. 1920-yil Vaqf sho‘basi qaramog‘idagi madrasada Murodxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li isloh qilingan diniy va dunyoviy darslar tashkil etadi. Xarobaga aylangan Eshonquli dodxoh madrasasining oxirgi qoldiqlari 1964 yilda surib, tekislab tashlanadi.

Muhammad Solixhoja bu dahadagi ayrim madrasalar haqida qisqa to‘xtaladi. Jumladan, Yunusxon madrasasi Yunusxon maqbarasi yonida bo‘lib, pishiq g‘ishtdan qurilganini, Yunusxon vaqfga ajratgan erlar daromadi hisobiga ish yuritishini, madrasaning Alachaxon muhri bosilgan vaqfnomasi bo‘lganini, shuningdek, Salor arig‘i sharqidagi Pulemas degan joyda vaqf eri bo‘lganini yozadi.

Qosimboy Qoratutiy madrasasi Mo‘g‘ul-ko‘cha guzarida qurilgan. Binoning ikki tomoni ayvonli, bir xonaqoh, hujralar va g‘ishtin gumbazdan iborat bo‘lgan. Arxiv hujjatlarida u “Mo‘g‘ulko‘cha madrasasi” deb qayd etiladi va 1871-yili qurilgani ko‘rsatiladi. Mahmud dasturxonchi madrasasi esa Degrezlar mahallasida joylashgan. Masjidi, hujralari va hovlisida hovuzi ham bo‘lgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Mahmud dasturxonchi Qo‘qonda ham bir Madrasa qudirgan. Mahmud dasturxonchi Muhammad Alixonning (1822—1841) vaziri, Lashkar Beglarbegining qalin do‘sti bo‘lgan.

Baroqxon madrasasi esa Sebzor dahasida, Qaffol Shoshiy maqbarasi yaqinida qurilgan. Keyinchalik masjidga aylantirilgan. Madrasa Muhammad Solihxoja yozishicha, 1886 yilgi zilziladan qattiq zarar ko‘ra-di. Madrasa, oldin ham bir necha bor vayron bo‘lib, qayta tikpangan. Masalan, 1739 yil Toshkentda bo‘lgan K. Miller madrasani butunlay vayron holda ko‘rganini yozadi. Shu sababli bo‘lsa kerak, Muhammad Solihxoja Toshkent hokimi Qanoat Otaliq 1859 yil madrasaning vayron bo‘lgan hujralari va hovlisini ta’mirlab, yangi vaqf mulklari ajratganini yozadi.

Muhammad Solihxoja 1274 (1857) yili Toshkent hokimi Ahmad qushbegi (1856—1857) tomonidan Qaffol Shoshiy maqbarasi janubida, Mo‘yi Muborak madrasasi kuriqganini yozadi. Tarixchi o‘sha davrlarda Madrasa o‘rnini aholi Xoja Ahror tug‘ilgan joy deb tushungani bois “Xoja Ahror maydoni” deb ataganini ta’kidlaydi. Asarda keltirilishicha, madrasaning alohida bir gumbazi bo‘lib, unda Payg‘ambarimizning (alayhissapom) soch tolalari — mo‘yi muborak saqlangan.

“Tarixi jadidayi Toshkand” asarida Beglarbegi madrasasi 1838—1840 yillari Toshkent hokimi Lashkar Beglarbegi (XIX asr birinchi yarmi) tomonidan qurilgan bo‘lib, ikki qavatli 56 hujradan iborat bo‘lgani aytiladi. Lashkar Beglarbegi shahar Registonida qurdirgan karvonsaroyni ushbu madrasaga vaqf qilgan. Beglarbegi madrasasining shimol tomonida — ro‘parasida, katta ko‘cha tomonda Fo‘lodboy Tinchbofiy jome’ masjidi, sharq tomonda esa Jo‘bo (Eski Jo‘va) mavzeidagi O‘rozaliboy jome’ masjidi qad ko‘tarib turgan.

Shuningdek, asar muallifi Taxtapul guzarida Yunusxo‘ja xalfa madrasasi, Qo‘shtut guzarida Hofiz Ko‘hakiy madrasasi, Sebzor dahasida Muhammad Karimxo‘ja madrasasi qurilganini yozadi. Hofiz Ko‘hakiy yaqinidagi yana bir Madrasa yog‘ochdan kurilgani uchun “Madrasai cho‘bin” deb atalgan. Uning asoschilaridan Nor oxund Mallaxon vafot etgach, Madrasa faoliyati to‘xtab qoladi.

Ko‘kcha dahasidagi madrasalardan biri Sanchiqmon mahallasidagi Eshon Bo‘rixa Sanchiqmoniy madrasasi bo‘lib, u Qo‘qon xoni Umarxon davrida (1810—1822) pishiq g‘ishtdan kurilgan. Arxiv hujjatlarida, Madrasa 1820 yili qurildi, deb ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, Ko‘kcha dahasining Pichoqchilik mahallasida Sharafboy madrasasi bo‘lgan. “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida keltirilishicha, Toshkentda ikkita Shukurxon nomli Madrasa bo‘lib, biri Ko‘kcha dahasida bozor yonida, yana biri esa Sebzor dahasida, Tinchbof guzarida kurilgan. Ko‘kcha dahasida madrasalar ham darsxona, hujralar va juma jome’ masjididan iborat o‘rtacha madrasalar bo‘lgan.

Asarda Beshyog‘och dahasida joylashgan madrasalar haqida ham ma’lumotlar bor. Ulardan biri Toshkent hokimi Normuhammad kushbegi (XIX-asr birinchi yarmi) 1832-yili Zangiota maqbarasi yonida qurdirgan madrasadir. Normuhammad qushbegi bozorning mahsido‘zlik qismida bino qilgan karvonsaroyni ushbu madrasaga vaqf qilgan. Bu dahadagi yana bir Madrasa Abulqosimxon Beshyog‘och hovlisi yaqinida qurdirgan madrasadir. Abulqosimxon eshon 1892 yil Toshkentda tarqalgan vabo tufayli vafot etgach, madrasada uning o‘g‘li Hoshimxon eshon mudarrislik qiladi.

Xulosa qilsak, mintaqaning yirik ijtimoiy-siyosiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lgan Toshkent shahrida ham o‘rta asrlardan buyon Samarqand, Buxoro, Xivadagi singari ko‘plab madrasalar faoliyat yuritib kelgan. Lekin ularning aksariyati zil-zilalar, turli davrlarda, xususan, sobiq

soviet tuzumida shaharni kengaytirish, ta'mirlash jarayonlari qurboni bo'ladi. Saqlanib qolganlari ham bir necha marta ta'mirlash yoki qayta qurishlar tufayli etib kelgan.

6.2. XVI-XIX asrlarda Markaziy Osiyo aniq va tabiiy fanlar rivojiga hissa qo'shgan arboblar

AHMAD DONISH Maxdum ibn Nosir (taxallusi Kalla; 1826 - Buxoro -1897) - yozuvchi, rassom, xattot, olim, ma'rifatparvar. XIX asrda Buxoro taraqqiyat parvar muhitining yuzaga kelishida muhim o'rin tutgan. Tojik tilida ijod qilgan. Mudarris oilasida tug'ilgan. Ahmad Donish boshlang'ich savodni onasidan olgan, so'ng mакtabda, madrasada tahsil ko'rgan. Adabiyot, tarix, falsafa, tibbiyat, matematika, astronomiya ilmini mustaqil o'rgangan. Xattotlik, rassomlik va naqqoshlikni yaxshi bilgan, munajjimlikdan yaxshi xabardorligi bilan Nasrumaxon nazariga tushgan. 1857, 1869, 1873 yillarda Buxoro amiri elchilarining mirzasi bo'lib, Rossiya (Peterburg) ga borgan. Safar taassurotlari asosida "Navodir ul-vaqoe'" (Nodir voqealar) va "Tarjimai ahvoli amironi Buxoro" (Buxoro amirlarining tarjimai hollari) kabi asarlar yozgan. Ularda amirlik tuzumini isloh qilish masalasini ko'gargan. Ahmad Donish amir Muzaffar taklifi bilan "Manozir ul-kavokib" (Sayyoralarning joylashishlari) nomli astronomiya (ilmi nujum)ga oid kitob yozgan (1865). 1870 - 73 yillarda islohot haqida "Risolai dar nazmi tamaddun va taovun" (Madaniyat va jamiyat tartibi haqida risola) asarini yaratgan. Biroqundagi fikrlar amirga yoqmagan va uni saroydan uzoqlashtirgan (1874). Ahmad Donish ma'lum muddat Buxoro tumanlarida qozi lavozimida ishlagan. Amir Muzaffar vafotidan so'ng Buxoroga qaytgan, madrasalardan birida mudarrislik qilgan.

Ahmad Donish "Nodir voqealar" asarida fan, texnika yangiliklari, tabiat hodisalari, geografiya, insonning uzoq umr ko'rishi, koinotning kelib chiqishi, Oy va Quyosh utilishi, zilzila haqida fikr yuritgan, Yevropa ilm-fanini o'rganishga da'vat etgan. «Risolai tarixiy» nomi bilan mashhur bo'lgan "Ta'rixi sultanati xonadoni mang'itiya" asarida mang'itlar sulolasining 100 yillik hukmronligi taxlil va tadqiq qilingan.

Ahmad Donish chizgan ayrim rasmlar saqlangan. “Maktab” nomli miniatyurasida xotinqizlarni o‘qitish g‘oyasi ilgari surilgan. XV-asr miniatyura san’ati uslubida chizilgan “Shoir va darvish” miniatyurasi, “Majnun sahroda” nomli ikkita miniatyurasi, bangining hajviy rasmi, o‘zi ko‘chirgan vabezagan Bedil asarlari O‘zbekiston FA Sharqshunoslik inistiti (inv. № 373) va O‘zbekiston davlat san’at muzeyida saqlanadi. Toshkentdagi ko‘chalardan biriga Ahmad Donish nomi berilgan.

MAHMUD ibn VALI (taxminan 1595, Balx-) - tarixchi, geograf olim, sayyoh, badavlat oilada tugilgan, yoshligida turli fanlardan saboq olgan. Hindiston, hozirgi Shri Lanka va Movarounnaxr bo‘ylab sayohat qilgan. Entsiklopedik tavsifdagi asosiy asari “Bahr alAsror fi manoqib al-ahyar” (Oliyjanob insonlar jasorati xususida sirlar dengizi) (Geografiya) bo‘lib, muallif uni yozishda arab geograflari (Ibn al-Faqih, Istaxriy, Ibn Havqal, Abu Dulaf, Ibn Fadlon, al-G‘arnotiy, Yoqut Hamaviy, Dimishqiy), fors olimlari Zakariyo Qazviniy, Hamdulloh Qazviniy va b.)ning asarlaridan foydalangan. Asarda dengiz, okean, dare, qir, tog‘, buloq, mashhur portlar (bandargoh), shaharlar, mamlakatlar va ular hududidagi tabiiy muhit, hayvonot olami, ajoyibotlar haqida bayon qilinadi.

Mahmud ibn vali ibn Mahmud ibn vali bundan tashqari, “Ravo‘ix-i toyiba” (Yoqimli hidlar), “Muhabbatnama”, “Najmi saqib” (Yorqin yulduz), “Risolai bahoriya” (Bahor haqida risola), “Axloqi husayniy” (Axloq husnlari) asarlarining muallifi. U 50 ming baytdan iborat katta devon tuzgan.

Xiva xonligidagi adabiy hayot. Xiva xonligining siyosiy va iqtisodiy hayotidagi voqealar madaniy hayotga ham ta’sir etmay qolmadi. Ijtimoiy tafakkurning barcha sohalarida reaktsion va progressiv dunyoqarash o‘rtasida kurash olib borildi. Buni biz o‘sha davrda yaratilgan tarixshunoslikka oid asarlarda va she’riy to‘plamlardan kuzatishimiz mumkin.

XVI-XVIII asrning birinchi yarmi Xiva xonligida ilm-fan taraqqiyoti garchi ijtimoiy-siyosiy vaziyat og‘ir bo‘lishiga qaramasdan butunlay to‘xtab qolgan emasdi. Ayniqsa bu davrda tarix ilmi o‘ziga xos o‘rinda turadi. Chunonchi, Xiva xoni Abulg‘ozixon Xiva tarixshunosligi maktabiga asos soldi va shu tariqa Abulg‘ozixon fan va madaniyat tarixiga

ikki muhim asari (“Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima”) bilan o‘chmas nom qoldirdi.

Ayniqsa uning “Shajarayi turk” asarining 9-bobi bevosita Xorazmnning 1512- 1663- yillardagi ijtimoiy-siyosiy tarixiga bag‘ishlangan. Unda aniq tarixiy voqealardan tashqari, turkiy xalqlar an’analari, Xiva va Buxoro munosabatlari jarayoni yoritilgan. Pul muomalasi haqida ma’lumotlar berilganligi diqqatga sazovardir.

Shuningdek, Abulg‘ozixonning yana bir katta xizmati shundan iboratki, u o‘z asarlarini oddiy kitobxon uchun turkiy tilda yozgan. Shuning uchun ham ayrim olimlar uning asarlarini yangi o‘zbek tili yozma yodgorligi deb hisoblashadi.

Bundan tashqari Vengriyaning mashhur sharqshunosi A. Vamberi “*Abulg‘oziyning ,shajarayi turk*”i uchun butun dunyo undan minnatdor,- deb yozgan edi.Bu asar bir necha asrlardan beri ko‘plab tillarga tarjima qilib kelinmoqda.

Shuningdek Abulg‘ozixonning topshirig‘i bilan “Dasturul amal” asari ham yozilgan. Afsuski, bu asar muallifi hamon aniqlangan emas. Ushbu’ asarda Sohibqiron Arrur Temurdan tortib Zahiriddin Muhammad Boburga qadar temuriylar shajerasi qisqacha sharhlangan. Har bir hukmdorga qo‘lyozmaning bir bo‘limi bag‘ishlangan.

Xiva xonligida qo‘lyozma kitob san’ati. XVI asrda Xiva xonlari saroy kutubxonalarida xattotlik, husnixat maktabi shakllandи va rivoj topgan. Masalan, Mashhur xattot Hamadoniy 1556-yilda Eshmuhammadxoniga “Shohnoma”ni miniaturalar uchun ochiq joy qoldirib ko‘chirib berdi.

Bundan tashqari, XVII-XVIII asrlarda Xivada Muhammad Yusuf Rojiy, Bobojon Sanoiy, Muhammad Rizo Oxund kabi qator usta xattotlar yashab, mehnat qilganlar. Ular she’riy asarlar, tarjima va tarixiy kitoblarni ko‘chirganlar. Har bir kitobni bezashda bir necha soha ustalari ishtirok etganlar. Bular - qog‘oz qirquvchi, kotib-xattot, muzahhib, lavvoх, lavha chizuvchilar, miniaturachi rassom va sahhoflardan iborat edilar.

Xiva xonligida bu sohaning diqqatga sazovar joyi shundaki, Xiva qo‘lyozmalari Buxoro qo‘lyozmasidan farqli o‘laroq mundarija manzarali qilib bezatilmagan. Faqqat, Lavvoх- oltin sarlovha yozuvchi, Muzahhib-oltin suvni yurituvchi, Sahhof-muqovalovchi manolarini bildiradi.

Qo‘qon xonligidagi fan va maorif. XVI –XIX asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyo xonliklarining xalq ta’limi, fan va madaniyati

haqida gap borganda shuni alohida takidlash kerakki, ijtimoiy-siyosiy hayotning hamma jabhalarida birinchi navbatda madaniyat va mafkurada islam dini g‘oyasi markaziy o‘rinni egallagan edi. X-XII asrlardan e’tiboran olgan sufiylik tariqati naqshbandlik g‘oyasi bilan uyg‘unlik negizida XV asrga kelib eng yuksak cho‘qqiga ko‘tariladi va XX asrdagi siyosiy to‘lqin hokum surgan davrga qadar jamiyat taraqqiyotining borishida jiddiy ro‘l o‘ynaydi. Eng assosiysi XVI –XIX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyodagi har uchala amirlik va xonliklarning madaniy taraqqiyotiga xos bo‘lgan umumiyl o‘xshashliklar diqqatga loyiqdir. Bu o‘xshashliklarning sabablari ham bir-biriga juda o‘xshash jihatlari quyidagicha bo‘lgan.

Birinchidan, Markaziy Osiyo hududi davlatlari XV asrlarda madaniy taraqqiyotda dunyoda eng yetakchi o‘rinlarda turgan bo‘lsa, XVI-XVII asrlardan boshlab bu hududda tushkunlik boshlanadi.

Ikkinchidan, har uchala davlat birliklari o‘zлari alohida mustaqil faoliyat ko‘rsatsalarda davlat idora ishlari o‘zbek va fors tilida olib borilardi. Buxoroda fors, Qo‘qonda fors-o‘zbek, Xivada o‘zbek tili rasman davlat tili hisoblanardi.

Uchinchidan, an’anaga ko‘ra fanda, adabiyot va maktabda arab va fors tilining obro‘si saqlanib qolganligidadir.

Umuman olganda Buxoro amirligi Qo‘qon va Xiva xonliklarida xalq ta’limining tuzilishi va faoliyati deyarli bir xil bo‘lganligini kuzatish mumkin, chunki ularda ham madrasalar, maktablar va qorixonalar mavjud edi.

Madrasalar musulmonlar uchun oliy o‘quv yurtlari hisoblangan. Maktablar masjidlar qoshida va xususiy uylarda tashkil etilgan. Xonlar o‘rtasida esa Xonzoda va zodagonlarnieng bolalarini o‘qitish uchun maxsus maktab mavjud edi.

Odatda maktablarda asosan o‘qish va yozish arifmetika va adabiyot o‘qitilar edi. Qo‘riqxonalarda esa asosan ko‘zi ojizlar o‘qib, hunar, doston va she’rlaru g‘azallar yodlash katta o‘rin tutgan.

Bundan tashqari xonlikda maktablar qizlar uchun alohida, o‘g‘il bolalar uchun alohida bo‘lgan. Masalan, o‘z zamonasining mashhur shoira Dilshoda Qo‘qonda maktab ochgan. U o‘zining maktabdorlik faoliyati haqida bunday deb yozgan edi: “Mening suhbатdoshlarim va dugonalarim aqli qizlar va iste’dodli shoiralar edi. Ellik bir yil davomida men maktabdorlik qildim va yilda o‘rtacha 20 tadan 30 tagacha o‘quvchilarim

bo‘lib, sakkiz yuz to‘qsonta qizlarning savodini chiqardim, bulardan deyarli chorak qismi, she’riyatga qobiliyatli bo‘lib, shoira va o‘z davrining aqilli va dono odamlari degan fikrlari so‘zimizning yorqin isbotidir.

Ta`lim sohasida Qo‘qon shahrida boshqa shaharlarga nisbatan ko‘proq maktablar mavjud bo‘lgan. Shuning uchun savodlilar ko‘p bo‘lib, o‘qish va yozishga usta bo‘lganlar. 1841-yilgi ma’lumotlarga qaraganda, Qo‘qon shahridagi xonning asosiy madrasasida 1000 ta mulla o‘qigan. Bu madrasani ikkita bosh muzarrix boshqargan: Eshon Mavlony va Maxzumi Buxoriy bu xurmatli insonlar bo‘lib katta ilmgaga ega fidoiylar qatoridan o‘rin olgan.

Eng asosiysi xonlikda har bir maktabdor domlaning ham o‘zicha o‘qitish usullar bo‘lgan. Ularning bazilari bolalarning yosh xususiyatlariga alohida e’tibor bergen holda kichik yoshdagi o‘quvchilarga husnixat va og‘zaki hisobni o‘rgatsa, katta yoshdagi o‘quvchilarga esa Quronning oyat va suralaridan tashqari fors, arab, turkiy tillarda yozilgan o‘nlab hayotiy kitoblarni ham o‘qishni o‘rgatar edilar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki yurtimiz hududidagi xonliklar va amirliklar davrida fan, adabiyot, san’at birmuncha rivojlangan. Ko‘proq xon saroylari doirasida ham diniy, ham dunyoviy adabiy asarlar yozilganligi hech kimga sir emas. Ayniqsa, Tarixshunoslik ham ancha rivojlangan. Garchi bu davrdagi tarixchi olimlar yozgan tarix kitoblar ko‘pincha o‘sha xonlik va amirliklardagi siyosiy voqealar salnomasiga aylanib qolgan bo‘lsa ham biz uchun bugungu kunda o‘sha davrni yoritishda muhim ahamiyatga molik manbalar bo‘lib qolmoqda.

Qo‘qon xonligida adabiy muhit. Xonlikda adabiyot sohasida juda ko‘plab shoir va shoiralari ijod etganlar. Birgina Qo‘qon xoni Umarxonning o‘zi “Amiriy” taxallusi bilan o‘zbek tilida go‘zal g‘azallar yozgan.

Xullas ushbu tahlil qilinayotgan davrda fan va madaniyat har xolda bit yerda to‘xtab qolmagan. Yuqorida bizlar takidlagan qurilishlar ayniqsa, madrasalar bunyodi shunga ishoradir. Lekin sovet davri tarixshunosligi iloji boricha XVIII-XIX asrlarda o‘zbek xalqining bu sohalaridagi tarixini bo‘yab ko‘rsatishga intilib, o‘lkani madaniy qoloqlikda ayblab, bu bilan Rossiya bosqinining “O‘zbekiston uchun progressiv ahamiyatini” isbotlashga atayin harakat qilganliklari tarixdan ma’lum.

Shu bois barcha o‘tgan sulolalar kabi mang‘itlar, qo‘ng‘irotlar va minglardan chiqqan namoyondalar ham o‘z davri va doiralarining o‘qimishli shaxslari bo‘lganlar. Masalann Qo‘qon xoni Umarning “Amiriy”, Malika

Mohlaroyning “Nodira”, “Komila”, “Maknuna”, Xiva xoni Muxammad Raximxon II “Feruz”, Uning akasi Otajon To‘ra Murod “Murodiy” taxallusida she`r bitganlarini, Abdulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarai Turk”, “Shajarai Tarokima” kabi o‘zbek tilida yozgan asarlarini shu o‘rinda eslashni o‘zi kifoyadir.

Birgina Fazliy, Mushrif, G`oziy, Afsus, Sodiq, Hijolat, Hoziq, Xotif, Maxmur, Gulxaniy kabi yetuk qalam sohiblari Farg‘ona vodiysida yashab ijod qilganlar va qalam tebratganlar.

Shuningdek, “Afzal at- Tavorix”, “ Tarixi Umarxon”, “Risolai Askariya”, “ Muntaxab at-tavorix”, “Tarixi Shohruhiy”, “ Tarixi Jahonamoy”, “Xulosat al axbor”, “ Tasnifi g‘arib”, “ Tarixi jadidai Tashkand” kabi boshqa ko‘plab tarixiy asarlar ham huddi shu davrda Qo‘qon xonligi doirasida yozilganligi tarixdan ma`lum.

Ayniqsa o‘z zamonasining yirik shoirasi, ma’rifatparvar va davlat arbobi Nodira, (Mohlaroyim tahallusi bilan) ijod qilgan. Nodira- so‘zining ma`nosи- Yakkayu yagona ma`nosini anglatadi. Shuningdek Nodira faqat o‘zbek tilidagina emas balki fors, tojik tilida ham “Maknuna, “Komila” taxallusida she`rlar g‘azallar bitganligi tarixdan ma`lum.

Eng asosisi Nodiraning olivjanob va e`tiborga loyiq tadbirlaridan shu bo‘ldiki, u o‘z atrofiga zamonasining qobiliyatli va ijod egalari bo‘lmish shoirlarni to‘pladi va ularga homiylik qildi. Uvaysiy, Mahzuna, Mushtariy va boshqalar uning eng yaqin maslakdosh va maslahatgo‘y yaqinlari edilar.

Bu davrda yana xonlikda ijod etgan Fazliy Namanganiy Mushrif, Mushfiqiy kabi shoirlar o‘z zamonasining zabardast siymolari edilar. Masalan: Mushfiqiy Buxoro amiri Abdulloxon saroyida “Malik ush-shuar” unvoniga ega bo‘lgan bo‘lsa Fazliy Namanganiy Qo‘qon shoirlariga boshchilik qilgan. Umarxonning topshirig‘i bilan Fazli va Mushrif tomonidan “Majmuat-ush shuar” to‘plami tuzilgan edi.

Bundan tashqari xonlikda XIX asrdagi o‘zbek va tojik adabiyoti tarixida salmoqli o‘ringa ega bo‘lgan, ammo ijodi yetarli darajada o‘rganilmagan shoir va tabib Hoziqdir. Uning o‘zbek va tojik tillarida yozilgan 354 misra she’ri to‘plamlari mavjud. Bundan tashqari Hoziqning bir necha g‘azal va qasidalari 1820- 21 yillarda Namanganlik shoir Fazliy tomonidan Qo‘qonda tuzilgan “Majmuat ush – shuar” (shoirlar anjumanı) qo‘lyozma asarida ham uchraydi. Uning o‘zbek va tojik tillarida yozilgan she’rlaridan tuzilgan to‘plamlari ko‘plab xorij davlatlarida saqlanmoqda.

Xullas o‘zbek milliy madaniyati markazlaridan biri shubhasiz bu Qo‘qon shahri edi. Bu yerda XVIII-XIX asrning birinchi yarmida ilm marifat olamida nomi dunyoga mashhur bo‘lgan ulug‘ va mutafakir shoirlar yetishib chiqadi. Xususan, XIX asrda Qo‘qon xoni Umarxon (1810-1822) va uning umr yo‘ldoshi shoira Nodiraning say harakati tufayli Qo‘qon shahri ilm marifat adabiy muhiti paydo bo‘ladi.

XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asr boshlarida yashab ijod etgan iste`dodli va isyonkor shoirlardan yana biri Boborahim Mashrab (1640-1711) dir. U Namanganda tug‘ilgan, 7 yoshidan mashhur Shayh Mullo Bozor Oxund qo‘lida ta`lim olib xat savodini chiqargan. 15 yoshidan Qashqarda mashhur Shayx Ofuq Xo‘ja qo‘lida 7 yil tasavvuf ilmini egallaydi. Ayrim manbalarga ko‘ra shoir Yorkentga u yerdan Xo‘tanga, so‘ng G‘uljaga borgan. Mashrab G‘uljadan Qashqarga qaytadi. So‘ng Ofoqxo‘ja topshirig‘idan Toshkentga va yana Ofoqxo‘ja huzuriga, undan keyin o‘z ona yurti Namanganga keladi. Xullas 18 yil davomida yuqorida nomlari tilga olingan yurtlarni kezgan Boborahim Mashrab Yaman, Hindiston, Dakan, Isfaxon, Hirot, Mashhad, Makka, Madina, Halab, Sherzod, Shom, Rum, so‘ng Buxoro Toshkent, Shohimardon, Avg‘onistonidagi Shibirg‘on, Andixo‘y kabi joylarda bo‘lib ilm ahillari bilan suhbatda bo‘lgan.

Mashrab merosiga oid asarlarning ayrimlari hozirda O‘zbekiston FA sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 9968 raqamli qo‘lyozma asoslاب beradi. Unda Mashrabning “Kimyo” asaridan 16 (bob) va “mabdai nur” kitobidan ikkinchi daftari, so‘ng shoirning 71 g‘azali, 7muhammasi va bitta musaddasi mavjuddir.

Shoir she’rlarining asosiy g‘oyasi o‘zi yashagan davr hukmronlarining mehnatkash xalqqa qarshi qaratilgan siyosatini, boylar, amaldor to‘ralar va chalasavod mullalarning riyokorliklari munofiqliklari, o‘zboshimchaliklari, xullas o‘rta asr zulmining barcha illatlari fosh etilganligidadir.

Buxoro amirligida fan va maorif. XVI-XIX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo xonliklari va Buxoro amirligining xalq ta‘limi, fan va madaniyati haqida gap borganda shu narsani alohida ta‘kidlash kerakki, ijtimoiy-siyosiy hayotning hamma sohalarida va birinchi navbatda madaniyat va mafkurada islom dini g‘oyasi markaziy o‘rinni egallar edi. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi fan va maorif tizimi o‘ziga xoz tarzda shakllangan edi. Xususan, Buxoro shahrida bir necha yuzlab masjidlar bo‘lgan. Ibodatxonalarining barchasi musulmon an’analari

sarchashmasidan suv ichgan, betakror arxitekturaga ega edi. Masjidlar bir qavatli, ikki qavatli va ko'shkli qilib qurilgan. Buxoro shahrida 170 ga yaqin katta va kichik madrasalar bo'lib, ularda qariyb 10 ming *mullavachchalar* (oddiy o'qituvchilar), *mudarrislar* (tajribali o'qituvchilar), *imomlar* (oliy ruhoniy arboblar) va *ulamolar* — mamlakat hukmdorining istalgan harakati ustidan *fatvo* (xulosa) berishga haqli bo'lgan qonunshunos olimlar xizmat qilishardi. Bu yerda nafaqat Buxoro amirligidan, qolaversa, Qozon, Orenburg va hatto Qrimdan kelgan talabalar ham tahsil olishardi. Musulmon olamining barcha go'shalaridan ilohiyot bilimlarini o'rganish maqsadida Buxoroga kelishardi. Madrasalar iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lib, ular daromadi qariyb 5 million tangaga boruvchi ulkan vaqf mulklariga ega edi.

O'quv muassasalari ikki bosqichdan, ya'ni boshlang'ich - *maktab* va oliy - *madrasadan* iborat edi. Madrasa qoshidagi maktablarda imomlar o'qituvchilik qilishar edi. Bu yerda qur'oni o'qishga o'rgatilar edi. Maxsus maktablar hisoblangan *qorixonalarda* o'quvchilar qur'oni yodlashar va qur'oni qiroat bilan yoddan o'quvchi, ya'ni *qori* nomini olishar edi.

Madrasada ular arab alifbosi va yozuvini, qur'onning tafsirini va diniy bilimlar-huquqshunoslik va tarixdan ozroq miqdorda ta'lim olishar edi. Zamondoshlarining ma'lumotlariga qaraganda XIX asrning o'rtalarida Buxoroda madrasa talabalari soni 9 mingdan 10 ming nafargacha yetar edi.

Madrasa va masjidlar katta vaqf mulkiga ega bo'lib, undan tushgan foydadan o'qituvchilarga maosh va talabalarga stipendiya to'lanar edi. Mudarrislardan biri tushgan foydaning xarajat qilinishini nazorat qilar edi. Har yili madrasada bo'lib o'tadigan imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan din xizmatchisi umrbo'yi beriladigan stipendiya — *dahyak* olardi.

Buxoro o'rta Osiyoning ma'rifat markazi hisoblanar edi. Bu vaqitda Xiva, Qo'qon, Hisor, Samarqand va boshqa ko'plab viloyatlardan talabalar kelib o'qishgan. Bu vaqtda Samarqand o'zining o'tmishdagi fan va madaniyat markazi maqomini yo'qotdi, masjid va madrasalar qarovsiz qoldi, o'qishni istaganlar Buxoroga ketishga majbur bo'ldilar.

Og'ir iqtisodiy ahvolga qaramasdan, Buxoro ilm-fan va san'at, she'riyat va musiqa markazi bo'lib qolaverdi. O'sha davr taraqqiyparvar doiralari g'oyalarini yorqin ifodalagan ajoyib shoiri va mutafakkiri *Ahmad Donish* (Ahmad maxdum) Buxoroda yashagan va ijod qilgan edi. Uning "Navodir ul-vaqoe" (Nodir voqealar) va "Buxoroyi sharif mang`it amirlari

muxtasar tarixi” asarlarda o’sha davr maorif tizimi haqida noyob ma`lumotlarni olishimiz mumkin.

Buxoro amirligida, Qo‘qon va Xiva xonliklarida xalq ta’limining tuzilishi va faoliyati deyarli bir xil bo‘lgan. Ularda madrasalar, maktablar va qorixonalar mavjud edi. Madrasalar musulmon oliy o‘quv yurtlari hisoblangan. Maktablar masjidlar qoshida va xususiy uylarda tashkil etilgan. Xonlar o‘rtasida xonzoda va zodagonlarning bolalarini o‘qitish uchun maxsus maktab bor edi.

Bundan tashqari amirlikda o‘qituvchilar o‘z uylarida ochgan xususiy maktablaridan tashqari barcha o‘quv yurtlari, turli shaxs va tashkilotlar tomonidan xayriya qilingan vaqflardan tushadigan daromad hisobiga ishlar edi. Ularning odatida masjidlar birinchi o‘rinda turardi, chunki deyarli barcha masjidlarda maktablar ochilgan.

O‘qishni bitirgancharning ayrimlari bilimini takomillashtirish va oshirish uchun Buxoro va Samarqand madrasalariga ham borib o‘qishardi. Har bir maktabdor domlaning ham o‘zicha o‘qitish usullari bo‘lgan. Ularning ba’zilari bolalarning yosh xususiyat-lariga alohida e’tibor bergan holda kichik yoshdagi o‘quvchilarga husnixat va og‘zaki hisobni o‘rgatsa, katta yoshdagi o‘quvchilarga esa Qur’onning oyat va suralaridan tashqari fors, arab, turkiy tillarda yozilgan o‘nlab hayotiy kitoblarni ham o‘qishni o‘rgatar edi.

Demak, dastlabki boshlang‘ich ta’limdan so‘ng Qur'on xatm qilinib, “Chor kitob”, keyin esa “So‘fi Olloyor” ibtido qilingan. So‘ngra “Kalila v a Dimna”, “Qobusnama” singari donishmandlik ruhidagi kitoblar o‘qitilgan. O‘quvchilarga “Odobnama” dasturlari asosida dars berilgan. Xalq og‘zida yurgan axloqiy, falsafiy ruhdagi maqollar, masallar, majmualar, rivoyatlar, hikoyatlardan esa tarbiya vositasi sifatida foydalanilgan. Madrasalarda o‘quv dasturi asosan uchi bosqichda: boshlang‘ich (adno), o‘rta (avsat) va yuqori (a’lo) bosqichlarda olib borilib, unda uchta til (arab, fors va turkiy) mukammal o‘rgatilgan. Madrasalarda Qur'on ilmi (o‘qish usullari, qiroat, tavsiif), fiqh (shariat qonunlari), xandas, ilmi nujum, axloq, falsafa, mantiq, adabiyot, jo‘g‘rofiya, tarix, tabobat fanlari o‘qitilgan. Talabalar arab va fors tillari orqali Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr”, Hofiz Sheroziy devoni, Mirzo Abdulqodir Bedil devoni, Mir Alisher Navoiyning “Chor devon”i, Fuzuliy g‘azaliyoti hamda sharqda milliy ta’lim sohasida darslik va

qo'llanma sifatida foydalanib kelinayotgan "Maslak ul-muttaqin", "Avvali ilm", "Mu'zi Vazanjoniy", "Avomil", "Harakat", "Qofiya", "Sharqi muloyi Jomiy",

"Risolai Shamsiya" kabi risolalar bilan tanishish imkoniga ham ega bo'lganlar. Bu esa madrasalarda ta'lim jarayonida badiiy adabiyotning mumtoz namunalari keng o'rinni olganligini, dunyoni, tafakkurni shakllantirish borasida badiiy asarlarga alohida ahamiyat berilganligini ko'rsatadi.

Madrasalarda bilim olish mumkinligi, bu yerda ham diniy, ham dunyoviy fanlar bo'yicha dunyoga tanilgan mutaffakkir, olimlar bor bo'lganligi uchun ham Turkistonda turli mamlakatlardan ko'plab talabalar kelib o'qiganlar.

XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida Buxoro amirligida siyosiy tuzum monarxiya tartibiga asoslangan bo'lib, mang'itlar sulolasiga vakillari tomonidan boshqarilar edi. Lekin siyosiy jarayonlardan keyin Buxoro amirligi o'z siyosiy mustaqilligini yo'qotib, vassal mamlakatga aylanib qoldi. Ammo ichki boshqaruvning amirlik usulida saqlanib qolishi tufayli ko'p sohalar an'anaviy tarzda rivojlanishda davom etdi. Xususan, an'anaviy madaniy hayot, ta'lim tizimi ham saqlanib qoldi. O'rta Osiyo an'anaviy ta'lim tizimiga binoan mamlakatda quyi va yuqori bosqichdan iborat ta'lim maskanlari – maktab va madrasalar asrlar davomida faoliyat yuritib kelgan. amir Abdulahadxon davrida odat tusiga aylandi va o'zining zararli mahsulini bera boshlashiga qaramasdan Buxora amirligida fah va maorif sohasida rivojlanish bosqichlarini davom ettirdi. Hususan XX asr boshlarida ham Buxoro Markaziy Osiyo, Kavkazorti, hozirgi Tatariston va Boshqirdiston hududlari uchun islom dinining markazlaridan biri sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lган. Bu Turkiston general-gubernatorining 1899 yil yakuni bo'yicha podshoga yozgan xatida ham tan olingan. Xat orqali Rossiyada 14 million atrofida musulmonlar yashayotganligi, qadimdan Buxoro musulmonlar dunyosida islom ma'rifati markazlaridan biri sifatida tan olib kelinayotganligi va hozirda ham o'zining bu boradagi ahamiyatini yo'qotmaganligi to'g'risida xabar berilgan. Boshlang'ich an'anaviy maktab musulmon bolalari uchun umumiyligi ma'lumot beradigan xat-savod chiqarish maskanlari bo'lib, arab imlosida savod olish, yozish va o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, hisoblash qoida va ko'nikmalarini hosil qilish, tabiat va

jamiyat, atrof-muhit, islom dini haqida bilim va tushunchalar berish, axloq-odob me'yorlariga amal qilishni o'rgatishdan iborat edi.

Xullas, Buxoro amirligidagi maktabxonalar faoliyatini xususida jadId namoyondalaridan hisoblangan Abdurauf Fitrat shunday ta'riflaydi: "Maktab shunday joydirki, bir muallimi bor, uni maktabdor deydilar, bolalar u erda etti yildan to o'n yilgacha zaruriy xat-savodlarini chiqargunga qadar qoladilar, undan keyin xohishlariga qarab, madrasaga borib, dars o'qiy boshlaydilar". Bundan tashqari Sadriddin Ayniyning yozishicha, Buxorodagi maktabxonanining ko'rinishi quyidagicha bo'lgan: "Maktab torgina bir xonadan (hujradan) iborat bo'lib, uning ikki eshigi bor, buning biri bir tavaqali va eshik ko'pincha yopiq turar edi. Ikkinci eshigi darcha bo'lib, uch gaz bo'yli va yarim gaz eni bor. Bu darchaning oldida domla(maktabdor)ning o'tiradigan joyi bor. Darchalarga esa parda qilingan (derazasi qog'oz bilan qoplangan) va qog'ozga qor-yomg'irdan saqlash uchun zig'ir moyi surtilgan edi. Shuningdek, maktabning derazasidan darsxonaga hech bir yorug'lik kirmas edi. Hujraning shipi tagidan devorning shipga yaqinlashgan joyida ikki tomondan ham bir-biriga ro'parama-ro'para qilib ochilgan ikki tuynukcha bo'lsa ham, bulardan kiradigan yorug'lik pastga tushmasdan, hujraning devorlarida qolar edi. Bu hujraning kengligi o'n olti gaz murabba (kvadrat) edi, uning ichida bir-birining ustidan o'tkazilib to'rtta sinch tortilgan va bu bilan hujra to'qqiz bo'lakka bo'lingan, go'yo maktabxonanining ichida to'qqiz oxur paydo bo'lgan edi.

6.3.Tarixnavislik vakillari.

IBRAT (taxallusi; asl ismsharifi Ishoqxon Junaydullaxo'ja o'g'li) (1861, Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani-1937, Andijon)-o'zbek ma'rifatparvari, shoir.Qo'qondagi Muhammad Siddiq Tunqotar madrasasida o'qigan (1878—86).1887-92-yillarda Istanbul, Sofiya, Afina,Rim, Qobul va Jidda shaharlarida bo'lgan.

Hindistonning Bombay va Kalkutta shaharlarida yashagan (1892- 96). Safardan qaytgach, To'raqo'rg'onda yangi usul maktabini ochgan (1907), o'z qishlog'ida "Matbaai Ishoqiya" nomli litografiya tashkil qilgan (1908). Ibrat yangi maktablar ochish, o'qituvchilar tayyorlash, ayollarni ilm-ma'rifatli qilish ishlarida faol qatnashgan. O'z she'rlari ("Tarixi chopxona", "Madaniyat haqida masnaviy", "Gazeta xususida", "Qalam") da mahalliy va

chor amaldorlari kirdikorlarini fosh etgan (“Ilmi Ibrat”, she’riy to‘plam, 1909). Ibrat arab, fors, hind, turk, o‘zbek va rus so‘zlaridan tarkib topgan “Lug‘at sitta as-sina” (“Olti tilli lug‘at”, T., 1901) tuzgan, bu asar o‘sha davr uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Ibratning yozuvlar tarixiga oid “Jome’ ulhutut” (“Xatlar majmui”, 1912) asarida lotin, yunon, xitoy, qind, arab, Kirill yozuvining kelib chiqishi, rivojlanish tarixi haqida ma’lumot berilgan, ilmiy-tarixiy asarlari (“Tarixi Farg‘ona”, 1916; “Tarixi madaniyat”, 1925; “Mezon uz-zamon”, 1926) esa Qo‘qon xonligining vujudga kelishidan to XX-asrning 30-yilarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan. Ibrat “Turkiston viloyati gazeti”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona” gazetalariga yozgan maqolalarida fan, ma’rifat va madaniyatni targ‘ib etgan. 1937 yilda qatag‘on qurban ni bo‘lgan.

BAYONIY (taxallusi; asl ismi Muhammad Yusufbek Bobojonbek ug‘li) (1858 - Xiva - 1923) — O‘zbek shoiri, tarixchi, musiqashunos, xattot va tarjimon. Xivadagi Sherg‘ozixon madrasasida tahsil ko‘rgan. Suls, kufiy, rayhoniy, shikasta xatlarini yaxshi bilgan, tanbur chertish va g‘ijjak chalishda mohir bo‘lgan. Bayoniyning bir devoni, Xorazm tarixiga oid ikki asari va tarjimalari saqlangan. U mumtoz she’riyatning deyarli hamma janrlarida ijod qilib, Navoiy, Munis, Ogahiy an’analarini davom ettirgan. Avaz O‘tar bilan ijodiy hamkorlikda bo‘lgan. “Devoni Bayoniy” she’rlar to‘plamini tuzgan. Unga kirgan she’rlarida dunyoviy sevgini ulug‘lagan, tabiat go‘zalliklarini sodda va ravon ifodalagan, mazlumlar, ilmfan ahlining achchiq taqdiriga achingan. “Shajarai Xorazmshohiy” tarixiyemuar asari bilan Munis va Ogahiy boshlagan ishni davom ettirgan. Bunda Yofasdan Qo‘ng‘irot urug‘igacha, Abulg‘oziy Bahodirxon dan Asfandiyorxon gacha o‘tgan xonlar hukmronligi davri tarixi yoritilgan. “Xorazm tarixi” asari «Shajarai Xorazmshohiy»dagi voqealarni to‘ldirgan.

Asarning avvalgi boblari ma’no jihatdan “Shajarai Xorazmshohiy”ga o‘xshab ketadi. Lekin yozilish uslubi bilan undan farq qiladi. Asarda, asosan Asfandiyorxon hukmronligi davri va undan keyin ro‘y bergen voqealar tasvirlangan. 16 bobdan iborat bu asarning 8 bobigina bizgacha etib kelgan. Bayoniyning har ikki tarixiy asarida ijtimoiy-iqtisodiy hayotga oid juda ko‘p qimmatli materiallar bor.

Jumladan, Xiva xonligining Buxoro va Qo‘qon xonligi va xonlikka qo‘shni bo‘lgan boshqa mamlakatlar bilan savdo va diplomatik

munosabatlari, mehnatkashlardan olinadigan har xil soliqlar, Xorazmda yashagan olim va shoirlar, shaharlar hayoti, dehqonchilik ishlari to‘g‘risida boy ma’lumotlar yozilgan.

Bayoniy arabchadan Darvesh Ahmad (“Sahoyif ul-axbor”, 1901), forschadan Binoiy (“Shayboniynoma”, 1915), Tabariy (“Tarixi Tabariy”) asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. “Majmuai shuaroi forsiy” to‘plami (1900) va buni husnixatda ko‘chirgan. “Shajarai Xorazmshohiy” (inv. № 9596), “Xorazm tarixi” (inv. № 7421), “Devoni Bayoniy” (inv. №№ 1120, 7106, 6666) asarlarining qo‘lyozmalari O‘zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda.

MUHAMMAD AMIN BUXORIY, Muhammad Amin ibn Mirza Muhammad Zamon Buxoriy So‘fiyoniy (XVII asr) - buxorolik tarixchi olim. Buxoro shahrining So‘fiyon mahallasidan bo‘lgan, Hayoti to‘g‘risida ma’lumotlar deyarli saqlanmagan. Taxminan 60 yoshida “Muhit attavorix” – “Tarixlar okeani” (1700) asarini yozgan. Asar 10 bobdan iborat bo‘lib, uning keyingi boblari somoniylar va ashtarxoniyalar davrini o‘z ichiga oladi. Asarda olimlar, xattotlar va naqkrshlar haqida noyob ma’lumotlar mavjud. Ayniqsa, Sub-honqulixon (xukmronligi: 1681 - 1702) davrida yuz bergen siyosiy voqealar. Buxorodagi markaziy hokimiyatga bo‘ysunishni xohlamagan Balx viloyati ustiga yurishlar, Xiva xonining Qorako‘l, Karmana, Vardonzega bosqinlari tasviriga katta o‘rin ajratilgan. Bu asar u bilan taxm. bir paytda yozilgan Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy” va Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma” asarlari bilan birgalikda ashtarxoniyalar davrini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Asarning Toshkent, Sankt-Peterburg, Parijda qo‘lyozma nusxalari mavjud.

6.4. Rossiya imperiyasi davrida Markaziy Osiyoda ilm-fan

RADLOV Vasiliy Vasilevich (Fridrix Vilgelm) (1837.5.1, Berlin - 1918.12.5, Petrograd) - rus sharqshunosturkiyshunosi, etnograf va tarjimon. Peterburg FA a’zosi (1884), falsafa fanlari doktori (1858). Berlin universitetini tugatgan (1858). Peterburg FA Osiyo muzeyi (1885-90), Antropologiya va etnografiya muzeyi direktori (1894-1918). 1858 yildan umrining oxirigacha Rossiyada yashagan Radlovning hayoti va ilmiy faoliyati shartli ravishda 3 davrga bo‘linadi: Oltoy davri (1859-71)da

Rossiyaning Oltoy va G‘arbiy Sibirdagi turkiy xalqlar tillarini o‘rgangan, bu xalqlarning tillari, folklori, etnografiyasiga oid materiallar to‘plab, ularni dastlabki ishlovdan o‘tkazgan. Qozon davri (1871-84)da uning turkiy tillar fonetikasiga bag‘ishlangan yirik asari — “Shimoliy turkiy tillarning chog‘ishtirma grammatikasi. I qism. Fonetika” Leyptsigda nemis tilida chop etilgan (1882-83). Peterburg - Petrograd davri (1884-1918)da Radlov nomini jahonga tanitgan 4 jildli 24 kitobchadan iborat “Turkiy lahjalar lug‘ati tajribasi” (“Opo‘t slovarya tyurkskix narechiy”) dunyoga keldi. Ushbu fundamental asar 40 dan ortiq turkiy tilda uchraydigan 70 ming lug‘aviy birlikni qamrab olgan.

Radlov 1860-70 yillardagi Oltoy, Sibir, Qozog‘iston, O‘rta Osiyo ekspeditsiyalarining ishtirokchisi, 1891 yildagi Urxon ekspeditsiyasining rahbari, 1898 yildagi Turfon ekspeditsiyasining tashkilotchisi bo‘lgan, birinchilardan bo‘lib turkiy urxunenisey yozuvini o‘qigan; XI asr yozma yodgorligi bo‘lmish “Qutadg‘u bilig”ning Vena kutubxonasi dagi uyg‘ur yozuvli nusxasining faksimilesini va nemischa tarjimasini nashr etish bilan (1891-1910) ushbu asarni o‘rganishga asos solgan.

Radlov o‘zining 60 yillik ilmiy faoliyati davomida o‘z ilmiy qiziqishlari doirasiga asta-sekin turkiyshunoslikning barcha sohalarini qamrab olgan va mazkur sohalarda rus va nemis tillarida yaratgan ishlari bilan turkiyshunoslikning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

As: Obraztso‘ narodnoy literaturo‘ tyurkskix plemen, jivuhix v Yujnoy Sibiri i Dzungarskoy stepi, ch. 1 – 10- SPb., 1866 - 1907; Opo‘t slovarya tyurkskix narechiy, tt. 1 - 4SPb., 1893-1911.

Ad.: Kononov A. N., Istorya izucheniya tyurkskix yazo‘kov v Rossii. Dooktyabrskiy period, L., 1972; Qo‘chqortoev I., Isabekov B., Turkiy filologiyaga kirish, T., 1984.

Ergash Umarov, Abduvahob Madvaliev.

NALIVKIN Vladimir Petrovich (1852.15.7, Kaluga- 1918.20.1, Toshkent) tarixchi, sharqshunos, lingvist va pedagog. 1873 yil artilleriya bilim yurtini tugatgach, Turkistonda xizmat qilgan, Xiva va Qo‘qon yurishlarida qatnashgan. Qisqa muddat Namanganda harbiy boshliqning yordamchisi bo‘lib ishlagan. Erli aholining tili, turmushi va urf-odatlarini yaqindan o‘rganish uchun Nanay qishlog‘idan er sotib olib,

oilasi bilan shu erda bir necha yil yashagan. O‘zbek, tojik, arab tillarini puxta o‘rgangan.

Nalivkin Turkiston o‘lkasida ochilgan birinchi rus-tuzem maktabining dastlabki o‘qituvchilaridan bo‘lgan, Toshkent o‘qituvchilar seminariyasida mahalliy tillardan dars bergan (1890-yilgacha). 1890-95 yillarda Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand gubernatorining yordamchisi bo‘lgan. II Davlat dumasining deputatligiga saylangan. 1917 yilda Muvaqqat hukumatning Turkiston qo‘mitasiga raislik qilgan, mensheviklarni yoklagan. U Turkiston o‘lkasining tarixi, etnografiyasi, islam madani-yatiga doir ko‘plab asarlar yozgan, o‘zbek (“sart”), fors tillari bo‘yicha qo‘llan-malar yaratgan, “sartcha” (o‘zb.)-ruscha, ruscha-“sartcha” (o‘zb.), ruscha-forscha lug‘atlar tuzgan. Akadimek V. V. Bartoldning ta’rificha, Nalivkin ruslar orasida o‘zbek tili va turmushini eng yaxshi bilgan olim bo‘lgan. Uning xotini M. V. Naliv-kina bilan birga yozilgan “Farg‘onadagi o‘troq aholi ayollarining turmushiga doir ocherklar” hamda “Qo‘qon xon-ligining qisqacha tarixi” asarlari sharqshunos olimlar tomonidan yuqori baholangan. Keyingi asar 1899 yilda Parijda frantsuz tilida A. Dozon tarjimasida bosingan. Bolsheviklar Ta’sis majlisini tarqatib yuborib, zo‘ravonlik bilan hokimiyatni bosib olgandan keyin Nalivkin bo‘lajak qatag‘onlar va vahshiyliklarni oldindan ko‘ra olgan. U 1918 yil 20 yanvarda Toshkentda bolsheviklar tuzumiga norozilik sifatida xotinining qabri ustida o‘zini otib o‘ldirgan.

LIKOSHIN Nil SERGEEVICH (1860 - 1922) - Turkiston o‘lkasini tadqiq etgan rus sharqshunosi; asli harbiy, Turkiston general-gubernatorligi ma’muriyati tizimida bir qancha mas’ul lavozimlarda ishlagan. 1917 yil yanvarda iste’foga chiqqan. 1918-20 yillarda Toshkentdagi Turkiston xalq universitetida etnografiya va turkiy tillardan dars bergan. Etno-arxeologik kuzatishlar olib borgan. Ilmiy o‘lkashunoslikka oid 800 ga yaqin makrla va risolalar yozgan. Likoshinning “Yarim umr Turkistonda” kitobi Turkiston xalqlarining etnogirafiyasiga oid muhim manba sanaladi. Sharq olimlarining ko‘plab asarlarini arab va o‘zbek tilidan rus tiliga tarjima qilgan.

VESELOVSKIY Nikoloy Ivanovich (1848-1918.12.4) - rus arxeologi va sharqshunosi. 1890 yildan Peterburg universiteti professor Peterburg FA ning muxbir a’zosi (1914). Turkiston tarixi va arxeologiyasini o‘rgangan. Turkiston tarixi, etn. siga oid bir qator maqolalar nashr ettirgan. 1885 yil

arxeologik qazishlar olib borish uchun Turkiston o‘lkasiga yuborilgan. Afrosiyobda arxeologik qazish ishlari olib borgan. Samarqanddagi XIV-XV asr obidalari - masjid va yodgorliklar albomi va Amir Temur maqbarasi naqshlarining rangli jadvalini tuzib, nashr ettirgan.

TURKISTON ARXEEOLOGIYA HAVASKORLARI

TO‘GARAGI - Turkiston o‘lkashunoslari tomonidan tuzilgan ilmiyjamoatchilik tashkiloti. 1895 yil Toshkent shahrida tashkil etilgan. Asosiy vazifasi o‘lkadagi qadimgi yodgorliyutar, sharq qo‘lyozmalari, numizmatika va etnogirafiyaga oid materiallarni qayd qilish va hisobga olishdan iborat bo‘lgan. To‘garak a’zolari, shuningdek, qadimgi shahar xarobalarini tekshirib, dastlabki arxeologik qazish ishlarini olib borganlar. Turkiston o‘lkasining tarixi va ma’muriy tuzumi bo‘yicha o‘rta asr sharq qo‘lyozma manbalari, xalq afsonalari, maqollari, matallari, urfodat, folklor ga oid materiallarni to‘plagan. Shu bilan birga to‘garak a’zolari xalqimizning nodir qo‘lyozma va madaniyat boyliklarini Rossiyaga jo‘natishga ham ko‘maklashganlar. V. V. Bartold to‘garak asoschilaridan bo‘lib, uning faollaridan hisoblangan. To‘garak a’zolari qatorida, shuningdek, M. S. Andreev, A. A. Divaev, N. S. Likoshin, N. G. Mallitskiy, N. P. Ostromov, A. A. Semyonov va b. bor. To‘garak 1917 y. tarqalib ketgan.

SEMYONOV Aleksandr Aleksandrovich (1873.16.9, Tambov gubernyasi 1958.16.11, Toshkent) — tarixchi, sharqshunos. O‘zbekiston FA muxbir a’zosi (1943), O‘zbekiston (1944)da xizmat ko‘rsatgan fan va texnika arbobi, Tojikiston (1946)da xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Tojikiston FA akademik (1951), tarix fanlari doktori (1942), prof. Tambov o‘qituvchilar seminariyasini (1894)ni, Lazarev Sharq tillar inistitutini tugatgan (1900). Semyonov Zakaspiy viloyati statistika ko‘mitasi kotibi (1900-06), Turkiston O‘lka bosh boshqarmasi boshlig‘i (1906-08), Turkiston generalgubernatorligi qabulxonasida boshliq o‘ribbosari (1908-11), generalgubernator qoshida diplomat (1911-16), Rossiyaning Buxorodagi rezident maslahatchisi (1917-18). 1919 yilda O‘rta Osiyo universitetida, so‘ngra Turkiston Sharqshunoslik inistitutida o‘qituvchi. O‘zbekiston FA Sharqshunoslik inistituti (1943-51)da ilmiy xodim, shu inistitut direktori (1943-48), Tojikiston FA Tarix, arxeologiya va etnofafiya inistituti direktori (1951-58). Toshkentda ochilgan universitet tashkilotchilaridan biri.

Turkiston arxeologiya yodgorliklarini va yozma manbalarini o‘rgangan va qator tarixiy asarlarni rus tiliga tarjima qilib, chop ettirgan. Semyonovning ilmiy ishlari Xuroson, Movarounnahr, Hindiston tarixi, etnogirafiyasi, arxeologiyasiga bagishlangan. Semyonov XV-asr tarixi, Navoiy, Jomiy, Darvesh Ali Changiyning hayoti va ijodiga bagashlangan asarlar muallifi.

SEMYONOV-TYANSHANSKIY(1906 y. gacha Semyonov) Pyotr Petrovich (1827.2.1, hozirgi Lipetsk viloyati — 1914.26.2, Peterburg) — rus geografi, jamoat arbobi. Peterburg Fanning faxriy a’zosi (1873). Rossiya Geografiya jamiyati vitseraisi (1873-1914). Davlat kengashi a’zosi (1897). Peterburg universitetining tabiiyot bo‘limini tugatgan (1848). 1849 yildan Sharqiy Evropa tekisligida ekspeditsiya ishlari olib borgan. A. Ritgerning “Osiyo yer bilimi” asarini rus tiliga tarjima qilgan. 1856-57 yillarda Tyanshan (Tangritog‘) tog‘larini o‘rganib, uning dastlabki orografik va vertikal zonallik sxemasini tuzgan, katta balandlikdagi qor chegarasida katta muzlik borligini aniqlagan va buni iqlimning quruqligiga bog‘liq ekanligini to‘g‘ri tushuntirgan (Tyanshanni ilmiy o‘rganganidan 50 yil o‘tgach, uning familiyasiga “Tyanshanskiy” deb qo‘shib aytildigan bo‘ldi). Markaziy Osiyoni tadqiq qilish bo‘yicha yirik ekspeditsiyalarni uyushtirishga Semyonov-Tyanshanskiy bevosita yordam ko‘rsatgan. Rossiya geografiyasiga oid ko‘p jildli asarlar yaratishga rahbarlik qilgan, 700 mingga yaqin hasharot to‘plab, kollektsiya tuzgan. O‘rta Osiyo va Markaziy Osiyo, Kavkaz, Alyaska va Shpitsbergendagi bir necha geografik ob’ektlar; 100 ga yaqin yangi topilgan o‘simplik va hayvonlar Semyoniv Tyanshanskiy nomiga qo‘yilgan; Geografiya jamiyati tomonidan Semyonov-Tyanshanskiy nomli oltin medal ta’sis etilgan.

FEDCHENKO Aleksey Pavlovich (1844.7.2, Irkutsk - 1873.3.9.) - rus tabiatshunosi, O‘rta Osiyoni tadqiq qilgan olim. Moskva universitetini tugatgan (1864). Zoologiyaga oid to‘plamlar va gerbariyalar to‘plagan. Antropologiya va etnogirafiya bilan shug‘ullangan. 1868-71 yil larda Oloy vodiysiga sayohat qilgan. Oloy orti tizmasini o‘rgangan. Hisor Oloy tog‘ sistemasining Georografik sxemasini tuzgan. Rishta kasalligi qo‘zg‘atuvchisining biologiyasini aniklagan. Alp tog‘laridagi Monblan cho‘qqisiga chiqishda halok bo‘lgan. Fedchenkoning to‘plagan materiallari geograf olimlar tomonidan qayta ishlanib, “A. P. Fedchenkoning

“Turkistonga sayohati” nomli rus tilidagi kitobida nashr qilingan (1872-77 va 1950-yillar). Pomir tog‘idagi muzlik Fedchenko nomi bilan atalgan.

SHREDER Rixard Rixardovich (1867.15.10, Moskva 1944.27.4, Toshkent) — qishloq xo‘jaligi sohasidagi olim, VASXNIL akademik (1935), O‘zbekiston FA akademik (1943), professor (1918), qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (1936), Mehnat Qahramoni (1927). Moskva universitetining fizika matematika fakul’tetini (1891) va Petrovsk qishloq xo‘jaligi akademiyasini tugatgan (1894), shu erda xususiy dehqonchilik kafedrasida assistent (1895-1900). Germaniya, Shveytsariyada malaka oshirgan (1900-02), 1902 yildan umrining oxirigacha Turkiston qishloq xo‘jaligi tajriba stansiyasi (hozirgi akademik R. R. Shreder nomidagi Bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik instituti) rahbari. Turkiston qishloq xo‘jaligi jamiyati prezidenti (1904-18). Turkiston xalq universitetini tashkil etishda faol qatnashgan (1918), O‘rta Osiyo universiteti qishloq xo‘jaligi fakultetining birinchi dekani va professor Shreder rahbarligida g‘o‘za, don, meva, rezavormeva, sabzavot ekinlari, pillachilik va boshqalar sohalarda keng qamrovli tadqiqotlar olib borildi, ayniqsa, bog‘dorchilikka katta ahamiyat berildi. Kuzgi bug‘doyning “Qora kaltak” yoki №584 navini, g‘o‘zaning o‘z davrida mashhur, tezpishar №1306 yoki “Shreder” navini yaratgan. Mevali o‘simliklar kollektsiyasini tashkil etib, olma, nok va boshqalarning 200 dan ortiq navini o‘rgangan. Uning ishini keyinchalik o‘g‘li A. G. Shreder (Argus, Toshkent borovinkasi, Toshkent kalvili, Pskent olmasi va boshqalar navlari yaratgan), nabirasi E. A. Shreder (Cho‘pon, Go‘zal, Oltin olma va boshqalar navlar muallifi) davom ettirdi. Intda chiqarilgan serhosil uzum (“Shreder ertagisi”), qulupnay (“Shreder xotirasi”), olma (“Shreder reneti”) navlari uning nomi bilan atalgan. Bogdorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tekshirish intining 100 yilligi munosabati bilan institut markaziy binosi oldida bronza byusti o‘rnatilgan (2001). “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlangan (2004).

BARTOLD Vasiliy Vladimirovich [1869.3(15).11 – Peterburg – 1930.19.8] — sharqshunos. Rossiya FAning akademigi (1913). Peterburg universiteti sharq tillari fakultetini tamomlagan (1891). Bartold O‘rta Osiyoga birinchi marta 1893 yilda kelgan. Keyinchalik bir necha bor Toshkentda bo‘lgan. Toshkentdagি Turkiston arxeologiya havaskorlari to‘garagi tashkilotchilaridan biri. U FA sharqshunoslар kollegiyasining doimiy raisi, Turkiston xalq universitetining faxriy a’zosi

(1918), Turkshunoslik qo‘mitasining rahbari (1928-30). Moddiy madaniyat tarixi Davlat akademiyasi raisi o‘rnbosari, “Eron” ilmiy jurnalining muharriri. Bartold Yaqin, O‘rta Sharq, ayniqsa O‘rta Osiyo va Arab xalifaligi, islom tarixi, turkiy xalqlar tarixi, filologiyasi va etnografiyasi, Afg‘onistan, Eron, Zakavkaze va qisman Xitoy tarixiga oid asarlar yozgan. Nashr qilingan 685 asaridan 320 tasi O‘rta Osiyo tarixiga bag‘ishlangan. Bartold Sho‘ro Sharqidagi xalqlarniig alifbosini arabchadan lotinchaga o‘tkazishda faol qatnashdi. Uning ko‘pgina asarlari o‘zbek, tatar, qirg‘iz, turk, fors, arab, ingliz, nemis va frantsuz tillarida nashr qilingan. “Islom entsiklopediyasi”da 246 maqolasi bilan qatnashgan. Bartold O‘rta Osiyo xalqlari tarixi, etnografiyasi va psixologiyasini chuqur o‘rgangan olim bo‘lsada, Turkiston xalqi madaniyatini ob’ektiv va haqqoniy baholay olmadi, ma’lum darajada uni kamsitdi. Bu uning “Ulug‘bek va uning davri” asarida aniq seziladi. Chunki Bartold chor Rossiyasi mustamlakachiligining ideolog edi, u evropaliklarning osiyoliklardan ustunligi g‘oyasini olg‘a surdi va shu ustunlikni ilmiy va mafkuraviy jihatdan asoslashga xizmat qildi.

VYATKIN Vasiliy Lavrentevich [1869.18(30).8, Ettisuv – 1932.26.6, Samarqand] — arxeolog, professor(1923). Toshkent o‘qituvchilar seminariyasini tugatgan (1894). Samarqand o‘lkani o‘rganish muzeyining tashkilotchisi (1896) va direktori. Vyatkin 1905-31 yillarda Afrosiyobda qazish ishlari olib borib, tadqiqotlari haqida “Afrosiyob — ko‘hna Samarqand o‘rni” (1926) asarini yozgan. Ulug‘bek rasadxonasi (15-asr) o‘rnini aniqlagan va u erda qazish ishlari olib borgan (1908-09, 1914); Samarqand me’moriy yodgorliklarini o‘rganish va muhofaza qilishga katta e’tibor bergen (“Mirzo Ulug‘bek va uning Samarqanddagi rasadxonasi”, “Qadimgi Samarqand yodgorliklari”, 1927, “Qadimgi Samarqand arxitekturasi”, 1929). Buxoro (1920) va Xorazm (1929) da muhim arxeologik tadqiqotlar olib borgan. O‘rta asrlarga doir ko‘plab sharq qo‘lyozmalarini to‘plagan, sharhlagan va nashr etirgan. Rus maktablari uchun “O‘zbek tili darsligi” va “Fors tili darsligi”ni tuzgan (1923). Ulug‘bek rasadxonasi yoniga dafn etilgan.

6.5. Rus-tuzem maktablari va jadid maktablari.

RUS-TUZEM MAKTABLARI (rus. tuzemets — mahalliy aholi) — Turkistonda Oktyabr to‘ntarishiga qadar mahalliy aholi bolalari uchun

ochilgan boshlang‘ich rus maktablari. Uni ochishdan asosiy maqsad o‘lkani ruslashtirish edi.

Turkiston generalgubernatori K. P. fon Kaufman “musulmon va rus maktablarining ajralib turishi”ni iqtisodiy va siyosiy jihatdan zararli deb hisobladi. Bu g‘oyani Kaufmanning izdoshi general-leytenant N. O. Rozenbax davom ettirib, ibtidoiy turdag'i yangi maktablar — Rus-tuzim maktablari tarmog‘ini yaratish loyihasini ishlab chiqdi. Birinchi rustuzem maktabi 1884 yil 19 dekabrda Toshkentda ochilgan. Unda 41 bola o‘qigan. 1891-yil Xivada, 1894-yil Buxoroda ham ochilgan. Ularning soni XIX-asr oxirida 100 dan oshgan. Rus-tuzem maktablarida ta’lim muddati to‘rt yil bo‘lgan. Rus-tuzem maktablari ruscha va mahalliy sinflarga bo‘lingan. Rus tili, o‘qish, yozish, hisob, geometriya, tarix, boshlang‘ich o‘zbek tili, arab tili va islom dini asoslari o‘qitilgan. Rus tili, hisob, yozuv, geometriya, tarix darslarini rus o‘qituvchisi, o‘zbek tili, arab tili, islom dini asoslarini o‘zbek muallimi o‘qitgan. Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval” (1902), Aliasqar Kalininning “Muallimi soniy” (1903), S. M. Gramenitskiyning uch qismidan iborat o‘qish kitoblari Rus-tuzem maktablari o‘quvchilarining asosiy darsliklari bo‘lgan. Ayrim Rus-tuzem maktablari qoshida kattalar uchun (rus grammatikasi asosini o‘rgatish maqsadida) kechki maktablar, ko‘chmanchi aholi uchun esa internatlar tashkil kilingan. Keyinchalik ikki yillik va ayollar uchun ham Rus-tuzem maktablari ochilgan. Rus-tuzem maktablari mahalliy aholining bir qismiga o‘sha davr uchun ilg‘or bo‘lgan madaniyat yutuqlaridan baxramand bo‘lish imkonini yaratgan.

JADID YOKI YANGI USUL MAKTABLARI — Bugungi kunda biz kelajak avlodlarimizni barkamol shaxs, komil inson sifatida tarbiyalashda xalqimizning tarixiy an’analari, ma’naviy boyliklari, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ilmiy meroslari va tarixiy-tarbiyaviy tajribalarini o‘rganib chiqish, ularning yutuqlarini hayotga, ta’lim-tarbiya ishlariga tatbiq etishning ahamiyati kattadir. Birinchi Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Har qaysi inson men shu millat farzandi ekanman, mening ajdodlarim kimlar bo‘lgan, millatimning ibtidosi qayda, uning oyoqqa turishi, tiklanishi, shakllanish jarayoni qanday kechgan, degan savollarni o‘ziga berishi tabiiy. Tarixiy ildizini izlagan odam, albatta, bir kun, mana shunday savollarga duch keladi va aminmanki, to‘g‘ri xulosalar chiqaradi. Tarixiy xotirasi bor inson — irodali inson, Takror aytaman, irodali inson”. Mustahkam iroda odamda darrov paydo bo‘lib qolmaydi, balki asta- sekin tarbiyalanadi. Kishi o‘zini-

o‘zi ongli ravishda, qunt va sabot bilan, har kuni, hamma yerda- ishda, o‘qishda, sportda irodali bo‘lish uchun tarbiyalab boradi. Iroda ko‘zlangan maqsad yo‘lida uchraydigan to‘siqlarni engish jarayonida tarkib topadi va mustahkamlanib boradi. Irodali kishilargina tabiat sirlarini ochishlari mumkin, faqat irodali kishilar o‘z harakati yo‘lidagi to‘siqlarni enga olishi mumkin, faqat irodali kishilargina buyuk san`at asarlarini yarata oladi.

Turkistonda jadidchilik harakati vujudga kelishida yurt va el farovonligi yo‘liga kamARBASTA bo‘lgan ziyolilar o‘z matonatini yurt tashvishi bilan bevosita bog‘laganlar. Ayniqsa, samarqandlik Mahmudxo‘ja Behbudiy muhim rol’ o‘ynagan bo‘lsa, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo‘jayev (Ubaydulla Xo‘jayev), Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov bu harakat tepasida turgan bo‘lsalar, ularning yetakchisi Munavvarqori Abdurashidxonov Toshkent jadidlarining otasi deb e’tirof etilgan. U XX asr ziyoli o‘zbeklari tomonidan bir ovozdan “ma’naviy ilhomchi”, “buyuk millatning buyuk kelajak maqsadlari uchun tunu-kun tinim bilmagan xalq xizmatkori” degan unvonlarga sazovor bo‘lgan.

XIX-asr oxiri — XX-asr boshlariDA Turkistonda tijorat va sanoatning rivojlanishi bu sohalarni boshqara oladigan shaxslarni etishtirish ehtiyojini tug‘dirdi. Ko‘p asrlik maktabxonalar yoshlarga zarur dunyoviy bilim va ko‘nikma bermas edi. Shuning uchun yangi usulda ta’lim beradigan maktablar ochila boshladi. 1893-yil Buxoro amiri Abdulahadxon ruxsati va Mo‘minxo‘ja Vobkendiy va g‘ijduvonlik Domla Fozil sa’yharakati bilan dastlabki yangi usul maktabi ochildi. O‘zbekiston hududida keyingi Yangi usul maktablari 1898-yil Qo‘qonda Salohiddin domla va SamarqanddagI paxta zavodi huzurida tatar muallimlari tomonidan ochilgan (o‘zbeklar bu davrda bunday maktablarni “no‘g‘oy maktab” deb atagan). 1900 yildan boshlab Toshkentda jadidchilik harakatining yirik namoyandası Munavvarqori Abdurashidxonov, Samarqandda Abduqodir Shukuriy (Shakuriy) tashkil qilgan Yangi usul maktablari ish boshlagan. Bunday maktablar Andijon va Namanganda, Xiva xonligida ham ochilgan. 1908-yil Buxoroda A. Burhonov tomonidan tashkil etilgan boshqa yangi usul maktabi ko‘p o‘tmay yopib qo‘yilgan. Yangi usul maktablarida maktabxonadagi yakka o‘qitish usulidan sinfda dars berish usuliga o‘tildi, sinflarda geografiya xaritalari, globus va boshqalar ko‘rgazmali qo‘llanmalar paydo bo‘ldi. Yangi usul maktablarida xatsavod bolalarning ona tilida tovush usuli - usuli savtiyaaa o‘rgatilgan. Maktablar asosan 1-4 sinfdan iborat

boshlang‘ich maktablar bo‘lgan. 1913/14 o‘quv yilidan ayrim joylarda ikki bosqichli tizim joriy qilina boshlandi. Bu tizimdagи maktablar namuna maktablari deb atalib, ularning birinchi bosqichi tazhiri (boshlang‘ich) sinflar, ikkinchi bosqichi rushdiy (yuqori) sinflar deyilgan. Xususan, M. Abdurashidxonovning namuna maktabi, A. Shukuriyning Samarqanddagi va A. Ibodiev Qo‘qondagi maktabida rushdiy (yuqori) sinflar (5 -6 sinflar) ham ish boshlagan.

Yangi usul maktablari uchun maxsus binolar qurilmatan. Ular xususiy bo‘lib, ko‘p hollarda maktab uchun muallimning o‘z uyidan yoki biron bo‘sh turar joy binolaridan hamda ba’zi shaxslarning tashqi hovlilaridan foydalaniłgan. Chor hukumati amaldorlari bunday maktablar milliy madaniyatning o‘sishiga yordam berishidan cho‘chib, podsho hokimiyati uchun xatarli deb hisobladilar. Shuning uchun ularning faoliyatini bo‘g‘ib qo‘yadigan turli tadbirlar qo‘rildi. Xususan, 1911 yilda mahalliy millat maktablarida (rus-tuzem maktablaridan tashqari) o‘quvchilar qaysi millatdan bo‘lsa, muallimlar ham shu millatdan bo‘lishlari lozim degan qaror qabul qilindi. Shu qaror asosida tatar muallimlari ishdan bo‘shatilib, bir necha o‘nlab Yangi usul maktablari yopib qo‘yildi. Yangi usul maktablarining biron joyda rasmiy tasdiqlangan yagona o‘quv rejasi, dasturi bo‘lmagan. Darslar muayyan maktab rahbari va muallimlari tomonidan tuzilgan o‘quv rejasi va darsliklar asosida olib borilgan. Masalan, A. Shukuriy o‘z maktabining 1 va 2 bosqich sinflari uchun o‘quv dasturi va rejasini Behbudiy bilan bирgalikda tuzgan. Yangi usul maktablarida dunyoviy fanlar bilan bir qatorda diniy darslar ham o‘qitilgan. Alifbe kitobi bilan “Alifboyi Qur’oniy” ham o‘rgatila boshlangan. Dunyoviy fanlardan fizika, kimyo, geometriya, arifmetika, geografiya, ayrim maktablarda 4-sinfdan rus tili ham o‘qitilgan. Rus tilidan imtihonlar Toshkentdagи 2 bosqichli rus-tuzem maktabida o‘tkazilgan va o‘quvchilar bilimi 5 balli tizim asosida baholangan. Yangi usul maktablarida yuqori sinflar uchun fizika, kimyo, geometriya kabi o‘quv fanlaridan o‘zbek tilida darslik, o‘quv qo‘llanmalari bo‘lmagan. Muallimlar bu fanlar bo‘yicha tatar, turk tillarida nashr qilingan qo‘llanmalardan foydalinishga majbur bo‘lganlar. Ayrim muallimlar o‘zlari darsliklar yozib, shu asosda ta’lim bergenlar. Saidrasul Saidazizov “Ustodi avval” (1902), Behbudiy “Risolai asbobi savod” (1904), “Risolai jug‘rofiya umroniy” (1905), Munavvarqori “Adibi avval”, “Adibi soniy” (1907), Abdulvohid Burhonov “Rahbari xat”

(1908), Avloniy “Birinchi Muallim” (1910), ‘Ikkinchchi Muallim” (1912), Rustambek Yusufbek o‘g‘li ‘Ta’limi avval”, A. Ibodiev “Tahsilul alifbo” darsliklarini yozib nashr etishdi.

Yangi usul maktablariga hukumat hech qanday yordam bermagan. Maktablar bolalarning otaonalaridan har oyda olinadigan mablag‘ hisobiga ishlagan, muallimlarga ham shu hisobdan maosh to‘langan. Yangi usul maktablarida may oyi oxirlarida ota-onalar va mehmonlar ishtirokida imtihonlar o‘tkazilgan. Imtihonda bolalar Qur’on suralarini yod aytishni, o‘zbek tilidan o‘qish va yozishni, hisobdan to‘rt amalni o‘rganganliklarini namoyish qilganlar. Yangi usul maktablari zamonaviy o‘zbek milliy maktablarining ilk bosqichi bo‘lgan. Bu maktablar tajribasi asosida faqat alifbe va o‘qish kitoblarigina emas, o‘zbek tilining qonun qoidalari yoritilgan “Turkcha qoida” va ”Imlo” kabi dastlabki o‘quv qo‘llanmalari yaratilgan. 1918 yilgacha O‘zbekiston hududida 104 yangi usul maktablari bo‘lib, ularda 10343 bola o‘qigan. Yangi usul maktablari 1918-19 o‘quv yildidan davlat maktablariga aylantirilib, xalq maktablari nomini olgan.

Bugungi kunda jadidchilar faoliyatining boy merosi va ahamiyati to‘g‘risida prezidentimizning 2022 yil 20-dekabrdagi Oliy majlisga murojatnomasida ta`kidlagan “Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”.

Ma’rifatparvar jadid bobolarimizning bu so‘zları deputat va senatorlarimiz, siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar, butun davlat apparati, keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerak. Shu bois, maktablarda ta’lim sifati hamda jamiyatda o‘qituvchi kasbining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023 yildagi eng asosiy vazifalarimizdan biri bo‘ladi.

Biz qadimiylar va boy tariximizni, ayniqsa, g‘oyat og‘ir sharoitda ilm-ma’rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g‘oyalarini dadil ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o‘rganishimiz lozim. Ularning ulug‘ maqsadlar yo‘lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O‘zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi zarur”- degan falsafiy fikrlarini hayotga tadbiq etish muhim vazifalardan biri ekanligini anglashimiz zarur.

Mavzuni mustahkamlash yuzasidan savol va topshiriqlar:

- 1) XVI-XIX asrlarda Markaziy Osiyodagi tarixiy shart-sharoit ilm-fan ravnaqiga qanday ta'sir qilgan?
- 2) Xonliklardagi ta'lim tizimida qanday muassasalar faoliyat yurgizgan?
- 3) Aniq fanlar va tabiiy fanlar rivojiga hissa qo'shgan Markaziy Osiyolik olimlar
- 4) Tarixnavislikda qaysi olimlarning asarlari mashhur?
- 5) Rus sharqshunoslarining ilm-fan rivojiga qo'shgan hissalari nimada namoyon bo'ldi?
- 6) Rus-tuzem maktablari jadid maktablaridan qaysi jihatlari bilan farq qilgan?

Mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. Абд-ур-Рауф. Рассказы индийского путешественника (Бухара, как она есть). Перевод с персидского А.Н. Кондратьева. –Самарканд. 1913
2. Зиёдов Ш. Самарқанд мадрасалари ва улардаги кутубхоналар. <https://oliymahad.uz/18227>
3. История Узбекской ССР. Т. 1. –Т.: 1967.
4. Климович Л .Ислам в царской России .Очерки – М ., 1898
5. Кормилицын А.Н. Рукописные коллекции и библиотеки на территории Узбекистана эпохи средневековья. –Т.: 1993.
6. Кормилицын А.И. Судьбы книг. –Т.: Фан, 1994.
7. Мейendorф Е.К .Путешествие из Оренбурга в Бухару – М.,1891
8. Мўминов И., Ўзбекистон ижтимоий-фалсафий тафаккури тарихидан, Т., 1964.
9. Нуриддинов М. Юсуф Қорабогий (1563-1647) <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/yusuf-qorabogiy-1563-1647>
10. Помология Узбекистана, Т., 1983.
11. Семёнов А.А. Среднеазиатские рукописные фонды и важность их изучения // Материалы I Всесоюзной научной конференции востоковедов в Ташкенте. –Т.: 1958
12. Султонов У. XIX аср Тошкент мадрасалари. <https://e-tarix.uz/maqolalar/527-maqola.html>

13. Труды плодоягодного института им. акад. Р. Р. Шредера, выш. 18 (1898-1948), Т, 1950
14. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости, Т., 2000.
15. Ўзбекистоннинг янги тарихи, 1-қитоб [Туркистан чор Россияси мустамлакачилиги даврида], Т., 2000
16. Ҳамроев У., Муҳаммад Амин Бухорий, Т., 1970.
17. <https://madrasa.uz/books/qoqondagi-madrasalar.pdf>
18. ЎзР МДА .И-9-жамғарма-5 ,рўйхат-985 ,йифма жилд
19. ЎзР МДА .И-508-жамғарма-5 ,рўйхат 5778 ,5772 ,792 ,5771 ,ва бошқа йифма жиллар
20. Kunits J. Dawnover Samarkand. The rebirth of Central Asia – .New York, 1891

Xulosa

Mamlakatimiz hududlarida kechgan tarix uzoq moziyni qamrab oladi. Jumladan, Amudaryo va Sirdaryo oraliqlari jahon taraqqiyot qonuniyatlariga javob bergan madaniy tarixi yo'lka bo'lib, insoniyat tamaddudining o'choqlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida o'z o'rnini topgan istiqlol yillarida o'tkazilgan Ulug'bek, Amir Temur, Baxouddin Naqshband, Axmad Farg'oniy, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Burxoniddin Marg'inoniy, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk ajdodlarimizning yubileyлari o'zbek xalqining insoniyat ma'naviy kamolotiga qo'shgan xissasini aks ettirib turibdi va uni butun jahon tan olmoqda.

Uyg'onish davri Yevropada XVI-asr deyiladi. Osiyoda esa u IX-X asrlardayoq boshlangan deyishga to'la asos bor. So'zimizning yorqin misoli va timsoli etib, Ma'mun akademiyasi va uning faoliyatini aytish mumkin.

Ma'muniylar akademiyasi - Xorazmda X-asr oxiri, XI-asr boshlarida faoliyat ko'rsatgan muhit bo'lib, u Ma'muniylar davlati (992-1017) tarixi bilan bevosita bog'liq. Siyosiy-iqdisodiy va harbiy qudratga erishgan Xorazmshohlar davlati shohi Ali ibn Ma'mun (997-1010) dono va zukko maslahatchilarni atrofiga yig'a boshlagan. Uning tog'asi, o'z davrining o'ta bilimdoni olimi Abu Nasr ibn Iroq; taklifi bilan 1004-yilning boshida Beruniy Gurganjga qaytib kelgan. Ikkala shaxs Yaqin va O'rta Sharqdagi ko'plab olimlarni Gurganjga taklif etishgan. Ma'mun saroyida ilm ahli uchun yaxshi sharoit yaratib berilgan.

Shu tariqa 1004-yildan boshlab Gurganjda "Dorul hikma va maorif" (ba'zi bir manbalarda "Majlisi ulomo") nomini olgan muassasa vujudga kelgan. Unda Afinadagi "Platon", Bog'doddagi "Bayt ul-hikma" akademiyasi faoliyatiga o'xshash ilmning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib borilgan. Juda ko'p manbalar to'plangan: hind, yunon, arab olimlarining ishlari o'rganilgan, tarjimonlik ishlari bajarilgan. Al-Xorazmiy, al-Farg'oniy larning o'lmas asarlari, ishlaridan foydalilanigan va tadqiq qilingan.

Olimlar Yunoniston, Yaqin va O'rta Sharq, Hindiston ilm-fan yutuqlarini ijodiy, tanqidiy o'rganib, uni yanada yuksak bosqichga ko'targanlar. Ularning faoliyati, asarlari tufayli qadimiy Xorazm badiiy san'ati, adabiyoti, astronomiyasi, matematikasi, sug'orish madaniyati yutuqlari jahon tamadduni xazinasiga kirgan va butun insoniyat manfaatlariga xizmat qila boshlagan.

Masalan, Abu Nasr ibn Iroq al-Ja'diy (X asr-1034) astronomiyaga doir asarlaritufayli "Batlimusiy soniy" ("Ikkinchchi Ptolemy") degan faxriy nom olgan.

Abdulxayr ibn Xammor (941-1048) mantiq, falsafadan tashqari tabobatda ham juda mashhur bo'lgani uchun "Buqroti soniy" - "Ikkinchchi Gippokrat" nomiga sazovorbo'lgan.

Abu Saxl al-Masixiy al Jurjoniy (970-1011) tabib Ibn Sinoning ustozi bo'lgan. Akademiya rahbari Abu Rayxon Beruniy fanning deyarli hamma sohalari bilan shug'ullangan. Uning geodeziya va matematika sohalari bo'yicha asarlari bugun ham dolzarbdir. Beruniy O'rta Osiyoda birinchi bo'lib tibbiyotga oid "Kitob assaydana fit-tib" ("Tabobatda dorishunoslik kitobi") asarini yozgan. Beruniy Amerika qit'asi mavjudligini yevropalik olimlardan tahminan 450 yil oldin aytib o'tgan. Uning "qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida qadimiy xalqlar: yunonlar, eronliklar, so'g'diyilar, xorazmiylar va boshqa xalqlar yil hisoblari, bayramlari, mashhur kunlari, urf-odatlariga oid qimmatli ma'lumotlar to'plangan. Akademianing yana bir qomusiy olimi Ibn Sinoning Tib qonunlari asari butun dunyoga mashhur bo'lgan. Bundan tashqari Ibn Sino akademiyada matematika va astronomiya sohalari bilan shug'illangan. Olimning Aristotel ta'limoti xususida Beruniy va uning o'z shogirdi Baxmanyor bilan yozishmalari tarixda mashhur. Bu yozishmalar savol-javob tarzida bo'lib, unda Beruniy va Ibn Sino, Fazo, issiqlikning tarqalishi, jismlarning issiqliidan kengayishi, nurning aks etishi va sinishi kabi masalalarda munozaralar olib borganlar. Shuningdek, Ibn Sino Xorazmshohlar vaziri Abdul Xusayn As-Sahliy bilan do'stlashib, unga atab al-Kimyoga oid "Risola al-Iksir" (Iksir haqida risola asarini yozgan). Xullas, Xorazm Ma'mun akademiyasining tarixiy ahamiyati shundaki, birinchidan, asrlarga tatugulik ikki buyuk siymo Beruniy va Ibn Sinoni yetkazib berdi; ikkinchidan, dunyoviy ilmlar, xususan, matematika,

kimyo, geografiya, geodeziya, mineralogiya, tibbiyat, dorishunoslik, tarix, falsafa, siyosat, til va adabiyot, mantiq, huquq kabi fanlar yuksak bosqichlarga ko‘tarildi. Shuningdek, Mamun akademiyasi mintaqada fanni rivojlantiribgina qolmay, balki, turli davlatlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni ham mustahkamladi, turli xalqlarni, e’tiqodlarini birlashtiruvchi do‘stlik rishtasi bo‘lib, tarix sahifasida qoldi. Bu jamoada gepoteza tarzida olg‘a surilgan g‘oyalar fanning 500 yildan ko‘proq rivoji uchun omil bo‘ldi. Xorazm Mamun akademiyasi 1997-yil 11-noyabr kuni qayta tiklangan bo‘lib, O‘zbekistonda bu kun uning tashkil etilgan kuni sifatida, keng nishonlanib kelinmoqda. Bu qutlug‘ sanaga akademiyada faoliyat ko‘rsatayotgan barcha xodimlar ishlarni faollashtirib, turli anjumanlar o‘tkazishmoqdalar, turli loyihamalar ustida muvaffaqiyatli ishlamoqdalar. Bugun Ma’mun akademiyasi O‘zbekistonning salohiyatini yuksaltirish, uning jahon hamjamiyatidagi o‘rnini mustahkamlash, mintaqalarda fanni yanada quvvatlash, yuqori, intelektual muhit yaratishdagi milliy an’analarni rivojlantirishda muhim ishlarni amalga oshirmoqdalar. Milliy mafkura, ma’naviyat va milliy qariyatlarimizni xalq orasida targ‘ib qilishda akademiya olimlari faol qatnashmoqdalar. Bundan tashqari Ma’mun akademiyasi kabi Bag‘donna faoliyat yurgizgan “Bayt ul-Hikma haqida” fikr yuritilganda, albatta mazkur dargoh sharqning eng yirik muassasi hisoblanib, bu muassasa IX-asr boshlarida vujudga kelib, X-asr boshlarigacha faoliyat ko‘rsatdi va jahon sivilizatsiyasiga munosib xissa qo‘shdi. Kezi kelganda aytish mumkinki, Bayt ul-hikma qadim Yunonistonda Platon akademiyasidan keyin vujudga kelgan eng yirik fanlar akademiyasi bo‘lganligini endilikda dunyo olimlari alohida qayd etmoqdalar. Zero “Bayt ul-hikma” jahon ilmi faniga ulkan xissa qo‘shgan dargoh hisoblanadi. Va mazkur dargohda yurtdoshlarimiz Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy kabi o‘nlab qomusiy ilm sohiblari jahon ilmi faniga munosib xissa qo‘shgan deyishga haqlimiz. Chunonchi, Chex olimi Y.Rukshanning ma’lumotiga ko‘ra, “Bayt ul-hikma” ning faoliyatiga ulkan quvvat baxsh etgan olimlarning aksariyat ko‘philigi “Xuroson va O‘rta Osiyodan – Xorazm, Farg‘ona, Buxoro, Shosh, Samarqand va Marvlik olimlar bo‘lganligi va ularning uchdan ikki qismi Xorazm vohasining olimlari” deb ta’kidlaydi. Yoki mashhur arab geografi Ibn Xavkal o‘zining “Yo’llar va mamlakatlar” nomli X asr birinchi

choragida yozilgan asarida Xorazm mintaqasiga ta'rif berayotib, Xorazm aholisining ilmga chanqoqligi va zukkoligi haqida ham aytib o`tadi va "Hozir Bag`dodda xorazmlik shogirdi bo`lmagan birorta qozi, faqix yoki ilm-ma'rifikatga aloqador shaxs yo`q", - degan so'zlari qadim Xorazm o'lkasining ko'hna va boy madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganligining yorqin isbotidir.

Kezi kelganda yana bir bor ta'kidlab o'tish joizki, jahon fani va madaniyatining yaratishida barcha xalqlarning xissalari bor. Shu bois O'rta Osiyo ham bashariyat sivilizatsiyasi rivojiga ulkan xissa qo'shgan o'lka hisoblanadi. Jumladan, XVI-XIX asrlarda ushbu hududdan ko'plab allomalarining yetishib chiqqanligi hamda ko'plab maktablar, madrasalar va ilm dargohlari faoliyat yuritgani mamlakatimizning bashariyat fani rivojidagi faol ishtirokidan dalolat beradi. Jumladan, Xalil Sulton, Mirzo Ulug'bek, Abdulqosim Bobur, Abdulatif Mirzo, Boysung'ur Mirzo, Sulton Xusayn Boyqaro, Buduzzamon Mirzo, Muhammad Xusayn Mirzo, Mo'min Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur hamda aniq fanlar tabiiy geografik sohalarda ham ko'plab olimlar qalam tebratib fanning turli sohalarida ulkan meros qoldirdilar. Zero, XVI-XIX-asrlardagi ilm-fannig taraqqiy etishi uchun sezilarli murakkab siyosiy jarayonlar sabab XVI-XIX-asrlarda Markaziy Osiyoda ilm - fan va madaniyat o'ziga xos ravishda rivojlandi. Chunki bu davrdagi feodal tarqoqlik urushlari, xonliklar o'rtasidagi bo'lib turgan dahshatli janglar ilm ahliga qanchalik kulfat keltirgan bo'lmasin, u ilm-fan, san'at, va adabiyot rivojini to'xtatib qo'ya olmadi. Aksincha ushbu murakkab tarixiy davrning mashaqqatlariga qaramasdan fan, adabiyot va san'at sohasida iste'dodli fan arboblari, atoqli shoir va yozuvchi olimlarimiz yetishib chiqdi.

Bugungi kunda biz uchinchi Uyg'onish davri ostonasida turibmiz. Agar O'zbekiston Prezidentining keyingi to'rt yilda ma'rifikat, ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish yo'lida imzolagan qonun, farmon va qarorlari, tasdiqlagan Davlat dasturlari, ilgari surgan yangidan-yangi tashabbuslarining mag'zini to'la chaqib ko'rsak, navbatdagi Ma'rifikat Renessansining markazi O'zbekiston ekaniga hech kimda shubha qolmaydi.

Prezidentimiz 2020-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali

marosimda ta'kidlaganidek, “Bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so‘z ketganda, “Yangi O‘zbekiston” iborasi tilga olinmoqda. Bu keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘yganimiz, erishayotgan zalvarli yutuqlarimizning e’tirofidir. Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘s sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish — Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi”.

Chindan ham, biz ana shunday bebaho merosga ko‘pincha faqat tarixiy yodgorlikka qaraganday munosabatda bo‘lib kelmoqdamiz. Bunday tengsiz boylikni amaliy hayotimizga tatbiq etishda beparvolik va e’tiborsizlikka yo‘l qo‘ymoqdamiz. Vaholanki, bunday noyob meros jahondagi sanoqli xalqlarga nasib etgan.

Masalan, birgina O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondlarida saqlanayotgan 100 mingdan ortiq nodir qo‘lyozmalarga jahon ahli havas qiladi. Allomalarimizning noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha barchamizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlaydi.

Albatta, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayoni besh-o‘n yil davom etmay, ancha katta va mashaqqatli davrni talab qiladi. Buning uchun, avvalo, minglab iste’dodli kadrlar, iqtidorli zamonaviy yoshlar, fidoyi insonlar nihoyatda zarur. Prezidentimiz rahnamoligida yurtimizda ulug‘ niyatlar bilan poydevori qo‘yilayotgan yangi Uyg‘onish davrining yorqin sahifalarga boy buyuk tarixi yaratilmoqda.

Darhaqiqat, Temur bobomiz “Kuch – adolatdadir!” deya xitob qilgan bo‘lsa, bugun hamadolat, xalqpavarlik, bag‘rikenglik davlatimiz rahbari yuritayotgan siyosatning ustuvor tamoyilidir. Yoshlarimizning buyuk ajdodlarimiz merosi bilan faqat g‘ururlanishlarining o‘zi yetarli emas, ularga munosib voris bo‘lish bugungi yoshlarimiz uchun dasturulamal bo‘lmog‘i davr talabidir.

III. Seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlarida talabalar “Fan va texnika tarixi” fanidan ma’ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish jarayonida qo‘srimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo‘srimcha bilim va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

“Fan va texnika tarixi” fani bo‘yicha seminar mashg‘ulotlarining tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Kirish. Mustaqil O‘zbekiston: rivojlanish yo‘nalishlari vamuammolari. Fanning predmeti, tadqiqot doirasi, maqsadi va vazifalari
2. Antik davrda ilmiy tafakkurning paydo bo‘lishi
3. Qadimgi Yunonistonda ilmiy bilimlarning rivojlanishi
4. Qadimgi Rimda ilmiy bilimlarning taraqqiy etishi
5. IX-XI asrda Musulmon Uyg‘onish davri. Sharq allomalarining dunyoilmiy tafakkuri taraqqiyotiga qo‘sghan hissasi
6. Markaziy Osiyolik allomalarining bashariyat ilmiy taraqqiyotiga qo‘sghan ulushi
7. Markaziy Osiyolik qomusiy mutafakkirlarning dunyo sivilizatsiyasida tutgan o‘rni
8. O‘rta asrlarda Evropa fani
9. G‘arbiy Yevropada Uyg‘onish davri. XIV-XVI asrlar Yevropada ilmiy bilimlar rivojida yangi davr
10. Markaziy Osiyoda Temur va temuriylar davri fan taraqqiyoti Yangi davr fani. Fanning shakllanish jarayoni va uning zamonaviy talqini
12. XVIII-asrning oxiri XIX-asrda ilmiy bilimlarning rivojlanishi
13. XVI-XIX asrlarda Markaziy Osiyoda fanning ahvoli
14. XX-asr ilmiy-texnika taraqqiyoti va ilmiy-texnika inqilobi asri
15. Mustaqil O‘zbekistonda ilm fanning rivojlanishi

Izoh: Ishchi fan dasturini shakllantirish jarayonida ishchi o‘quv rejada mazkur seminar mashg‘ulot uchun belgilangan soat xajmidan tashqari soatlar hajmiga mos mavzular tanlab belgilanadi.

IV. MUSTAQIL TA’LIM

Mustaqil ish mashg‘ulotlari

№	Mavzu
1	Qadimgi Misrda fan rivojining tarixiy sharoitlari
2	Qadimgi Mesopotamiya xalqlari og‘zaki ijodiyoti va adabiyoti
3	Qadimgi yunon fanining tug‘ilishi va uning bosqichlari
4	Dunyoviy va diniy ilmiy bilimlarning uyg‘unligi va o‘zaro bir-birini boyitishi
5	Qadimgi O‘rta Osiyo fani va madaniyati
6	Zamonaviy fanning rivojlanishi. Fan va din o‘rtasidagi kurash
7	Amir Temur homiyligida Markaziy Osiyoda fan va madaniyatining yuksalishi
8	Ulug‘bek akademiyasi
9	O‘rta asrlardagi Yevropada fan va texnika.
10	Uyg‘onish davri. Yevropada ilmning uyg‘onish davri (XIV-XVI aa). Gumanizm va antropotsentrizm. Dunyoviy bilimlarni tashkil topishi Kopernik, Leonardo da Vinchi. Jordano Bruno, Galiley.
11	Uyg‘onish davrida evropa me’morchiligi
12	Uyg‘onish davrida Yevropada falsafa fani
13	XVII-XIX asrlarda Yevropada aniq va gumanitar fanlar
14	XVII-XIX asrlarda Amerika, xorijiy Osiyo fan va texnikasi
15	XVII-XIX asr boshlarida fan rivojining tarixiy sharoitlari va uning pasayish sabablari
16	XX-asr fani rivojining tarixiy sharoitlari, asosiy bosqichlari va o‘ziga xos tomonlari
17	XX-asr O‘zbekiston fani va uning rivoji
18	XXI-asr – yuksak texnologiyalar asri

Mustaqil ta’limdan ko‘zlangan maqsad va vazifalar - bu talabalarda mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mustaqil ta’lim seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rishdan tashqari fan dasturida ko‘rsatilmagan, ammo fan bo‘yicha talabaning bilim

doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o'z ichiga oladi.

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Fan klassifikatsiyasini tuzish.
2. "Qadimgi Sharqda ilmiy tafakkurning rivojlanishi" mavzuida esse yozish.
3. "Qadimgi Yunonistonda fan" mavzuida internet yordamida ma'lumot tayyorlash.
4. "Qadimgi Rimda fan" mavzuida internet materiallari asosida ma'lumot tayyorlash.
5. "Cuqrot – buyuk mutafakkir" mavzuida tarixiy badia tayyorlash.
6. "Platon – ulug' mutafakkir-alloma" mavzuida maqola yozish.
7. "Aristotel - antik dunyoning universal aql egasi" mavzuida ilmiy ma'ruza tayyorlash.
8. Platon mакtabiga kiruvchi allomalarining ro'yxatini tuzish.
9. "Qadimgi Xitoyda fan" mavzuida ilmiy referat tayyorlash.
10. "Qadimgi Xindistondafanningrivojlanishi" mavzuida referat yozish.
11. "Islom Uyg'onish davrida fan" davra suhbatiga tayyorgarlik.
12. "Musulmon Uyg'onish davrida o'ziga xos xususiyatlari" mavzuida ma'ruza tayyorlash.
13. "Baytul -Hikma" allomalari haqida biografik ma'lumotlar tuzish.
14. Ahmad al – Farg'oniy haqida ma'lumotnomasi tayyorlash.
15. Abu Nasr Farobi haqida biografik maqola yozish.
16. Abu Rayxon Beruniy haqida referat yozish.
17. "Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi" mavzuida O'zbekiston tarixi muzeyidan ekspozitsiyalarni o'rGANISH.
18. "Abu Ali ibn Sino – buyuk qomusiy alloma" mavzuida ilmiy maqola tayyorlash.
19. "Imom al – Buxoriy – buyuk muhaddis alloma" mavzuida referat tayyorlash.
20. "Burhoniddin Marg'inoniy va O'rta Osiyo fiqh maktabi" degan mavzuida ilmiy ma'ruza tayyorlash.

21. “O‘rta Osiyoning buyuk mutasavvuflari va ularning ilmiy merosi” mavzuida ma’lumotnoma tayyorlash.
22. “Yevropada dastlabki universitetlarga asos solinishi” mavzuida davra suhbatiga tayyoragarlik.
23. “Buyuk geografik kashfiyotlar va uning fanga ta’siri” mavzuida referat yozish.
24. “N. Kopernik – ulug‘ olim” mavzuida internet saytlari yordamida ilmiy ma’ruza tayyorlash.
25. Yevropada inkvizitsiya ta’qibiga uchragan olimlar haqida ma’lumot to‘plash.
26. Temur davrida yashagan allomalarining ro‘yxatini tuzish. (Temuriylar davlati tarixini o‘rganish muzeyi ekspositsiyalari asosida).
27. Temur va temuriylar davrida yashagan tarixchi olimlar haqida ma’lumotnoma tayyorlash.
28. “Mirzo Ulug‘bek va uning ilmiy maktabi” mavzusida ilmiy referat tayyorlash.
29. “Alisher Navoiy – ulug‘ mutafakkir” mavzuida esse yozish.
30. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari haqida kichik ilmiy tadqiqot tayyorlash.
31. “XVII-asr oxiri va XVIII-asrda Yevropada fanning rivoji” mavzusida referat tayyorlash.
32. “XVII – XIX asrda O‘rta Osiyoda fan” mavzuida referat.
33. “XX-asr – ilmiy-texnika asri” mavzusida referat tayyorlash.
34. “XX-asrda O‘zbekistonda fan” mavzusida referat tayyorlash.
35. “Mustaqil O‘zbekistonda fan” mavzusida referat tayyorlash.
36. “O‘zMU – ma’rifat o‘chog‘i” mavzuida esse yozish.
37. O‘zbekistonda Ma’mun akademiyasining 1000 yiliga bag‘ishlab o‘tkazilgan tadbirlar haqida ma’lumot to‘plash.

ADABIYOTLAR:

1. Ревко П.С. Введение в историю науки и техники. Учебное пособие. –
Таганрог: Изд-во Кучма, 2010. – 128 с.
2. Баходиров Р. Из истории классификации наук на средневековом Востоке. Т., 2000.
3. Ғарб фалсафаси. Т., 2004.
4. Шермухамедова Н. Фалсафа ва фан методологияси. Т., 2005.
5. История науки и техники. Учебно-методическое пособие./Под ред. Ткачева А.В. – СПб.: СПБ ГУ ИТМО, 2006. – 143 с.
6. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2017.
7. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимих билан қурамиз. –Т.; Ўзбекистон.. 2017.
8. Мирзиёев Ш.М. Конун устуворлиги ва инсон маънфатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон
9. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/7998>
- 10.<https://president.uz/uz/lists/view/5774>
- 11.Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.
Танланган асарлар тўплами. Т., 1999.
- 12.Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. Т, “Маънавият” 2008.
- 13.Каримов И.А. “Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожидаги роли”
14. мавзуидаги халқаро конференцияда сўзланган нутқи. “Халқ сўзи”, 2014 йил 15-16 май.

- 15.Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. –Т., Ўзбекистон. 2015.
- 16.Shorland M. Warwick A. Teaching te History of Science. – Oxford: Pressed., 1989.
- 17.Алимова Д.А. Ўрта Осиёда жадидчилик. Янгиланиш йўллари, ислоҳотлар, мустақиллик учун кураш. Т., 2000
- 18.Алимова Д.А. История как история, история как наука. Т., “Ўзбекистан” 2008.
- 19.Булатов М.С. Космос и архитектура.Москва-Ташкент. 2009.
- 20.Бурхониддин Ал-Марғиноний. Хидоя. Т., 2000.
- 21.Наука Средней Азии и мировая цивилизация. Т., 2000
- 22.ТошДУ: Илм ва Маърифат маскани. Т., 1995. Тошкент.: Ўзбекистон. 2017.
- 23.Азизов. С. Марказий Осиёда астрономия ва Улубек мактаби. Т., “Ўзбекистон” 2009.
- 24.Валиханов М. Табиатшуносликнинг замонавий концепциялари. Т., 2003.
- 25.Копетков С.Х. Концепция современного естествознания. М., 2002.
- 26.Саъдуллаев А, Сатлиқов А. Хоразм Маъмун Академиясининг тарихий илдизлари. Урганч., 2003.
- 27.Исаев Й. Абу Али ибн Сино. Т. Тафаккур. 2010.
- 28.Тўраев Б. Абу Райҳон Беруний. Т. Тафаккур. 2010.
- 29.Бобоев С. Аҳмад Фарғоний. Т. Тафаккур. 2010.
- 30.Қобилов Н. Абу Наср Фаробий. Т. Тафаккур. 2010.
- 31.Жўраев О., Мухиддинов А. Маҳмуд Замаҳшарий. Т. Мовароуннаҳр -Тафаккур. 2010.
- 32.Алимов У. Имом ал-Бухорий барҳаёт. Т. 2011.
- 33.Эрматов Ҳ. Нобел мукофоти совриндорлари. Т. 2011.
- 34.100 великих ученых. – Москва, 2000.
- 35.100 великих географических открытий.- Москва, 2001.
- 36.100 великих научных открытий. – Москва, 2002.

37. Уткин А.И. Запад и Россия: история цивилизаций. – Москва, 2000.
38. Абу Райхан Беруни. Памятники минувших поколений. Т., «Фан». 2015

GLOSSARY

Renessans - fransuzcha “qayta tirilish” degan ma`noni anglatadi

Akmeologiya (yunon. akmelogos) - yetuklik, cho‘qqi, kamolot yuksalish

Aqida – bilish, bir narsaga ishonish, e’tiqod qilish

Baqo va Fano – boqiylik, foniylit, sharq falsafasida tushuncha

Bilish – inson faoliyatining obektiv voqelikni ongda aks ettirish

Biogeotsenoz (yunon. bios – hayot, ge – er, koinos - umumiy) – modda va energiya almashinuvi asosida tirik organizmlarni (biotsenoz) tirik bo‘lmagan komponentlar bilan birlashtiruvchi murakkab tabiiy tizim.

Bioetika – hayot va xulq-odat - hozirgi zamon etikasining bir turi

Buddizm – diniy-falsafiy ta’limot

Bhagavadgita – (“Ilohiy qo’shiqlar”) qadimgi hind diniy falsafiy tafakkur ilg‘orligi

Vayteshka – (alohida, o‘ziga xoslik) qadimgi hind diniy falsafiy maktabi

Vakuum – past bosimdagigi kuchli siyraklangan gazning holati.

Vandalizm (lot. Vandale – qadimgi sharqiylar german qabilasi nomidan olingan) madaniyatga qilingan hujum. Vayron etish.

Vahdoniyat (arabcha) – allohning yakka – yagonaligini tanish va e’tirof etish.

Vedalar (bilim) – vida tilida qadimgi hind adabiyot yodgorligi.

Voqelik – tabiiy va ijtimoiy tarixiy hodisalarini ifodalovchi obektiv

Dunyoqarash – dunyoga va unda insonning o‘rniga, odamlarning ularni o‘rab turgan borliqqa munosabatiga va o‘zlariga nisbatan umumlashtirilgan qarashlarning tizimi, hamda bu qarashlar bilan shartlangan bilish va faoliyat tamoyillari, ideallari va e’tiqodlari. Dunyoqarashning uchta turi ajratiladi: kundalik (tirikchilik bilan bog‘langan), diniy va falsafiy.

Ideografiya (yunon. idea – fikr, grafo - yozaman) – butun so‘zlarni – tushunchalarni bildiruvchi belgilar (ideogramma yoki ierogliflar). Sinonimi – logografiya.

Ieroglif (yunon. ieros – muqaddas, glifo - yo‘nilgan) – yunonlar tomonidan Misr ideogrammalariga berilgan nom; ayrim yozuv tizimlarida yozuv belgisining nomi. Ierogliflar alohida tovushlarni va bo‘g‘inlarni, morfemalarni, butun so‘zlarni va tushunchalarni bildirishi mumkin. “Ieroglif” atamasi dastlab II-III asrlarda Kliment Aleksandriyalik (Yunoniston) tomonidan ishlatildi. U toshda o‘yib yozilgan yozuvlarni “ieroglifika grammata” (yo‘nilgan muqaddas yozuvlar) degan. Dastlab bu atama qadimgi misr yozuviga nisbatan ishlatilgan. Hozirgi kunda xitoy yozuvi, yapon va koreys yozuvlarini tavsiflashda qo‘llaniladi. Xitoy ieroglif belgilari Tsan Tsze tomonidan er.avv. 27-26 asrlarda yaratilgan bo‘lib, bugungi kungacha qo‘llanilib kelinmoqda.

Ajam-Eron mamlakati va xalqi.

Azarhurra -otashparastlar topinadigan muqaddas olov o‘t.

Azata- erkin shaxs; ozod ma’nosida.

Ayl-Amir Temur askariy qismlarining o‘n nafarlik bo‘linmasi.

Akkor-qoranda; qishloqning ziroatkor aholisi.

Amid ul mulk Amir-davlat hujjatlari va elchilik aloqalari vaziri.

Amir-farmon beruvchi, boshliq, hokim, qo‘sish boshlig‘i, sarkarda, hukmdor.

Amirlik-musulmon mamlakatlarida amir tomonidan boshqarilgan mamlakat yoki viloyat.

Amir ul umaro-amirlar amiri, bosh amir, bosh hukmdor.

Aninizm- ruh va jonga ishonish, sig‘inish.

Anqo- sharq mamlakatlarida zikr qilinishicha, Qo‘hi Qof tog‘ida yashagan afsonaviy qushning nomi.

Araz Arbob- qo‘sish ta’minati bilan shug‘ullanuvchi vazir.

Ark- ichki qal’a, podshoning shahar ichidagi qo‘rg‘on — saroyi, qarorgohi.

Arbob- Buxoro amirligida qishloq yoki shaharlarda mahalla boshlig‘i,

oqsoqol.

Arxeolog - arxeologiya mutaxassisi, arxeolog olim.

Arxeologiya- qadimdan qolgan, qadimiy yodgorliklar haqidagi qadimgi zamonlar haqidagi fan.

Arxiv- davlat yoki ayrim shaxslarga tegishli muhim qadimiy hujjatlarni saqlaydigan maxsus tashkilot.

Atrok- turklar.

Aximan- zardushtiylik dinining zulmat, o‘lim va qabihlik tangrisi.

Axuramazda- zardushtiylik oliv tangrisi, xudosi.

A’lo hazrat- hazrati oliylari, janobi oliv.

Badaviy- arab ko‘chmanchilari.

Band- toshlardan bino qilingan suv omborining to‘g‘oni, suv ombori, to‘g‘on.

Barzikor - qo‘shchi, ziroatkor, qishloqning mehnatkash aholisi.

Barot- 1. Hijriy yil hisobi bilan sakkizinch oy (sha’bon). 2. Oqlik qog‘ozi hukmdor tomonidan berilgan ozodlik xati, yorug‘lik. 3. Ijaraga olish. 4. Barqondon, ilgari barot oyining oxirida qilinadigan bazm va suhbat.

Beg‘ar -jamoat ishlariga safarbar etish, hashar.

Bibliya - Tavrot, yahudiylar va xristiyanlaming muqaddas kitobi.

Biy - urug‘ va qabila oqsoqoli.

Boj- savdogarlardan olinadigan o‘lpon, soliq, tovon.

Borgoh- makon, dargoh, dunyoga keladigan va unga qaytadigan azaliy muqaddas maskan (joy).

Botmon- og‘irlik o‘lchovi (XII XV asrlarda 20 kg ga teng bo‘lgan).

Burong‘or- qo‘shinning o‘ng tomoni.

Burg‘u- karnay.

But- but, sanam, yakkaxudolik dini kelib chiqquncha urug‘chilik va qabilachilik davrida keng tarqalgan majusiylik, butparastlik dini.

Buxorxudot- VII asrning 80

Bo‘dun- chorvador aholi, qora bo‘dun

Vazir- devonxona boshlig‘i, ministr.

Valiahd- toj

Valiy- avliyo, aziz, ega, sohib.

Varvar- yunonlar o‘zlaridan boshqa barcha xalqlarga nisbatan «varvar» so‘zini ishlatganlar.

Vaqf- musulmon mamlakatlaraing masjid, madrasa va boshqa diniy masalalarga qarashli bo‘lgan yer

Vahiy - ilohiy xabar.

Vaqf noma- vaqf yerlarini ixtiyoriy ravishda berilganligi yoki vasiyat qilinganligini tasdiqlovchi hujjat.

Gurxon - qabila birlashmasi; xon unvoni.

Darvish -kambag‘al, so‘fiy, qalandar, faqir.

Darra- charm va qayishdan to‘qilgan yo‘g‘on va og‘ir zarb beruvchi qurol.

Darxon- XII-XIII asrlarda mo‘g‘ul qabilalari orasida qo‘llanilgan unvon. Darxonlar har qanday soliq va majburiyatlardan ozod qilinganlar, ulug‘ xon huzurida bo‘lish huquqidан ham foydalanganlar.

Darg‘acha - mo‘g‘ullarda chorva xo‘jaligini idora qiluvchi boshliq.

Dahma- maqbara, yer osti va yer usti sag‘anasi, qabr ustiga qo‘yilgan yodgorlik.

Devon- vazirlar mahkamasi.

Devonbegi- vazirlar mahkamasining bosh ma’muri.

Dehqon- «qishloq oqsoqoli» yer egasi.

Dinor- oltin, tanga (bir misqol 4,8 gr ga teng bo‘lgan).

Dovul- katta nog‘ora.

Dorug‘a -harbiy ma’mur.

Dudang-hosilning oltidan ikki hisobida olinadigan dehqonchilik solig‘i.

Enichar -turklarning piyoda askari.

Yom-jom -savdo yo‘llaridagi qo‘noq.

Jaloyir -turkiy qabilalaridan biri.

Jamoa-kishilar birlashmalari shakllaridan biri, asosan iqtisodiy jamoa tuzumi davriga xosdir.

Jarib -958 kv. m yer maydoni.

Jarchi-hukmdorlarning xalqqa qarata chiqargan farmonini, ayrim shaxslarni taqdirlash yoki jazolash haqidagi amrini, urush e’lon qilish yoki

tugagani haqidagi xabarni va shu kabi xabarlarni bozor maydoni yoki jamoa to‘plangan boshqa yerda baland ovoz bilan e’lon qiladigan shaxs.

Jayhun -Amudaryoning nomlaridan biri.

Jahongir -jahonni oluvchi, jahonni bo‘ysundiruvchi.

Jeta-qaroqchi, qoloq.

Jiyba, Jeva -qadimgi temir yoki po‘latdan yasalgan harbiy kiyim.

Jilovdor-xonni yoki boshqa oliy martabali kishini otga mindirib va tushirib qo‘yuvchi xizmatkor.

Jome masjidi-jamoat namozi o‘qiladigan katta masjid.

Juvong‘or-qo‘shinning so‘l qanoti.

Juz’ya-islom dini qoidasiga ko‘ra g‘ayridinlardan olinadigan soliq.

Jo‘chi ulusi-Chingizzon sultanatining 1224-yildagi bo‘linishida uning katta o‘g‘li **Jo‘chixonga** tekkan ulus.

Zakot-tozalash, 1. Musulmon mamlakatlarda aholi umumiy boyligining 1G‘40 miqdorida har yili olinadigan diniy soliq. 2. Musulmonlarda «Tozalovchi» diniy soliq bo‘lib, bu haqda «Qur’on»da oyat bor.

Zarbxona -chaqa va tangalar so‘qiladigan ustaxona.

Zardushtiylik-O‘rta Osiyo xalqlarining qadimiyligi dini, uning nomi shu dinga asos solgan payg‘ambar Zardusht yoki Zardo‘st nomi bilan bogiiq (yunoncha Zoroastr).

Zindiqlik-xudosizlik, dinga ishonmaslik.

Zindon-qorong‘ilik, o‘tmishda yer ostidagi qamoqxona, yertoia.

Zulqarnayn-Aleksandr (Aleksandr Makedonskiy)ning laqabi, ikki shoxli ma’nosida.

Ilekxon-qoraxoniylar sulolasiga mansub **bo‘lgan** kichik hukm-doraing unvoni.

Ilmi aruz-she’riyat.

Imom-1. Diniy oliy rahbar, hukmdor (xalifa. Yaman viloyatining boshqaruvchisi, turklarda sulton, forslarda Hazrati Alining avlodi), 2. shialarning oliy boshlig‘i. 3. To‘rt asosli mazhabdan (hanafiyalar, xanbaliylar, molikiylar va shofe’iylar) biriga asos soluvchi: 4. Hamma musulmonlar yoki ular bir guruuhining boshlig‘i, ruhoni; 5 Namozda jamoatning oldida turib, namozni boshqaruvchi.

Rasul-elchi, payg‘ambar.

Registon-o‘rtta asrlarda shaharning markaziy maydoni.

Riyozot-matematika.

Sadoq-o‘qdon.

Sadr-diniy va dunyoviy hokimiyat hukmdori.

Sa’id-1. Muhammad payg‘ambar avlodlarining faxriy unvoni. 2. Ba’zi musulmon mamlakatlarida hukmdor unvoni.

Saltanat -hokimiyat, sultonlik, podsholik, hukmronlik, imperiya.

Sarbador -boshini dorga tikuvchi, dor ostiga boruvchi.

Sarboz -oddiy jangchi.

Sardor-boshliq, yetakchi, yo‘lboshchi, rahbar.

Sohibqiron-askar, qo‘shin.jahon egasi, jahongir.

Suvoriy-otliq askar.

Sulton-podshoh, hukmdor.

Sultonlik-tepasida sulton turgan davlat, sulton hokimiyati.

Sunniylar-sunnyiy mazhabidagilar, sunnatga amal qiluvchi musulmonlar.

Suyurg‘ol-oliy tabaqa zodagonlarga in’om qilingan yer-mulk.

Tavorih-tarixlar.

Tavrot-besh kitob, yahudiylarning muqaddas besh kitobi, qadimgi vaziyat.

Talant -ahamoniylar davrida soliq miqdori, bir talant 34 kg teng.

Talmud-ta’limot, Talmud. Injilni izohlash maqsadida miloddan avvalgi IV asrdan milodning V asri o‘rtalarigacha qadimgi yahudiy tili va aramey shevasida yozilgan diniy kitob.

Tamg‘a-savdo boji, savdogarlardan olinadigan soliq.

Tanob-yer o‘lchovi, 2-2,5 ming kv. m hajmdagi maydoni.

Tarxon-ozod etilgan. 1. O‘rtta asrlardagi feodalning unvoni. 2. Soliqlar to‘lashdan ozod etilgan yer va mulklar. 3.O`zbek-rurk urug‘laridan birining nomi.

Taxt-muayyan balandlikda o‘rnatilgan scrhasham, ziynatli tayanma kursi, podsho (monarx) o‘tiradigan joy, podsholik, saltanat.

Taxt vorisi-valiahd, saltanat vorisi, toj-u taxt merosxo‘ri, merosxo‘r shahzoda, bo‘lajak hukmdor.

Toj -toj-taxt, saltanat, mustabid hokimiyat belgisi.

Totem -urug‘ yoki qabila ibtidosi, urug‘ asoschisi, ajdod, urug‘ jamoalari topinadigan hayvon, o‘simlik yoki jism.

Totemizm-totemlarga sig‘inish.

Tuman-1. O‘n minglik harbiy qism. 2. Uyezd, rayon. 3. O‘n ming. 4. Eron tilla puli.

Tuman og‘asi -o‘n minglik askariy qism amiri, qo‘mondon.

Tug‘ro-davlat nishonasi, gerb.

Ulamo-olimlar, musulmon davlatlarida qozilar, musulmon ruhoniylarining yuqori tabaqasi.

Ulus-el, harbiy — ma’muriy o‘lka.

Umaro-amirlar.

Ummat-bir tilda so‘zlashuvchi kishilar, bir payg‘ambarga tobe insonlar.

Usturlob-astronomiya asbobi, astrolobiya.

Ushur-hosildan 10 foiz hisobida olinadigan dehqonchilik solig‘i.

Farmondo-boshqaruvchi.

Fulus-mayda mis chaqa.

Fiqh-diniy huquq ilmi.

Xabargir-xabarchi, kuzatuvchi, ayg‘oqchi.

Xazara-minglik askariy bo‘linma.

Xalifa-o‘rinbosar, xulafo - xalifalar.

Xalifalik -xalifa hokimiyati.

Xandasa-geometriya.

Xandaq-mudofaa inshooti.

Xattot-kitob va risolalar ko‘chiruvchi kotib.

Xiroj-soliqning bir turi; hosilning 20-25 foizi hisobidan olinadigan qishloq xo‘jalik solig‘i.

Xoja-ega, boshliq, uy egasi, oila boshlig‘i.

Xonaqoh-masjid ibodatxonasi, g‘aribxona, musofirxona.

Xutba-juma kunlari va xayitlarda o‘qiladigan namoz (unga davlat boshlig‘ining nomi qo‘shib o‘qilgan)

Xo‘ja, xoja, xo‘jayno,xo‘jayin- yer-suv xo‘jasি.

Shayx-islom dinida oliy ruhoniylar vakili, diniy aqidalarni biluvchi, va’z-nasihat qiluvchi, ba’zan oliy, diniy o‘quv yurti talabasi.

shayxul-islom-din va islom ilmi peshvosi, islom dini oqsoqoli, diniy arbob.

Shariat-Qur’oni Karimda bayon qilingan islom dinining huquqiy va urf-odat qoidalari.

shahriston -ichki shahar.

shialar -shia mazhabidagilar, shiaga amal qiluvchi musulmonlar.

shoh -podsho, monarxlik unvoni.

Eloqxon-elning oq xoni; yurtning kichik hukmdori, viloyat hokimi.

Etnogenez-xalq va elatning kelib chiqishi.

Yabg‘u yoki jabg‘u- el-yurt hokimi.

O‘rdugoh-qo‘shin lageri, to‘xtaydigan qo‘noq; podsho qarorgohi.

Qavm-bir urug‘ vakillari.

Qaysar-podshoh; Rim va Yunon podsholarining qadimiy laqabi.

Qalandar-dunyodan ko‘ngli sovib o‘zini chekkaga olgan kishi, tarki dunyo qilgan odam, uzlatga ketgan kishi; elma-el tentirab yuruvchi darvesh.

Qal‘a, qasr -saroy, qo‘rg‘on.

Qasida -she’riy madh, maqtov yoki marsiya.

Qiron -ikki sayyoraning bir burchagiga yaqin kelishi.

Qozi-ijrochi, amalga oshiruvchi, hukm qiluvchi.

Qoziul quvvat-bosh qozi, oliy sudya.

Qoraxon-buyuk xoqon

Qui-xo‘jayinining, quldorning xususiy mulki bo‘lib qolgan kishisi.

Quldar-qulga egalik qiluvchi ekspluatator.

Qurultoy-turkiy va mo‘g‘ul xalqlarida umumiy yig‘ilish, kengash

Qur’on-islom dinining muqaddas kitobi.

Qo‘rg‘on-atrofi baland devor bilan o‘ralgan darvozali turar joy.

G‘azavot-harbiy yurish, bosqin, hujum. Islom dinini yoyish maqsadida va g‘ayridinlar, kofirlarga qarshi qurol kuchi bilan amalga oshiriladigan «muqaddas» urush.

G‘oziy-1. Musulmonlarning g‘ayridin, kofirlarga qarshi olib borgan urushlari. 2. G‘ayridinlarga qarshi kurashga rahbarlik bilan yoki alohida mahorat bilan urushgan jangehiga beriladigan faxriy unvon.

G‘ulomlar -qarollar, qullar, yosh xizmatkorlar.

G‘usl-cho‘milish.

Hazrati oliylari-podsholar va hukmdorlarni ulugiash maqsadida ularning nomiga qo‘shib aytildigan so‘z.

Hijrat-622-yilda Payg‘ambar Muhammad alayhivassalom va musulmonlarning Makkadan Madinaga ko‘chib borishlari. Hijriy yilining boshlanishi.

Hojib -harbiy boshliq.

Hojibul -hujob; qo‘mondon

Hajar ul-asvod -Makkada hojilar tavof qiladigan katta qora tosh.

Hokim-viloyat hokimi. 2. Hukmdorning viloyatdagi noibi. 3. shahar, uyezd hokimi.

Horun-posbon, kuzatuvchi; Muso payg‘ambar akasining ismi.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I. Asosiy qism	
1-mavzu. Kirish. Mustaqil O‘zbekistonda qomusiy allomalarimiz merosini qayta o‘rganish va targ‘ib qilish.....	6
2-mavzu: IX-XI asrda musulmon Uyg‘onish davri. Sharq allomalarining dunyo ilmiy tafakkuri taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi.....	24
3-mavzu: Markaziy Osiyolik allomalarining bashariyat ilmiy taraqqiyotiga qo‘shgan ulushi	53
4-mavzu. Markaziy Osiyolik qomusiy mutafakkirlarning dunyo sivilizatsiyasida tutgan o‘rni.....	84
5-mavzu: Markaziy Osiyoda Amir Temur va temuriylar davri: fan va texnika taraqqiyoti.....	138
6-Mavzu: XVI-XIX asrlarda Markaziy Osiyoda fanning ahvoli.....	159
II. Xulosa	195
III. Seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.....	200
IV. Mustaqil ish mashg‘ulotlari.....	201
Adabiyotlar.....	204
Glossariy.....	206

TABLE OF CONTENTS

Introduction.....	3
I. Main part	
Topic 1. Enter. Re-studying and promoting the heritage of our encyclopedic scholars in independent Uzbekistan.	6
Topic 2: Muslim Renaissance in the 9th-11th centuries. The contribution of the scholars of the East to the development of world scientific thinking.....	24
Topic 3: The contribution of Central Asian scholars to the scientific development of mankind	53
Topic 4. The role of Central Asian encyclopedic thinkers in world civilization.....	84
Topic 5: Amir Timur and Timurid period in Central Asia: development of science and technology.....	138
Topic 6: The state of science in Central Asia in the 16th-19th centuries.....	159
II. Conclusion	195
III. Instructions and recommendations for workshop sessions.....	200
IV. Independent work sessions.....	201
Books.....	204
Glossary.....	206

ОГЛАВЛЕНИЕ

Вступление.....	3
I. Основная часть	
Тема 1. Входить. Повторное изучение и популяризация наследия наших ученых-энциклопедистов в независимом Узбекистане.	6
Тема 2: Мусульманское Возрождение в IX-XI веках. Вклад ученых Востока в развитие мирового научного мышления.....	24
Тема 3: Вклад ученых Средней Азии в научное развитие человечества	53
Тема 4. Роль центральноазиатских мыслителей-энциклопедистов в мировой цивилизации.....	84
Тема 5: Амир Темур и эпоха Тимуридов в Центральной Азии: развитие науки и техники.....	138
Тема 6: Состояние науки в Средней Азии в XVI-XIX вв.	159
II. Заключение	195
III. Инструкции и рекомендации по проведению мастер-классов.....	200
IV. Сессии самостоятельной работы.....	201
Книги.....	204
Глоссарий.....	206

O. R. NAZAROV

MUSULMON RENESSANSI DAVRIDA O'RTA OSIYODA FAN VA MADANIYAT RIVOJI TARIXI (DARSLIK)

Muharrir: I. Tursunova

Badiiy muharrir: B. Haydarov

Kompyuter sahifalovchi: N. Fayziyeva

Korrektor: Sh. Hikmatova

Nashr. lits. AI № 276 15.06.2015.

Bosishga ruxsat etildi. 30.03.2023.

Bichimi 60x84 1/16 Offset qog'ozi.

Times New Roman garniturasi.

Shartli bosma tabog'i 13,75. Nashr hisob tabog'i 12,2.

Adadi 100 nusxada. Buyurtma № 15-04.

“LESSON PRESS” MChJ nashriyoti.
100071. Toshkent, Komolon ko’chasi 13.

«ZUXRA BARAKA BIZNES» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri Bunyodkor shoh ko’chasi 27 A-uy.